

G.O.OCHILOVA

KASBIY

KOMPETENTLIK



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

G.O.OCHILOVA

KASBIY KOMPETENTLIK

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 37.013(075)

KBK 74.03ya73

O 73

**O 73 G.O.Ochilova. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. – T.:
«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 228 b.**

ISBN 978-9943-7660-0-6

Mazkur o‘quv qo‘llanma bakalavriyat ta‘lim standartlariga mos ravishda “Kasb ta‘limi (iqtisodiyot)” yo‘nalishlari o‘quv rejasi va dasturi asosida tayyorlandi. O‘quv qo‘llanma kasbiy kompetentlik, zamonaviy pedagog modeli, kasbiy kompetentlikni metodologik asoslari, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagog mahoratining o‘rni va roli, ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashda kasbiy kompetentlikni ahamiyati, kreativ yondashuv asosida kasbiy mahoratni shakllantirish yo‘llari haqidagi ma‘lumotlar bilan tanishtiradi. Mazkur o‘quv qo‘llanma “Kasb ta‘limi (iqtisodiyot)” yo‘nalishi talabalari, pedagogika, kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat sohasida qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Учебник подготовлен в соответствии со стандартами бакалавриата на основе учебного плана и программы «Профессиональное образование (экономика)». В учебнике представлена информация о профессиональной компетентности, современной педагогической модели, методологических основах профессиональной компетентности, роли и месте педагогических умений в формировании профессиональной компетентности, значении профессиональной компетентности при использовании образовательных технологий, способах формирования профессиональных умений на основе творческий подход. Учебник предназначен для студентов специальности «Профессиональное образование (экономика)», интересующихся педагогикой, профессиональной компетентностью, педагогическими навыками.

The textbook has been prepared in accordance with the bachelor’s standards based on the curriculum and the program “Professional education (economics)”. The textbook provides information on professional competence, modern pedagogical model, methodological foundations of professional competence, the role and place of pedagogical skills in the formation of professional competence, the importance of professional competence when using educational technologies, ways of forming professional skills based on a creative approach. The textbook is intended for students of the specialty “Professional Education (Economics)” interested in pedagogy, professional competence, pedagogical skills.

UO‘K: 37.013(075)

KBK 74.03ya73

Taqrizchilar:

1. M.F.Xakimova–Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Innovatsion ta‘lim” kafedراسi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor;
2. Z.N.Ismoilova – Nizomiy nomidagi TDPU “Amaliy psixologiya” kafedراسi dotsenti ps.f.f.d.PhD.

ISBN 978-9943-7660-0-6

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

KIRISH

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiyalash - o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda ta'sirchan mexanizmlarni topish, ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon bo'lib, komil inson tarbiyasiga mos ravishda olib borilishi shart. Shu sababli respublikadagi har bir o'quv dargohi o'zi tayyorlayotgan kadrlar sifatini takomillashtirishga alohida ahamiyat bermoqda. Fan va ishlab chiqarishda nanotexnologiyalar yaratilayotgan bir paytda yangi avlod darsliklarining yaratilishi, ta'limda modul-kredit tizimining joriy etilishi, turli yo'nalishlardagi nazoratlar, faol o'qitish metodlaridan foydalanish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlarning amalga oshirilishi bo'lg'usi pedagog kadrlarning zamon talablariga mos holda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini taqozo etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi. Ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirilishi, uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalash-tirilgan yondashuvni joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini

takomillashtirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga asos bo'lmoqda. Bizning mamlakatimizda davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish zamonaviy o'qituvchiga yangi talablarni qo'yadi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak, degan savol birinchi darajaga chiqadi. Kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv masalasiga xorijiy mamlakatlarda bo'lgani kabi tavakkal yondashilmaydi.

Ta'lim sohasi uchun o'qituvchilarini pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratish, kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni mazmunini kompetentlik yondashuv asosida modernizatsiyalash, kasbiy kompetentligini shakllantirish xususiyatlari va ijodiy ravishda ta'lim texnologiyalarini loyihalash hamda kasbiy kompetentligini shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash kabi masalalarni o'rganishda "Kasbiy kompetentlik" fani alohida o'rin tutadi. Jamiyatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida ta'lim muassasalariga malakali kadrlarni tayyorlash, ularning kompetentligini oshirishni zarurat darajasiga ko'tardi. Bu esa hozirgi vaqtda davr talabiga javob beradigan mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini chuqur o'rgangan holda, balki buyuk insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga ham katta e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi o'qituvchilar malakasini va kompetentligini oshirishda yuksak pedagogik mahorat va zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan, madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor isbotlamoqda. Pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha psixologik-pedagogik mahorat o'tkazish strategiyasi bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ma'naviy qiyofasi, intellektual salohiyatini oshirish, mavjud ma'naviy-ma'rifiy ishlarning bugungi holatidan kelib chiqqan holda ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda xizmat qiladi.

1 – BOB. KASBIY KOMPETENTLIK FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

REJA:

- 1. “Kasbiy kompetentlik” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Kasbiy kompetentlikning pedagog faoliyatidagi ahamiyati.**
- 2. Kasbiy kompetentlikning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o’rni va amaliy tadbiri. Kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili.**
- 3. O’qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari. Bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanishining tarkibiy tuzilmasi.**

Tayanch iboralar: pedagogik faoliyat, kompetensiya, kompetentlik nazariyalari, kompetensiya turlari, kasbiy kompetensiya, pedagogik kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya piramidasi.

1. “Kasbiy kompetentlik” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Kasbiy kompetentlikning pedagog faoliyatidagi ahamiyati

Zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda. **Kompetensiya** – xodimning kompaniya kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chiqarish xulqini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorlik qobiliyati. Kompetensiyalar tizimini yaratishda tashkilot xodimlarning faoliyatiga taalluqli muhim mezonlar majmuasini standart talablarga asosan tuzadi. Shuningdek, kompetensiya xodimlarning tashkilotda ham professional, ham ijtimoiy jihatdan tengligi xususida guvohlik beradi. Bugungi kunda Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o’rin egallashga intilish yo’lidagi keng ko’lamli islohotlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

“Kompetensiya” tushunchasi, kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv, kompetensiya egasi, bu atamalarning mazmuni haqida to‘xtalish uchun, eng avvalo, asrlar davomida shakllangan bu boradagi milliy an‘ana va qadriyatlarga e‘tibor qaratamiz.

“Kompetensiya” tushunchasini izohlar ekanmiz, bu atamaning mazmun-mohiyatiga e‘tibor qaratamiz.

Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma‘nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda **“kasbiy kompetenlik”** atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi.

Kompetensiya – huquqshunoslik atamasi. Aniq organ yoki shaxsning vakolatiga kiradigan huquq va burchlari bo‘lib, davlat va jamoat tizimida mazkur insonning o‘rnini belgilaydi. Huquqshunoslik mazmuniga ko‘ra, kompetensiya quyidagi unsurlarni o‘z ichiga oladi: targ‘ib etiluvchi predmetlar (hududlar, hodisalar, harakatlar, ma‘lum bir doirada yuritiladi), ma‘lum organ va shaxsning o‘z faoliyati uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan huquq va burchlari, vakolatlari yig‘indisidir.

Kompetensiya (ijtimoiy huquq). Bu aniq bir subyektning boshqaruv jarayonlari uchun qonun bilan belgilab qo‘yilgan vakolati bo‘lib, ma‘lum bir ijtimoiy vazifa ana shu vakolat zimmasiga yuklatilgan bo‘ladi.

Kompetensiya boshqaruv vakolati. Bu ma‘lum bir kasbiy vazifalarni hal etishda mutaxassis (xodim)ning shaxsiy vokolati sanaladi.

Madaniyatlararo kompetensiya. Boshqa madaniyat namoyandalari bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyati.

Tashkilotning asosiy kompetensiyasi. Tashkilotning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi omil bo‘lib, raqobat kurashida asosiy tayanch vositasi sanaladi.

Kompetensiya hududi. Shaxs yoki jamoaning bilim va mahorati yig‘indisidan iborat bo‘lib, ular o‘z vazifasini oliy va raqobatbardoshli doirasida amalga oshiradilar.

1983-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan

ruscha-o‘zbekcha lug‘atda “**КОМПЕТЕНТНОСТЬ**” – “chuqur bilimga egalik”, “chuqur bilimga asoslanganlik”, “xabardorlik”, “omilkorlik” deb o‘zbek tiliga tarjima qilingan. “**КОМПЕТЕНТНЫЙ**” – yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, kompetensiyaga ega bo‘lgan, vakolatli, masalani ko‘rib chiqishga haqli, ma’nolarida tarjima qilingan. “**Kompetensiya**” – biron-bir kishi xabardor bo‘lgan soha yoki masala, huquq yoki ixtiyor kabi tushunchalarda berilgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti tomonidan 1981-yilda chop etilgan ikki tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “kompetensiya” tushunchasi butunlay kiritilmagan. Umuman, mamlakatimizda har qanday sohaga, xususan, pedagogik faoliyatga kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv keyingi besh yil davomida qo‘llanila boshlandi.

O‘zbek tilining o‘ziga xos morfologik va semantik xususiyatlari nuqtayi nazaridan yondoshgan holda “**kompetensiya**” atama va tushunchalari lotinchadagi “competere” – “munosib”, “competo”– “munosibman” yoki “erishaman” so‘zlariga yaqin ma’noda ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga ko‘ra, “**kompetensiya**” so‘zini barcha ma’noviy hollarda qo‘llash ko‘plab chalkashliklarni oldini oladi degan fikrni aytmoqchimiz. Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv, mazkur jamoa yoki shaxs ana shunday kompetensiya egasi, nihoyat, pedagogik kasbiy kompetensiya egasi deb qo‘llash maqsadga muvofiq. Shunday qilib, har qanday holatda ham, kompetensiya ma’lum bir shaxs yoki jamoaning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. Uni ham qonuniy, ham axloqiy munosabatlari bilan mustahkamlaydi.

“Kasbiy kompetentlik” fanining maqsadi - bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari kompetensiyasi, ularning amaliyotdagi intilishi va qobiliyati hamda o‘z imkoniyatlarini muvaffaqiyatli, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, kasbiy va ijtimoiy sohada qo‘llashga hamda bu faoliyatni ijtimoiy ahamiyatini, uning natijalariga nisbatan shaxsiy mas’uliyatni his etishi, doimo uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlashi kabi fazilatlarni ro‘yobga chiqarishdan iborat.

“Kasbiy kompetentlik” fanining vazifalari:

➤ kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik

shart-sharoitlarini tahlil qilish va aniqlashtirish;

➤ talabalarda kasbiy kompetentlikni namoyon qilish kabi ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

➤ talabalarda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda ta'lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirishga doir proyektiv, prognostik va kreativ kompetentlikni rivojlantirishdan iborat.

XX asrning 90-yillarida mutaxassislariga malaka talablarini qo'yuvchi Xalqaro mehnat tashkiloti malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda "**tayanch kompetensiya**"lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalar turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta'minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o'ziga xos xarakter kasb etadi.

Kompetentlik nazariyasi va uning bosqichlari

"Ijtimoiy psixologiya" va "ijtimoiy pedagogika" fanlariga daxldor so'nggi yillarda nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, "**kompetentlik nazariyasi**", asosan, **to'rt bosqichli** jarayonni, ya'ni anglanmagan kompetentsizlikdan anglanmagan kompetentlikka o'tish jarayonini o'z ichiga qamrab oladi. Biz buni batafsilroq tarzda psixologik nuqtayi nazardan bayon etadigan bo'lsak quyidagicha tahlilning guvohi bo'lamiz:

Anglanmagan kompetentsizlik bosqichi: Sohaning yetakchi mutaxassislari (S.Torp, J.Klifford, 2004)ni fikricha, anglanmagan kompetentsizlikda, shaxs hech narsani bilmaydi (yoki hech narsa qila olmaydi). Misol qilib aytganda, shaxs "**Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman**" darajasida turadi. Balki, bu shaxs amaliyotda bunga ehtiyoj sezmayotgandir yoki bu bilim va malakaga ehtiyoji yo'qdir. Shuning uchun bunday sharoitlarda u shaxsiy kompetentligiga bo'lgan zaruriyatni his qilmaydi. Shu o'rinda yana bir misol: ilk go'daklik chog'larida bola yengil mashinada bir yerdan boshqa yerga borishni sayohat omili deb biladi, ammo bu holatda u o'zining mashina boshqara olmasligini bilmaydi va shu tarzda o'zining shaxsiy kompetentligini anglay olmaydi.

Anglanilgan kompetentsizlik bosqichi: Anglanilgan

kompetentsizlikda shaxs “bilmasligi” haqidagi bilimni kashf qiladi. Odatda bu jarayon biror-bir harakatni bajarish istagi yoki ehtiyoji tugʻilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu bosqich **“Men bilmasligim haqida bilaman”** deb nomlanadi. Masalan: mashina boshqarishni bilmaydigan oʻsmir, biron-bir kishidan oʻzini biror yoqqa olib borishini iltimos qilishiga toʻgʻri keladi va bunda oʻzining mashina boshqara olmaslik kompetenti haqida fikr-mulohaza yuritgan holda “oʻz ustida” qaygʻuradi.

Anglangan kompetentlik bosqichi: Kompetentlikni anglanishi uchun shaxs biron-bir (rasmiy yoki norasmiy) oʻqishda tahsil olishi lozim. Bu bosqichda u, asosan, oʻqituvchining xatti-harakatlarini oʻzlashtiradi (agar uning xotirasi bunga imkon bersa). Har lahzada shaxs qilayotgan ishini anglaydi yoki **“nima bilishi haqida biladi”**. Masalan, kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan va haydovchilik guvohnomasi olgan 18 yoshli yigit (haydovchi) yoʻlga chiqishdan oldin mashinani toʻgʻri boshqarish haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi va oʻziga-oʻzi quyidagilarni pichirlaydi yoki xayolidan oʻtkazadi: “Hozir yon tomonni yoki orqani koʻrsatuvchi oynalarga qarayman, oldimdan chiqqan jonli toʻsiqqa signal beraman, borishim zarur boʻlgan obyektни joylashishiga koʻra yoki harakat trayektoriyasi boʻyicha oʻngga-chapga burilaman va hokazo”.

Anglanmagan kompetentlik bosqichi: Anglanmagan kompetentlikda shaxs oʻzidagi mavjud bilim va koʻnikmalarni shu darajada koʻp qoʻllaydi-ki, natijada bu odatiy holga aylanib qoladi. Endi bu shaxs har bir xatti-harakati davomida keyingi qadamni oʻylamasdan bosadigan boʻladi yoki harakatlar algoritmi anglanmagan tarzda amalga oshiriladi (yoki boʻlmasa bu harakat ong ostida bajariladi). Oqibatda shu shaxs: **“Men biladigan narsam haqida hech narsa bilmayman”**, – degan yakuniy xulosaga kelishi mumkin. Tasavvur qiling, siz farzandingizga mashina boshqarishni oʻrgatayapsiz. Mashinani boshqarish davomida siz maʼlum darajadagi harakatlaringiz mohiyatini tahlil qilmaysiz, sababi, bular sizning “qoningiz va jisimingizga” singib ketgan boʻladi.

Demak, yuqoridagi toʻrt bosqichli nazariyada ilgari surilgan gʻoyaga asoslanadigan boʻlsak, **kompetentlik** – taʼlim-tarbiya jarayonining uzluksizligini taʼminlash uchun, yaʼni muayyan kishilar

(guruhlar) malakasini oshirish va ish(o'qish)-faoliyatini yaxshilashda xuddi indikator sifatida xizmat qiladi.

N.A. Muslimov (2014) kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning samarali zamonaviy o'quv-metodik majmuasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalasi yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlarni olib borar ekan, o'z navbatida, kompetentlikni yettita turga bo'lib o'rganadi. Olimning fikricha:

1. global kompetentlik;
2. ijtimoiy-madaniy kompetentlik;
3. ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik;
4. axborot olishga kompetentlik;
5. kommunikativ kompetentlik;
6. o'quv-bilishga oid kompetentlik;
7. amaliy faoliyatga oid kompetentlik mavjud bo'lib, bu o'z

navbatida, ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Masalan, olim, o'qituvchining ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunishi qobiliyatini, mustaqil hayot yo'lini topa olishini, o'zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o'rnini anglab yetishini, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilashi hamda qaror qabul qilish malakasini mavjudligini hamda dunyoqarashining kengligini *global kompetentlik*, deb ta'rif beradi.

Fikrimizcha, shu jihatdan olib qaraganda ham, *kompetentlik* – inson faoliyatini uning eng yaxshi bajargan amallariga nisbatan baholashda yordam beradigan standart, deb aytish mumkin. Bunday baholanish, o'z navbatida, tashkilot faoliyatini yaxlit holda ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi. Oxir oqibat, muvaffaqiyat egalari – bu tashkilot, jamiyat va muayyan shaxslar hisoblanishadi.

Kompetensiyalarning aniqlanishi

Kompetensiyalar – (1) tashkilot miqyosida qabul qilingan standart xulq-atvor; (2) menejerning tashkilot miqyosida qabul qilingan standartlarga muvofiq ish ko‘ra olish qobiliyati.

Kompetentlik (bilimdonlik) – (1) u yoki bu savolning javobidan xabardorlik; (2) ishda kerakli natijalarni qo‘lga kiritish yuzasidan zarur qarorlarni qabul qila olish qobiliyati.

Kompetensiya shaxsning yurish-turishini baholashga oid bilimlar majmuyi bo‘lib, u orqali biz tashkilotni samarali rivojlanishi yo‘lida xodimning o‘z faoliyatini amalga oshirishida qanday darajadagi muvaffaqiyatlarga erishayotganligini aniqlashimiz mumkin. Kompetensiyalarning mavjudligi odatda, shaxs xulq-atvorini o‘lchovchi (indikatorlar yordamida) muayyan holatlar orqali qayd qilinadi (yaxshi shakllangan xulqiy malakalar).

Ko‘pincha kundalik muloqotda biz “kompetensiya” yoki “bilimdonlik” tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, “professional kompetensiya” tushunchasi ko‘proq diqqatni tortadi. Lekin, ba‘zan insonlar bilan ishlash borasida “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi ham ishlatiladi. Bu aslida o‘zgarlar bilan til topisha bilish, o‘z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog‘lanadi.

Umuman olganda, kompetensiya **muayyan shaxs** doirasida o‘rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo‘lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo‘lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, **tashkilot** miqyosida esa hamkasblarni o‘qitishga bo‘lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to‘lmay qolgan “bo‘shliq”larni to‘ldirishda foydalaniladi.

Mehnat bozorining o‘zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta’sirida maktab bitiruvchisiga qo‘yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy maktab o‘z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta’lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur.

Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo‘lishini shiddat bilan rivojlanib, o‘zgarib

borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. Shu bois maktab ta'lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o'zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi.

Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog-o'qituvchining tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi o'ta muhim jarayondir.

“**Kompetensiya**” tushunchasi lotincha **competere** degan so'zdan olingan bo'lib, **mos kelmoq** ma'nosini beradi.

Kompetensiya – olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish layoqati.

Kompetentlik (lotincha “competens” – “layoqatli”, “qobiliyatli”) deganda shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqeyi va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi ta'riflanadi.

Kompetentlik – *aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi.* Kompetentlik tarkibiga mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari ham kiradi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Kasbiy kompetensiya – kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim va ko'nikmaga tayanib muvaffaqiyatli hal eta olishga qaratilgan faoliyat.

Boshqacha qilib aytganda, **kompetensiya** – zarur (ko'zlangan) natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

Tushuncha va tasavvurlar shaklidagi insonning bilish faoliyatining tuzilmasidan farqli o'laroq, kompetensiya faoliyat jarayonida namoyan bo'ladi va aniqlanadi.

Amalda **kompetentlik** – bilim mahsuli bo‘lib, amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati.

Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo‘lmaydi va uni baholay olish mumkin emas.

Kompetentlikning asosiy mezon (kriteriya) turli holatlarda, shu bilan birga asabiy vaziyatlarda ham, o‘zini tuta bilishning namoyon bo‘lishidir. Uning tasodifiy muvaffaqiyatli qo‘llanilishi hisobga kirmaydi.

Yana bir bor ta’kidlash joizki, “kompetentlik” va “kompetensiya” o‘zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, vaziyatga bog‘liq emas.

Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklar asosida trener-o‘qituvchilarga belgilanayotgan **zamonaviy talablar**:

➤ ta’lim va yoshlar to‘g‘risidagi Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yotadigan hamda targ‘ibot qiladigan;

➤ o‘z sport turini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning subyektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan;


➤ o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta’limiy muhitni shakllantirish yo‘nalishlarida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda o‘qituvchilarning faoliyati samaradorligi, asosan, ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo‘lgan shaxsiy sifatleri, shuningdek, qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, pedagog-o‘qituvchi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish zaruriyati bejiz belgilanmagan. Yuqorida keltirilgan

ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasasi pedagog-o'qituvchilari pedagogik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila olish, shuningdek, oliy ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bular pedagog-o'qituvchining kasbiy kompetentligini ifodalaydi. Kompetensiyani 4 turga bo'lishi mumkin: kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus (1-rasm).

Shaxsiy kompetensiya:

➤ insonparvarlik; bolalarni sevishi va mehribonlik; adolatli bo'lish; talabchanlik; bag'rikenglik; mas'uliyatlilik va hokazo.



1-rasm. Kompetensiya turlari

Kasbiy kompetensiya:

- ta'lim berish va o'rganish uchun sharoit yaratish;
- tegishli sport turi uslubiyotini takomillashtirish;
- axborot texnologiyalarini qo'llay olish;
- ta'lim jarayonini boshqarish;
- o'quvchilar bilimi va yutuqlarini obyektiv baholash;

➤ o‘quvchilarda motivatsiya uyg‘otish va ularni qo‘llab-quvvatlash;
➤ o‘quvchini shaxs sifatida hurmat qilish va uning yutuqlarini tan olish;

- pedagogika va psixologiyani bilish;
- o‘z bilimini doimiy takomillashtirish va hokazo.

Umummadaniy kompetensiya:

- kasbiy etika va estetikaga rioya qilish;
- madaniyatli bo‘lish;
- umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish va hokazo.

Maxsus kompetensiya:

Pedagog-o‘qituvchi, quyidagi umumiy qobiliyatlarni o‘z ichiga qamrob olgan umumiy **malaka kompetensiyalarga** ega bo‘lishlari kerak, jumladan:

➤ kelajakdagi kasbining mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga qiziqish ko‘rsatish;

➤ o‘z faoliyatini tashkil etish, kasbiy vazifalarni yechish usullarini aniqlash, ularning samaradorligini va sifatini baholash;

➤ noan’anaviy holatlarda tavakkalchilik (xavf-xatar)ni baholash va qarorlar qabul qilish;

➤ kasbiy va shaxsiy rivojlanish hamda kasbga oid vazifalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan axborotni izlash, tahlil qilish va baholashni amalga oshirish;

➤ kasbga oid faoliyatni takomillashtirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

➤ hamkasblar va ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlik qilish, kollektivda va jamoada ishlash;

➤ o‘quvchilar faoliyatini qo‘llab, shaxsiy va kasbiy malakasini rivojlantirish vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, mustaqil ta’lim olish bilan shug‘ullanish, ongli ravishda malaka oshirishishni rejalashtirish.

AUTOPSIXOLOGIK KOMPETENTSIYA



2-rasm. Autopsixologik kompetensiya mezonlari

Pedagogning kompetentligi pedagogik qobiliyatning shakllanganiga bog'liq bo'ladi va qobiliyat, malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik asos bo'lishi ham zarur.

Demak, kompetentlik o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni ta'lim muassasalari pedagogik faoliyati jarayonini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

O'qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila olish, Shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bular pedagoglarning kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

Pedagog-o'qituvchilar kasbiy kompetentlikka quyidagi **bosqichlarda** erishishi mumkin:

- pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;
- maxsus fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish;
- o'z kasbiga qiziqish, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish;
- o'z ustida mustaqil ishlash, shaxsiy malakasini muntazam oshirib borish;
- o'z-o'ziga talabchanlik, mas'uliyatni teran his etish;
- pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilar jamoasini faolligini oshirish, jamoani birlashtirish, yosh sportchilar orasida shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'ya olish;
- murakkab va muammoli vaziyatlarda talabalarni ruhlantirib borishi;
- Pedagog-o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi qaytar aloqani to'g'ri ta'minlay olish;
- ta'limning sermahsul, interfaol va innovatsion metod va usullarini bilishi, mashg'ulot jarayonida qo'llay olishi.

Pedagog-o'qituvchi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvoffaqiyatli tashkil etishi mumkin, degan xulosaga keldik. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, ma'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Shu yerda sharq mutafakkiri **Abu Nasr Farobiy**ning: "Agar inson xayrixohlik, go'zallik, oliyjanoblik va ulug'vorlikka boshqa odamlar orqali emas, balki o'zi va o'z ruhi o'rtasidagi mavjud narsa orqali erishgan bo'lsa, ul (odam) haqiqatdan ham xayrixohli va barkamollikka erishadi. Buni uning o'zidan boshqa hech kim sezmagani taqdirda ham uning ruhi ulug'vor va oliyjanob bo'ladi va o'sha odam bu fazilatlarga erishganidan bag'oyat xursand bo'ladi", degan gaplari juda o'rinlidir.

Demak, kompetentli pedagog-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya

jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yoʻnalishida zaruriy tushunchalarga ega boʻlgan, yosh davrlar psixologiyasini yaxshi biladigan, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega boʻlgan, taʼlim jarayoniga ilgʻor pedagogik texnologiyalarni tadbiq eta oladigan, tegishli maʼlumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy kasbiy tajribaga ega boʻlgan pedagogik shaxsni ifodalaydi.

2. Kasbiy kompetentlikning taʼlim va tarbiya jarayonidagi oʻrni va amaliy tatbigʻi. Kasb taʼlimi oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar tahlili.

Globalashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - taʼlim tizimining holati shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligiga bogʻlik. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy oʻsishini taʼminlovchi omillar ham aynan taʼlim sohasi rivojlanishi va pedagog kadrlarni tayyorlashga bogʻliqdir.

Oʻqituvchilik - Insoniyat jamiyati tarixi boshlangandan eʼtiboran davom etib, Shu bilan birga, hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan eʼtiborga loyiq, eʼzozlab kelingan kasb. Shu jihatdan olganda, davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy oʻsishini taʼminlovchi omillar ham aynan taʼlim sohasi rivojlanishiga bevosita bogʻliqdir.

Bugungi globalashuv davrida zamonaviy oʻqituvchilar kompetentligi quyidagilarda oʻz aksini topadi:

- insonparvarlik;
- kommunikativlik;
- kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, oʻz ishiga ijodiy yondashish;
- pedagogik texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish;
- nutq texnikasi, oʻz tovush, mimika va gavdasini boshqarish, jamoa va shaxsga taʼsir koʻrsatish qobiliyatlarini takomillashtirish;
- zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik,

axborot va yuqori darajadagi texnologiyalardan xabardor bo'lish hamda ulardan zarurlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar.

Pedagogik mahorat va kompetentlik - pedagog shaxsining tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarining nazariy darajasidir. Bunday sifatlar yoshlarni tanlagan kasbiga hurmat uyg'otish jarayonidagi kasbiy g'ururni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shu jihatdan barkamol avlod tarbiyasida o'qituvchi-tarbiyachining mahorat egasi bo'lishi muhimdir.

Pedagogik mahorat va kompetentlik kasbga nisbatan tavsifnoma berish, ta'lim jarayonidagi o'zlashtirish saviyasini egallash, tarbiya jarayonida muayyan vazifani bajarishdagi kasbiy xislatlarni ta'riflashda qo'llaniladi.

Pedagogik mahorat va kompetentlik o'qituvchidan izlanish, mahorat, pedagogik texnologiyalarni qo'llay bilish, o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishni talab qiladi.

Demak, o'qituvchining ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, zo'r san'atkor va fidoyi bo'lishi hamda yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biri ekan, o'qituvchilar pedagogik mahorat va kompetentlikni egallashlari lozim.

Demak, pedagogik mahorat va pedagogik kompetentlik barcha pedagoglar uchun qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati evaziga yuzaga keladigan jarayondir. Shu jihatdan olganda, pedagog mutaxassislarining kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarining faol shakllanishi, pedagogik texnologiyalarning tamoyillari bilan bog'liklikda keyingi amaliy faoliyatda ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan bir butun tarzda tashkil etish va amalga oshirish;

- ta'limga texnologik yondashuv asosida mashg'ulotlarning o'quv maqsadini qo'ya olish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish;

- amaliy mashg'ulotlarni modellashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini bashorat qila olish, xatolarni tuzata olish strategiyasini ishlab chiqish;

- ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama taraqqiy etishi, ta'lim

jarayonining “jonli”, ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi ta’limning zamonaviy integrativ, bilish faoliyatini boshqarish metodlarini egallash;

➤ ta’lim standartlarining yangi talablari va o’zining ehtiyojlari bilan bog’liqlikda o’qitish va ta’lim sifatini tashxis etishining turli usul va vositalaridan samarali foydalanish, bundan tashqari yangi metodik yo’llarni mustaqil yaratish va nazorat qilish ko’nikmalarini egallash;

➤ pedagogika va psixologiyaga oid yangi adabiyotlarni muntazam mutolaa qilib borish;

➤ ilg’or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan amaliyotda foydalanib, ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantiruvchi ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarni olib borish.

Bunda o’qituvchining faoliyati quyidagilarda o’z ifodasini topadi:

➤ o’z-o’zini rivojlantirish;

➤ o’quv faoliyatini ilg’or texnologiyalar asosida tashkil etish;

➤ o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida o’zaro hamkorlikning qaror topishiga zamin yaratish;

➤ o’quv faoliyatining o’quvchilar ichki motiviga asoslangan izlanuvchanlik yo’nalishining kasb etishini ta’minlash va boshqalar.

Pedagogik faoliyat o’quvchilarga uch xil pedagogik ta’sir ko’rsatishni nazarda tutadi: ***nimani o’qitish, kimni o’qitish va qanday o’qitish?*** Demak, mohir o’qituvchi o’quv predmetidan material tanlash va uni guruhlarga ajratish uquvini oshirishi, o’quvchilarning mavjud imkoniyatlari, ta’limning umumiy maqsadlarini amalga oshirib, o’quvchilarga ta’sir ko’rsatishning shakl, usul va metodlarini oqilona tanlashi va qo’llashi lozim.

Tabiiyki, mohir o’qituvchi o’zining shaxsiy faoliyatini o’zi tahlil qilib boradi. Faoliyati davomida o’quvchilar va o’zining shaxsiy mehnati hamda sarflangan vaqtini hisobga olish, ishdagi kamchiliklar mavjud joylarni ko’ra bilish va ularni bartaraf etish yo’llarini tanlash, o’z tajribasini va hamkasblarining ishlarini tahlil qilish o’ta muhim. Agar pedagogik faoliyatning barcha sanab o’tilgan tarkibiy qismlari mavjud bo’lsa, u holda uni psixologik jihatdan to’la va yetuk, deb hisoblash mumkin.

Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish uchun faoliyat davomida pedagogik vazifa va maqsadlarni qo'yish, uni o'zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikatsiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuitsiya, tahlil etish, baholash, o'zini-o'zi tuzatish, pedagogik refleksiya va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi.

Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish bevosita uning faoliyatida ro'y beradigan o'zgarishlar, motivlar, maqsadlar, yangi vositalarni qo'llash, usullar hamda faoliyat dasturi bilan bog'lik holda kechadi. Turli pedagogik o'zgarishlar asosida o'qituvchi faoliyati shakllanadi. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ichki dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga kam kuch sarflab, ko'prok natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat va kompetentlik o'qituvchidan odatdan tashqari kuch-g'ayrat, qat'iyat, tirishqoqlik, tadqiqotlarni olib borishga intilish, yangi vaziyat, yangi jamoaga moslashuvchanlik, samimiyat, to'g'rilik va halollik, o'tkir aql-idrok, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko'rish malakasini talab qiladi.

Kelajagi buyuk bo'lgan mustaqil, demokratik, huquqiy davlatni barpo etish ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan pok qilib tarbiyalangan yoshlar qo'lida bo'ladi. Shunday ekan, yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma'naviy sohada quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozimligi ta'kidlanadi:

- insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik;
- milliy-istiqlol g'oyasiga sodiqlik;
- ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash;
- qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklar, adabiyot va san'atni bilish hamda ko'paytirish;
- hurfiylik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish;

- ijtimoiy adolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish;
- xalqimizning milliy, tarixiy va madaniy an‘analari, ma‘naviy tajribasini ta‘lim va tarbiya tizimiga uzviy ravishda kiritish;
- ijodning barcha turlarini rivojlantirish.

Ta‘lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning mazmuni erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilganligidir. Bu jarayonda “o‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatini o‘zgartirish talab etiladi. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi lozim.

Demak, o‘qituvchiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab, yangi pedagogik texnologiyalarni chuqur tushunib yetish va bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi.

Demak, hozirgi kunda ta‘lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini tashkil etish, ularni Vatanga sadoqatli, yovuz g‘oyalardan xoli, bilimli, odobli, e‘tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrli, ongli, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Shunday qilib, davlatimiz tomonidan ta‘lim sohasiga qo‘yilayotgan vazifalarni bajarishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik va psixologik qonuniyatlarga tayangan holda turli shakl va metodlar orqali, maxsus didaktik tamoyillarni qo‘llash asosida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni va jamiyat talabidan kelib chiqib, bugungi kunda o‘quvchi faoliyati o‘quv jarayonida bilimlarni o‘rganish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish asosida tashkil qilinsa, o‘qituvchi faoliyati pedagogik vazifalarni qo‘yish, maqsadga erishish, faoliyat predmeti, vositalarini aniqlash, ularni bajarish usullarini oqilona tanlash, o‘quvchi faoliyatini boshqarish, ilg‘or o‘zaro hamkorlikka asoslangan ta‘lim-tarbiyani tashkil qilish natijasida amalga oshadi.

3. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanishining tarkibiy tuzilmasi.

Dunyoda pedagogning professional kompetentligi va uning ilmiy-

metodik ta'minotini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator, jumladan:

- pedagogda professional kompetentlikni shakllantirish asosida mutaxassislarning individual imkoniyatlarini takomillashtirish;
- pedagoglarda kasbiy, kommunikativ, intellektual kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha psixologik ilmiy izlanishlar;
- kasbiy kamolotni tatbiq etishda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim;
- kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kasbiy mahorat, professionalizm, xususan, pedagog-o'qituvchilar professional xususiyatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar hozirgi kungacha bir qator mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlarning predmetiga aylangan.

O'zbekistonda pedagog faoliyati xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar juda ko'p. Pedagog professional faoliyatining psixologik muammolari mamlakatimiz olimlari M. Davletshin, E. G'oziyev, V. Tokaryeva, R. Gaynutdinov, A. Jabborov, Z. Nishonova, D. Muxamedova, Y. Asadov, A. Rasulov, S. Sirliyev, SH. Abdullayeva va boshqalar tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, *A. Jabborov* o'qituvchining psixologik va etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etgan bo'lsa, *R. Gaynutdinov* uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek milliy maktabi o'qituvchisi shaxsi shakllanishi xususiyatlarini yoritib bergan. *Y. Asadov* o'qituvchining individual-psixologik xususiyatlari uning professionalizmini oshirish omili ekanligini o'z tadqiqotlarida isbotlagan.

Professional kompetentlik mohiyati E. Zeer, V. Karimova, E. G'oziyev, R. Uayt, V. Naperov, L. Panina, A. Karpov, E. Safonova, A. Smirnov, V. Spiridonova, I. SHtobbe, T. Bazarov va hammualliflari tomonidan talqin etilgan.

Zamonaviy psixologiyada pedagog shaxsi shakllanishi B. Ananyev, A. Kovalyev, A. Rean, YA. Kolominskiy, V. Slastenin, S. Arxangelskiy va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

I. Zimnyaya, N. Kuzmina, L. Mitina, L. Petrovskaya, A. Markova pedagog professional kompetentligining maxsus, ijtimoiy, shaxslilik,

individual turlarini ajratgan holda, pedagog faoliyati samaradorligida uning kompetentligini shakllantirish ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Pedagog professional kompetentligining shakllanish shart-sharoitlari O. Abdulina, Y. Babanskiy, V. Kan-Kalik, K. Levitan tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Pedagog kasbiy muhim sifatlarining psixologik tahlili Y. Kulyutkin, F. Golobolin, V. Slastenin va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Pedagog professional kompetentligi muammosi bilan shug'ullangan *Sh. Abdullayeva* (2019) tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi ilmiy yangiliklarni qo'lga kiritgan:

➤ pedagogning professional kompetentligini belgilovchi predmetli-faoliyatlilik komponenti (faoliyatni erkin tanlashga intilish, insonlar bilan ishlashga yo'nalganlik, o'zga kishilar uchun o'zini safarbar etish, natijalar uchun to'siqlarni bartaraf etish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, muvaffaqiyatga intilish, tavakkal qilishga tayyorlik, yangilik yaratishga intilish), shaxslilik komponenti (sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga javob berish, o'zga kishilarni qo'llab-quvvatlash va ko'maklashishga qobiliyatlilik, emotsional holatlarini nazorat qilishga o'quvlilik), ijtimoiy-kommunikativlik komponenti (muloqotdagi qayishqoqlik, tolerantlik, muomalada o'zini nazorat qilish malakasini rivojlanganligi) aniqlangan;

➤ pedagogda professional kompetentlikning shakllanishi unda noaniqlikka tolerantlikni, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini, o'zini omadli shaxs ekanligi haqidagi tasavvurini rivojlanishiga hamda rigidlikni, xavotirlanish va innovatsion faoliyatga nisbatan qarshiliklarni pasayishiga olib kelishi asoslangan;

➤ pedagog professional kompetentligining professional-faoliyatli ong, "Men-pedagog" konsepsiyasining professional jihatdan aniqligi, faoliyatni amalga oshirishga axborot va vositalar bilan tayyorlik kabi tarkibiy tuzilmalari aniqlangan;

➤ sintezlovchi refleksiyaga qobiliyatlilik, faoliyatni loyihalash va amalga oshirishga qobiliyatlilik, ijobiy "Men konsepsiyasi" pedagogda professional kompetentlikni tarkib toptirishning psixologik shart-sharoitlari ekanligi isbotlangan;

➤ pedagog professional kompetentligining maxsus (o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq bilim, ko'nikma, malakalar), ijtimoiy

(muomalaga kirisha olish, o‘zaro ta’sir malakasi) va shaxslilik (individual va kasbiy-muhim sifatlar, emotsional barqarorlik, qiyin vaziyatlardan chiqib keta olish malakasi) komponentlari shakllanishi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik aniqlangan.

Shaxsning savodxonlik darajasi katta hajmdagi akademik bilimlarni egallash bilan emas, kompetentli yondashuvga ko‘ra o‘z bilimlaridan amalda samarali foydalana olish qobiliyatiga qarab baholanadi. Negaki, fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni davrda axborot (bilimlar) Shu darajada ko‘pki ularning hammasini o‘zlashtirishga inson qodir emas.

Pedagogik maqsad ning o‘ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni o‘qituvchi faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta’minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o‘tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi.

2. Pedagog - o‘qituvchilar faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog - o‘qituvchilar o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta’kidlaganidek: “Ishonch bilan gapir, ana shunda so‘z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o‘z-o‘zidan kelaveradi”.

3. Pedagogik (ta’lim-tarbiya) jarayonda o‘quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki o‘qituvchining maqsadi doimo o‘quvchi kelajagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. Buni anglagan holda, mohir o‘qituvchilar o‘z faoliyatini mantiqini o‘quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o‘zining alohida xususiyatlari, ro‘y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o‘zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta’kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o‘z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo‘lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog-o‘qituvchi doimo o‘sib-o‘zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa o‘qituvchidan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O‘quvchilarga o‘qituvchidan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, umumta’lim maktablaridagi fan o‘qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta’sir etadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi mehnati bir vaqtning o‘zida jamiki ta’sirlarga va o‘quvchilarning o‘zida paydo bo‘lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O‘quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta’sir ko‘rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun o‘qituvchi o‘zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

Ayrim o‘qituvchilar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta’lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini sport faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda trener-o‘qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta’sir etadi. O‘qituvchilar faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o‘quvchilar bilan muomalasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Odatda bularning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali o‘qituvchi, uning xatti-harakati o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o‘qituvchi shaxsi sifatlarini majmuyi sifatida qaralib, uni o‘qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishini unutmazlik lozim.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy aytganidek: “Muallimning maqsadi mansab uchun kurash bo‘lmasligi, bilmagan ilmlarini

aytmasligi, o'zini ko'rsatish uchun dars bermasligi, ochko'zlik va johillik qilib, quruq gap sotmasliklari, g'avg'o ko'tarmasliklari lozim". U muallimlikni olijanob va faxrli kasb deb hisoblaydi.

Demak, kompetentlik ta'lim muassasasi o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni ta'lim muassasasi o'qituvchilari pedagogik faoliyati jarayonini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Shunday ekan, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda kompetentlik pedagogning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlanadi.

Demak, kompetentli o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yo'nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo'lgan, yosh davrlar psixologiyasini yaxshi biladigan, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq eta oladigan, tegishli ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy kasbiy tajribaga ega bo'lgan pedagogik shaxsni ifodalaydi.

Pedagog - o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar va keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini bir necha komponent (yo'nalishlar)lardan iborat tizim sifatida, ya'ni o'qituvchilarga shakllanishi zarur bo'lgan tushunchalar bilim, ko'nikma va malakalar, qobiliyat va mahorat, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda umuminsoniy xislatlar orqali ifodalash mumkin.

Pedagog - o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalar darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyat va ko'nikmasi, uning o'z-o'zini rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, unda o'qituvchilar faolligini

ta'minlash va faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashtirish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligi va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni subyektiv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish faoliyatni ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kompetentli o'qituvchi deyishimiz mumkin.

Pedagog - o'qituvchilarning kompetentligini kichik uch tizim, ya'ni bilish zarur bo'lgan tushunchalar, o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ko'nikmalar va ularda shakllantirilishi zarur bo'lgan kasbiy amaliyotga ega shaxsiy sifatlar orqali ifodalash mumkin:

➤ ta'lim oluvchilar faoliyati samaradorligini tahlil qilish va obyektiv baholashga xizmat qiluvchi reflektiv ko'nikmalar;

➤ ta'lim oluvchilarning xatti-harakatlarining natijalarini hamda o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini oldindan his etish ko'nikmalari;

➤ ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalari;

➤ pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatni muvofiqlashtirish ko'nikmasi;

➤ pedagogik jarayonlarda samaradorlikka va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash ko'nikmasi;

➤ o'quvchilarda ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish va vaziyatlarga ko'ra trener-o'qituvchilik uslublaridan oqilona

foydalanish ko‘nikmasi;

➤ o‘quvchilar bilan o‘zaro til topishish, ya’ni muloqotga oson kirishish ko‘nikmasi;

➤ pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning faolligini ta’minlash, ularni hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga undash ko‘nikmasi;

➤ axborotlar to‘plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish ko‘nikmasi;

➤ ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

➤ axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;

➤ tegishli yo‘nalishi va mutaxassisligi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

➤ yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

➤ sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tasavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

➤ ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishni bilish;

➤ xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

➤ ta’limning barcha turlari mazmunini, ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligini, uzluksiz ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta’minlash;

➤ shaxslararo va tabiat bilan bo‘lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo‘lish; o‘zligini anglash, o‘zini va boshqalarni hurmat qilish, o‘zini o‘zi boshqara olish va o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish; shaxsiy manfaatlarini umummilliy manfaatlar bilan uyg‘un holda ko‘ra olish;

➤ xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etish; mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida faollik ko‘rsatish;

➤ milliy an'ana, urf-odatlar va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlod qalbi va ongiga, ona-yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishga intilish;

➤ ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga tushuntirishda prinsipiiallik;

➤ tizimli fikrlash keng dunyoqarash va reflektiv tafakkurga ega bo'lish;

➤ tadqiqotchilik va tahliliy faoliyatga, ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik mahoratni oshirish, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishga, innovatsion jarayonlarga va yangiliklarga moyillik;

➤ oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zgalar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.

Pedagogning pedagogik kompetentligi yo'nalishida qo'yilayotgan eng asosiy talablaridan biri ona-yurtga muhabbat va sadoqat, Vatan va vatanparvarlik tuyg'ularini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish, o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyati, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va rasm-rusumlar, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq funksiyalarni bajarish yo'nalishidagi tashkilotchilik, tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari hamda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarning shakllanganlik zaruriyatlarini o'z ichiga oladi.

Xulosa o'rnida: Tinglovchilarga quyidagi rasm berilib, "O'z ish faoliyatingizni, kompetentlik darajangizni o'zingiz baholang" degan vazifa beriladi. Har bir tinglovchi o'z fikrini aytadi.

Pedagog professional kompetentligining maxsus, ijtimoiy va shaxslilik-tipologik komponentlari o'rtasida korrelyatsion aloqadorlik mavjud bo'lib, mazkur komponentlarning mutanosibliigi **professional kompetentlilik shakllanishida** muhim rol o'ynaydi.

Pedagog professional kompetentligining tarkibiy komponentlariga uning *motivatsiyasi, individual-tipologik xususiyatlari, emotsional barqarorligi, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari, yangiliklarni qabul qila olish va moslashish imkoniyatlari, kutilmagan*

vaziyatlarda o'zini boshqara olishi va vaziyatdan chiqa olish qobiliyati kiradi.

Bo'lajak va faoliyat yuritayotgan **pedagoglarda professional kompetentlikning** maxsus, ijtimoiy va shaxslilik komponentlarini o'rganish mazkur komponentlar geteroxron ravishda rivojlanishini ko'rsatdi, bunda maxsus komponentning nisbatan yuqori ko'rsatkichlarida ijtimoiy va shaxslilik komponentlari past ko'rsatkichlarga ega ekanligi namoyon bo'ldi.

Mazkur holatga shakllantiruvchi korreksion tadbirlarda alohida e'tibor qaratish lozim. Kompetentlik va u bilan bog'liq kompetensiya tushunchasi mutaxassisning kasbiy tavsifi yoki lavozimdagi shaxsning loyiqqligini baholash kontekstida keng qo'llaniladi, ammo ularning pedagogik fanlardagi ahamiyati doim ham bir xil ma'no kasb etmaydi. Shuningdek, pedagogning kasbiy kompetentligi masalasini muhokama etishdan oldin, kasbiy kompetentlikka yaxlit umumiy aniqlik kiritishga urinib ko'ramiz.

L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontevlar tadqiqotlarining ko'rsatishicha, professionallik, shaxsning kasbiy shakllanishi nafaqat ma'lum hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishini, balki shaxsning ma'lum kasb egalariga xos bo'lgan ijtimoiy xulq-atvorlarni boshqaruvchi murakkab psixik tizimning shakllanishi, kasbiy tajribaning to'planishi va uni keyingi takomillashuvi hamda rivojlanishini ta'minlovchi qobiliyatlarning shakllanishini ham o'z ichiga oladi.

Kasbiy layoqatlilik va kasbiy kompetensiyaning shakllanishi masalalari bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik psixologlarning fikricha, kasbiy kompetensiya asoslari bolaning tug'ilishi bilan to'plana boradi va individning neyrodinamik sifatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga ular hatto "kasbiy layoqatsiz" odamlar ham neyrodinamik reaksiyalar tezligi yoki ularning kompleksi nuqtayi nazaridan u yoki bu faoliyatdagi muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiyaning yuqori darajasiga erishish mumkinligida yetakchi rol o'ynashini ham tan olishadi.

Shunday qilib, kasbiy kompetentlik deganda umumiy ma'noda, shaxsning professionalligini, ya'ni uning u yoki bu sohadagi nazariy va amaliy tajribalarining uyg'unligini tushunamiz. Shu bilan birga, kompetensiya bu, u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun shaxs

qobiliyatlarining mavjudligi va bu qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasini tushunamiz.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Kompetentlik nazariyasi va uning bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Kompetensiyalar nima?
3. Kompetentlik nima?
4. Trenerning kompetensiyasi haqida nimalar bilasiz?
5. Kasbiy kompetensiyaga ta'rif bering.
6. Trenerlik faoliyatiga oid kompetensiya turlarini tushuntirib bering.
7. Professional kompetentlikni tushuntirib bering.
8. Pedagog professional kompetentligi masalasi bo'yicha kimlar ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan?
9. Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini qanday bilish mumkin?
10. Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligini qanday farqlash mumkin?
11. "Kompetentlik zinasini" nima?

II BOB. PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

REJA:

- 1. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar.**
- 2. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish aspektlari.**
- 3. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish tizimi.**
- 4. Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlari.**

1. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar

G‘arb psixologlarining kasbiy kompetensiya masalasidagi qarashlari diqqatga sazovor. Xususan, psixologiyaning differensial-diagnostika yo‘nalishi asoschilaridan biri F.Parson har bir inson o‘zining kasbiy qobiliyatlari bilan faqat bir kasbni bajarish layoqatiga ega deb hisoblaydi. Uning fikricha, o‘z-o‘zining garmonik rivojlanishning asosida aynan kasbni to‘g‘ri tanlash yotadi va insonning imkoniyatlari hamda kutilayotganlar o‘rtasida ichki nizolarning mavjud emasligi bilan belgilanadi. Barcha kasblarga qo‘llaganda ushbu fikrga qo‘shilmaslik mumkinligiga qaramasdan, pedagogik kasbini tanlashga nisbatan uni to‘g‘ri deb aytish mumkin. Ta‘lim muassasasida birinchi marta pedagogik amaliyot o‘tayotgan yuqori bosqich talabalari va mustaqil pedagogik faoliyatga kirishayotgan yosh o‘qituvchilarda vujudga kelayotgan psixologik muammolar ko‘p jihatdan shaxsning psixologik holatining pedagog xodimlarga qo‘yiladigan talablarga muvofiq kelmasligi bilan bog‘liqdir.

V.A.Bodrov kasbiy rivojlanish nazariyasining umumiy qoidalarini umumlashtirgan va tahlil qilgan. Uning mohiyati: “Professionallikning muvaffaqiyati shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining amaliyot talablari bilan muvofiq kelish darajasi bilan belgilanadi. Har bir inson bir qator kasblar talablariga mos keladi”.

Shu tariqa, professionallikni umumiy ma‘noda, kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma

va malakalarning, shuningdek, shaxsning neyrodinamik va shaxsiy sifatlarining uyg'unligi deb ta'riflash mumkin. N.E.Kazakova va I.A.Valeyeva ta'rifi bo'yicha professional – bu, mehnat faoliyati jarayonida o'zini ongli ravishda o'zgartiruvchi va rivojlantiruvchi, kasbga o'zining shaxsiy ijodiy ulushini qo'shuvchi, o'zining kasbiy faoliyati natijalariga jamiyatdagi qiziqishlarni vujudga keltiruvchi va jamiyatdagi o'z kasbining obro'sini oshiruvchi insondir.

Professionalning yana bir muhim sifatlaridan biri bu doimiy o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini bilimni oshirish qobiliyati, shuningdek, refleksiyaga oid qobiliyatidir. Kasbiy kompetensiyaning mazkur jihatlarining asosi nazariy jihatdan hali maktab davridayoq - ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini baholash, tahlil qilish va bilimni oshirish ko'nikmalarini shakllantirish yo'li bilan qurilishi lozim.

Pedagogning kasbiy kompetentligini qanday qilib aniqlash mumkin va oliy ta'lim muassasasining kasb ta'limi yo'nalishi talabalariga pedagogik-psixologik bilimlar kompleksidan qaysilarini ajratib tushuntirish zarur bo'ladi?

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarining pedagogik kompetentligini oshirish bir qator pedagogik-psixologik fanlarni, jumladan: Kasbiy pedagogika, Kasbiy psixologiya, ta'lim texnologiyalari, kasb ta'limi metodikasi, pedagogik mahoratni o'rganish davomida amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu muammoni hal etilishida pedagogik amaliyotning o'rni o'ziga xosdir.

Shunday qilib, xulosa o'rnida aytish mumkinki, kompetentlik – bu, o'rganish mumkin bo'lgan (o'qish davrida yoki amaliyotda) narsa, ya'ni o'qituvchining pedagogik, psixologik va metodik savodxonlikka egalik darajasi, u yoki bu yosh guruhidagi ta'lim oluvchilar bilan ishlashda amaliy tajribaga egalikdir; kompetensiya esa - pedagog kasbi uchun zarur bo'lgan tug'ma yoki orttirilgan sifatlar: u yoki bu yoshdagi auditoriya bilan ishlay olish ko'nikmasi (har bir o'qituvchi, qoidaga ko'ra, o'z yosh toifasiga, ya'ni o'zi uchun ishlashi qulay bo'lgan yosh auditoriyasiga ega), o'z fanini o'rganish qobiliyati, sabr-qanoatlilik, empatiya, psixologik kuzatish va tahlil qilish qobiliyati va h.k. Bu sifatlarning qaysilarinidir, shubhasiz o'zda tarbiyalash mumkin, ammo talabalar va yosh o'qituvchilar bilan ishlash tajribasi o'qituvchining pedagogik kompetensiyasining

ko'pchilik komponentlari yo tug'ma, yo bolada bolalikdan to'planadi degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogika fanida o'qituvchi shaxsini shakllantirish ham psixologik (B.G.Ananyev, A.G.Kovaleva, S.L.Rubinshteyn va boshqalar), ham shaxs (V.A.Slastenin, S.N.Arxaangelskiy, L.P.Spirin) nuqtayi nazaridan qarab chiqiladi. Pedagogning kasbiy kompetentligi va pedagogik faoliyatning turli shakllariga oid ta'limni amalga oshirish jihatlariga doir ko'plab tadqiqotlar mavjud: sinfdan tashqari ishlar tashkil etish, ota-onalar bilan ishlash, tarbiyaviy ishlar, o'qituvchining didaktik ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish, psixotahlil elementlaridan foydalanish qobiliyatlari va h.k. Ammo ko'pchilik tadqiqotchilar pedagogik faoliyatning faqat u yoki bu jihatlarini qarab chiqadilar, bu esa kasbiy kompetentlikning bir qismi bo'lgan u yoki bu sifatlardir.

O'qituvchining "kasbiy kompetensiyasi" tushunchasiga hozirda ta'limga insonparvarlik yondoshuvi nuqtayi nazaridan ham qaralmoqda, uning maqsadi o'quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Insonparvarlik nuqati nazaridan ta'limga yondoshuvning asosiy elementi bu, subyekt-subyekt munosabatlari bo'lib, pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi roli teng ahamiyatga ega hisoblanadi. Ta'lim jarayonida tomonlarning teng faolligi ularning ijtimoiy va psixologik manzaradagi tengligini ifodalamaydi. Bu vaziyatda o'qituvchining mahorati o'zaro hamkorlik chegarasini ushlay bilishida, shaxsning o'z-o'zini garmonik rivojlanishi g'oyasiga e'tiborni qarata bilishida ko'rinadi.

A.V.Lunacharskiy *"Aqlli va tajribali o'qituvchi uchta savolga javob berishda: qanday qilib irodani tarbiyalash kerak, qanday qilib xarakterni shakllantirish kerak, qanday qilib birdamlikni rivojlantirish kerak, — degan savolga bitta kuchli so'z bilan — mehnat orqali"* degan javob borligini payqamasligi mumkin emas.

Dunyo pedagogik olimlari oldida turgan eng muhim muammo, agar kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshilsa, pedagogik va psixologik fanlarni ma'lum bir tizimga solish, korreksiya qilish, zamon talablariga javob bermaydigan pedagogik nazariya va usullardan voz kechish vaqti yetganligini ko'rsatib turibdi.

Ko'p hollarda o'qituvchining nazariy tayyorgarligi deganda faqat psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar birligini tushunadilar. Faqat

bilimlarini oshirish bilangina ish bitmay di o‘qituvchi tajribasi tizimida qo‘llay bilmasa, bilimlar keraksiz toshdek og‘ir yukka aylanadi. Shu bois ta‘lim berishning nazariy asoslariga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Nazariy faoliyat pedagogik fikr yuritishning umumlashgan bilish xususiyati bo‘lib, o‘qituvchining tahliliy, taxminiy, loyihaviy va refleksiv bilish xususiyatlarini o‘zida birlashtiradi.

Adekvat – “tenglik”, “to‘laligicha bir xillik”, “aynan o‘zi” ma‘nosini beradi.

Tahliliy bilish – tahliliy bilish xususiyatining shakllanganligi, pedagogik mahoratning eng muhim qirralaridan biridir. Analiz-tahlil aynan tahliliy bilish orqali pedagogik fikr yuritishning umumlashgan tarzidagi bilishini yuzaga chiqaradi. Bunday bilish bir qator shaxsiy bilish tizimini o‘zida birlashtiradi. Pedagogik hodisalarni uni tashkil etuvchi unsurlarga ajrata olishi (sharoit, sabablar, oqibatlar, rag‘batlantiruvchi omillar, vositalar, shakl va boshqalar), har bir bo‘lakning bir butunlik bilan bog‘liqligi va tomonlarning birgalikdagi harakatini anglashi; ta‘lim-tarbiya nazariyasidan kelib chiqayotgan hodisa mantig‘iga mos keluvchi g‘oya, fikr va qonuniyatlarini topa bilishi; pedagogik hodisalarni to‘g‘ri aniqlay olishi, eng muhim pedagogik vazifani (muammo) topish va uni samarali yechish yo‘llarini bilish kabilardir.

Fakt va hodisalarni nazariy tahlil qilish; narsa va hodisalarni boshqa narsa va hodisalardan farq qiluvchi o‘ziga xos jihatlarini ajrata bilish; ana shu narsa va hodisalarni tashkil etuvchi unsurlarni aniqlay olishi; ushbu tizimdagi barcha unsurlarning mohiyati va vazifasini, rolini aniqlay olishi, butun bir hodisaga har bir unurning o‘ziga xos ta‘siri, ushbu hodisaning ta‘lim jarayonidagi o‘rnini aniqlashi kabilar. Bu yerda pedagogik narsa fakt sifatida, u yoki bu tarbiyaviy munosabat, pedagogik hodisa esa hayotdagi hodisa va voqeaning hayotda yuz berishi, bunda ana shu hodisani tahlil qilish orqali pedagogning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini bajarishdagi harakati, talabalar harakati orqali yuzaga chiqqan pedagogik natija.

Prognostik bilish – oldindan bilish, ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, ta‘lim jarayonlarini oldindan ko‘zlagan maqsad va oxirgi natija, subyekt tafakkurida aks etib turishi demakdir. Prognostik bilishni uch guruhga birlashtirish mumkin:

➤ jamoaning rivojlanishini tashxis qilish, aniqlash, uning strukturasi, o‘sishi sur‘ati, o‘zaro munosabatlari takomillashuv tizimi, faollari o‘rnining o‘zgarishi, ba‘zi talabalarning o‘zaro munosabatlaridagi o‘zgarishlarni sezish kabilar;

➤ shaxs rivojlanishini tashxis qilish;

➤ uning shaxsiy ishchanlik xususiyatlari, hissiyoti, odob-axloqi, hulqi, kamchiliklari, tengqurlari bilan munosabatlardagi qiyinchiliklari va hokazolar.

Pedagogik jarayonlarni tashxis qilish: ta‘lim-tarbiya va o‘quv darslik hamda jihozlarni rivojlantirish imkoniyatlari, talabalarning o‘quv va boshqa faoliyatlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni oldindan bilish; u yoki bu ta‘lim sohasidagi usul va vositalarni qo‘llash orqali olinadigan pirovard natijani va boshqalarni aniqlash; voqea-hodisaning bir qismini kuzatish orqali hosil bo‘lgan natijani, voqea va hodisalarning boshqa qismiga, boshqa hududiga yoyish hislatlari.

Pedagogik tashxis qilish o‘qituvchida modellashtirish, gipoteza va tahlillarni olg‘a surish, fikriy sinov va tajribalar o‘tkazish va boshqa xususiyatlarni talab etadi.

Loyihalashni bilish – uchlik: “tahlil”, “tashxis qilish”, “loyiha” kabi bilishning maxsus guruhi yordamida ta‘lim-tarbiyaning aniq rejalarini amalga oshirish imkoniyatlarini beradi.

Ta‘lim-tarbiya ishlar istiqboli va dolzarb amalga oshirilishi lozim bo‘lgan reja sanaladi. Darslar va tarbiyaviy tadbirlar ana shular jumlasidandir. Loyihalashni bilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

➤ ta‘lim-tarbiya maqsadlari, mazmun va mohiyatini aniq pedagogik vazifaga aylantirish;

➤ pedagogik vazifalar, talabalar faoliyatida ularning talab-istaklariga qarab mazmum-mohiyat, material zaxirasi, tajriba va shaxsiy ishchanlik sifatlarini safarbar qilish;

➤ pedagogik jarayonlarda bosqichlariga qarab eng asosiy va yordamchi vazifalarni aniqlab olish hamda ularni hisobga olgan holda yondoshish;

➤ hamkorlikdagi ijodiy ishlar tizimi rejasini ishlab chiqishda faoliyat turlarini qo‘yilgan vazifaga mos kelishiga e‘tibor qaratish;

➤ talabalarning individual ishlarini loyihalashda, ularning qobiliyatlari rivojlanishidagi nuqsonlarni, ijodiy kuch va iqtidorlarini hisobga olish;

➤ pedagogik jarayonlar uchun mazmun, shakl, usullarni tanlashda hamma uchun maqbul bo'lgan yo'l va vositalarni qo'llash;

➤ talabalarning faolligini oshirishni rag'batlantiruvchi va salbiy holatlarning oldini olish usullari tizimini loyihalash;

➤ tarbiya muhitini rivojlantirish va ota-onalar, jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlovchi loyihalarni ishlab chiqish;

➤ tezkorlik, dolzarb, zudlik bilan olib boriladigan ishlarni loyihalash, pedagogdan bir qator kichik metodologik bilish turlarini talab qiladi:

Refleksif bilish – o'zining ruhiy holatiga ko'ra, narsa va hodisalardan ta'sirlanish orqali bilish, pedagogning o'ziga yo'naltirilgan o'z faoliyatini nazorat qilish va baholash faoliyatidir. Uni pedagogik vazifalarni yechishning so'nggi bosqichi, ta'lim-tarbiya faoliyatiga yakun yasash muolajasi hisoblaydilar. Refleksiya o'z faoliyati va holatini tahlil qilish, aks ettirish niyatida orqaga bosib o'tilgan faoliyatiga nazar tashlash demakdir.

Refleksiya – bu, pedagogik faoliyat subyekti tomonidan bilish va anglashgina emas, balki pedagogning kim ekanligini boshqalar (talabalar, hamkasblar, ota-onalar) tomonidan bilishi va anglashi, uning o'ziga xosligi, his-hayajoni va kognetiv tasavvurlarini ijodiy tushunish demakdir. Biz o'qituvchining nazariy tayyorgarligi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, ko'z o'ngimizda o'qituvchini nazariy bilimlar bilan qurollantirishni ham nazarda tutishimiz mumkin, ammo pedagogik kompetensiyaning o'ziga xosligi shundaki, eng avvalo, pedagog o'z ustida ishlashi, o'z kasbiy mahoratini, o'z kompetensiyasini takomillashtirib borishga tayyorligida ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan, pedagogik mahoratli, nazariy-amaliy bilimlarni chuqur egallagan, ma'naviyati yuksak pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalasiga davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan yondoshilmoqda, ammo nazariy va amaliy tayyorgarlik masalalarida anchagina muammolar bor. Birinchi navbatda, oliy ma'lumotli o'qituvchi magistr oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borishi mumkin, ammo unga qo'yiladigan nazariy va amaliy tayyorgarliklar

tizimi belgilab qo'yilishi va davlat standarti me'yorlari tizimi ishlab chiqilishi darkor.

➤ Ilmiy pedagogik kadrlar (professor, dotsent), ular yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlaydi, yangi bilimlar va yangi g'oyalarni yaratadilar.

➤ Pedagogik kadrlar (pedagogik o'qituvchilar, muallim va tarbiyachilar) shaxsni tarbiyalaydilar, yangi bilimlarni shakllantiradilar.

Ilmiy-pedagog kadrlar faoliyati natijasida shakllanadigan mutaxassislar, zamonaviy kasbiy mahorat, ko'nikma, bilimlarga ega, mustaqilligimiz g'oyalariga sodiq, vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarni biluvchi, milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalangan bo'lishi darkor.

“Pedagogik kompetensiya” kursini o'rganishda quyidagi prinsiplarga asoslanilsa, bu faoliyat muvaffaqiyatli amalga oshadi.

1. O'qitishda umumiy yondashuv tamoyili – bu, tamoyil shundan iboratki, bilim boshdan kechirilgan amaliy tajriba asosida egallanadi. Mashg'ulotlar shunday tuziladiki, mavzuning nazariy holati munozarada anglaniladi, keyin pedagogik qobiliyatni o'stiruvchi mashqlar o'ynaladi, oxirida, muammoning muhimligi pedagogik treninglarda anglab yetiladi.

2. Aktiv kommunikatsiya tamoyili – bu, bilimlar sistemasini qayta ishlashni o'z ichiga oladi va talabalarni aktivlashtirishga qaratilgan bo'ladi: rolli o'yinlarni o'tkazish, musobaqa, faoliyat demonstratsiya qilingan fragmentning muhokamasidan, talabalarni darsni tashkil qilishga jalb etishdan iboratdir.

3. Pedagogik faoliyatni qismlarga bo'lib o'rganish tamoyili - psixofiziologik va pedagogik treninglar orqali asta-sekinlik bilan alohidagi usullarni egallash. Har bir talaba o'quv yili davomida qanday tushuncha, malakani egallashi zarurligini bilishi lozim. Dastlab, birinchi kurs talabasi o'zining, tashqi ko'rinishi, nutq, pedagogik muomala madaniyati tashkilotchilik texnikasini boshqarishi lozim.

4. Pedagogik texnika va vazifalarni rivojlantirishda malaka va kichik dars berishdan ijodiy foydalanash.

5. Yo'nalish bo'yicha yondashuv, mashg'ulotlarda mutaxassislikni hisobga olish, pedagogik mahoratni shakllantirish.

6. Bilim va malakaning o'zaro bog'liqlik tamoyili - bunda oliy

ta'limning laboratoriya mashg'ulotlarini, akademik litsey, kasb-hunar kollej va maktablarda pedagogik amaliyotni tashkil etish kiradi.

Pedagogik mahorat institut hayotini pedagoglashtirilganda muvaffaqiyatli kechadi. Ayniqsa, talabalar bilan to'garaklarda, klublarda, studiyalarda ishlash foydalidir. Faqat oliy maktabning hamma pedagogik jamoasi va talabalarning o'zaro birgalikdagi faoliyati kelgusidagi pedagogda yuqori pedagogik mahoratni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Quruq, tor (qisqacha) "informatsiya" beruvchi darslar ilmiy va tajribaviy reja bo'yicha kam ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchining o'z hissiyotlarini ifodalay olishi, ularni talaba sezadigan va o'ziga tortadigan qilish muhim rol o'ynaydi.

O'z hissiyotlarini yaratishda o'qituvchi nutq vositasining intonatsiyasi, fonetikasidan, tana zaboni, ya'ni imo-ishoralari, mimikadan va ifodali gavda tuzilishidan foydalanadi.

Nutq orqali o'qituvchining hissiyoti talabalar tomonidan boshdan kechirilishi, u orqali o'zining munosabatini, ahloqiy qadriyatlarni talabalarga o'tkazadi. Bunday hissiy garmoniyaga erishish natijasida u talabaning milliy dunyosiga aktiv ta'sir ko'rsatadi, uning bilish va amaliy faoliyatida o'ziga xos katalizator hisoblanadi. Xohlagan o'qituvchi bilishi lozimki, shaxsning e'tiqodi hissiyotsiz amalga oshmaydi.

Amaliy o'quv tarbiya ishlarida o'qituvchi hissiyotining turlarini, ularning xususiyatlarini va o'ziga xosligini bilishi zarur. Insonning ma'naviy dunyosi — bu juda xilma-xil va beto'xtov hayajonlardan va hissiyotlardan iboratdir. Hissiyot hamma dunyoviy sezgilarimizga va dunyoviy munosabatlarimizga kirib keladi. Buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy aytganidek, hissiyotda odamning butun turmush-tarzi, tarixiyliigi ham ifodalanadi.

Tafakkur va hissiyot "bosh" va "yurak" ning o'zaro uyg'unligiga o'qituvchining pedagogik mahoratiga asoslanadi.

Hissiyotni birinchi va ikkinchi darajaga ajratish mumkin.

Insonning birinchi darajali hissiyoti evolyutsiyaning biologik qatlamida shakllanadi va rivojlanadi, instinkt va sezgilardan iborat bo'lgan hissiyotdir.

Ikkinchi darajada, insonlarga xos bo'lgan hissiyot ijtimoiy asosda yuzaga keladi.

Pedagogik va psixologik fanlarda insonlarga xos hissiyotlarni yuzaga keltiradigan predmetlar asosida farqlanadi. Masalan; axloqiy normalar, mehnat, aqliy, amaliy, estetik hissiyotlarning borligi to'g'risida gapiradilar. Tevarak atrofning predmeti sifatida aniqlash ularni mazmuniga ko'ra birlashtirish demakdir.

B.Spinoza: "Qoniqtiradigan yoki qoniqtirmaydigan, ijobiy yoki salbiy hissiyotdan boshqa hissiyot yo'q" - degan edi.

Ijobiy hissiyotga - go'zal va yuksak hisslirimiz kiradi.

Salbiyga esa - axloqsizlik kiradi.

Ular orasida esa tragedik va komik hislar mavjud. Ularni hissiy boshdan kechirish (ijobiy va salbiy) qachonki inson hissiyotlarini boshqara olsa, o'shanda hosil bo'ladi. Hissiyotning tabiati oliy nerv sistemasiga bog'liqdir. Hissiyot organizmning tashqi va ichki holatiga ta'sir etadi. Bu haqida barcha o'qituvchilar bilishi kerak va bolalarning estetik hissiyotlarini rivojlantirish metodikasini egallashlari lozim, ayniqsa, ijobiy hislatlarni, faqat ularga pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatiga bog'liqdir. Ijtimoiy tajriba va amaliy faoliyatda rivojlanadi va egallanadi, shakllanib boradi.

Ta'lim va taraqqiyotning o'zaro munosabati muammosini psixolog L.S.Vigotskiy hal etdi: "Ta'lim jarayoni taraqqiyot jarayoniga mos kelmaydi; ta'lim jarayoni taraqqiyotdan ilgarilab ketadi va bolalar psixikasining taraqqiy etishini ergashtirib boradi, unga yaqin istiqbol ochib beradi" – deydi.

Psixolog L.S.Vigotskiyning nazariy fikrlari pedagog A.S. Makarenkoning fikrlariga mos keladi. Masalan: A.S.Makarenko bolalar kitobining tarbiyaviy ta'siri haqida gapirib, "u bolaning yosh kompleks xususiyatlarini hisobga olishi lozim", "u bu kompleksdan oldinda bo'lishi zarur" bolani "u yurmagan yo'llar bo'yicha" olib yurish kerak degan edi.

Demak, talabaning rivojlanish darajasini shartli shaklda ikkiga ajratish lozim. Birinchisi uning mustaqil harakat qila olishi bo'lsa, ikkinchisi talaba ustozlari yordamida qila oladigan xatti-harakatlaridir. Bu psixik taraqqiyot usuli uning eng yaqin persepsiasidir. Taraqqiyotning shu ikki bosqichini taqqoslab, bolaning shu paytdagi taraqqiyot darajasi va kelajakdagi taraqqiyot imkoniyatlari haqida fikr yurita olamiz.

A.S.Makarenko har bir bolaning kamolat imkoniyatlariga va

taraqqiyotning perseptiv yo‘llarini aniqlashga katta e‘tibor bergan edi. U “shaxs loyihasini tuzishga” o‘z tarbiyalanuvchilarida hosil bo‘ladigan ijobiy hislatlarni mustahkamlash va takomillashtirish, salbiy sifatlarni esa to‘xtatish yoki ularga barham berish uchun ijobiy hislatlarga tayanishga intilar edi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi.

Tarbiya qoidalari:

- tarbiyaning ma‘lum maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi;
- tarbiyaning hayot bilan, mehnat bilan bog‘liqlikdagi qoidasi;
- tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar ustivorlik qoidasi;
- tarbiyada talabalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qoidasi;
- izchillik, tarbiyaviy ta‘sirning birligi va uzluksizligi qoidasi.

Keyingi o‘n yilliklar mobaynida bir qator Yevropa, AQSH, Rossiya va bizning mamlakatimizda, oliy ta‘lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e‘tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo‘yicha kompetensiya shakllanishi va takomilla-shuviga qaratilmoqda. Bugungi kunlarda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinayapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llovchi mutaxassis bo‘lib yetishishi lozim.

Olimlarning fikriga ko‘ra, oliy ta‘limni isloh qilish, yangilash, takomillashtirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo‘llaridan biri *kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv* hisoblanadi. Oliy ta‘limda o‘qish va tarbiyaning bunday uslubini joriy qilish o‘z-o‘zidan an‘anaviy qarashlarni tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Bilim, ko‘nikma va tajribalar bu borada endi kamlik qilishi ko‘zga tashlanmoqda.

Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o‘qitish usullari, texnologiyalariga juda ko‘p e‘tibor qaratilganligini sezamiz. Ammo ana shu pedagogik usullarni tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta‘kidlash mumkin.

Pedagogika fani ham boshqa gumanitar va tabiiy fanlar qatori o'z tizimini pozitiv shakllantirishda muammolar mavjud. Muammo bu sohadagi pedagogik nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol ko'zga tashalanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish mahoratining yetishmasligi sezilmoqda. Demak, ko'plab o'qituvchilarni, pedagoglarni eskirib qolgan nazariy bilimlarni innovatsiyalar bilan bog'liq holda amalga oshirish lozim. Ularda zamonga xos tub o'zgarishlarga mos kelish, munosib bo'lish kabi sifatlar yetishmaydi. Huddi shu sifat *kompetensiya* – kompetensiya egasi bo'lish, kompetent pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlari o'qitish tizimidan ko'chirib olingan kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv Rossiya pedagog olimlarini chuqur izlanishlar olib borishga chorlamoqda. Ammo pedagogik o'qitish usul va metodlari texnologik yo'llarini kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv atamasiga ag'darib olish bilan masala yechilmasligi yanada ayon bo'lib bormoqda. Kompetensiya masalasining dolzarbligi shundaki, eng avvalo, o'qituvchi va pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish muammosini yechishni talab qiladi.

Kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuvning dolzarbligini Vatanimiz ta'lim-tarbiya tizimida ham sezish mumkin. Kompetensiya eng avvalo, davlat va jamiyat tomonidan beriladigan ishonch, vakolat ekanligini ta'kidlash zarur. Aniqrog'i, mamlakatimiz manfaati uchun xizmat qilish kompetensiyasi – vakolati zarurligini ko'ramiz.

“Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari” haqida fikr yuritar ekanmiz, mavzu uchun AQSH, Fransiya, Yevropa mamlakatlari, Rossiya pedagogikasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga e'tiborimizni qaratish bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi ilmiy va amaliy izlanishlarni o'rganishga, ularni tahlil qilishga harakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi mutaxassislar tayyorlashda mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda islohotlar sari yuz tutmoqda. Hozirgi paytda oliy pedagogik maktabning asosiy vazifasi, biz yuqorida tilga olib o'tgandek raqobatbardosh, kompetentli o'qituvchilar tayyorlashdan iboratdir. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan oliy ta'lim maktablarida ishlay oladigan, o'z kasbiy

vazifalarini mustaqil va ijodiy yecha oladigan o'qituvchilarga bizning mamlakatimizda ham talab kuchayib bormoqda. Kompetentlikning mezonlari qanday, o'qituvchi kasbiy tayorgarligi qanday bo'lishi lozim? degan savollarga javob qidiramiz.

Pedagogik kasbiy kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv masalasida butun dunyo olim va mutaxassislari o'rtasida ilmiy munozara va bahslar davom etmoqda. AQSH va Yevropa mamlakatlari pedagogik olimlariga nisbatan Rossiya olimlari kasbiy kompetensiya masalalariga alohida ahamiyatli ekanligi yaqqol ko'rinadi. V.Slastenin, I.Isayev va boshqalar tomonidan yozilgan "Pedagogika" o'quv qo'llanmasining 3-bobi "Pedagogning kasbiy kompetensiyasi"ga bag'ishlanib, bu tushuncha va mahorati haqida fikrlar beradi. Mualliflarning ta'kidlashicha, pedagogik kompetensiya tizimi, amaliy va nazariy tayyorgarligi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi kasbi boshqaruvchi va shakllantiruvchi xususiyatga ega. Shaxs shakllanishini boshqarish kompetentlikni talab qiladi. Bu o'zida o'qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligini jamlagan holda uning kasbiy mahoratini namoyish qiladi. U yoki bu kasb yo'nalishi bo'yicha o'qituvchining malakaviy tasnifi pedagog kompetensiyasi modeli me'yorlari bilan o'lchanadi,¹ deb yozadilar.

V.A.Bolotov va V.V.Serikovlarning fikriga ko'ra, kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv talabning bilimdonligini emas, balki muammolarni hal qila olish qobiliyatini ko'rsatadi va eng birinchi darajadagi zarur qobiliyat deb baholaydi.²

E.V.Bondorevskaya va S.V.Kulnevichning ilmiy ishlarida talabalar yig'adigan kompetensiya unsurlari faqat asosiy maqsadga, pedagogik faoliyat olib borish uchun yo'naltirilishi yoki zarur bo'lishi lozim deb hisoblaydi.³

V.S.Elegina va S.M.Poxlebayev tomonidan Rossiyaning "Фундаментальное исследование" jurnalining 2012-yil 3-sonida e'lon qilingan "Компетентностный подход к организации обучения студентов в педагогическом вуз" ilmiy maqolasida kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida talaba o'z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonishning usullari,

¹ Сластенин В., Исаев И. Педагогика: 2014. № 10.

² Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: От идеи к образовательной программе. Педагогика. 2013. № 3.

³ Бондоревская Е.В., Кулневич С.В. Педагогика. 2014. № 10.

yo'llari, metodlari, yondoshuvlari va uslublarini o'zlashtirib oladi. Aynan talaba tomonidan yaratilgan ijodiy natija talaba bilan o'qituvchining hamkorlikdagi ijodiy natijasi hisoblanadi. Talabaning o'zlashtirishiga baho berishdan maqsad, berilgan ta'limning qanchalar samarador bo'lganligi darajasini aniqlash, bu birinchidan, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish, ikkinchidan undagi kompetensiya shakllanishi, amaliyot paytidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi.⁴

Chuqur islohotlarni, modernizatsiyalashni talab qiladigan zamonaviy ta'lim o'z-o'zidan kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoShuv masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo'lgan bo'lajak o'qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta'limning asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o'z-o'zini anglash, o'z bilimlarini doimiy oshirib borish, o'z-o'zini boshqarib borish va faollashib borishni shakllantiradi.

Albatta, bu mavzuning o'rganilganligi darajasini ko'plab xorijiy va mamlakatimizdagi oliy va mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ko'rishimiz mumkin. Agar biz AQSH oliy pedagogik ta'limi tizimi faoliyatiga nazar tashlamoqchi bo'lsak, B.D.Vulfson, T.N.Kurilova, Z.A.Malkova va boshqalarning ilmiy ishlarini, agar AQSH pedagogik ta'limining maqsadlari haqida bilmoqchi bo'lsak, N.D.Nikandorova, V.YA.Pilipovskiy, bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy pedagogik ta'limi bo'yicha G.G.Agapova, O.O.Borovikova, V.S.Budenko va boshqalarning ishlarini, AQSH o'qituvchilarining malaka oshirish tizimi haqida esa V.B.Gargay, N.I.Kustinova va boshqalarning ishlariga nazar tashlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ilmiy ishlaridan Rossiya va AQSH ta'lim tizimi bir-birini to'ldirib boyitganligini tasavvur qilishimiz mumkin. AQSH, Kanada, Avstraliya va bir qator Yevropa mamlakatlarida pedagogik kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimi yaratilganligi ko'zga tashlanadi va ular bu muammoni ma'lum bir tizimga solib keng o'rganmoqdalar.

AQSHda kompetensiyaviy yondoshuvning falsafiy asoslari masalasida, ularning global maqsad va vazifalari, tashkiliy tizimi,

⁴ Елегина В.С., Похлебаев С.М. Компетентный подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе. Фундаментальное исследование. 2012 № 3.

mohiyati, ta'lim standartlari, sifati, ta'limning sifatini nazorat qilish, oliy pedagogik maktablarning faoliyatini aks ettirgan mualliflar M.Apple, D.Armstrong, D.L.Ball, D.Barnes, F.Baumgartner, M.Cochran-Smith, D.K.Cochan, L.Darling-Hammond, S.Feiman-Nemser, A.D.Glenn va boshqalar.⁵

Bizning mamlakatimizda davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish zamonaviy o'qituvchiga yangi talablarni qo'yadi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak, degan savol birinchi darajaga chiqadi. Kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv masalasiga xorijiy mamlakatlarda bo'lgani kabi tavakkal yondashilmaydi. Kasbiy kompetensiya o'rniga ijodiy jamoalar va pedagogik olimlar tomonidan kasbiy mahorat tushunchasi berilib, asosiy ilmiy ishlarda ma'lum bir soha va fanlarni o'qitish borasida metod va uslublarni ishlab chiqishga qaratilgan, lekin aynan kompetentli o'qituvchi masalasiga yondoshuv endigina amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining malaka oshirish bo'g'inida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish hozirgi davr istiqbol talablaridan amaliyotchi o'qituvchilar yetarli hamda samarali foydalana olmayptilar. Buning asosiy sabablari malaka oshirish muammolari yetarli darajada tadqiq etilmaganligida, faqat sanoqli olimlarga kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuvga e'tibor qaratganligidadir.

Respublikamizda malaka oshirish muammolari va kasbiy kompetensiya masalalarida B.Adizov, A.A.Ahmadov, A.X.Aminov, T.L.Xurvaliyeva, N.A.Muslimov, Sh.Saidqulov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Bu tadqiqotlarda asosan malaka oshirish tizimini takomillashtirishning tashkiliy pedagogik masalalari va pedagogik tashxis masalalari o'rganilgan.

Abdulla Avloniy nomidagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash instituti olimlari biz yuqorida tilga olgan dunyoviy tajribalardan foydalanilgan holda kompetensiya tushunchasi va uning turlari haqida fikr yuritar ekan, T.L.Xurvaliyeva kasbiy kompetensiyani turlarga bo'lib o'rganishni taklif qiladi. Uni kasbiy kompetensiya, kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari, shaxsiy kompetensiya,

⁵ Кузьмених Ж.О. Проффессионально педагогическая подготовка будущих учителей в школах профессиональная развития в США. Йошкар-ала. 2012.

umummadaniy kompetensiya va maxsus kompetensiya turlariga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi. Ko‘proq rus pedagog olimlari materiallaridan, ayniqsa, A.V.Xutorskiy ta’limda o‘qituvchining yetti kompetensiyasini tasniflaganligini tilga olib, ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zbek pedagogika tizimiga tatbiq qilishga harakat qiladi.

Bu borada 2013-yil 10-aprelda “O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimining pedagogik-psixologik muammolari” deb nomlangan xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tgan. Ushbu konferensiyada T.Abdullayev, Z.Ismoilova “Pedagog kadrlar tafakkurini o‘zgartirishning pedagogik-psixologik muammolari”, N.Abdullayeva “Talabalarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish”, N.A.Muslimov, O.A.Qo‘ysinov “Kasb ta’limi o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida kasbiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish”, F.Mirzayeva “Pedagog shaxsning kasbiy tayyorgarligi xususiyatlari”, Q.Olimov, K.Umataliyeva “Развитие профессиональной компетентности составляющая педагога” deb nomlangan ilmiy maqolalaridan boshqa barcha maqolalar o‘qitish usullari va metodlari, turli fan va mutaxassisliklarni o‘qitish texnologiyalari va pedagogikaning an’anaviy ilmiy nazariyalariga bag‘ishlanganligi ko‘zga tashlanadi. Demak, kompetensiya va kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv masalalarini alohida o‘rganish tizimi juda sekinlik bilan amalga oshirilgan. Shularni inobatga olgan holda, oliy ta’lim o‘qituvchisi kompetensiyasini takomillashtirish masalasini davlat dasturi talablaridan kelib chiqqan holda chuqur o‘rganish zarurligini va ko‘plab ilmiy ishlar olib borilishi kerakligini ta’kidlash joiz.

2. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish aspektlari

Pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas’uldir. U muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kasbiy kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim.

Jamiyatdagi biron-bir guruh, jamoa yoki shaxs ma'lum bir soha bo'yicha yuksak malaka va bilimlarga ega bo'lib o'z sohasida kompetensiya egasi bo'lib shakllanadi hamda ushbu vakolatini muntazam ravishda takomillashtirib boradi. Bu masalaga jamiyatning manfaatlari yuzasidan yondoshiladi. Shaxs esa o'z kompetensiyasini takomillashtirib borish orqali, eng avvalo, o'zining hayotiy manfaatlarini amalga oshiradi, shu bilan birga jamiyatning shaxsga qo'yayotgan talablari darajasiga erishadi. Dunyo olimlari tavsiya qilayotgan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini biz yuqorida birlashtirish taklifini kiritdik. Kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv haqidagi ilmiy ishlarni tahlil qilar ekanmiz, bu ikki tushuncha haqida turli-tuman fikrlar aytilayotganligini yaqqol sezamiz.

A.G.Bermusning fikriga ko'ra, "Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha xislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig'ini yagona tizimga birlashtiradi".⁶ "Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o'z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassislarining ma'lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi.

Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko'rsata olish qobiliyati bu, kompetentlikdir, deydi O.E.Lebedev.⁷

Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi I.A.Zimnyaya.⁸

A.V.Xutorskiy "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi. Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatleri uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yuritishidir. Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lishi demakdir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya masalasi uning jamiyatdagi o'rni masalasidan qator bahslar davom etmoqda. Ta'lim-

⁶ Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. www.eidoc.ru, 2015, 09, 10.

⁷ Лебедев О.Е. Компетентный подход в образовании. www.nekrasovepb.ru

⁸ Зимняя И.А., И.А. Ключевых. Компетенции – новая парадигма результата образования. quality.petrso.ru

tarbiya sohasida asosiy universal kompetensiya unsurlarini anglab olish zamonaviy pedagogikaning eng asosiy muammolaridan biridir. Asosiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an'anaviy o'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo'lib, hali yechilmagan masalalar muammolar mavjuddir.

A.Avloniy nomidagi o'qituvchilar malakasini oshirish instituti pedagog olimasi L.T.Xurvaliyeva: "Kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati", – deb ta'riflaydi.

Ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir. Ta'lim-tarbiya jarayonlari davlat nazoratidagi umummilliy masala hisoblanadi. Mamlakatimizda ta'lim, ya'ni o'qitishni tarbiya bilan uyg'unlikda olib boriladi. Davlat dasturlarida ta'lim jarayonini tubdan yaxshilashni talab qilinarkan, kompetentli pedagoglarni tayyorlashda ham ana shu talablardan kelib chiqqan holda yondashilishi ko'zga tashlanadi. Kompetensiyalik yoki yuqori darajadagi mahoratlilik, oliy malakali pedagoglarni tayyorlash zamonamizning eng dolzarb masalasiga, aytish joiz bo'lsa, davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasiga aylangan. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, pedagogik faoliyat jamiyatdagi funksiyalari bo'yicha va kasbiy sifat xususiyatlariga qarab hamda psixologik tamoyillari bo'yicha artist va olimlar tomoniga yaqindir. Pedagog mehnatining xususiyatlari insonni o'qitish va tarbiyalash uchun mo'ljallangan. Yoshlarda insoniy fazilatlarni shakllantirish, mehnat predmeti inson hisoblanishi hamda jamiyatni boshqaruvchi shaxsga bo'lgan ta'siri o'z-o'zidan kompetentlikni talab qiladi. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun "Agar kosib yomon usta bo'lsa, bundan davlat juda katta narsa yo'qotmaydi, faqat xalq yomonroq kiyinadi, xolos. Agar yoshlar tarbiyachisi o'z vazifasini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsiz va ahmoqlar toifasi vujudga keladi"– degan edi.

Bosh ilmiy metodik markaz zimmasiga professor-o'qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligi darajasini, ularning yuqori malakali kadrlar tayyorlash va tarbiyalashning talab qilinadigan darajasini ta'minlash bo'yicha ish natijalarini hamda ilg'or pedagogik tajribani o'rganish asosida zamonaviy metodikalardan foydalangan holda oliy

ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning umumta'lim dasturlarini, o'quv-metodik va normativ materiallarini ishlab chiqish vazifasini yuklaydi. Xuddi shu qarorda o'qituvchilar faoliyatini zamonaviy talablarga muvofiq baholash, chet tillari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish bo'yicha o'quv-metodik materiallar va samarali metodikalar ishlab chiqish belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, mazkur yo'nalishlar bo'yicha mintaqaviy markazlarida va tarmoq markazlarida seminar-treninglar tashkil qiladi; quyidagilar: tegishli ta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirishni, ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha mamlakatimizning ilg'or, zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar; pedagoglarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, tegishli mutaxassisliklar bo'yicha ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari; ilmiy eksperimental, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishning samarali metodlari bilan tanishtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasalari (Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, laboratoriyalari) bilan hamkorlik qilish hamda ularni pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun bazaviy obyektlar sifatida foydalanish bo'yicha dasturlar ishlab chiqadi; mintaqaviy va tarmoq markazlari faoliyatini muvofiqlashtiradi; oliy ta'lim muassasalarining rahbar xodimlari malakasini oshirish kurslari tashkil qiladi va o'tkazadi.⁹ Mazkur qarorga muvofiq, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish 5 ta hududiy markazlarini tashkil etish, 10 ta tarmoq markazlarini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari huzuridagi malaka oshirish ta'lim muassasalari va fakultetlarini tugatish to'g'risidagi takliflar qanoatlantiriladi. Demak, Vazirlar Mahkamasi qaroridan oliy ta'lim maktabi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish yuzasidan davlat homiyligi ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda, mazkur qarorning bajarilishi yuzasidan taklif va mulohazalarimizni bildirishni lozim topdik. Bosh ilmiy metodik markaz mintaqaviy va tarmoq markazlari yuridik shaxs hisoblanadi. Barcha tashkiliy masalalarni umumlashtirgan holda quyidagicha taklif

⁹ "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Vazirlar Mahkamasining qarori.

berar edik:

➤ mintaqaviy va tarmoq markazlarini muvaffaqiyatli tamomlagan oliy ta'lim o'qituvchisi Bosh ilmiy metodik markazga davlat granti asosida malaka oshirishga jalb etilishi lozim.

➤ pedagog kasbiy kompetensiyasi bo'yicha sertifikat uchun imtihon-sinov topshirilishi belgilanishi ko'zda tutilishi kerak.

➤ sertifikatli o'qituvchilar uchun ilmiy izlanishlar, pedagogik faoliyat yuzasidan imtiyozlar berilishi lozim.

➤ sinov va baholash imtihonlari uchun kasbiy kompetensiyaga xos to'rt yo'nalish asos qilib olinmog'i darkor:

a) mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari;

b) pedagogik mahorati;

g) shaxsiy sifatlari;

d) dunyoqarashi.

Shunday qilib, pedagog kasbiy kompetensiyasiga ega bo'lish hamda ana shu vakolatni tasdiqlovchi sertifikatni qo'lga kiritish o'qituvchining yanada o'sib borishi, bilimlarining takomillashi shi, o'z ustida ishlashi imkoniyatlarini yaratadi, o'z kasbiga muhabbat va ishonch uyg'otadi.

Biz yuqorida qayd etib o'tganimizdek, kompetensiya, ayniqsa, kasbiy kompetensiya shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini belgilar ekan, jamiyat ham yuqori malakali kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdan manfaatdor bo'ladi.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniy o'zining axloqiy-didaktik mazmundagi "Turkiy guliston yohud axloq" asarida xulqlarni yaxshi-yomonga ajratar ekan, o'z mulohazalarini Gippokrat, Pluton, Aristotel, Sa'diy SHeroziy va Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini, uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisoblaydi.

"Vatan – bu har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati, uni qadrlamoq, sevmok, yashartmok kerak", – deydi. Abdulla Avloniy o'z asarlarida ta'lim-tarbiya to'g'risida to'xtalib, "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" – degan edi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda pedagog kasbiy kompetensiyasi mohiyatining teng yarmini tarbiyaga oid munosabatlar

tashkil etishini ko‘ramiz. Pedagogning jamiyat oldidagi eng muhim burchi, faoliyatining natijasi komil inson tarbiyasidir.

3. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish tizimi

O‘qituvchining asosiy faoliyati komil insonga ta‘lim va tarbiya berishdan iborat ekan, ana shu pedagoglarni yetkazib berishda faoliyat yurgizuvchi oliy ta‘lim o‘qituvchisi zimmasiga yanada og‘ir vazifalarni yuklashi aniq. Bu vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs, o‘qituvchi, pedagoglarni tayyorlashga har tomonlama haqli va munosib bo‘lishi va ana shu vakolatga ega bo‘lishi lozim. Biz yuqorida ana shunday vakolatga ega bo‘lish huquqini pedagogning kasbiy kompetensiyasi deb belgilab oldik. Bu tushuncha, albatta, pedagog faoliyatini amalga oshirishi uchun kasbiy mahorati hamda nazariy-amaliy tayyorgarligidir. Pedagogning u yoki bu mutaxassisligi bo‘yicha tayyorgarligi malaka tasnifi – kompetensiya egasi bo‘lgan pedagog me‘yoriy modelida aks etadi.

Kvalifikatsiya, malaka tasnifi – bu bir qator talablar yig‘indisidan iborat bo‘lib, o‘qituvchining nazariy va amaliy tajribalari darajasini ko‘rsatadi. Umuman olganda, psixologik-pedagogik bilimlar o‘quv dasturlarida aniq belgilab qo‘yilgan. Psixologik-pedagogik jihatdan o‘qituvchining tayyorgarligi metodologik asoslar, pedagogik darajalar, shaxsning ijtimoiy takomillashib borishiga suyanadi. Mohiyatan ta‘lim-tarbiya maqsadlari va texnologiyalariga asoslanadi.

Pedagogik-psixologik va (maxsus) fanlar bo‘yicha bilimlar kasbiy kompetensiya egasi bo‘lish uchun yetarli emas, bu bilimlarning ko‘pchiligi, xususan, nazariy, amaliy va metodologik bilimlar o‘qituvchining intellektual amaliy malaka va mahoratini oshishiga sabab bo‘ladi. Pedagogik mahorat keng qamrovli uzluksiz faoliyat bo‘lib, shaxs kamoloti uchun xizmat qiladi. Bu tushuncha nazariy bilimlarning bo‘lg‘usi o‘qituvchilar amaliy tayyorgarligidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tizimi – pedagogik mahorat orqali namoyon bo‘ladi. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirishda umumiylikdan xususiy mahorat sari boriladi. Umumiy mahorat – bu pedagogik fikr yuritish va faoliyat yuritish hisoblanadi,

fakt va hodisalarni nazariy jihatdan tahlil qilishga undaydi. Pedagog uchun zarur bo'lgan mahoratning bu ikki unsurini birlashtirish asosida konkretlikdan abstraklikka, ya'ni aniqlikdan mavhumlik sari o'tiladi. Ular sezgi, tafakkur va nazariy asoslarda yuz beradi. Tahlil etishni nazariy darajaga olib chiqish mahorati bo'lg'usi o'qituvchilarni pedagogik mahoratga o'rgatishning yoki pedagogik mahoratni yanada takomillashtirishning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Pedagogik masalalarning umumlashganligiga qaramay, pirovard natija, yechim "fikrlash, faoliyat yurgazish, fikrlash" mana shu uchlikka kelib taqaladi hamda pedagogik faoliyat unsurlari va unga mos bo'lgan axborot bilan uyg'unlashib ketadi. Natijada o'qituvchining kasbiy kompetentligi modeli uning nazariy va amaliy tayyorgarligi sifatida namoyon bo'ladi.

1. Pedagogik kompetensiya o'qituvchi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat, ko'nikma;

2. Muammolarni muvaffaqiyatli yechish qobiliyati, oliy darajadagi kasbiy mahorat.

3. Kasbiy faoliyati davomida pedagog tomonidan qo'llanilgan texnologiyalar, metodlar va usullar yig'indisi.

4. Turli tajribalar yig'indisi, pedagogik faoliyatdagi katta tajriba. Pedagogik kompetensiya pedagogika sohasidagi bilim, mahorat, ko'nikma, ma'lumotlilik va obro'-e'tibor.

Yana bir qator olimlar kompetensiyaning to'rt turini ajratib ko'rsatadilar:

1. Funktsional, ya'ni kasbiy bilim va mahoratini amalda ro'yobga chiqara olish demakdir.

2. Intellektual, ya'ni tahliliy fikr yuritish va o'z vazifalarini bajarish uchun kompeleks yondoshish qobiliyatidir.

3. Vaziyatga xoslik. Vaziyatga qarab harakat qilish qobiliyati.

4. Ijtimoiy, kommunikativ va integrativ qobiliyatlar. Har qanday jamoada til topa olish qobiliyati.

Pedagog olimi T.L.Xurvaliyeva kasbiy kompetensiya tizimini besh guruhga ajratadi.

Kasbiy kompetensiya:

- pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- o'z ustida ishlash; ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va

qayta aloqani o'rnata olish; talabalar ehtiyojini anglay olishi; talabalarda motivatsiyani shakllantirish; ta'lim muhitiga yangilik kiritishi; o'z fanini mukammal bilishi; ingliz tilini yaxshi bilishi.

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash.
2. O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash.
3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Shaxsiy kompetensiya:

➤ muloqotchanlik; bag'rikenglik; etakchilik; faol, tashabbuskor; moslashtiruvchi; sog'lom turmush tarziga amal qilish; mas'uliyat; ishchanlik; insonparvarlik; umummadaniy; ma'lumotli; madaniyatli; umuminsoniy qadriyatlarga egalik; milliy madaniyatga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi.

Maxsus kompetensiya:

➤ talabalar ehtiyojini bilishi; turli yosh xususiyatlarini bilishi; ta'limni tabaqalashtirish; ta'limni individuallashtirish.

A.V. Xutorskiy ta'limda o'qituvchining yetti kompetensiyasini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asnosida, ya'ni qadriyat va o'zini anglash - o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya - o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2. Umummadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va talabalarga ta'sir olishi.

3. O'quv va bilish jarayoni - o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish - pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidadagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

7. O'z ustida ishlashi - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi. Hissiyotini boshqarish.

Kvalifikatsiya va kompetensiyaning o'zaro munosabati:

Kvalifikatsiya - potensial faoliyatda bilim va ko'nikmaning namoyon bo'lishi.

Kompetensiya - bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi.

Didaktik kompetensiya:

➤ o'qitish muhitini yaratish; mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish; o'quv jarayonini boshqarish; talabalarga motivatsiya berish va yordam ko'rsatish; talabalar bilimini anglash va ularni rivojlantirish; talabalarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash; fanlar bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lish.

Ta'lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu, o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi:

➤ ilmiy bilim; turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna, misol keltira olishi); muammoli vaziyatlarni samarali yechimini topishda ijodiy faoliyat asosida yondashish; jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabatda bo'lish tajribasi.

Professional pedagog o'z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, albatta, uning pedagogik mahorati bo'ladi. U barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib boradi. U albatta, zamonaviy metod va usullarni muntazam o'rganib boradi, pedagogik kasbiy kompetensiyaga ega bo'ladi. Chunki shu xislatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'zi bilgan, bilmagan holda haqiqiy kompetensiya egasi bo'ladi. Mehnat qilish madaniyatigagina emas, balki yuksak umuminsoniy madaniyatlar: odob-axloq, qadriyatlar va obro'-e'tibor egasi bo'lishi o'z-o'zidan ayon. Shu bois ham, talabalarning kasbiy

kompetensiya egasi bo'lib yetishishlari uchun Milliy dasturimizda uch bosqichli tizim bo'yicha ta'lim-tarbiya beriladi. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi mezonlari haqida olimlarimiz olib borayotgan izlanishlar hali yetarli emasligi ko'zga tashlanib turibdi.

O'qituvchi kasbiy kompetensiyasi masalasida T.L.Xurvaliyeva olib borgan ilmiy izlanishlar diqqatga sazovordir.

O'qituvchining kompetensiya modelini keltiramiz:

1. Pedagog faoliyatining maqsadi va mazmuni.
2. Kasbiy sifatlar.
3. Pedagogik qobiliyat, metod va texnologiyalar.
4. Kasbiy motivatsiya.

Pedagog faoliyatining maqsadi va mazmuni:

➤ talabalarning o'z-o'zlari bilan erkin bo'lishlari uchun erkinlik berish;

➤ har bir talabaning o'zini rivojlantirishiga erishish;

➤ talabalarning individual shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishiga yordamlashish;

➤ talabalarning qobiliyati, qiziqishi va imkoniyatlariga tashkil etilgan ta'lim jarayonining mos kelishi;

➤ talabalarning qiziqishi va layoqatlarini hisobga olgan holda, foydali narsalarni o'zlashtirishlariga undash;

➤ talabalar ma'naviy qadriyatlarni o'rganishlari asosida axloqiy va insoniy sifatlar rivojlanadi.

Kasbiy sifatleri:

➤ talabalarga xushmuomala va qiziquvchan munosabatda bo'lish.

➤ o'z jamoasi a'zolari va o'qituvchilarning tanqidlariga tayyor bo'lishlik, o'z faoliyatiga o'zgarishlar kirita olish;

➤ ijtimoiy voqelik va atrof-muhitga nisbatan shaxsiy qarashlariga ega bo'lish va ularning talabalar bilan muhokama qilish, o'rtoqlashish;

➤ tanqid va refleksiya (o'z-o'zini nazorat va tahlil qilish)ga nisbatan yuqori layoqatda bo'lish;

➤ nasihatgo'ylik va manmanlikdan o'zini saqlay olish;

➤ muhokama qilinayotgan har qanday muammo va qarashlarga to'g'ri munosabatda bo'lish;

➤ o'z sha'niga aytilayotgan tanqidlarga samimiy munosabatda bo'lishlik;

➤ shaxsiy yondashuv va o‘z ta’lim yo‘nalishiga ega bo‘lish va beparvo bo‘lmaslik;

➤ o‘z fikr va qarashlarini talabalar bilan o‘rtoqlashish;

➤ ifodali so‘zlash, ravon, so‘z boyligiga ega bo‘lish.

Pedagogik qobiliyat - pedagogning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni takshil etish va boshqara olishini ifodalovchi qobiliyat.

Kasbiy motivatsiya - kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo‘naltirishga oid faoliyat ta’sirida shakllanuvchi mayldan iborat. O‘qituvchining kasbiy kompetensiya bazasi shundan iboratki, ta’limiy, rivojlantiruvchi muhitni tashkil qila olishi ko‘nikmasiga ega bo‘lish kerakki, talabalarda bilim, ko‘nikma malaka shakllansin. Ta’lim jarayoni shunday tashkil etilishi lozimki, bunda talabalarda qiziqish orsin, shu bilan birga o‘ylash va munozara yuritish, dolzarb savollarni qo‘ya olish, mustaqil tafakkurni shakllantirish, g‘oyalar yaratishga o‘rgatish, turli xil nuqtayi nazarlarni aytish ko‘nikmasini shakllantirish. Har qanday o‘qituvchining maqsadi dars jarayonidagi vaziyatlarni “rivojlantiruvchi muhit”ga aylantira olishi kerak. Buning uchun o‘qituvchida kompetentlik yondashuv quyidagi asosiy tamoyillar asosida yuzaga keladi.

1. Ta’lim muhiti talaba shaxsining ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishish va qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatishi lozim.

2. Talabalar imkoniyatlarini ta’lim natijalariga ko‘ra baholashni ta’minlash va o‘z-o‘zini baholash jarayonida uni qo‘llash.

3. Talabalarni mustaqil, asosli faoliyatlarini tashkil etish ularni shaxsiy motivatsiyasi va mas’uliyatini oshirishda turli shakllardan foydalanish.

4. Har bir millatning tarixi va madaniyati, oila va jamiyat qadriyatlarini hurmat qilish va unga amal qilish.

5. O‘zgalar va o‘z fikrini hurmat qilish xushmuomalali bo‘lish.

6. O‘z xato va kamchiliklarini bilishi va uni mustaqil ravishda tuzata olish.

7. Hayot xavfsizligi va sog‘lom turmush tarzi asoslarini egallagan bo‘lishi kerak.

Ta’lim vazifalarini amalga oshirishda hayot davomida ahamiyatga

ega bo‘lgan kompetensiya zarur bo‘ladi. Ular quyidagilar:

➤ kommunikativ kompetensiya; informatsion kompetensiya; muammolarni hal eta olish; rivojlantiruvchi muhitni yaratish.

Kommunikativ kompetensiya – o‘qituvchidan to‘laqonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda talaba va jamoa a‘zolari bilan ijobiy munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

Ta‘limiy mazmundan, vaziyatdan, holatdan kelib chiqib, har qanday o‘qituvchining maqsadi auditoriyada “Rivojlantiruvchi muhitni” yaratishdan iborat. Ya‘ni:

➤ talabalarga faoliyatga undovchi motivatsiya berish;

➤ talabalarni mustaqil ishlatish, o‘quv faoliyatiga undash orqali tushuncha va tasavvur va ko‘nikmalarni shakllantirish. Kerakli ma‘lumotlarni qidirish, o‘z faoliyati loyihasi va uning amaliyotga tatbiq etish, ish maqsadini anglash va natijaga mas‘uliyat bilan yondashish;

➤ talabalar tomonidan mavzuni, maqsad, vazifalarini murakkablik darajasini, shakl va usullarni mustaqil ravishda tanlash;

➤ talabalarni loyiha ustida guruhlarda ishlashga o‘rgatish mavzu va muammolarni aniqlash, vazifalarni taqsimlash, rejalashtirish, bahs-munozara natijalarini muhokama qilish va baholash.

➤ talabalarni turli xil shakldagi munozaralardagi ishtiroki.

➤ talabalarda o‘z harakatlarini tartibga solishni shakllantirish.

➤ baholash tizimi orqali talabalar o‘z bo‘lg‘usi natijalarini takomillashtirish, o‘z darajalariga va natijalariga baho berib, ularni yanada takomillashuviga erishish.

O‘qituvchilarda “Rivojlantiruvchi muhit”ni yaratishga yo‘naltirilgan harakatlar imkoniyatlari.

1. Mustaqil ravishda biror narsa qilmoqchi bo‘lganlarning harakatini rag‘batlantirish.

2. Qo‘yilgan maqsadga yetmoqchi bo‘lgan talabalar yutuqlarini namoyish etish va ularning yutuqlari bilan qiziqish.

3. Aniq qo‘yilgan, mukammal, lekin amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan maqsadlarga undash.

4. Atrofdagilarning qarashlariga nisbatan o‘z qarashlarini ifodalashga o‘rgatish.

5. Boshqacha xulq va fikrlash usullariga undash.

6. Talabalarni turli xil rivojlantiruvchi faoliyatga o‘rgatib borish.

7. Turli motivatsiya shakllarini yaratish va talabalar faoliyatini yanada faollashtirish.

8. Madaniy namunasi va tushunchasi negizi asosida o'z dunyosini tasvirlash.

9. Shaxsiy tasavvurlari asosida yangi faoliyat sharoitlarini yaratish.

10. Muammolarni hal qilishni o'z tushunchasi bo'yicha qo'rqmas dan bayon qilishga o'rgatish.

11. Savol berishga va o'z fikrini bayon qilishga o'rgatish.

12. O'zgalarni tinglash, ular fikrini tushunish, lekin ular bilan kelishuvchanlik qoidasiga amal qilish.

13. Qiziqishi va qobiliyati yuqori va o'zgacha bo'lgan talabalarni tushunishga o'rgatish.

14. Muhokama qilinayotgan muammoga o'z nuqtayi nazarini bildirish va guruhda o'z o'rnini bo'lishiga o'rgatish.

15. Talabalarga ish natijalarining baholarini to'liq tushunarli yetkazib berish.

16. O'z faoliyatini va uning natijalarini aniq manbalar asosida o'zini-o'zi baholashga o'rgatish.

17. Agar talabalar xato qilsalar ularni qo'llab-quvvatlash va xatolarini tuzatishlariga yordam berish.

18. Talabalarga qanday qilib mustaqil o'qish mumkinligini ko'rsatish va yangicha narsalarni o'ylab topish.

19. Talabalarga "Bilmayman", "Bajara olmayman", "Tushuna olmayman" tushunchalari uyat emasligi, ularning o'rniga esa, dastlab, "Bilaman", "Bajara olaman" va "Tushuna olaman" iboralarini tushuntirish.

20. Talabalar o'z tengdoshlari bilan muhokama qilinayotgan mavzu va muammolarni, o'z fikri va kechinmalarini o'rtoqlashishlari yoki fikr almashishlariga imkoniyat yaratish.

21. Yakuniy va ijobiy natijalarga erishish uchun talabalarga mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga o'rgatish.

4. Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlari

Ta'lim-tarbiya sohasining demokratlashuvi o'quv yurtlarida turli model-andozalarni qo'llash talabalar individual jihatlarini inobatga olgan holda o'quv jarayonlarini tashkil etish imkoniyatlarini yaratadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida koʻzda tutilgan va tatbiq etilayotgan meʼyorlar esa oʻqituvchi va murabbiylarni ijodiy izlanishga, oʻz oʻquv kurslarini tashkil etishga, yangi innovatsion ishlanmalar yaratishga va keng qoʻllashga safarbar qilmoqda. Natijada bu sohada oʻqituvchilarni professional tayyorlashning turli modellari va andozalarini tatbiq etish sharoitlari yuzaga keldi.

Oʻqituvchilarni professional tayyorlashning didaktik modeli (taʼlim-tarbiya andozasi) asosan ikki jihatni oʻzida jamlagan: **birinchisi**, oʻzgarimas umumiy asos (barcha modellar uchun tatbiq etiluvchi didaktik jihat); **ikkinchisi** esa, oʻzgaruvchan muhitdan iboratdir.

Umumiy didaktik model taʼlim tizimining asosini tashkil etib, sohaning maqsadiga itoat qiladi. Oʻzgarimas model esa asosan fundamental taʼlimga yoʻnaltiriladi. Bunda oʻqituvchilar tayyorlashning umummilliy asoslari jamlangan boʻlib, maʼlum bir qolipda butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Oʻzgarimas tizimning bosh boʻlagi texnologik tayyorgarlik sanaladi hamda oʻquv va taʼlim yoʻnalishiga qarab moslashtiriladi. Bugungi kunda umumiy oʻrta taʼlim muassasalarini uch guruhga boʻlish nazarda tutiladi: bular umumiy taʼlim, innovatsion va maxsus taʼlim maktablaridir. Yangi avlod oʻqituvchilarini tayyorlashning asosi, bizningcha, oliy pedagogik taʼlimning fundamentallashuvi va oʻzgarib borishida koʻzga tashlanadi. Jumladan, ijtimoiylashtirish, tabaqalarga boʻlib oʻrgatish va innovatsion-pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni hayotga keng tatbiq qilish ana shular jumlasidandir. Hozirgi zamon oliy pedagogik taʼlim tizimining oʻziga xos asosiy xususiyati uning uzluksizligi va davomiyligidir. Bakalavr, magistr, mutaxassis kabilar shular sirasiga kiradi. Oʻqitishning yangi shakllari eksterant, distatsion — yaʼni masofadan turib taʼlim olish, internet-taʼlim va shu bilan birga, yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatlarga mos turli koʻnikma, bilim va tajribaga ega boʻlgan oʻqituvchilar tayyorlash zarurati har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Ana Shunday oʻqituvchilar tayyorlash modeli zamon va ijtimoiy hayot talablariga mos mutaxassislar tayyorlash va ularning kasbiy mahoratlarini oshirishni koʻzda tutadi. Universitetlar, gimnaziya, maʼlum predmetlarni chuqur oʻrgatishga moʻljallangan maktablar va ixtisoslashtirilgan guruhlarga oʻqituvchilar tayyorlashni nazarda tutgan

holda faoliyat yurgazishlari lozim.

Pedagogik universitetlar esa umumta'limning barcha maktablari uchun, birinchi navbatda, metodik va psixologik-pedagogik tartiblarni nazarda tutgan holda mutaxassislar tayyorlashlari darkor. Texnik (tarmoq) oliy o'quv yurtlari esa litsey va kollejlari uchun, ma'lum ixtisosliklarni nazarda tutgan holda o'qituvchilar tayyorlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida taklif qilingan modellarning eng muhim jihatlari turli ta'lim muassasalari talablaridan kelib chiqqan holda mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirishdan iboratdir.

Fanning tezkor suratlarda rivojlanishi bilan jamiyat buyurtmalari o'rtasidagi nomutanosiblik, o'qituvchilar tayyorlashga qo'yilayotgan talablarning yanada o'sishi, bu sohada quyidagi asosiy shartlarni ko'ndalang qo'yadi: bunda zamonaviy ta'lim tajribalaridan kelib chiqib, o'qituvchilar tayyorlashning turli yo'nalishlarini qamrab olgan model tavsiya etiladi, bu ishga turli sohalarga ixtisoslashtirilgan oliy o'quv muassasalari jalb qilinadi.

Davlat tomonidan tavsiya etilgan umumiy ta'lim modelining instrumental qismi, ya'ni qo'llanmalar tayyorlash bo'limi alohida qayta tashkil etishga molik. Chunki o'qituvchining bugungi kun talab darajasidagi tayyorgarligi masalasi shunga bog'liqdir. O'qituvchi faoliyatining ilmiy-metodik ehtiyojlari turli yo'nalish va sohalaridagi ta'lim maskanlariga moslashtiriladi.

Oliy pedagogik ta'lim tizimida qo'llanib kelinayotgan mavjud model qolipi barcha uchun umumiy hisoblanadi. Uning talablari omma uchun tushunarli bo'lishi ko'zda tutilgan. Qo'llashda esa aniq reja va maqsadlar belgilab olinadi. Umumiy model qolipi bilan cheklanib qolmay, balki instrumental-model andozasini ishlab chiqish zamon talabidir. Bu yangi model tizimida o'qituvchi-murabbiyning vazifalari, kompetentligi, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy-nazariy metodlar, ijtimoiy-pedagogik, madaniy-ma'rifiy masalalar, tashkiliy, boshqaruv va taraqqiy etishni yo'naltirish masalalari o'z aksini topishi lozim.

O'qituvchilarni professional tayyorlashning zamonaviy modelini (andozasini) hayotga tatbiq etishdan ko'zlangan maqsad kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirish, pedagogika oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining harakatchanligi va o'zlari tanlagan kasb yo'nalishlarida dadil faoliyat ko'rsatishlari uchun

sharoitlar yaratib beradi.

O'qituvchilarni professional kasbiy tayyorlashning turli-tuman modellari ichida kompetensiya modeli ham alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda, kasbiy kompetensiya va pedagogning professionallik masalalarini bir-biridan ajratib olishimiz darkor. Biz yuqorida mamlakatimiz va xorijiy pedagog olimlarning izlanish va tadqiqotlariga e'tibor qaratar ekanmiz, bir qator tayanch pedagogik atamalarni tilga oldik. Bu atama va tushunchalarning mazmun-mohiyati bir-birini to'ldirib, pedagogik faoliyati qirralari sifatida, ma'lum atama unsurlari sifatida qo'llanildi, ular:

➤ pedagogik mahorat; kasbiy tayyorgarlik; professionalizm; pedagogik kompetensiya; kasbiy kompetensiya; zamonaviy pedagog; zamonaviy o'qituvchi;

➤ zamonaviy model; pedagogik kompetensiya modeli;

➤ professional tayyorlashning zamonaviy modeli.

Biz keltirayotgan atamalarni qo'llashdagi kamchiliklar, birinchidan rus tili yoki boshqa xorijiy tillardan to'g'ridan to'g'ri tarjima qilib olishdagi nuqsonlar hisoblanadi. Ikkinchidan, ularning mazmunini bilmay turib, qanday ma'noda qo'llanilayotgan ligini anglamay turib, maqsadimizni to'g'ri belgilay olmaymiz. Mazkur uslubiy qo'llanmamizda, biz oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi masalasida fikr yuritar ekanmiz, uni darsga tayyorgarligi masalasida emas, o'zining umumiy faoliyatini bajarish borasidagi tayyorgarligi to'g'risida to'xtalishni vazifa qilib qo'yganmiz.

Rene Dekard ta'kidlaganidek, "So'zni to'g'ri aniqlab oling, shunda siz dunyoni tushunmovchiliklarining teng yarmidan xalos qilgan bo'lasiz". Demak, pedagogik mahorat o'z kasbiy faoliyatida turli usullarni, yo'llarni mahorat bilan qo'llab, o'z faoliyatini muvaffaqiyat bilan bajarish demakdir. Pedagogik professionalizm ana shu mahoratni oliy darajadagi nazariy va amaliy bilimlarni, tajribalarni, mahoratni qo'llagan holda bajarish demakdir. Demak, u mahoratga nisbatan ancha baland darajani aks ettiruvchi tushuncha hisoblanadi. Unda kompetensiyani qaysi o'ringa qo'yish mumkin?

Professionalizm – o'z kasbining ustasi degan ma'noni beradi. Kompetensiya esa o'z kasbiga munosib, o'z kasbini har tomonlama uddalay oladi degan ma'noni anglatadi. Shunday qilib, pedagogik kasbiy kompetensiya professionalizm bilan mahoratli yoki pedagogik

mahorat o‘rtasida turuvchi tushuncha ekan. O‘zbek tilida “professionalizm”ni “master”– “usta”, “masterstvo” – “mahorat” so‘zlari bilan umumlashtirib, ustoz atamasini ham qo‘llash mumkin. Ammo xalqaro andozalardan kirib kelgan “professionalizm” va “kompetensiya” tariqasida qo‘llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu ikki atamani tushuntirish, ularning farqini aniqlash orqali o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi masalasi haqidagi fikrimizni dalillashga harakat qilamiz. Kasbiy tayyorgarlikning eng asosiy qismi hisoblangan nazariy tayyorgarlikni avval tahlil qilib olamiz.

Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar qanday bo‘lishidan qat’i nazar ularni hayotga tatbiq etish o‘qituvchi zimmasiga kelib tushadi. Aynan o‘qituvchi barcha yangiliklarni amaliyotda ro‘yobga chiqaruvchi eng asosiy shaxs hisoblanadi. Turli innovatsion g‘oyalarni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun yangi sharoitlarda oldinga qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun pedagog zarur darajadagi kasbiy kompetensiyaga va professionalizmga ega bo‘lishi lozim.¹⁰ To‘g‘risini aytish kerak, dunyo olimlari oldida keyingi o‘n yilliklarda “pedagogik-professionalizm”ga nisbatan “kasbiy kompetensiya” psixologik fanlarning o‘rganish obyektiga aylandi, ammo ko‘p hollarda KZK, ya’ni kasbiy zarur kompetensiyalar doirasida ilmiy izlanishlar olib borildi. Ularni shakllantirish va baholash bilan shug‘ullandilar. Natijada inson professional sifatida psixologik nuqtaiy nazaridan nimani anglatadi, kasbiy faoliyat subyekti sifatida o‘z ishining ustasi, boshqa odamlardan qanday hislatlari bilan ajralib turadi, degan savollarga javob topilmay qoldi, albatta, “kasbiy kompetentlik” va “professionalizm” tushunchalari ham o‘qituvchi faoliyatiga beriladigan baho sifatida qo‘llanila boshladi. “Professionalizm” bu atamaning ilmiy ma’nosi turli sharoitlarda murakkab faoliyatni muntazam ravishda samarali va ishonchli bajara oladigan inson xususiyati demakdir. Inson tomonidan kasbiy faoliyati psixologik tizimning shunday darajasiki, u jamiyatda mavjud bo‘lgan me’yor va obyektiv talablarga mos keladi. Professionalizmga erishish uchun istak, izlanuvchanlik, doimo o‘qish-o‘rganishga tayyorgarlik va o‘z mahoratini oshirib borish kabi qobiliyatlar zarur bo‘ladi. **“Professionalizm”** tushunchasi mehnatning oliy-malakali ekanligi

¹⁰ Дружиллов С.А.Профессиональная компетентности и профессионализм педагога. Психологический подход. Сибирь. Философия. Образование. Альманах. С.О.РАО. ИПК, г., Новокузнецк –2015. № 8.

bilan cheklanib qolmaydi, balki bu insonning eng muhim dunyoqarashi ham demakdir. Albatta, o‘qishni bitirgandan so‘ng oliy o‘quv yurtini tamomlagan odamga diplom beriladi. Bu albatta, bitiruvchining professional ekanligidan dalolat bermaydi. Yaqin-yaqingacha oliy o‘quv yurtini bitirib kelgan kishini “yosh mutaxassis” deb atashar edi. Bu, unga berilgan maqom. Bugungi kunda berilyotgan “Magistr” malakasi ham shular jumlasidandir. Unga kasbiy tajriba oshirishi uchun ancha vaqt va sharoit zarur bo‘ladi. Shunday qilib, diplomli, malaka darajasini ko‘rsatuvchi sertifikatli inson uchun, albatta, bular zarur hujjat, ammo ularning professional bo‘lib yetishishlariga to‘laqonli imkoniyat bermaydi. Inson bunday xususiyatga maxsus tayyorgarlik va ko‘p yillik ish tajribasi orqali erishadi. Aytish joiz bo‘lsa, balki erisha olmas ham. Faqat “professional” sanaladi, xolos.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetetlikka oid ilmiy yondoShuvlarni tushintirib bering?
2. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish aspektlarini tushintirib bering?
3. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish tizimini tushintirib bering?
4. Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlarini aniqlang?

III BOB. ZAMONAVIY PEDAGOG MODELI

REJA:

1. O‘qituvchi shaxsi umumiy xususiyatlari. O‘qituvchi shaxsining yo‘nalganligi.

2. Zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Faoliyatda namoyon bo‘ladigan o‘qituvchining professional ahamiyatli fazilatlari.

3. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarning shaxsiy, huquqiy jihatlari.

1. O‘qituvchi shaxsi umumiy xususiyatlari. O‘qituvchi shaxsining yo‘nalganligi

Insonda professionalizmni tashkil etuvchi unsurlardan biri kompetensiya hisoblanadi. Biz yuqorida mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan unga turli-tuman tushunchalar, har xil fikrlar berilayotganligi haqida fikr yuritgan edik. *Xorij adabiyotlarida kompetensiyani “chuqur bilimdonlik”, “berilgan vazifalarni munosib bajarish xususiyati”, “faoliyatni dolzarb va tezkorlik bilan bajarish qobiliyati”, deb tushuntirishga urinadilar.*

Kasbiy kompetensiya mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi jarayonlarida shakllanadi va takomillashib boradi. Oliy o‘quv yurtida olib borilgan ta‘lim kasbiy kompetentlik asoslarini shakllanishi jarayoni deb qaralsa, malaka oshirish tizimidagi o‘qish bu kasbiy kompetensiya takomillashuvi va yanada chuqurlashuvi jarayoni sanaladi hamda kompetensiyaning oliy darajaga ko‘tarilishi deb baholash mumkin. Bunda, albatta, “kompetentlik” va “kvalifikatsiya” – “malaka” tushunchalarining pedagogik mohiyatini bir-biridan farq qila bilishni talab qiladi. Mutaxassis uchun berilgan malaka undan mazkur kasb bo‘yicha tajriba talab qilmaydi, balki o‘quv jarayonlari davomida olgan bilim va ko‘nikmalarini ta‘lim standartlari talablariga javob berishini ta‘minlaydi. Kvalifikatsiya bu, kasbiy ta‘limning shunday turi va darajasiki (tayyorgarlik), u mutaxassis uchun ma‘lum bir ish joyida ishlash imkonini beradi. Mutaxassis o‘zi uchun zarur bo‘lgan kasbiy tajribaga ega bo‘lmay turib, malaka oshirishi mumkin. Shulardan ko‘rinib turibdiki, “professionalizm” tushunchasi “kasbiy

kompetensiya” tushunchasiga nisbatan ancha kengroqdir. **Professional** – o‘z kasbining ustasi bo‘lish, nafaqat bilish, ularni qanday amalga oshirishni bilishgina emas, balki ana shu bilimlarni hayotga tatbiq eta olish hamda samarali natijalarga erishishi ham demakdir. Professionalizm deganda, unga baho berishda, so‘z samarali kasbiy faoliyat to‘g‘risida bo‘lishi lozim. Pedagogik kompetensiya va professionalizm haqida va ularni bir-biridan ajratib turuvchi jihatlari to‘g‘risida gaplashib o‘tdik. Demak, professionalizm mutaxassis kasbiy jihatdan o‘shining turli qirralarini aks ettiradi va kasbiy kompetensiyaning to‘rt turini o‘zida ta’minlaydi.

1. Ijtimoiy yoki faoliyat ko‘rsatuvchi kasbiy kompetentlik oliy darajadagi kasbiy faoliyat hisoblanib, o‘z tarkibiga nafaqat maxsus bilimlarni egallaganlikdan tashqari ularni amaliyotda qo‘llay olishni bilish demakdir.

2. Ijtimoiy kasbiy kompetensiya hamkorlikda olib boriladigan faoliyat usullarini egallaganlik, kasbiy muloqot usullariga ega bo‘lish.

3. Shaxsiy kasbiy kompetensiya. O‘z-o‘zini namoyish qilish va rivojlantirish, kasbiy deformatsiya, tanazzulni oldini olish, usullarini egallaganlik, ularning ichiga mutaxassis tomonidan o‘z kasbiy faoliyatni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni anglash xususiyatlari ham kiradi.

4. Individual kasbiy kompetensiya o‘z-o‘zini boshqarish yo‘lini egallaganlik, kasbiy o‘shiga tayyorgarlik, o‘z ishiga sodiqlik, sabr-toqat xislatlari bilan xarakterlanadi.

Zamonaviy o‘qituvchining asosiy kompetensiyasi:

1. O‘z “ta’limiy kamchiliklari”ni mustaqil tuzatib, talabalar bilan birga o‘qishni bilish.

2. Talabalarni mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishni bilish.

3. O‘quv jarayonini sahnalashtirish bunda turli xil faoliyat usullaridan foydalanish, ularga talabalarning moyilligi va qiziqishiga qarab ishlarni taqsimlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

4. Tadqiqotchilik tafakkuriga, talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini tashkil etishni bilishi kerak.

5. Talabalarni yutuq va rivojlanishlarini baholash tizimi dan foydalanish.

6. O‘quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ni bilish.

7. Dars jarayonida suhbat va bahs-munozara olib borish, talabalar o‘zlari xohlab aytmoqchi bo‘lgan fikr, qarash va munosabatlarini bayon eta olishlariga yo‘naltirilgan muhit yaratish. Nafaqat talabalar bir-birlari bilan balki, o‘qituvchi bilan ham shaxsiy qarash va munosabat, tanqidlarni tahlil qilishlari kerak.

O‘qituvchining tayanch pedagogik kompetensiyasi yuzasidan Rossiyada kasbiy standart talablari ishlab chiqarilgan bo‘lib, ular:

- ijtimoiy-shaxsiy kompetensiya;
- pedagogik faoliyat maqsad va vazifalarini amalga oshirish;
- o‘quv faoliyati motivatsiyasi;
- informatsion kompetensiya;
- pedagogik dasturlarini ishlab chiqish va qaror qabul qilish;
- o‘quv faoliyatini tashkil etish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oliy ta‘lim o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasi tizimi uchun tayanch hisoblangan bir necha turini tilga olishimiz mumkin.

1. Aksiologik kompetensiya (rivojlanish va takomillashuv) – shaxs qadriyatlari, individligi, kasbiy pedagogik faoliyat maqsadlarini chuqur anglashi, kasbiy yetik madaniyatga ega bo‘lishi, o‘z kasbini yashashdan maqsadi deb bilishi, talabalarni o‘qitish jarayonlarini ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni kashf etish deya bilishi, pedagogik fanlarning insonparvarlik funksiyalarini chuqur idrok qilishi.

2. Ijtimoiy-huquqiy kompetensiya – ta‘lim jarayonining me‘yoriy-huquqiy asoslari, xususan, uni modernizatsiyalash borasidagi hujjatlar yuzasidan bilimlar, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari hamda me‘yorlariga amal qilish, bolalar va o‘smirlarni ijtimoiy yomon illatlardan muhofaza qilishni bilish, ta‘lim jarayonida talabalarning hayoti va salomatligini asrashni bilish, oliy ta‘lim muassasasi va auditoriya hujjatlarini yuritish ko‘nikmasiga ega bo‘lish demakdir.

3. Ma‘lumotlilik kompetensiyasi – kasbiy faoliyati bo‘yicha belgilangan vazifalarni yechish uchun umumiy va maxsus nazariy fan asoslarini to‘laligicha bilish, pedagogik fanlar va ta‘lim tarqqiyotining asosiy yo‘nalishlari haqida bilimga ega bo‘lish, axborot texnologiyalarining turli manbalari bilan ishlashni bilish (bosma,

elektron, internet) ma'lumotlardan maqsadga muvofiq samarali foydalanishni bilish ko'nikmasidir.

4. Metodik-texnologik kompetensiya – kasbiy faoliyatni chuqur anglash va uning ijodiy tabiatini ro'yobga chiqarish. O'z malakasini takomillashtirish uchun bilimlarini oshirib borishga tayyorligi, oliy ta'lim darsliklari va dasturlari borasidagi bilimlari, ular yordamida yillik mavzularga oid rejalar ishlab chiqishni bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'zi o'qiyotgan fan, soha talablaridan kelib chiqqan holda darsda va darsdan tashqarida faoliyat olib borishi, turli-tuman metodlar, usullar va o'quv jihozlari (kompyuter va boshqalar)dan foydalanishni bilishi, ta'limga shaxsiy yo'naltirilganlik nuqtayi nazaridan yondoshuv, mazmun-mohiyatini yaxshi tushunishi, guruh rahbari vazifasini bajara olishga tayyorgarligi, bunda shaxs madaniyatining barcha yo'nalishlari bilan bog'liq barcha vazifalarni yecha bilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, belgilangan maqsad va vazifalarni yechishga mos tarzda qo'llay bilishi, talabalarning shaxs sifatida shakllanishi uchun tarbiyaviy va yo'l-yo'riq ko'rsatish ishlari orqali turli ijtimoiy tabaqalar bilan hamkorlikda (talabalar jamoasi, oila, qo'shimcha ta'lim tizimi, madaniy-ma'rifiy ishlar) ta'sir ko'rsata olishdan iborat.

5. Kommunikativ kompetensiya. Hamkorlikda ta'lim faoliyatini tashkil etishni bilishi, bag'rikenglik bilan ish yuritishi, ziddiyatli vaziyatlarda o'zini munosib tuta bilishi, guruh jamoasini demokratik boshqarish va o'z-o'zini boshqarish faoliyatida ishtirok etishi, talabalar ijtimoiy faoliyati uchun ko'maklashishi, o'zining ilmiy-metodik faoliyati natijalarini taqdim etishni bilishi va boshqalar.

6. Tahliliy nazorat kompetensiyasi. Pedagogik jarayonlarning bir butunligini ta'minlovchi, psixologik mexanizmlarni tahlil qila olishi, o'quv tarbiyaviy jarayonlarning barcha bosqichlarida hushyorlik bilan faoliyat ko'rsata olishi, ta'lim natijalarini baholashning an'anaviy va zamonaviy vositalarini (test, reyting, portfolio) bilishi, shaxs, talaba va guruh jamoasini o'rganish va bashorat qilishni turli pedagogik-psixologik usullariga ega bo'lishidan iborat.

7. Loyiha tadqiqotchilik kompetensiyasi. O'zining kasbiy faoliyatidan qoniqmaslik va shu asnoda uni yangilash, takomillashtirishni bilishi, ta'lim jarayonlari qatnashchilari bilan barcha tashkiliy ishlarning mazmun-mohiyati va metodlari borasida

o‘zaro hamkorlik qilishi, o‘quv-dasturiy hujjatlarni tayyorlash asoslarini bilishi va ulardan ta’lim mazmundorligini ro‘yobga chiqarishda foydalanishi, bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy jihatdan moslasha olmayotganligini bilishi va bunday holatlarning oldini olishi, psixologik-pedagogik tadqiqotlar loyihasini ishlab chiqishni bilishi kabilardan iborat.

Kasbiy pedagogik kompetensiya mezonlarini ishlab chiqish eng murakkab pedagogik muammo, eng dolzarb masala ekanligini ta’kidlar ekanmiz, bu borada aniq ishlab chiqilgan o‘lchovlar yo‘qligini ham tan olishimiz lozim. Oliy ta’lim o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasi tizimi pedagogning mahoratida ko‘zga tashlanadi. Biz yuqorida keltirgan o‘qituvchining kompetensiya modelini uning kasbiy tayyorgarligi modeli desak xato qilmaymiz. Kasbiy kompetensiyaning eng muhim qirralaridan biri o‘qituvchi-pedagogning nazariy tayyorgarligi masalasidir.

Pedagogning kasbiy potentsiali (PKP) formulasiga binoan shaxsning o‘zgarmaydigan tug‘ma qobiliyatlari (tq)dan, qisman o‘zgaradigan shaxsning maxsus qobiliyati (qo‘mq)dan, maxsus tayyorgarlik jarayonida tarkib topadigan qobiliyatlari (mtjttq)dan va pedagogning amaliy faoliyatida o‘zlashtiriladigan (afo‘q) qobiliyatlari yig‘indisi ekanligini ko‘p sonli tadqiqotlar tasdiqlagan.

Kasbiy potentsial tushunchasining umumiy tuzilmasi yetarli darajada murakkab va ko‘p qirrali. Uni I.P.Podlasiy quyidagicha tasavvur etish mumkinligini ko‘rsatadi.

Demak, o‘qituvchilik mahorati integrativ fazilat (sifat) bo‘lib, yuqori darajadagi madaniyat, bilim, malaka, amaliy qobiliyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Y.P.Azlarovning fikricha, pedagogik mahorat cho‘qqisiga yetishish juda mushkul va uzoq vaqt talab etadigan jarayondir.

Haqiqiy usta o‘qituvchi bo‘lish uchun inson tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lishi zarur, degan fikrlar ham mavjud. F.Gallning fikricha, inson bosh suyagi bilan insonning aqliy va axloqiy fazilatlari orasida bog‘liqlik mavjud.

Pedagogning kasbiy imkoniyatlari (potensial) tuzilmasi

Kasbiy tayyorgarlik	Pedagogik ijodkorlik	Pedagogning kasbiy mahorati	Pedagogik madaniyat
Kasbga yo'naltirish	Pedagogik Intellekt	Innovasion faoliyat	Pedagogik tafakkur yuritish (fikrlash stili)
Kasbiy kamol topish	Kasbiy layoqat (kompetentlik)	Gumanistik (insonparvarlik) yo'nalishi	Pedagogik texnika
Kasbiy yo'nalganlik	Faoliyati jarayonida yangiliklarga intiluvchanlik	Kasbiy rivojlanish	Muloqot mahorati
Pedagogik mehnatga tayyorgarlik	Mehnatga ijodiy munosabat	Kasbiy nuqtayi nazar	Ijtimoiy faollik
Kasbiy moyillik	Ijodiy tashabbuskorlik	Kasbiy faollik	Metodik mahorat

“Frenologiya” - bosh suyakning tashqi shakli bilan inson aqliy va axloqiy fazilatlarining bog'liqligini o'rganuvchi fandır. U avstriyalik vrach F.Gall tomonidan ilgari surilgan.

Bunday qiziqarli faraz vositasida kimning bosh suyagi ensa gardan qismiga bo'rtiq (do'nglik) mavjud bo'lsa, u o'qituvchilik kasbini tanlashi mumkinligiga ishora qilinadi.

E.A.Klimovning fikricha, pedagog kasbi sohiblarining mehnat predmeti inson-texnika, ishlab chiqarish texnologiyasi, ya'ni uning asosiy mazmuni insonlarning o'zaro bog'liq munosabatidan iborat bo'ladi. Pedagogik kasb sohibi quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak: insonparvarlik, gumanizm, faoliyatining jamoaviy va ijodiy xarakterga egaligi kabilar.

N.V.Kuzmina o'qituvchi mehnatining turli jihatlarini psixologik nuqtayi nazardan tadqiq etib, faqatgina 12 foizgina o'qituvchilar tom ma'noda kasbiy pedagogik mahorat sohibi ekanligi, aksariyat o'qituvchilar esa ta'lim-tarbiya usullarini yaxshi egallaganliklari va buning natijasida yuqori samaradorlikka erishganlarini ko'rsatadi.

Ideal pedagog

Mutaxassis	Ishchi-xodim	Inson
<p>Pedagogika nazariyasini bilish, pedagogik mahoratga ega bo'lish, psixologiyani bilish, ta'lim-tarbiya texnologiyalarini qo'llay olish malakasiga ega bo'lish, mehnatni oqilona tashkil eta bilish malakasi. Ishga muhabbat, o'quvchilarni sevish. Insonga ishonch. Pedagogik qobiliyat, umumiy aql-zakovat, sabr-toqat, kelajakka ishonch. O'zini tuta bilish, izlanuvchanlik, reaksiyalarining aniq va tezligi, ko'ngilchanlik, bolalarni tushunish, xohishi, nutqining aniq va ishonchligi, talabchanligi, adolatlilik, to'g'ri so'zlik, tashkilotchilik malakasi, muloqotga kirishuvchanlik, birovlarni tinglay olishlik.</p>	<p>Maqsad qo'yib unga erisha olish. Muntazam va rejali ravishda malakasini oshira borish, mehnat unumdorligini oshirishga intiluvchanlik. Ijodkorlik qobiliyati: har tomonlama ma'lumotlilik, mantiqiy fikr yuritish, kelajakka ishonch. Ishlash ishtiyoqi. Ishiga (kasbiga) sadoqat, jamoada ishlash malakasi, tirishqoqlik, tartibintizomlilik, faollik, ishlab chiqarish vaziyatlariga yo'naltirilganlik, ishlarni taqsimlay olish malakasi. Javobgarlikni o'ziga olishga tayyorgarlik.</p>	<p>Yuqori axloqiy sifatlar jamoatchilik hayotida faol ishtirok etish. Faol hayotiy nuqtayi nazar (pozisiya), har doim va har qachon shaxsiy o'rnak, davlat qonunlariga hurmat, milliy g'urur, vatanparvarlik, vatanini himoya qilishga tayyorlik, mustahkam sog'lik, sog'lom hayot tarzi, insonparvarlik, ma'naviylik, muloqotga kirishuv chanlik, oqillik, o'ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiy munosabatda bo'lish.</p>

Shuningdek, pedagogning mehnati aqliyligi, yuksak his-tuyg'u (emotsional)ga egaligi va fuqarolik burchini his etishi bilan ham farqlanadi. Pedagogning insonparvarlik xislatlari o'zining shogirdlari, atrofida qilarga yordam ko'rsatishga doim tayyorligida, ularga nisbatan diqqat-e'tibor berishida, hurmatida namoyon bo'ladi. Pedagog (murabbiy)lar o'z shogirdlari bilan o'zaro munosabatni ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, xususan individual yosh xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'lgan tafakkurlash xususiyatlariga ko'ra tashkil etadi. Pedagogik faoliyatning yana bir muhim jihati ijodkorlik hisoblanadi. Pedagoglarga nisbatan ijodkorlik muntazam o'zgaruvchan sharoitda kasbiy masalalarning yechimini topishni talab etadi. Pedagogning faoliyati jamoaviy xarakterga ega bo'lib, pedagogik faoliyat natijalariga boshqa o'qituvchilarning ishlari, oila, shuningdek,

boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Albatta, pedagogning mehnatidagi muvaffaqiyat to'g'ridan to'g'ri va bevosita jamoadagi psixologik iqlimga, o'qituvchilarning hamkorlik darajasiga, ularning ruhiy va jismoniy his-tuyg'ulariga bog'liq. Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning barcha sohalari kabi ta'lim sohasida ham kasb ichida tabaqalanish, ya'ni ixtisoslikka ajralish jarayoni kechmoqda. Shu bois ham kasb-hunar pedagogikasi mutaxassislar tayyorlashning mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqqan. Amaldagi oliy ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, mutaxassisliklar va ixtisosliklar tasniflagichiga binoan umumlashgan holda "ta'lim" nomi bilan yuritilgan guruhga kiritilgan. Professional ta'lim o'qituvchisi ko'p ixtisoslik va mutaxassisliklarga ega. Ta'lim sohasida "mutaxassislik" tushunchasi (iborasi) ta'lim yo'nalishi va mazmunini o'zida aks ettiruvchi kategoriya sifatida qaraladi. Mehnat sohasida esa u kasb-hunar doirasida mehnatning yo'nalishi va o'ziga xos mazmuni deb talqin etiladi.

2. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar. Faoliyatda namoyon bo'ladigan o'qituvchining professional ahamiyatli fazilatlari

O'qituvchiga qo'yilgan talablar: o'qituvchining vazifasini kasbiy pedagogik va ijtimoiy o'ziga xosligi har doim o'z shogirdlari, ota-onalar, keng jamoatchilik nigo-hida bo'lishi, ular shaxsiga, axloqiy qiyofasiga yuqori talablar qo'yadi. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar qat'iy kasbiy sifatlar tizimi bo'lib, kasbiy pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydi. Eng avvalo, shuni unutmaslik zarurki, amaliy pedagogik faoliyatning faqatgina yarmi oqilona texnologiyaga asoslanib quriladi. Qolgan yarmisi esa, san'atdir. Shuning uchun ham pedagog kasbiga qo'yilgan birinchi talab pedagogik qobiliyatlarning mavjudligidir. Bunday yondashuvga asoslanib biz pedagogda maxsus pedagogik mahorat mavjudmi, degan savolni qo'yishga majbur bo'lamiz. Pedagogik qobiliyatlar bolalar bilan ishlashga moyillik, bolajonlik, ular bilan muloqot va munosabatda bo'lib, qoniqish hosil qilish kabilarning mujassamligini ko'rsatuvchi shaxsiy fazilatlardir. Pedagog shaxsining tuzilmasida kasbiy fazilatlar muhim ahamiyatga ega. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: maqsadga intiluvchanlik, shaxsiy faollik, o'z- o'zini boshqara olish, o'quvchilar

bilan ishlash xohishining mavjudligi, ekstremal vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik, to'g'riso'zlik, haqgo'ylik, zamonaviylik, insonparvarlik, bilimdonlik, pedagogik takt sohibi ekanlik, intizomlilik, pedagogik ishonchlilik. O'qituvchining muhim kasbiy pedagogik fazilatlaridan biri mantiqiy fikrlash hisoblanadi. Bunday xislat tushunchalarni tahlil etish, sintezlash, turlash, mantiqiy aloqalarini o'rnatish, operatsiyalarini bajarishga yo'naltirilgan mantiqiy fikrlash usullarini yaxlit shakllanganligi kabilarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, pedagog professiogrammasiga artistik qobiliyati ham kiradi. Bu qobiliyat obrazga kirib fikr va yechimlar topishni qamrab oladi. Shaxsning muhim kasbiy fazilatlari uning aqliy, emotsional, irodaviy tavsifi sifatida kasbiy pedagogik faoliyat natijalariga ta'sir ko'rsatadi, pedagogning individual ish uslubini belgilaydi.

Ta'lim sohasida mutaxassislik, eng avvalo, mutaxassis faoliyati turi va uning mehnati qo'llanish sohasini ko'rsatadi. Masalan, iqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha ma'lumot olish, ma'lum kasbiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va malakalar hamda shaxsiy fazilatlarni o'zlashtirishni anglatadi.


Pedagogik faoliyat ijtimoiy maxsus ko'rinish bo'lib, insoniyat jamiyati tomonidan to'plangan bilim, tajriba, madaniyat, shuningdek, o'quvchilarni rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlari avloddan avlodga uzatishga yo'naltirilgandir. Kasbiy pedagogik faoliyat maxsus tashkil etilgan ta'lim muassasalarida kechadi (amalga oshiriladi) va o'quvchilar shaxsini rivojlantiradi. Pedagogik faoliyatning maqsadi o'quvchilarning imkoniyatlari, jamiyat va davlatning mutaxassis kadrlarga bo'lgan talab hamda ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Bir tomondan, u turli ijtimoiy, etnik guruhlar va yaxlit jamiyatning, ikkinchi tomondan, alohida shaxslarning moyilligi, ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlarini o'zida ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning asosiy obyektlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: Ta'lim-tarbiya muhiti, ta'lim-tarbiya beruvchi jamoa, o'quvchilar faoliyati va ularning individual o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik faoliyatning maqsadi bevosita quyidagi ijtimoiy pedagogik vazifalar yechimini topish bilan bog'liq: tarbiyaviy mehnatni shakllantirish; o'quvchilar faoliyatini tashkil etish; tarbiyalovchi jamoani tuzish; shaxsiy sifat va fazilatlarni rivojlantirish. Kasbiy pedagogik faoliyat - bu integrativ faoliyat bo'lib o'ziga psixologik, pedagogik va ishlab

chiqarish texnologik komponentlarni qamrab oladi. Kasbiy pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi o'quvchilarni kasb-hunar sir-asrorlariga o'rgatish va shaxsiy rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat.

Kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida eng kamida quyidagi ikki turdagi munosabatlar sodir bo'ladi: pedagogning pedagogik ta'sir vositasi va predmetiga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi subyekt-obyekt munosabatlari; pedagogik o'zaro ta'sir jarayonidagi subyekt-subyekt munosabatlari. Pedagogik o'zaro ta'sir maqsadlarini amalga oshirish o'z navbatida, o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalari va usullarini tanlash hamda qo'llash bilan bog'liq.

Mavjud bilimlarga asoslangan holda, pedagog vositalar va o'z xatti-harakat usullarini qiyoslaydi. Pedagogik masalalar yechimini topish usullarini tanlab, o'qituvchi har bir o'quvchining individual sifatlarini mo'ljallashi, jamoadagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini, jihozlanganlik darajasini, pedagogik jarayon davomiyligini hisobga olishi zarur. Bundan pedagogik masalalarning yechimini topish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga va uning kasbiy mahoratiga bog'liqligi kelib chiqadi. O'quvchining kasbiy rivojlanishi kasbiy pedagogik faoliyatning asosiy natijasidir.

Pedagog shaxsi modeli



4-rasm. Pedagogning kasbiy layoqati muhim shaxsiy komponentdir.

U integrativ xususiyatga ega bo'lib, mutaxassisning ishchanlik va shaxsiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi hamda bilim, ko'nikma

malaka va tajribalar darajasida o‘z ifodasini topadi.

Zamonaviy pedagog imiji. Lug‘aviy jihatdan “**imij**” (ing. “*image*”) tushunchasi “siymo”, “timsol”, “qiyofa” va “obraz” ma’nolarini anglatadi. Mohiyatiga ko‘ra esa ushbu tushuncha yordamida “joziba”, “maftunkorlik” ma’nolari anglanadi.

Pedagogik imij pedagogning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko‘rinishi o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik, mutanosiblikni ifodalovchi obrazi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishida **pedagogning tashqi qiyofasi** ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga samarali ta’sir ko‘rsata olish uchun pedagog, o‘qituvchining tashqi qiyofasi quyidagi talablarga javob bera olishi zarur: o‘qituvchi tashqi ko‘rinishining o‘quvchilarga estetik ta’sir ko‘rsatishi, ularni estetik jihatdan zavqlantira olishi; o‘qituvchi sochining taralgan, chiroyli turmaklangan bo‘lishi; pardoz buyumlaridan o‘rinli foydalanish, yuzning ortiqcha bo‘yoqlardan holi bo‘lishi; o‘qituvchi liboslarining toza, ozoda, qomatiga yarashgan bo‘lishi, haddan ortiq hashamatli bo‘lmasligi lozim; zargarlik buyumlaridan imkon qadar xoli bo‘lish, ayniqsa, tovlanuvchi metallar – oltin va kumush taqinchoqlardan foydalanmaslik, libosning rangi va o‘qituvchining yosh xususiyatlariga muvofiq oddiy, hashamatli bo‘lmagan.

Shunday qilib, kishilik jamiyati taraqqiyotining shaxs tarbiyasi masalalari kun tartibiga qo‘yilgan ilk davrlardan oq bolalarning ta’limi va tarbiyasi uchun mas’ul shaxslar toifasining shakllanishi, ularning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan ijtimoiy talablarga javob bera olishlari, kasbiy mahoratga ega bo‘lishlariga nisbatan ijtimoiy talablar qo‘yila boshlagan.

Talabalarni ijtimoiy talablar bilan yaqindan tanishtirish, ularda pedagogik malaka va kasbiy mahoratni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik mahorat asoslari bo‘lajak mutaxassislarni ta’lim va tarbiya jarayonlarni metodik jihatdan puxta, tashkiliy jihatdan samarali tashkil eta olishlarida muhim poydevor hisoblanadi. Ularning pedagogik texnikaga ega bo‘lishlari kasbiy jarayonda yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarni samarali, salbiy nizolarsiz uyushtirilishini ta’minlash bilan birga hech bir qiyinchiliksiz ta’lim va tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etilishiga ham yordam beradi.

3. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarning shaxsiy, huquqiy jihatlari

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq, talaba-yoshlarni ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo‘lib qoldi. Chunki davlatning asosini ma’naviyat tashkil etadi, ma’naviyatiga e’tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo‘lmaydi. Shuni aytish kerakki, insonning ma’naviyati uning axloqi, odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Axloq esa aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar, o‘z navbatida, inson axloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Demak, axloq insonning ijobiy sifatleri majmuyidir. Odob va axloq bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Odob alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Odob – bu, har bir insonning jamoa bilan bo‘lgan muloqotida hamda yurish-turishida o‘zini tuta bilishini ko‘rsatadi.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan xulq odob normalari. Madaniyat – jamiyatning unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to‘plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi. Ma’naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy intellektual fazilatlar majmuasidir. Mustaqil fikrlash – bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy-hayotiy bilimlar majmualarining keragini saralab olish va amaliyotga qo‘llash. Ijodkor pedagog talaba-yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirishda ma’naviy qadriyatlarning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Pedagog ijodkorligi natijasida talaba-yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san’ati, an’analari va urf-odatleri haqida chuqur bilim oladi. Talabalarning ma’naviy merosga bo‘lgan qiziqishi oshadi. Dars jarayonida samimiy, sog‘lom ma’naviy muhit yaratiladi. Ma’naviy meros manbalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning xulq madaniyati kamol topadi. Talaba-yoshlarning xulq madaniyatni shakllantirish, birinchidan, dars jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishiga, ikkinchidan, ta’lim mazmuniga va pedagog-talaba hamkorlik faoliyatiga bog‘liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas’uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunda har bir darsdan pedagog maqsadni aniq

ko'ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi lozim.

Dars jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy harakteri, qiziqarliligi talabalarda ta'lim va tarbiyaviy tomondan o'rganiladigan bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularning bilimni kengaytirish, yuksak xulqli bo'lish kabi ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Barcha shakldagi dars jarayonlarida talabalar xulq, madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun savol-javob qilish, munozarali vaziyat paydo qilish, mustaqil ishlash, turli o'yinlardan foydalanish kabi usullardan foydalanish muhimdir.

Talabalarning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda ularga o'tmish adabiyoti, tarix, milliy urf-odatlar, an'analar haqida bilim berish pedagogdan doimo faollik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Talabaning ma'naviy ehtiyojini qondirish, qiziqishini o'stirish mustaqil ishlar, har xil ijodiy ishlar (insho, referat va boshqa) orqali amalga oshiriladi. Mustaqil ishlar pedagog va talaba faoliyatining uzviy bog'langan tomonlaridir. Mustaqil va ijodiy ishlarda talaba o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtayi nazari, qarashlarini shakllantirish bilan birga dunyoqarashi va ma'naviy saviyasini namoyon etadi. Mustaqil ishlash ko'proq darslik ustida ishlash, manbalarning mazmunini tahlil etish, ma'ruza, referat, konspekt tayyorlash, ijodiy insho yozish (chet tilida ham) kartochkalarga yozma javob berish, turli jadvallar, diagrammalar, sxemalar tuzishni taqozo etadi. Bularning barchasi talabadan izlanuvchanlikni talab qiladi. Mustaqil ishlar, seminarlarni tashkil etishda 4 xil manbalarga asoslanadi.

a) Darslik materiallariga;

b) Ma'naviy meros hisoblangan xalq og'zaki ijodi, diniy manbalar, mumtoz adabiyot va boshqalar;

v) Ommaviy axborot vositalari materiallariga (jurnal, gazetalar, radio eshittirishlar, oynayi jahon ko'rsatuvlari);

g) Hayotiy misollarga (oilaviy-maishiy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, ma'naviy qadriyatlar va h.k).

Og'zaki mustaqil ish turlari va o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini talabalar amaliy faoliyatida mustahkamlashtirishga yo'naltirilgan ba'zi bir yozma shakldagi mustaqil ishlar (insho,

savollarga yozma javob topish, jadval, diagramma, kartochkalarni to'ldirish)dan aralash dars shaklida keng foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, adabiyot darslarida "Allomalar mehmonimiz", "Temuriy ijodkorlar", "Bugungi davr - allomalar ko'zi bilan" kabi munozaralar, bahslarni tashkil etish mumkin.

Dars jarayonida pedagog ma'naviy meros manbalaridan ustalik bilan foydalanishi, ularning ta'lim va tarbiyaviy ta'sirini hisobga olishi, darsni "qanday tarzda tashkil etilishidan qat'i nazar (o'yin darsi, munozara darsi, sinov darsi va h.k.) uni uyushtirishda faol, ijodkor, qat'iy bo'lishi, ma'naviy merosni yaxshi bilishi va uni amaliyotga tatbiq qila olishi zarur. Talabalarning og'zaki mustaqil tayyorgarligi asosida noan'anaviy dars shakllarini uyushtirish ham xulq madaniyatini shakllantirishning samarali usullaridan hisoblanadi. Bunda turli mavzulardagi bahs - munozara darslarini o'tkazish mumkin. Bunday darslarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba keng hajmdagi ma'naviy manbalarga, badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalarga, pandnomalar, diniy manbalar, sharq allomalari hayotiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop, avtobiografik asarlar, matbuot va ommaviy axborot materiallariga murojaat qiladi. Natijada muammoli savollarga javob topadi, ajdodlar ma'naviy merosi bilan tanishishga muassar bo'ladi. Bunday darslar yetarli tayyorgarlik, mahorat va keng ko'lamlil bilim, tajriba, mustaqillikka asoslangan holda tashkil etilsa, talabaning xulq madaniyatini shakllantiruvchi quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

➤ dars davomida talabaning erkinligi, mustaqilligi, faolligiga erishiladi;

➤ talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni hurmat qilishga o'rganadilar, bu bilan ularda o'zaro hurmat, muloqot madaniyati tarbiyalana boradi; U talabalar o'z fikr-mulohazalarini, qarashlarini himoya qilish, ularni boshqalarga yetkazish mahoratini egallaydilar;

➤ talabalarda u yoki bu adibning qarashlarini, xalq pedagogikasi, hayot tajribasi asosida ko'tarib chiqilgan muammolar mohiyatini davr bilan bog'lash, atrof-muhit talabi, imkoniyati asoslarini haqqoniy baholash malakasi shakllanadi;

➤ talabalarning o'zbek xalqining ma'naviy turmush tarzi haqidagi bilim darajasi ortadi, axloqiy - ma'naviy sifatlari shakllanadi;

➤ har bir talabada o'z-o'ziga talabchanlik, o'z-o'zini nazorat qilish

hissi ortadi, o‘z ustida ishlashga, o‘zini anglashga e’tibor kuchayadi.

Bunday muvaffaqiyatli natija sinov darslari, yakuniy darslarda namoyon bo‘ladi. Talaba xulq madaniyatini asosiy mezonlari: insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehr-muhabbat, iymon, ijodkorlik, faollik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholashni talab etadi. Bu talab talabaning Vatan, ota-ona, do‘stlari, jamoa oldidagi burchi, vazifalariga, ta’lim-tarbiya jarayonida namoyon bo‘ladigan faollik, ijodkorlik xususiyatlariga munosabati orqali amalga oshiriladi. O‘z bilim, xatti-harakati, atrof-muhitga munosabatini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholashni tashkil etish talabaning yozma ijodiy faoliyati orqali samarali namoyon bo‘ladi. Ta’limning samarali shakllari, an’anaviy va noan’anaviy dars turlari, vositalari va usullaridan, jumladan, ta’lim jarayonida talabalarning turli ijodiy yozma ishlari: insho, referat, konspekt, ma’ruza kabi turlaridan keng foydalanish zarur. Dars jarayonida talabalarning yozma ijodiy ishlaridan samarali foydalanish uchun qator pedagogik shartlarga amal qilish zarur.

Bunda:

➤ mustaqil ijodiy ishlarning turlari, mavzusi, характери va unga qo‘yiladigan talablar aniq belgilab berilishi;

➤ chet tili, adabiyot va boshqa darslarda mustaqil yozma ishlarni uyushtirish va ularni amalga oshirish uchun qisqa uslubiy tavsiyalar tayyorlash;

➤ pedagog ma’naviy sifatlarini, ma’naviy tarixi, qadriyatlar mazmuni va характери haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lishi, ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘llarini bilishi;

➤ pedagog ham, talaba ham darslik va qo‘shimcha manbalar bilan mustaqil ishlashi;

➤ pedagog ta’limni tashkil etishning an’anaviy va noan’anaviy shakllari, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari, ish natijalari haqida to‘liq pedagogik bilim bilan qurollangan bo‘lishi;

➤ pedagog har bir dars mavzusi, dars shakli, usul va vositalarini talaba xulq madaniyatining shakllariga ta’sirini oldindan ko‘ra bilishi;

➤ yozma ijodiy ishlar talabalarning ixtiyoriyligi, ijodkorligi, qiziqishi asosida amalga oshirilishi lozim.

Dars jarayonida yaratilgan ma’naviy muhit talabalarda ijodkorlik, erkinlik, faollik, tasavvur boyligi va bilimga bo‘lgan qiziqishni

shakllantiradi. Dars jarayonida ma'naviy merosimiz: o'tmish allomalarning fikr-qarashlari, odob-axloq, to'g'risidagi turli hikoyalar, xalq og'zaki ijodidan turli rivoyatlar, maqollardan foydalanish talabaga ma'naviyatimiz xazinasini haqida puxta bilim olish, egallangan bilimni namunalari namoyon etish, dastur va darslik materiallarini hayotiy tajribadan olingan misollar bilan mazmunan to'ldirish, ruhiy holatlar, tasavvur, idrok, hissini bayon etish, hozirjavoblik, ta'sirchanligi bilan farqlanadi.

Talabalarning xulq madaniyatini shakllantirishda ijobiy ta'sir etadigan vositalar:

a) inson hissiyoti bilan bog'liq, uning idroki, tafakkuri, tasavvuri mahsuli bo'lgan madaniy estetik manbalar (adabiyotlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa, ilm-fan, diniy manbalar va h.k.);

b) illyustratsiya materiallari, madaniy meros sifatida qadrlanadigan geografik xaritalar, (Al-Xorazmiy yaratgan xarita), matematik-astronomiya jadvallari (Beruniy, Ulug'bek), miniatyuralar (Behzod), xalq amaliy san'ati namunalari, milliy kiyimlar va h.k;

v) tabiiy o'lkashunoslik materiallari: tarixiy me'morchilik obidalari, muqaddas qadamjolar, ma'rifiy maskanlar, uy-muzeylar va h.k;

g) obrazli-ta'sirchan ifoda vositalari (ma'naviy meros haqida diafilm, kinofilm, sahna asarlari, radio eshittirishlari, oynayi-jahon ko'rsatuvlari, matbuot materiallari);

d) o'quv-tarbiyaviy, ijodiy ko'rgazmali vositalar, talabalar yoki pedagog tomonidan tayyorlanadigan jadvallar, har xil ijodiy ishlar, referat, ma'ruza, konspekt, kichik-kichik poetik asarlar, manzaralar tasviri va h.k.

Bu vositalardan dars jarayonida unumli foydalanish, noan'anaviy dars shakllarining amaliyotga keng joriy etish imkoniyatini yaratadi, talabalarning darsga qiziqishini oshiradi, o'rganiladigan mavzularning mohiyatini chuqur anglab yetish imkonini beradi, mustaqil fikrlash, og'zaki va nutqni boyitish kabilarni shakllantiradi. Mustaqil ishda talaba o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtayi nazari, qarashlarini shakllantiradi, dunyoqarashi va ma'naviy saviyasini namoyon etadi. Dars jarayonida ma'naviy meros manbalaridan foydalanish natijasida talabalarda ma'naviy merosga muhabbat, sadoqat, milliy o'zligini anglash, milliy g'urur shakllanib boradi. Bu

esa, o'z navbatida, talabalarda xulq madaniyatini shakllantirishga zamin bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, dars talabalarning xulq madaniyatini shakllantirishning muhim shakli bo'lib, ma'naviy merosdan foydalanishda ta'lim-tarbiya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy meros manbalaridan foydalanish darsni samarali va qiziqarli tashkil etish, turli ko'rgazmali qurollardan, darsda noan'anaviy vositalardan foydalanish talabalarda xulq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi muhim omillar bo'lib hisoblanadi. Albatta, bunda pedagogning darsni tashkil etishi ham muhim ahamiyatga egadir. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'qib-uqqan, chuqur odob-axloqli, adolat va adolatsizlikning farqini tushungan inson qaysi yo'ldan borayotganligiga tushunib yetadi. Yurtiga nisbatan mehr, g'urur paydo bo'ladi. Natijada u ham Vatanning ravnaqiga munosib farzand sifatida o'z hissasini qo'shadi. Ajdodlarimiz yashab o'tgan, meni o'z bag'riga olib ulg'aytirayotgan Vatan uchun men nima qila oldim, meni go'dakligimdan yedirib-ichirgan ota-onam, ona zamin, qonlari tomirimda jo'sh urayotgan ajdodlarimiz sha'niga munosib ishlar qilayapmanmi, degan savollarini o'z vijdoni oldiga ko'ndalang qo'yadi. Demak, har bir talaba qaysi mutaxassis egasi bo'lishidan qati nazar Vatanga muhabbatli, iymonli, adolatparvar bo'lishi muhimdir. Bunday fazilatlarni o'zida kasb etgan yoshlar qanday vaziyatda bo'lmasin hamma vaqt o'ziga to'g'ri yo'l tanlay oladi. Mustaqil jamiyatimizning kamol topishida o'zlarining chuqur bilimlari va adolatli xatti-harakatlarini ko'nikmaga aylantirishi bunday nufuzli talaba yoshlarning asosiy vazifalaridir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Pedagogning kasbiy potensialini nimalar tashkil etadi?
2. Pedagogik faoliyatning maqsadida qanday ijtimoiy pedagogik vazifalar yechimini topishi lozim?
3. Kasbiy pedagogik faoliyat mazmunini ayting.
4. Pedagog shaxsining tuzilmasidagi kasbiy fazilatlarni sanab bering.
5. Dars jarayonlarida talabalar xulq, madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun qanday usullardan foydalanish muhim?

IV BOB. KASBIY KOMPETENTLIK VA MULOQOT MADANIYATI

REJA:

1. **Kasbiy kompetentlik. Kasbiy kompetentlik sifatlari.**
2. **Pedagogga xos kasbiy kompetentlikning tarkibiy asoslari.**
3. **Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari.**
4. **O'qituvchining muloqot asosida guruh jamoasini boshqarish usullari.**

1. Kasbiy kompetentlik. Kasbiy kompetentlik sifatlari

Bugungi kunda mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lib, har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida kandy sifatlari aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlari yoritani olishi zarur?

Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi. **“Kompetentlik”** tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli “kompetentlik - noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. **Inglizcha “competence”** tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita **“qobiliyat”**

ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.



5-rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

➤ murakkab jarayonlarda; noaniq vazifalarni bajarishda; bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda; kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

➤ o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o'zlashtiradi;

➤ davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi;

➤ ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar:

➤ Ijtimoiy kompetentlik;

➤ Shaxsiy kompetentlik;

➤ Texnologik kompetentlik;

➤ Maxsus (yoki kasbiy) kompetentlik;

➤ Ektremal kompetentlik;

➤ Psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri

belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) informatsion kompetentlik - axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

d) kreativ kompetentlik - pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) innovatsion kompetentlik - pedagogik jarayonni takomillash-tirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) kommunikativ kompetentlik - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

g) Shaxsiy kompetentlik - izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoen qilish.

h) Texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

i) Ektremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan) da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

1) **psixologik kompetentlik** - pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) **metodik kompetentlik** - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

3) **informatsion kompetentlik** - axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik - pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish etish;

innovatsion kompetentlik - pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

5) kommunikativ kompetentlik - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

2. Pedagogga xos kasbiy kompetentlikning tarkibiy asoslari

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi:

➤ maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish). Shaxsiy kompetentlik (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish)

➤ individual kompetentlik (o'z-o'zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish). Ijtimoiy kompetentlik (qo'shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish).

O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi:

➤ maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish); Ijtimoiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas'ullik); Autokompetentlik (o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish); Ekstremal kasbiy kompetentlik (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish). Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil

qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

➤ kasbiy BKMni takomillashtirib borish; faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish; kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish; ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish; salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

Pedagogning mutaxassis sifatida:

➤ aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;

➤ pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;

➤ izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;

➤ ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;

➤ faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;

➤ kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;

➤ salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning uz ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma’lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi.

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishida o‘zini o‘zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi.

O‘zini o‘zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir. O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O‘zini o‘zi baholash (O‘O‘B) - shaxsning o‘z o‘zini tahlil qilishi

orqali o'ziga baho berishi. O'zini o'zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi.

O'z-o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

O'zini o'zi samarali baholash omillari:

1. O'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish).
2. Shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash (o'zi to'g'risidagi ijobiy ma'lumotlarni to'plash).
3. O'zini o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

O'z o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'zini o'zi oshirib yoki pasaytirib ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

Ko'plab manbalarda shaxs tomonidan o'z-o'zini baholash quyidagi formula asosida aniqlanishi ko'rsatilgan:

Formulaga ko'ra, qandaydir yutuqqa erishgach, shaxs tomonidan o'zini o'zi yuqori baholash (yutuqlar hissasini oshirish) yoki o'ziga nisbatan qo'yayotgan talablarni pasaytirish ro'y beradi.

Ushbu model asosida o'z-o'zini baholash nihoyatda oson kechadi. Bordi-yu, erishilgan yutuqlar soni o'z-o'zini rivojlantirish vazifalariga nisbatan ko'p (1 dan katta) bo'lsa, u holda pedagog yuqori darajada kasbiy kompetentlikni namoyon etadi. Bordi-yu, yutuqlar va belgilangan o'zini o'zi rivojlantirish vazifalari o'zaro (1ga) teng bo'lsa, u holda u o'zida o'rta darajadagi kasbiy kompetentlikni ifodalaydi. Agarda, yutuqlar soni belgilangan rivojlantirish vazifalaridan kam (1dan kichik yoki 0 ga teng) bo'lsa, u holda pedagogning kasbiy kompetentlik darajasi past hisoblanadi va bu holat pedagogdan o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berishini talab qiladi.

Formulada "o'zini o'zi rivojlantirish vazifalari" jumlasini qo'llanilgan ekan, eng avvalo, o'zini o'zi rivojlantirish nima ekanligini tushunib

olish lozim.

O‘z-o‘zini rivojlantirish - shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishidir.

Bir qator tadqiqotlarda mutaxassis, shu jumladan, pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirishida “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l kelishi aytiladi.

Individual rivojlanish dasturi (IRD) - har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur. Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o‘zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqarishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yishi zarur.

Pedagogning individual rivojlanish dasturi - mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi.

Pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan “Individual rivojlanish dasturi” quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- 1) pedagogik bilimlar;
- 2) psixologik bilimlar;
- 3) mutaxassislik bilimlari;
- 4) didaktik malakalar;
- 5) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- 6) ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- 7) o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
- 8) o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar.

Bir qator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovalarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o‘tilgan. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o‘quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini

ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishda pedagogga "Individual rivojlanish dasturi" qo'l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatleri va rivojlantirish zarur bo'lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin.

3. Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari

Muloqot – yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik–psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi.

Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng ma'noda tushuniladi hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni ifodalaydi.

Pedagogikada muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

➤ muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi;

➤ muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;

➤ o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi;

➤ pedagogikada muloqot – o‘qituvchining o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazish asosida o‘zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;

➤ muloqot – hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko‘p qirrali jarayoni hisoblanadi;

Noto‘g‘ri pedagogik muloqotdan o‘quvchilarda qo‘rquv, o‘z kuchiga ishonchsizlik paydo bo‘ladi, ularning diqqat – e’tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

Pedagogik muloqot – bu, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

➤ salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;

➤ o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish;

➤ o‘quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o‘z fikr-mulohazalarini cho‘chimasdan bayon qilib unga tayanishga o‘rgatish;

➤ o‘quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;

➤ dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

A.S.Makarenkoning fikricha, o‘qituvchi muloqoti hupmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo‘lishi lozim.

V.D.Suxomlinskiy o‘qituvchining “...maktab hovlisida gapirgan har bir so‘zi puxta o‘ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma’lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak” deb ta’kidlaydi. O‘qituvchining har bir so‘zi olimning fikricha, nafaqat o‘quvchi qulog‘iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo‘lishi shart. Umuman ilg‘or o‘qituvchilarning fikricha, ta’lim va tarbiya faqat o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi.

Muloqot jarayonida o‘qituvchi qisqa muddatda o‘zining psixologik bilimlariga tayanib o‘quvchilarning psixik xususiyatlarini mukammal

bilishga harakat qilishi lozim. O‘quvchilarning ichki dunyosiga, ruhiy holatiga kirib bormasdan, unga nisbatan turli tarbiyaviy jazolar qo‘llash, tanbeh berish mumkin emas. Bu holat o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqotni tuzatib bo‘lmas darajada buzilishiga, o‘quvchilarning yashirin holatga, o‘z “qobig‘i”ga kirib olishiga sabab bo‘ladi.

O‘qituvchilarning o‘zaro axborot almashishi bilan bog‘liq xususiyatlari, uning sinf jamoasiga singib keta olish qobiliyati bilan bog‘liq. Sinf jamoasida ro‘y berayotgan har qanday voqea va hodisalar o‘qituvchilar nazoratida bo‘lishi, ularning oqibatini o‘qituvchilar tez va adolatli tahlil qilishi va oldini olishi lozim. Bu faqat faol o‘quvchilar bilan axborot almashib turish natijasida amalga oshiriladi. Shundagina, o‘qituvchining o‘quv tarbiyaviy jarayondagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi va ijobiy natijalar beradi.

O‘qituvchi ta’lim – tarbiyaviy faoliyatni o‘quvchilar bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda sinfning faol o‘quvchilari hamda norasmiy liderlari bilan o‘zaro muloqotning adolatli bo‘lishi muhim ahamiyatga ega: o‘quvchilarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil bajarishga jalb etish, bunda o‘quvchilarga tashkilotchilik va ijro etish rollarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim.

O‘qituvchining to‘g‘ri tashkil etilgan muloqoti o‘quvchining o‘zligini anglash funksiyasini takomillashtiradi. Bunda o‘qituvchining vazifasi muloqot asosida o‘quvchilarga o‘zining “Men”ni anglashni, shaxs sifatida o‘z fikrini dadil va erkin gapirishni, jamoada o‘z o‘rnini bilishni, o‘z-o‘zini baholashni o‘rgatishi kerak.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o‘qituvchi ijodkorligining noyob namunasidir. Pedagog olimlar o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotiga ko‘plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot, avvalo, o‘qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Olimlar esa, muloqot uchun o‘qituvchiga yo‘nalish beradi xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o‘qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Prognostik bosqich (modellashtirish): O‘qituvchi tomonidan sinf jamoasi bilan bo‘lajak muloqotni modellashtirish.

2. Kommunikativ aloqa: O‘quvchi bilan dastlabki o‘zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etishga erishish.

3. Pedagogik jarayon: O‘qituvchining xatti-harakati, pedagogik

mahorati bevosita muloqotni boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

4. Natijalar tahlili: Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholab kelgusi faoliyat uchun model-lashtirish.

Olimning fikrlari asosida muloqotning ushbu yo'nalishlarini quyidagicha ta'riflash mumkin?

Natijalar tahlilida o'qituvchi o'z faoliyatiga xolisona baho berishi, yutuq va kamchiliklarni inobatga olib, kelgusi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida tanqidiy qo'llashni bilishi lozim, ushbu yo'nalishda maqsad, reja va natijalarning birligi ta'minlanadi, o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbarlikni, tashabbuskor bo'la olishni bilishi kerak.

O'quvchilarning axloqiy jihatdan tarbiyalanganligi uning atrof-mu-hitga nisbatan bo'lgan munosabatlarida ham namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiyalanganlik o'quvchining his-tuyg'ularida ichki kechinmalarida ifodalanadi va xulq-atvorida, o'qituvchi bilan muloqot jarayonida yuzaga qalqib chiqadi. O'quvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va mehribonlikni namoyish etish, o'qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatda to'g'ri va odilona muloqotini tashkil etishda asosiy zamin bo'ladi.

Muloqot turli rollar orqali shaxs faoliyati uchun ijtimoiy maydon yaratadi, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining shaxsiy tashabbuskor va rahbarlik rolini namoyish etadi. Dars jarayonida esa o'qituvchi o'quvchilarni tashkilotchi va ijrochi rollarida bo'lishga imkoniyat yaratishi kerak. Muloqot asosida shaxs o'zligini tanishni o'rganadi. O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, faqat o'rganilayotgan dars mavzusi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida o'quvchilarni axborot ko'lamiga jalb etishni o'ylamasligi kerak, balki o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni topishi, ularga yordam berish uchun sharoit yaratishi, har bir o'quvchining qiziqishini ta'minlovchi sharoitlarni ko'ra olishi va o'zaro hamkorlikni ta'minlashi lozim.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida o'quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo'llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi kerak. Pedagogik muloqot esa, bu o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiya jarayonining

boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi. Bu vaziyatda o'qituvchi baho beruvchi rolda namoyon bo'ladi hamda uning o'zi baho oluvchi hisoblanadi. Bunday hollarda pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari hamda o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi prinsiplarda namoyon bo'ladi:

➤ **Kommunikativ muloqot.**

➤ **Interaktiv muloqot.**

➤ **Perseptiv muloqot.**

1. Kommunikativ muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi.

Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi bir - birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo'lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Interaktiv muloqotning muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi o'qituvchi o'zaro ta'sir etishda, o'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, xatti - harakat va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3. Perseptiv muloqotda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim.

Demak, o'qituvchilarning asosiy vazifasi shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Shundagina ta'lim tizimida yoshlarga erkin fikrlash imkoniyatlari yaratiladi. Davlat

siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish barkamol inson tarbiyasiga mas'ul – o'qituvchilar zimmasiga bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatimiz uchun yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, irodasi baquvvat, o'z kasbini mukammal biladigan XXI asr kadrlarini tayyorlash mas'uliyati yuklangan.

O'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatida erishishi lozim bo'lgan barcha ijobiy natijalari uning o'quvchilar bilan jonli va erkin muloqotni to'g'ri tashkil etishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi so'z san'atining cheksiz qudrati asosida o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, har bir darsni samarali tashkil etib olib boradi, o'quvchilar bilan so'zlashishni biladi, tarbiyaning suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi usullaridan o'rinli foydanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan qizg'in muloqotni amalga oshiradi.

Jonli muloqot – o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, o'qituvchini ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir.

Yosh o'qituvchi pedagogik mahoratida mujassamlashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o'tkir dunyoqarashi, ma'naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibliigi har qanday dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hamda o'qituvchi jonli muloqotini tashkil etuvchi omillardir. O'qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o'z oldiga doimo quyidagi savollarni qo'yib, unga mustaqil fikr-mulohazasi asosida javob bera olishi kerak:

1. Nimaga o'rgatish:

a) o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ilmiy yangiliklardan xabardor etish, fan terminlarini tushuntirish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish;

b) o'quvchilarda shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

v) o'quvchilarning o'rganilayotgan fan bo'yicha qobiliyatlarini, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

g) yangi mavzuni fanlararo aloqadorlik asosida tushuntirish;

d) dars jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalarining qizi-

qarli metodlari asosida tashkil etish.

2. Kimni o'rgatish:

a) kelajakda mamlakat taraqqiyoti uchun mas'ul, davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish barkamol insonga ta'lim-tarbiya berish;

b) o'quvchilarni bilim olish va tarbiyalanishi jarayonida duch keladigan muammolar va qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf etishga o'rgatish;

v) o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;

g) dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchilar fikrlarini inobatga olgan holda tashkil etish;

d) yosh va murg'ak qalb egasi bo'lmish o'quvchilarning psixologik o'zgarishlari va rivojlanishlarini inobatga olish;

e) iqtidorli o'quvchilar bilan yakka holda pedagogik faoliyat olib borish.

3. Qanday o'rgatish:

a) o'qituvchi o'z faoliyati davomida to'plagan pedagogik tajribalari asosida kompyuter, axborot va innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim berishi;

b) yuksak pedagogik mahorat bilan dars va darsdan tashqari vaziyatlarda tarbiyaviy jarayonni milliy mafkura, an'ana va qadriyatlar asosida tashkil etish;

v) o'quvchilarni bilim olishga qiziqishini oshirish maqsadida pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullaridan foydalanish;

g) ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda belgilangan maqsadga erishish uchun, mahalla faollari, ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlash.

O'qituvchining o'quvchilar hamda o'qituvchilar jamoasi bilan uzviy aloqada bo'lishi, uning jonli muloqotni to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar bilan jonli muloqotga kirishib, ularning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lish birdaniga sodir bo'ladigan va ta'lim-tarbiya sohasida yutuqlarga darhol yetaklaydigan jarayon emas. Buning uchun o'qituvchi yillar davomida tayyorlanadi, pedagogik mahorat sirlarini egallaydi, tajribali ustoz o'qituvchilarning yutuqlaridan foydalanadi. Yosh o'qituvchilar uchun jonli muloqotni yaratishda quyidagi vazifalarga e'tibor berish talab qilinadi:

➤ o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, psixik holatini chuqur o‘rganish, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari faoliyati bilan tanishish, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish;

➤ jonli muloqot asosida mustaqil fikrlovchi, o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga intiluvchi erkin shaxsga ta’lim-tarbiya berishi shartligini unutmaslik;

➤ jonli muloqotning pirovard natijasi o‘quvchilarni o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati bilan mas’uliyatni his etishini ta’minlashi, ularni ongli ravishda ozod va hur fikrlovchi inson bo‘lib tarbiyalanishini ta’minlash;

➤ jonli muloqot tufayli o‘quvchilarning yuksak darajadagi intellektual salohiyatlarini, aql-zakovati qudratini yuzaga chiqarishga erishish.

Pedagogikada jonli muloqotning muhim jihatlaridan biri uning vositalaridir. Vositalar tashkilotchilik qobiliyati, baho beruvchi, intizomga undovchi bo‘lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda o‘qituvchi o‘z ishining mohir ustasi bo‘lishi uchun tashkilotchilik qobiliyati asosida ta’sir ko‘rsatishga ko‘proq yondashishi lozimligi ta’kidlanadi.

O‘qituvchilarning jonli muloqoti uchta qarama qarshi shakllarga ega bo‘lgan faoliyatlardan birida namoyon bo‘ladi:

➤ ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikda hamkorlik qilishlari;

➤ o‘qituvchining o‘quvchilarga tazyiq o‘tkazishi va ularning faolligini ro‘yobga chiqarmasligi;

➤ o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqotda, nisbatan mo‘tadil munosabatda bo‘lishi va o‘quvchi jamoasi tomonidan hal etilayotgan barcha muammolardan o‘zini chetga olishi.

Muloqotdagi noo‘rin vaziyatlarni o‘qituvchining o‘zi tajribasizligi tufayli paydo qiladi. U o‘quvchilar bilan bir xil o‘zaro jonli muloqot olib bora olmaydi, ba’zi ishtirokchilarga nisbatan tazyiq o‘tkazsa, ba’zi ishtirokchilarga muvofiq ravishda faoliyat olib boradi.

O‘qituvchi jonli muloqotga emotsional tus berish bilan neytral holat orqali muloqotdagi faoliyatini ijodiylikdan salbiylikka o‘zgartirishi mumkin. Bularning hammasi muloqot muhitini, sinfdagi ma’lum iqlimni o‘zgartiradi. Takomillashgan pedagogik muloqot o‘qituvchining o‘z jonli muloqoti jarayonida va erishilgan yutuqlari natijalarini muntazam nazorat qilib borishini nazarda tutadi.

To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida o'qituvchi tanlagan vositalar ta'lim-tarbiya jarayonining vazifa va sharoitlariga muvofiq kelishini o'lchovchi vosita sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi jonli muloqot orqali quyidagi funksiyalarni bajaradi:

birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonining o'qituvchi tomonidan yakka holda olib borilishi va bu faoliyatga yagona o'zi javobgarligi;

➤ ikkinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy - psixologik tizimning bir maromda ta'minlashi;

➤ uchinchidan, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatida muayyan bir tizimning tashkil qilinishi;

➤ to'rtinchidan, o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllantirish, yashirin iste'dodini ro'yobga chiqarishga erishish imkoniyatlaridan foydalanish;

➤ beshinchidan, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi sifatida o'qituvchi pedagogik faoliyatining birlamchi vazifasi ekanligini unutmaslik.

Jonli muloqot jarayonida o'quvchilarning xulqi ijtimoiy qonuniyatlar maromiga zid kelsa, u holda uning xatti-harakatiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi, ya'ni e'tiroz, tanbeh, ogohlantirish kabi vositalar qo'llaniladi. Jonli muloqot o'qituvchilarning axloqiy namunalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, axborot almashinuv, o'zaro ta'sir kabi muloqot vositalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Har bir fikr va e'tiroz bildirilganda, muloqotdan o'quvchining ruhiy o'zgarishlariga, tashqi ko'rinishiga e'tibor berish, lozim bo'lganda o'qituvchining uzr so'rashi, tavoze bilan o'quvchiga murojaat qilishi o'qituvchi muomala odobining muhim belgisidir.

Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot jarayonida nojo'ya xatti-harakati, qo'polligi, o'ylanmay bildirilgan noto'g'ri fikri, ortiqcha imo-ishoralari natijasida o'quvchilar bilan bo'ladigan jonli muloqotning buzilishiga, tuzatib bo'lmas qaltis vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Buning natijasida muloqot odobi, yaxshi muomala bilan fikr almashuv o'z o'rnini nizoli vaziyatga bo'shatib beradi. Ushbu salbiy holatlarga yo'l qo'yilmaslik uchun, pedagogik muomalada o'quvchilar bilan o'zaro munosabat hurmat va ishonch negizida qurilishi kerak. Bunda

o'qituvchi o'quvchining huquq va majburiyatini, maktabda, jamoada, oilada bajaradigan vazifalari nimalardan iborat ekanligini har lahzada eslatib turishi lozim.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti samarali bo'lishi uchun suhbatdoshni o'ziga moyil qilib olish zarur. O'zaro moyillikka erishish uchun amalda qo'llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo'lmagan pedagogik ta'sir etuvchi usullardan foydalaniladi. Ularning eng muhimlari o'quvchi ishonchini qozonish hamda ta'sir etish va ma'qullash usullaridir.

Ishonchini qozonish usuli o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'sir ko'rsatishning yuqori samara beradigan usulidir. U o'quvchi ongiga qaratilgan bo'lib, idrok qilish orqali o'quvchilar ishonchini qozonishni va ularning roziligini nazarda tutadi. Ishonchini qozonish dalillash, isbotlash orqali olib boriladi. Ishonchini qozonish usuli muloqot dasturi sifatida darsdan tashqari jarayonlarda, o'quvchi bilan yakka holda suhbatlarda, ma'naviy-tarbiyaviy soatlarda qo'llaniladi. Ishonchini qozonish usuli yordamida o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularda o'z-o'zini tarbiyalashga nisbatan javobgarlik hissini oshiradi.

Ishonchini qozonish usuli nafaqat o'qituvchi bilan muloqot jarayonida, balki ta'lim-tarbiyaviy faoliyatdan tashqari holatlarda ham o'quvchiga ta'sir qiladi. O'quvchi ishonchini qozonish ijobiy yoki salbiy natijalar paydo qilishi ham mumkin. O'qituvchi ishontirish bilan o'quvchida ijobiy xislatlarni uyg'otishi uchun tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi shart. Tarbiya jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Chunki bir xil yoshdagi o'quvchilar psixik jihatdan turli xarakterga ega bo'lishi mumkin.

O'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlari, qiziqishlari, irodaviy xislatlari har xil bo'lgani uchun bir o'quvchiga nisbatan foydali bo'lgan ishonchini qozonish usuli, boshqasiga zararli bo'lishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchining ruhiyatini, psixologiyasini, ichki dunyosini o'qituvchi muntazam o'rganib borishi, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, tarbiyalanuvchi temperamentining umumiy tiplarini o'rganish metodikasini bilish lozim. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglashi, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan yoki ishga

tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimiga bog'liq bo'lib, o'qituvchi o'quvchilar ishonchini qozonishi uchun ularni bilishi va zarur bo'lgan xulosalarni ishlab chiqishi shart.

O'quvchilar ishonchini qozonishning yana bir muhim xususiyati o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishida o'z-o'zini tarbiyalashidir. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchining o'zini o'zi idora qilishi, o'zida erkinlikni, ijtimoiy mavqeyini, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantirishdir. O'quvchining yashirin qobiliyatlari o'z-o'ziga ishonch orqali yuzaga chiqadi.

O'quvchi uchun o'z-o'zini baholash qiyin jarayon. O'quvchi ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchilarga ishonch bilan ergashib, o'ziga nisbatan ishonch ruhida tarbiyalanar ekan, unda avvalo, mustahkam iroda shakllanadi, o'z burchini to'g'ri tushunadi, bilish va o'rganishga qiziqishi kuchayadi, o'z-o'zini har tomonlama takomillashtirishga intiladi, o'ziga atrof-muhitdagi o'rtoqlari ko'zi bilan xolisona baho beradi, o'ziga ishonadi va unda qoniqish hissi paydo bo'ladi. Xarakteridagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarni tez anglab, ularni yo'qotish va bartaraf etishga intiladi.

O'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan pedagogik muloqotni har tomonlama mukammal tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun tarbiyaviy jarayonning jamiyat talablariga mos keluvchi yetakchi tamoyillaridan o'rinli foydalanishi lozim:

1. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda demokratik yondashuv. Muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchini ijtimoiy qadriyat deb tan olishi, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilishi, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini e'zozlashi lozim. Zero, ta'limni isloh qilishdan asosiy maqsad, tarbiyada demokratiyaning ustunligi, tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir-birlariga o'zaro ishonchi, hamkorlik asosida pedagogik munosabat mohiyatini ijobiy tomonga yo'naltirish demakdir. Muloqotni demokratik uslubda tashkil etishdan maqsad, ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, pedagogik faoliyat markazida inson shaxsi turganini unutmazlik, insonga nisbatan bebaho boyluk sifatida munosabat tuyg'ularini o'quvchilarda ham shakllantirish vazifasi bajariladi.

2. O'quvchilar bilan do'stona munosabat. Aslida muloqotdan

maqsad o'quvchilar bilan do'stona munosabatni ro'yobga chiqarishdir. O'quvchi shaxsini hurmat qilish o'qituvchining insonparvarlik tuyg'ularidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Bolalarga nisbatan hurmat tuyg'usi ularning kuchiga kuch qo'shadi, o'z imkoniyatlariga ishonch tuyg'usini shakllantiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish va munosabatni adolatli talabchanlik mezonlari asosida qurishdir. Do'stona muloqot o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi o'qituvchilarning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. O'qituvchining o'ziga va o'z kasbiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

O'z faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchilar ayniqsa, har bir o'quvchining kelajagiga umid bilan qarashlari, unga individual yondashishga harakat qilishlari, tarbiyaviy jazolash usullarini tartibsiz qo'llamasliklari, o'quvchilar jamoasi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsadlarni qo'yishga intilishlari lozim. Yosh o'qituvchilar ma'lum bir pedagogik mahorat sirlarini egallashga intilmasalar, o'z fanidan bilimlari sayoz bo'lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondashmasalar, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasalar, o'quvchilar uni asta-sekin tan olmay qo'yishadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchilar muloqotida tuzatib bo'lmas xatoliklar paydo bo'lishi mumkin.

3. Muloqotni ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan bog'lab olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shakllanishiga hayot, ijtimoiy muhit qonuniyatlari ham muntazam ta'sir etadi. Muhit ijtimoiy omillarning eng muhim xususiyati bo'lib, u shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muhit deganda, shaxsning tarbiyalanib, shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqealari, hodisalar majmuyi tushuniladi. Muhit tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit xususiyatlarini ifodalaydi. Ayniqsa, oila, maktab, do'stlar davrasi, tengqurlar kabilarni o'z ichiga oladigan mikromuhit shaxsni tarbiyalash jarayoniga muhim ta'sir etishi pedagog va psixolog olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Oila muhiti o'quvchining tarbiyasi va barkamol inson sifatida shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shuning uchun o'qituvchi muloqotni tashkil etishda ota-

onalar, mahalla faollari, o'quvchilar jamoasi faollari, uchastka nozirlari bilan doimiy aloqada bo'lib, ular bilan birgalikda faoliyat olib borishi kerak. Muloqotda ijtimoiy hayot qonuniyatlarini hisobga olish, o'quvchilarni maqsadli tarbiyalashda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zamin yaratadi.

4. Muloqotni tashkil etishda mehnat faoliyatining o'rni. Ta'lim muassasalarida o'quvchi mehnat faoliyati bilan o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi. Mehnat – yosh avlodni yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvorini namoyon qiluvchi, kasbiy qobiliyatlarini uyg'otuvchi, tarbiyaviy jarayonning eng qadimiy va sinalgan vositasidir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani jismonan chiniqtiradi va faollashtiradi, xulq mukammalligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qilib shakllantiradi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni ularning mehnatsevarligiga yoki dangasaligiga qarab belgilasa ham bo'ladi. Ta'lim muassasalarida bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat qiluvchilarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'zaro muloqotning o'rni cheksiz. Ta'lim muassasalarida o'qishning o'zi ham mehnatdir. Muloqotdan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun u mehnat tarbiyasi bilan aloqadorlikda olib borilishi lozim.

5. Qo'rquv va hayajonga asoslangan muloqot uslubi. Bunday muloqot uslubiga odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar tushib qolishi mumkin. Ushbu uslub asosida boshlangan muloqot, ko'pincha, o'quvchilarni tez-tez ogohlantirish, ularni qattiqqo'llik bilan tarbiyalashga harakat qilish, o'qituvchi yoqtirmagan o'quvchilar xatti-harakatini ta'qiqlash vaziyatida olib boriladi. O'quvchilar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida ko'z ilg'amas qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.

Muloqot jarayonidagi ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar bilan o'qituvchining o'quvchilarga qo'yadigan talablari va ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishidan paydo bo'ladi. Ba'zan o'quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq kelmasligidan, yoki o'qituvchining o'quvchilar yosh xususiyatlarini, fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik

jihatdan sogʻlomligini bilmasliklari oqibatida ziddiyatlar kelib chiqadi. Muloqot jarayonidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etishda asosan oʻqituvchining oʻzi qizgʻin faoliyat olib borishi, ustoz oʻqituvchilar tajribalaridan foydalanishi, lozim boʻlganda, tortinmasdan ulardan yordam soʻrashi maqsadga muvofiqdir.

Oʻquvchilar taʼlim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, axloqiy normalarni oʻzlashtiradilar. Oʻquvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarini, axloq-odobni, muloqot madaniyatini asosan oʻqituvchi timsolida anglab olishini unutmazlik kerak. Oʻquvchilar jamoasida oʻqituvchilar bilan oʻzaro munosabatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda ikki xil boʻlib biri rasmiy, ikkinchisi norasmiy muomala deyiladi.

Rasmiy muomala munosabatlari Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi.

Norasmiy muomala pedagogik etika va estetikaning qonuniyatlariga va oʻqituvchi odobiga asoslanadi va jamoaning har bir aʼzosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muloqot odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari va qoidalari, talablari hamda oʻqituvchilar jamoasining fikri asosida boshqariladi.

4. Oʻqituvchining muloqot asosida guruh jamoasini boshqarish usullari

Ijtimoiy munosabatlar koʻlamining kengayishi oʻqituvchidan oʻsib kelayotgan yosh avlodni oʻta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayonida har tomonlama chuqur bilimga ega, barkamol inson qilib tarbiyalash vazifasini qoʻymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan sogʻlom muhitda mukammal tarbiyalangan inson hayotiy qarama-qarshiliklar, xususan turli buzgʻunchi gʻoyalar taʼsiriga tushib qolish, nosogʻlom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan oʻzini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taʼminlovchi asosiy omildir.

Oʻzbekiston Respublikasida demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi roʻy berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan oʻzgarishlarga

nisbatan shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Pedagogik mahorat bo'lajak o'qituvchilarda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'uliyat hissini shakllantiradi. O'qituvchi bunday murakkab vazifalarni amalga oshiruvchi, davlat va jamiyatning ishonchli vakilidir. O'quvchilar jamoasini birlashtiruvchi sinfda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchining bilimi, pedagogik mahorati va psixologik xususiyatlari ochiq namoyon bo'ladi. Avvalo, o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik va bir-birlariga nisbatan ishonch tuyg'ulari bo'lishi hamda o'qituvchi o'z kasbiy bilimlaridan tashqari boshqa o'quv fanlarini ham puxta egallagan bo'lishi lozim.

Zero, sinf jamoasini boshqarish – pedagogik jamoa, ota-onalar oldida o'qituvchining obro'–e'tibori qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi mezon. O'qituvchining axloqiy saviyasini, bilimni muloqot asosida sinf jamoasini boshqarishda erishayotgan yutuqlari belgilaydi. Odatda, o'qituvchilarning xarakteri, individual xususiyatiga qarab: tashabbuskor, ijodkor, tashabbusiz, o'z fikriga ega bo'lmagan, barcha ishlarga befarq qarovchilar toifasiga ajratishadi. Pedagog va psixolog olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari, kuzatishlari va ilmiy tajribalariga asoslangan holda o'qituvchilarning rahbar sifatida sinf jamoasini boshqarishida qo'llaydigan muloqot uslublari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Avtoritar uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.
2. Demokratik uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.
3. Liberal uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.

Avtoritar uslubda faoliyat olib boradigan o'qituvchi ish faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi:

- o'zi yakka holda guruh faoliyatining yo'nalishlarini belgilaydi;
- o'zi o'quvchilarga ko'rsatmalar va buyruqlar beradi;
- ta'lim-tarbiyaviy jarayonga javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- o'quvchilarning unga so'zsiz bo'ysunishini da'vo qiladi;
- qattiq intizom asosida ish olib boradi;

- topshiriqlarning to‘liq bajarilishini talab qiladi;
- gap qaytargan, fikr bildirgan o‘quvchini yoqtirmaydi;
- aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi, so‘zlari qattiq va qo‘pol;
- o‘quvchilarga biror muammoni to‘liq tushuntirmasdan talab qiladi.

Avtoritar uslublarda pedagogik faoliyat olib boruvchi o‘qituvchi “Mening aytganim aytgan, deganim degan” shaklidagi prins ip asosida pedagogik faoliyat olib boradi. U sinf jamoasi bilan muloqotga kirishishda quyidagi uslublarni qo‘llaydi: buyruq, ko‘rsatma berish, qattiq-qo‘llik bilan ishlash, tarbiyaviy jazo turlarini tez-tez qo‘llash. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqot jarayoniga qo‘pol, dag‘al, do‘q-po‘pisa, majbur etish, qo‘rqitish, cho‘chitish orqali kirishadi. Ushbu uslub o‘qituvchi asab tizimini doimiy taranglashib yurishiga sabab bo‘lib, uning sog‘ligiga putur yetkazishi mumkin. Natijada o‘qituvchi tez charchaydi. Avtoritar usulning ijobiy tomonlari ham bor: ya’ni, ular faqat favqulodda vaziyatlar jarayonida ishlatilishi (yong‘inda, suv toshqinida, aholini evakuatsiya qilishda) mumkin. O‘qituvchi muloqotining ushbu uslubda boshqarilishi sinf jamoasini tarqoqlikka, hamjihatlikning buzilishiga olib keladi.

Demokratik uslub asosida faoliyat olib boradigan o‘qituvchining bosh shiori o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini va ongli intizomni hosil qilishdan iborat. O‘qituvchining muloqoti barcha demokratik talablar asosida quriladi. Zero, “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi”. Ushbu uslubni mukammal egallagan o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlarni mujassamlashtiradi:

- pedagogik faoliyatda sinf jamoasining fikr mulohazalariga tayanib ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi;
- sinf jamoasining tashabbusini ma’qullaydi, rivojlantiradi, o‘quvchilarning erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratadi;
- muloqot jarayonida o‘quvchilar fikr-mulohazalarini inobatga olib, pedagogik faoliyatida qo‘llaydi;
- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos, maslahat berish, samimiy muomala.

Demokratik uslubda muloqotni tashkil etuvchi o‘qituvchi hozirgi

zamon talablariga, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan kutilayotgan maqsadlarga javob bera oladi. O'qituvchining vazifasi barkamol inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb bilgan holda, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan tengdoshlariga namuna bo'ladigan bilimli, ma'rifatli, aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli o'quvchilarni tarbiyalash uchun qizg'in pedagogik faoliyat olib borishi lozim. Muloqot jarayonida o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Samarali demokratik tarbiyaviy jarayon, sinf jamoasi a'zolarining qobiliyat va iste'dodlarini yuzaga chiqaradi, o'quvchining jamoada har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar paydo qiladi. O'quvchilar bilan muloqotning erkin demokratik asosda tashkil etilishi sinfning ahil jamoa bo'lib birlashib, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatlarga erishishiga zamin yaratadi. Yaxshi uyushgan jamoada har bir o'quvchining fikri ulkan tarbiyaviy kuchga ega.

Liberal uslub asosida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi xususiyatlariga sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlar mujassamlashgan. O'qituvchining pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mavjud:

- tashabbussiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi;
- sinf jamoasining tarbiyaviy faoliyatiga aslo aralashmaydi;
- ta'lim-tarbiyaga oid muammolarga yuzaki qarab chiqadi;
- o'z mustaqil fikriga ega emas, javobgarlikdan o'zini olib qochadi;
- o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning natijalari bilan qiziqmaydi;
- o'quvchilar kelajagiga, taqdiriga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;
- o'z pedagogik faoliyatiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi.

Biroq, yillar o'tib, zamonlar o'zgargan sari, XXI asrda jamiyatning ijtimoiy talablaridan kelib chiqib, o'qituvchining xulq-atvori, pedagogik va psixologik bilimlar saviyasi, o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan munosabati, pedagogik va axborot informatsion texnologiyalarini puxta o'zlashtirish saviyasi ham o'zgarmoqda. Shu sababli, o'qituvchilar o'z bilim va tafakkurlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, sinf jamoasini boshqarishning turli shakl va metodlarini amalda

qo'llamoqdalar. Sinf jamoasining har qanday boshqaruv uslubi o'qituvchi muloqoti asosida tashkil etiladi. Muloqotdan kutilayotgan natija, tarbiya asosida o'quvchining ongini va tafakkurini boyitish va o'zgartirishdir.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlarga asoslanib, muloqot asosida sinf jamoasini boshqarishda o'qituvchi uchun lozim bo'lgan quyidagi bosqichlarni tavsiya etamiz:

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu sinf jamoasi shakllanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrda o'quvchilar jamoasi hali tarbiyalanuvchi jamoa bo'lmay, balki "birlikni tashkil etuvchi" guruh hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qarashi tabiiy bir holat. O'qituvchi tashkilotchi sifatida jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatlarini tashkil qilishi va ularni yagona maqsad atrofida birlashtirishga erishishi lozim, shundagina jamoa qaror topadi. O'qituvchi muloqoti asosida o'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi faollashadi, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo'lishiga olib keladi. O'quvchilarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribalarga ega emasliklari bois o'qituvchining asosiy maqsadi muloqot asosida jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat.

Ushbu bosqichda o'qituvchining talabchanligi, jamoaning barcha a'zolariga birday talabni qo'ya olishi, u tomonidan qo'yilayotgan talabning qat'iyligi, izchilligi hamda murosasizligi muhim omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchining muloqotda "hukmdorlik" qilishi uzoq davom etishi mumkin. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning uchinchi bosqichi. Sinf jamoasi faoliyatida bu bosqich sermahsul hisoblanadi. Endilikda jamoa ishiga faqat faollargina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotida ijtimoiy va erkin fikrlash vujudga keladi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda muloqotni maqsadga muvofiq va izchil pedagogik faoliyat olib borgan sharoitdagina o'quvchilarda erkin fikr

yuritish va ongli intizomni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda o'qituvchi muloqot asosida u yoki bu tadbir rejasini, jamoaning birgalikdagi faoliyatini va uning a'zolari xatti-harakatini jamoa bo'lib muhokama qiladi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning to'rtinchi bosqichi. Bu bosqichda o'qituvchi muloqoti barcha sinf a'zolarining jamoa oldida turgan vazifalari asosida o'z-o'zlariga qat'iy talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqichda ham jamoa a'zolari o'zlariga nisbatan muayyan talablar qo'yishlari lozim. Ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi bilan ajralib turishi zarur.

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash asosida olib borilishi kerak. Biroq, bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda o'qituvchi muloqoti asosida amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

A.S.Makarenko sinf jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarning ichki xususiyatlariga ulkan ahamiyat bergan va jamoada shakllanadigan quyidagi eng muhim belgilarni ajratib ko'rsatgan:

1) O'z jamoasi bilan g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash.

2) Jamoaning har bir a'zosida qaror topgan do'stona birlik.

3) Tarbiyali, ishchan harakatga yo'llovchi faollik.

4) Hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish.

Tajribali pedagog olim tomonidan ta'kidlab o'tilgan ushbu fikrlar o'qituvchining sinf jamoasi bilan tashkil etiladigan muloqotida va o'quvchilar oldiga qo'yadigan talablarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartib o'rnatilishini ta'minlaydi.

O'qituvchi muloqotini ta'minlaydigan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natijalar beradi:

1. qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi hamda ularning yosh xususiyatlari inobatga olingan bo'lishi kerak.

2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.

3. Jamoaning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatiga nisbatan qo'yilayotgan talablari jamiyat talablari bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi shart.

4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

O'qituvchi qo'yilayotgan talablar hajmini va tizimini bilib o'rgangan holda, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat holatlarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda xulq-atvorni mashq qildirish lozim.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatiladi. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinf xonasidagi navbatchilik, stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchining eng muhim sifatlaridan biri uning o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg'in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar bo'lishidir. Pedagogik-psixologik yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, o'qituvchilarning sermahsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyati to'g'risida ko'plab fikr va mulohazalar yuritilgan.

O'qituvchi o'z kasbiga qiziqmasa, o'quvchilarga nisbatan mehr-muhabbati bo'lmasa, ular bilan qizg'in muloqot qila olish qobiliyati, ya'ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, o'qituvchining integral fanlar asoslarini va o'quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi. O'qituvchi va o'quvchilarning jonli muloqoti, ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namoyon bo'ladi.

Odatiy va kasbiy kommunikativ vaziyatni qiyoslab ko'ramiz. Aytaylik, do'stingizga nimanidir gapirib berayapsiz. Masalan, biror ko'rgan filmingiz to'g'risida, uning mazmun va g'oyasini bimalol so'zlayapsiz. Bu holda muloqotning turmushda ro'y beradigan odatiy kommunikativ shaklidagi shaxsga yo'naltirilgan tizimi bilan ish ko'rgan bo'lasiz. Tasavvur qiling, sizga shu vazifani auditoriyada, minbarda turib, o'quvchilar oldiga chiqib gapirib berish taklif etildi. Siz kommunikatsiyani amalga oshirish vazifasini, avvalo, muloqotning tabiiy shakllari o'rniga kasbiy-funksional javobgarlik hissini, ya'ni kasbiy jihatdan anchagina murakkablashgan pedagogik faoliyatni darhol his etasiz.

Kasbiy-pedagogik muloqot deganda, o'qituvchi va ta'lim-tarbiya jarayoni obyektlarining o'zaro hamkorlik tizimi tushuniladi, uning asosiy faoliyat mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. O'qituvchi bu jarayonni faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot – o'qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o'quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta'lim-tarbiyada maqbul bo'lgan emotsional muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda o'qituvchining o'z

pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir.

Pedagogik faoliyatda muloqot o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni tahlili hamda taniqli olimlar A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy va boshqalarning pedagogik faoliyatini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, aynan o'quvchilar bilan o'qituvchi muloqotining pedagogik ta'sir vositasi nihoyatda beqiyos, muloqotni pedagogik mahoratning eng muhim birlamchi vositasi sifatida chuqur egallaganlik ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini har tomonlama oshirishni ta'minlaydi. A.S.Makarenko muloqotni pedagogik ta'sirning ajoyib vositasi sifatida ta'riflab, insonlararo muloqotni ta'minlovchi eng muhim va nozik faoliyat ekanligini aytadi. Pedagogik muloqot – shunchaki ijtimoiy-psixologik, pedagogik yoki kommunikativ hodisa emas, avvalo kasbiy axloqiy fenomendir (hodisa). Jamiyatda axloq normalariga qat'iy rioya qilish hamda pedagogik vositalarning ilg'or jarayonlarini amaliy hayotga keng tatbiqi uchun o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik texnologiyalarini mukammal egallash lozim. Shunday "texnologiya" larning mavjudligini pedagogik tadqiqotlar isbotlab berdi.

O'qituvchining kommunikativ faoliyati maqsadli faoliyatga nisbatan ko'pincha ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi, pedagogik mehnatning o'ziga xosligi ham aynan kommunikativ faoliyat uning asosini tashkil etishidan iborat ekanligidadir.

Pedagogik muloqot o'qituvchilar pedagogik ijodkorligining yaxlit tizimida qanday ahamiyat kasb etadi? Pedagogik faoliyatning muhim mikroelementlari nostandart yechimlardan iborat, garchi o'qituvchi faoliyatida pedagogik vaziyatlar bir qarashda bir-biriga o'xshash ko'rinsa-da, o'qituvchining ushbu vaziyatlardagi har bir xatti-harakati mutlaqo noyob va betakrordir. O'qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati tahlil qilinganda, mukammal shaklga ega bo'lgan tizimlardan iborat ekanligini ko'ramiz:

- o'qituvchining sinfda, o'quvchilar jamoasi bilan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan ijodiy tayyorgarligi;
- o'quvchilar bilan bevosita o'zaro hamkorlik asosidagi ijodkorlik.

O'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonidagi ijodkorligi bir nechta ko'rinishda namoyon bo'ladi:

➤ o'qituvchining o'quvchilarni mukammal bilish jarayonidagi ijodkorligi;

➤ ular bilan o'zaro hamkorlik tizimidagi ijodkorlik;

➤ o'quvchiga bevosita ta'sirni tashkil qilishdagi ijodkorligi;

➤ o'z xulq-atvorini boshqara olishda (muloqotni o'zini o'zi bilgan holda bir maromda olib borish) ijodkorlik;

➤ o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil qilish jarayonida ijodkorlik.

Modomiki, shunday ekan, ta'kidlash lozimki, o'qituvchining muloqoti kasbiy-ijodiy kategoriya bo'lib, pedagogik faoliyatda o'qituvchi tomonidan ko'plab kommunikativ vazifalarni hal qilish jarayoni va ijobiy natijalar majmuasidir.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida muntazam pedagogik ta'sir o'tkazish metodlari bilan ishlaydi: masalan, dars jarayonida yangi materialni tushuntirishda, o'quvchiga aybi uchun dashnom berishda. Ushbu vaziyatda yosh o'qituvchi, avvalo, nimalarga e'tibor berishi kerak. Birinchidan, vaziyat tahlil qilinadi; ikkinchidan, murakkab vaziyatdan chiqishning mumkin bo'lgan variantlari saralanadi, uchinchidan, ushbu faoliyat, odatda tezkor amalga oshiriladi (bunda ham pedagogik kommunikatsiyaning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi) va optimal metodlar tanlanadi, faqat shundan keyingina pedagogik ta'sir tashkil qilinadi. Biroq, hali tanlangan ta'sir metodiga adekvat bo'lgan, u orqali pedagogik ta'sir amalga oshiriladigan muloqot tizimini topishimiz kerak. Ya'ni, ma'lum bir maqsadga qaratilgan umumiy pedagogik vazifani hal etgandan so'ng, ta'sir metodini tanlab bevosita ta'sirni tashkil qilish uchun asosiy vazifa sifatida kommunikativ vazifa belgilanishi kerak.

Kommunikativ vazifa pedagogik faoliyatda, nisbatan ishlab chiqaruvchi xarakterga ega bo'lib, murakkab vazifani hal etadi. Zero u pedagogik vazifadan kelib chiqqan, shu sababli o'qituvchi tomonidan tanlanadi va belgilanadi. Aytish mumkinki, kommunikativ vazifa aynan kommunikatsiya tiliga o'tkazilgan pedagogik vazifaning o'zi. Kommunikativ vazifa pedagogik vazifaning asosini aks ettirib, unga nisbatan yordamchi, instrumental xarakterga ega bo'lgan jarayondir.

Pedagogik amaliyotlar natijasi shundan dalolat beradiki, o'qituvchi

o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikning o'ziga xos to'g'ri metodini tanlab hamda vaziyatni to'g'ri baholagan taqdirda ham, ko'pincha o'z pedagogik ta'sirini kommunikativ jihatdan ta'minlay olmaydi, ya'ni kommunikatsiyani o'zaro muloqotda amaliy jihatdan tatbiq eta olmaydi.

Pedagogik ta'sirning o'qituvchi tomonidan tanlanib qo'llaniladigan metodlari bevosita muloqot orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, mazkur jarayonni yuksak mahorat bilan, ongli ravishda tashkil etish, pedagogik faoliyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatda bu jarayonga tayyor turishi zarur. Buning uchun har bir o'qituvchi mustaqil, o'z pedagogik tajribalariga va mahoratiga asoslanib, o'quvchilarga pedagogik ta'sir etishning quyidagi mantiqiy obrazi jadvalini tuzadi, o'zi uchun kerakli bo'lgan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil ravishda yig'ib, qayd qilib borishlari hamda kasbiy ko'nikma va malakalarini oshirib borishlari mumkin:

➤ Pedagogik vazifa va uni hal qilish jarayoni.

➤ Belgilangan vazifani hal qilish uchun tanlangan pedagogik ta'sir metodlari tizimi.

➤ Pedagogik ta'sir etish metodikasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kommunikativ vazifalar tizimi.

➤ Pedagogik ta'sir ko'rsatish.(natijalar)

Har xil pedagogik stajga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida quyidagilar aniqlandi: ularning ko'pchiligi, garchi pedagogik ta'sir vositalarini doimiy qo'llasalar ham, kommunikativ vazifalarni pedagogik jarayonning muhim zaruriy elementi sifatida anglab yetmaydilar. Bunda deyarli barcha o'qituvchilar o'z pedagogik vazifalarini doimiy ravishda amalga oshirish uchun tanlangan ta'lim va tarbiya metodlari tizimini hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish kabi komponentlarni yaxshi anglab yetadilar.

O'zining pedagogik amaliyotini doimiy ravishda tahlil qiladigan o'qituvchi uchun kommunikativ vazifalarni o'z faoliyatining asosiy instrumental komponenti sifatida anglashi qanchalik muhim ekanligini, bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy ta'sir modeli qanchalik oydinlashishini, ta'sirning o'zi yanada jozibali, aniq, yorqin bo'lishiga ishonch hosil qiladi.

O'qituvchi "Favqulotda vaziyatlarda nima qilish kerak?" degan

savolga yetarlicha muvaffaqiyatli javob bera olsa ham, “qanday qilib amalga oshirish kerak?” degan muammoning javobida ikkilanib, o‘ylanib qoladi. Bu savolga javob berish uchun – o‘quvchilar bilan muloqot tizimini, mantiq va usullarini aniq belgilab olishi kerak.

A.S.Makarenko o‘z faoliyatida qo‘llagan pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodikasida foydalanilgan metodlar, aksariyat hollarda ta’lim-tarbiyada mo‘ljalni aniq olib, o‘quvchilar bilan muloqotda vaziyatni to‘g‘ri tashkil qilish bilan belgilanishini ko‘rish mumkin. Ayrim holatlarda o‘ziga xos “yuzma-yuz hujum”, ba’zan tarbiyalanuvchining o‘qituvchi bilan bevosita muloqotisiz ham gap nimada ekanligini tushunish imkoniyatini beradigan muloqot, yig‘ilishlarda rasmiy suhbat tizimi yoki sinf jamoasi bilan turli tadbirlarni birgalikda o‘tkazish, har bir o‘quvchining nimalarga qodir ekanligini anglab yetish imkoniyatini namoyon etadi. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanadigan pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari orasida aynan – jamoaviy va yakka tartibdagi suhbat metodlari muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu metodlardan foydalanish samaradorligi va muloqot jarayonida paydo bo‘ladigan vaziyatlar turlicha bo‘lishi mumkin. Aynan ushbu metodlar ta’lim-tarbiya jarayonida ta’sir o‘tkazish metodlarining samaradorligini ta’minlaydi.

Kishilarning kundalik hayot tarzidagi muloqotiga e’tibor beramiz. Tasavvur qiling, notanish kishidan biror narsani so‘rashingiz kerak. Tabiiyki, asosiy metod – iltimos qilish. Biroq, bevosita so‘raladigan narsa haqida gapirishdan oldin, sizga muvaffaqiyatni ta’minlaydigan dastlabki vaziyatni tashkil qilishga intilishingiz kerak. Bu holda siz ma’lum kommunikativ metodlardan foydalanib xushmuomalalik bilan psixologik muhitni tashkil qilasiz, muloqotingizdagi obyektning psixologik jihatdan zabt etishni amalga oshirasiz, keyin esa bevosita ta’sirni amalga oshirasiz. Sinfda, o‘quvchilar jamoasi bilan muloqot jarayonida foydalaniladigan har bir ta’sir usuli xuddi shu kabi kommunikativ ta’limotga ega bo‘lishi kerak.

Pedagogik vazifalarni bajarishda foydalaniladigan kommunikativ metodlarni belgilash doimo murakkab muammo sanalgan. Ayniqsa, yosh o‘qituvchilar pedagogik faoliyatlarining dastlabki yillarida bu qiyinchiliklarni keskin his qilishadi.

O‘qituvchining kommunikativ vazifalarni bajarishi – pedagogik faoliyatning turli shakllaridan, sinf jamoasining shakllanib ulgurgan

darajasidan, muloqotni boshqarish tamoyillaridan, vaziyat qatnashchilari bo'lgan o'quvchilarning individual yosh xususiyatlaridan, ta'sirning rejalashtirilayotgan metodlaridan kelib chiqadi. Pedagogik vazifaning kommunikativ vazifaga mutanosibli, kommunikativ vazifani tanlangan ta'lim-tarbiyaviy ta'sir metodikasi bilan nisbatlash va ularning birligini tashkil etish muloqot jarayoni va umuman pedagogik o'zaro hamkorlikning samaradorligini ta'minlaydi.

Bu o'rinda quyidagi bog'liqlik ko'zga tashlanadi: birinchidan, sinf jamoasi bilan ishlash metodikasi muloqot tizimi bilan vositalanadi, ikkinchidan esa, muloqot va joriy kommunikativ vazifalarni hal qilish yo'llari tanlangan pedagogik ta'sir metodikasi strategiyasi bilan belgilanadi. Kasbiy-pedagogik muloqot asoslarini bo'lajak o'qituvchi oliy pedagogik ta'lim muassasalarida, qizg'in pedagogik faoliyati davomida hamda o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida egallashi mumkin. Bunda o'qituvchi quyidagi muhim kommunikativ vazifalarni mukammal bilib bajarishi lozim:

Ushbu yo'nalishlar o'qituvchining kasbiy muloqot ko'nikmalarini egallash jarayonini to'la ta'minlay oladi, deb o'ylash xato bo'ladi. Umumiy ijodiy pozitsiyalarni o'zining kasbiy-pedagogik, muloqot faoliyati tajribasi bilan doimiy ravishda o'zaro nisbatlash, o'zi uchun uning tizimi, mantiqi, optimal individual shakllarini aniqlash pedagogik muloqotni egallash bo'yicha olib boriladigan faoliyatning muqarrar sharti sanaladi. Shuningdek, pedagogik kommunikatsiyaning nazariy qoidalarini o'qituvchi o'z tajribalarida aprobatsiyalashi (sinovdan o'tkazish) zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi kommunikativ vazifalarni qanday amalga oshiradi va u qanday funksiyalarni bajaradi? Pedagogik faoliyatda kommunikativ vazifalarning ahamiyati ko'p qirrali ekanligini o'qituvchi yaxshi his qiladi. Ta'lim-tarbiya davomida o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik, o'quvchilarni qandaydir jamoaviy ishlarni bajarishga uyushtirish, jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlarini shakllantirish, maqbul emotsional mikroiklimni ta'minlash kabi kommunikativ vazifalarning pedagogik muammolarni hal qilishda yordam beradigan masalalari ro'yxatini hali uzoq davom ettirish mumkin. O'qituvchining kommunikativ muloqoti ko'plab funksiyalarga ega bo'lgan tizimdir:

➤ axborot-kommunikativ;

- regulyatsion-kommunikativ;
- affektiv-kommunikativ.

Kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida bu funksiyalar yaxlit, kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak, aks holda, o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish samaradorligi past bo'ladi va belgilangan natijalarni bermaydi.

Kasbiy faoliyatini endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z-o'zini muntazam tahlil qilib borishi, dars jarayoniga pedagogik jihatdan samarali tayyorgarlik ko'rishi uchun har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lishi talab qilinadi. Jumladan:

1. O'z o'quv predmeti yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lishi va o'rganilayotgan materialni puxta va mukammal bilishi.
2. Pedagogik - psixologik va metodik jihatdan o'quvchilar bilan muloqotga jiddiy tayyorgarlik ko'rishi.
3. Har bir o'quvchini va sinf jamoasining ichki psixologik xususiyatlarini o'rgangan bo'lishi.
4. Muloqotda o'zini erkin tutishi va ruhiy psixologik his-tuyg'ularini jilovlay olishi.
5. Sinf jamoasi bilan muloqot qilishning kasbiy ko'nikma va malakalarini egallashi.
6. Pedagogik madaniyat va pedagogik taktning yuksak namunalarni namoyish eta olishi, pedagogik tafakkur va dunyoqarashning rivojlanganligi.

7. Fanlarni o'qitish maqsadi, vazifasi va mazmuniga mos vosita va metodlarni tanlash mezonlari asosida mashg'ulotning texnologik xaritasini tuza olishi.

8. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tasodifiy pedagogik vaziyatlarni oldindan bilishi va unga nisbatan keskin choralar ko'rishi.

O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik tayyorgarlikning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchining kommunikativ ko'nikma va malakalarni egallashiga va uni qo'llay olish layoqatiga bog'liq.

Kasbiy pedagogik kommunikativ muloqotning muhim komponenti, o'qituvchining o'z fikr va mulohazalarini, emotsional his-tuyg'ularini aniq ifoda eta olish mahoratidir. Turli tasodifiy pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganida, tushkun bir ahvolga tushganida ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa holatga, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan rol o'ynab

vaziyatdan chiqishni ham bilishi lozim.

Biroq, shunchaki tashqi, sahnaviy rol o'ynash yaramaydi. Bu o'yinda pedagogning ajoyib shaxsiy mahorati bilan bog'laydigan qandaydir kamar bor, bu sizning go'zal xulqingizni namoyish etib beruvchi rolingiz. Bu sahnadagi o'yin o'lik bir holat yoki texnika emas, balki qalbingizdagi yashirin his-tuyg'ularingizni, mehringizni namoyon etuvchi haqiqiy jarayondir.

Ma'lum ma'noda o'qituvchi pedagogik faoliyatida uning ruhiy ta'sirlanishi, qayg'urishi, boshqa kasb egalaringning tabiiy his-tuyg'ularidan farq qiluvchi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, o'qituvchi o'zining kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida boshqa kasb egalari kabi tashqi muhitning turli ta'siri ostida va insoniy his-tuyg'ular girdobida yashaydi, kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi ham ana shunda namoyon bo'ladi va o'qituvchining ta'sirlanishi, his-tuyg'ulari, hayajoni pedagogik maqsadga muvofiq bo'lishi lozim.

O'qituvchining kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish, pedagogik faoliyat tufayli sodir bo'ladigan qayg'urish, his-hayajon, murakkab hayotiy va pedagogik maqsadga qaratilgan o'qituvchi tashvishlarining yig'indisidir, aynan shu jarayonda o'qituvchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hayotiy, g'ayriixtioriy tashvishlar yig'indisi saqlanadi. Natijada, pedagogik vaziyatlarda o'qituvchining qayg'urishi pedagogik ixtioriylik yuzasidan o'z faoliyati oldida javobgarlik hissini ham paydo qiladi. Shu sababli, g'ayriixtioriy tashvishlar o'qituvchining ixtioriy tashvishlari va pedagogik ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan his-tuyg'ulari asosida amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot, ta'lim-tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy-psixologik, tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarning murakkabligi o'qituvchilarning kommunikativ faoliyatiga yuksak talablarni qo'yadi. O'qituvchilar kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishishi uchun, ko'p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan muloqotning quyidagi yo'nalishlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

Muloqotning birinchi modellashtirish yo‘nalishi: O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar bilan muloqotga bevosita tayyorgarlik jarayonida o‘quvchilar bilan bo‘lajak har qanday muloqot turini modellashtirish.

Muloqotning ikkinchi yo‘nalishi: O‘quvchilar bilan dastlabki muloqotni tashkil etish jarayonidayoq o‘zaro ta’sir metodlaridan bevosita foydalanib, tashabbuskorlikni qo‘lga olish.

Muloqotning uchinchi yo‘nalishi: Tobora takomillashib, rivojlanib borayotgan pedagogik faoliyatda muloqotning turli texnologik shakllaridan unumli foydalanish va uni boshqarish.

Muloqotning to‘rtinchi yo‘nalishi: Keyingi pedagogik faoliyat uchun olib boriladigan muloqot tizimini modellashtirish va muloqotning amalga oshirilgan tizimini doimiy tahlil qilib borish.

Muloqotning birinchi, modellashtirish yo‘nalishida, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan dars jarayonida uchrashishga tayyorlanib, nafaqat oldindagi faoliyat mazmunini, balki muloqotning mumkin bo‘lgan usullari va ta’sirchan ohanglarini o‘ylab olish lozim. Pedagogik muloqotning ushbu bosqichi naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini tasavvur qilib, kommunikativ vazifalarning bajarilish holatini oldindan puxta o‘ylash kerak. U har qanday darsning kommunikativ tizimini mukammal, o‘ziga xos ravishda rejalashtirishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu prognostik yo‘nalishda pedagogik vazifalarni kommunikativ vazifalar sohasiga o‘tkazish bo‘yicha murakkab jarayon amalga oshiriladi. Ularning bir-biriga muvofiq kelishiga erishiladi. Ayni paytda o‘quvchilar idrok etish orqali o‘qituvchi tomonidan o‘rganilayotgan yangi dars materiallarini va o‘qituvchining xatti-harakatini kuzatib baholaydilar.

O‘qituvchi o‘zi uchun bo‘lajak darsning noyob xususiyatlarini va kommunikativ rejasini tuzishi mumkin. Unda darsning har bir pedagogik vazifasiga, kommunikativ vazifaning ma’lum bir usullari mos kelib, uni hal qilishning o‘ziga xos yo‘nalishlari namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilar bilan bo‘lajak muloqotni modellashtirishning muhim sharti o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro emotsional birligi bo‘lib, u o‘qituvchiga darsning quyidagi ehtimoliy atmosferasini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini beradi:

➤ bo‘lajak darsda o‘quvchilar jamoasi bilan ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni oldindan ko‘ra olish;

➤ o‘quvchilar bilan o‘zaro demokratik va erkin munosabatning har xil darajalarini tashkillashtirish, uni rivojlantirish istiqbollarini belgilash;

➤ darsda o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini va ijodiy kayfiyatini vujudga keltirish.

Ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida o‘quvchilar bilan bo‘lajak muloqotni modellashtirish juda muhim. Zero, bu jarayon darsning didaktik tamoyillarini har tomonlama belgilab beradi, o‘qituvchini ijodiy faoliyatga yunaltiradi, unda o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikning mukammal shakllariga nisbatan turli muloqot modellarini takomillashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Muloqotni modellashtirish bevosita yangi dars oldidan tezda bajarilishi mumkin, ba‘zan esa doimiy xarakter kasb etadi. U o‘qituvchiga o‘zining dars jarayonidagi kommunikativ munosabatini va emotsional xulqini, his-tuyg‘ularini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini yaratadi.

Muloqotning ikkinchi boshlang‘ich yo‘nalishida – o‘quvchilar bilan bevosita munosabatni tashkil qilish uchun o‘qituvchi tashabbuskorlikni va kommunikativ ustunlikni o‘z qo‘liga olishi kerak, bu unga keyingi yo‘nalishlarda doimiy muloqotni o‘zi boshqarish imkoniyatini beradi. Muloqotda tashabbuskorlikni qo‘lga olish, o‘qituvchining ta’lim-tarbiyaviy jarayonni hamisha oqilona, ziddiyatsiz boshqarishini ta’minlaydi. Ta’kidlash joizki, barcha o‘qituvchilar hamisha sinf jamoasi bilan kommunikativ muloqotda ustunlikka erishish imkoniyatini qo‘lga kiritmaydilar.

Masalan, darsda yangi mavzuni o‘quvchilar ongiga singdirish, yangi materialni tushuntirishda yoki muammoli vaziyat hosil qilishda sinf jamoasi bilan muloqotni to‘g‘ri tashkillashtirish, o‘qituvchi uchun naqadar zarur, buning natijasida o‘quvchilar birgalikda ahil jamoa bo‘lib, darsda, bilimlarni o‘rganishda o‘zaro erkin fikr yuritadilar va izlanadilar. Muloqotda o‘qituvchining tashabbuskorligi, ta’lim-tarbiyaviy hamda ijtimoiy-psixologik jihatdan qator strategik va taktik muammolar yechimini topish imkoniyatini beradi: o‘qituvchining o‘quv-tarbiyaviy jarayondagi yo‘naltiruvchanlik roli, o‘quvchilarning yaxshi kayfiyati, his-tuyg‘ularini shakllantiradigan, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat samaradorligini ta’minlaydigan kerakli ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish imkoniyatini beradigan qizg‘in kommunikativ

muloqotni pedagogik maqsadga muvofiq ta'minlaydi.

Darsda o'quvchilar bilan muloqotni tashkil qilishda o'qituvchining tashabbuskorligi quyidagi vaziyatlarda namoyon bo'ladi:

1. Guruh jamoasi bilan dastlabki suhbat jarayonini oqilona, puxta tashkil qilish.

2. Tashkiliy marosim va tadbirlardan (salomlashish, o'quvchilarni tartib bilan o'tqazish, davomatni tekshirish va hokazo) rasmiy va shaxsiy muloqotga tezkor o'tish.

3. O'quvchilar bilan ijtimoiy-psixologik hamkorlikka oson erishish muammolarini izlash.

4. O'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikning tashkiliy va sermazmun bo'lishida har qanday salbiy to'siqlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.

5. O'quvchilar bilan o'zaro munosabatda o'zining shaxsiy insoniy fazilatlarini namoyon etish.

6. Ayrim o'quvchilarga nisbatan bir qolipdagi va bir holatdagi salbiy munosabatlarni bartaraf qilish.

7. Butun o'quvchilar jamoasi bilan yaxlit o'zaro ijobiy munosabatni tashkil etish.

8. O'zaro hamkorlikning boshlang'ich vaziyatlarida o'quvchilar jamoasini erkin muloqotga safarbar qila oladigan vazifa va masalalarni ongli ravishda qo'yilishi.

9. Ta'lim va tarbiya tizimida ta'qiqlangan pedagogik talablarni qo'l-lamaslik, aksincha yangi, sinalgan, texnologik jihatdan mukammal deb topilgan pedagogik talablarni ko'paytirish.

10. O'qituvchi tashqi ko'rinishi bilan (orastalik, tartiblilik, faollik, xushmuomalalik, muosharat odobi va hokazo) kommunikativ munosabatni ta'minlashga erishishi.

11. O'zaro hamkorlikning nutqiy va noverbal vositalarini (mimika, pantomimika, ma'noli qarash) qo'llash orqali munosabatga faol kirishish.

12. O'quvchilar jamoasiga o'zining xayrixohligini, moyilligini, do'stligini "namoyish etish".

13. O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik faoliyatning yorqin va e'tiborni tortadigan maqsadlarini qo'ya bilish va ularga erishish yo'llarini ko'rsatish.

14. O'quvchilarning har xil vaziyatlarda ichki kayfiyatlarini, his tuyg'ularini tushunish, uni hisobga olish, hamjihatligini ko'rsata bilish.

Pedagogikaga oid darslik va qo'llanmalarda ta'lim – o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi hamkorlik faoliyati, bir-birlariga o'zaro ijobiy ta'sir vositasi sifatida talqin qilinadi. Biroq, bu faoliyatning ijtimoiy-psixologik tizimi hamma vaqt ham e'tiborga olinmaydi. Bu o'rinda ham qator muammolar yuzaga keladiki, ular ta'lim va tarbiyaning mazmun va metodik aspektlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. O'zaro hamkorlik o'qituvchi va o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik birligini ko'zda tutadi. Dars jarayonida ko'p holatlarda bunga e'tibor berilmaydi.

Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, dars davomida o'qituvchi va o'quvchilarning psixologik jihatdan bir-birlariga moslasha olmasligining 25 dan 150 gacha bo'lgan turli holatlari yuzaga keladi. Bular ongli nazorat qilinmaydi, demak o'qituvchilar tomonidan bu holatga nisbatan ma'lum bir maqsad belgilanmaydi. Aksincha, to'g'ri topilgan va darsda amalga oshirilgan muloqot tizimi o'quvchilarni faollashtiradi, ularni o'quv faoliyatiga qizg'in ishtirok etishga intilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, o'quv faoliyatining ijtimoiy-psixologik tomoni ta'limni optimallashtirishning amaliy zaxirasi sanaladi. Ba'zan ta'limning yangi metodlarini emas, balki mavjud bo'lgan metodikasining ishonchli ijtimoiy-psixologik ta'minotini izlash kerak bo'ladi.

Darslardan o'zlashtirmovchi o'quvchilar xulqidagi chekinishlarning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning salbiy hislatlari, tengdoshlari bilan munosabatda passivligi, xulqining o'zgaruvchanligi nafaqat o'z faoliyatidan, balki o'quvchilar jamoasidagi holatidan hamda u bilan do'stona munosabat yetishmaydigan muloqotdan qoniqmasligi oqibatida paydo bo'ladi. Bu holatlarning barchasi o'quvchining psixologik kayfiyatini keskin salbiy tomonga o'zgarishiga olib keladi.

Ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik muloqoti tizimida ko'pincha, u yoki bu o'quvchining idrok etishi, tafakkuri bir qolipda shakllanadi, o'qituvchi ko'z o'ngida ular barqaror psixologik muloqot obyektiga aylanadilar. Mabodo, o'quvchi o'qituvchining ko'z o'ngida "yomon xulqlilar" qatoriga kirib qolsa, bu o'qituvchining unga nisbatan muloqot amaliyotiga ta'sir o'tkazadi. A.N.Leontev bunday

munosabatning quyidagi belgilarini qayd etadi: o'qituvchi dars jarayonida "yomon" o'quvchiga mavzuga taalluqli savolga javob berish uchun, "yaxshi" o'zlashtiradigan o'quvchiga nisbatan, kamroq vaqt ajratadi, ya'ni diqqatini unga jalb qilmaydi, o'ylashga vaqt bermaydi. O'quvchi noto'g'ri javob bersa, o'qituvchi savolni qaytarmaydi, yo'naltiruvchi savol yoki fikr bermasdan, darrov boshqa o'quvchidan so'raydi yoki o'zi to'g'ri javobni aytadi. Ba'zan, noto'g'ri javobni ijobiy baholab, "liberallik uslubi"ni qo'llashi mumkin. Ayni paytda, "yomon" o'quvchini noto'g'ri javob uchun koyiydi. To'g'ri javob uchun maqtamaydi. "Yomon" o'quvchining har qanday javobiga o'qituvchining reaksiyasi sezilmaydi, boshqa o'quvchini javob berish uchun chaqiradi, ba'zida hatto "yomon" o'quvchilar bilan ta'sirchan pedagogik muloqotni olib bormaydi. Ushbu norasmiy muloqotning natijasi ma'lum, bunday holatda o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni ijobiy tashkil qilolmaydi.

Muloqotning uchinchi yo'nalishida o'qituvchi pedagogik faoliyatida kommunikatsiyaning turli shakllaridan unumli foydalanib, quyidagi ko'p funksiyali vazifalarni bajaradi:

➤ dars davomida o'qituvchi ko'plab pedagogik usul va vositalarni hamda shaxsiy kommunikativ vazifalarni hal qiladi;

➤ aslida, dars jarayonining turli qismlarida, o'qituvchi tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda muloqotning o'ziga xos tizimlarini qo'llash talab qilinadi;

➤ tajribali o'qituvchilar ushbu tizimlarni deyarli osonlik bilan topadi, pedagogik faoliyatini endigina boshlagan yosh o'qituvchilarga bu holat qiyinchilik bilan kechishi mumkin.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqotni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilishda, uning kommunikativ madaniyatiga jiddiy talablar qo'yiladi. Dars hamda tarbiyaviy tadbirlar – o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari tizimini shakllantiruvchi jarayon bo'lib, aynan ushbu faoliyatda o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik faoliyatini tarkib toptiradi. Tajribali o'qituvchilar bilan o'zaro suhbatlardan ma'lum bo'ladiki, darsda o'quvchilar jamoasi bilan muloqot shaklini tanlash uchun o'qituvchi qaysidir ma'noda o'rganilayotgan yangi material uchun pedagogik metodlarni ham tanlash talab qilinadi. Shu sababli, darsda yangi mavzuni o'rganishga tayyorgarlik ko'rilayotganda hamda tarbiyaviy ta'sir rejasini tuzayot-

ganida, muloqot tizimining o‘ziga xos mazmunan boy jihatlarini modellashtirish lozim.

Pedagogik faoliyatini endigina boshlayotgan yosh o‘qituvchilar, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida, ayniqsa o‘zining kasbiy pedagogik xatti-harakatlarida o‘ziga xos psixologik to‘siqlarga duch kelishini, o‘quvchilar bilan muloqotda ziddiyatlar paydo bo‘lishi mumkinligini bilishi va bunga har tomonlama tayyorgarlik ko‘rishi, chuqur pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Muloqotning to‘rtinchi yo‘nalishida pedagogik faoliyat uchun olib boriladigan muloqot tizimi modellashtiriladi va muloqotning amalga oshirilgan tizimi tahlil qilinadi. Pedagogik muloqotni tashkil etuvchi yosh o‘qituvchidan:

1. O‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatning o‘zgaruvchan har qanday sharoitlarida tez va to‘g‘ri psixologik mo‘ljal olib tahlil qilishni.

2. Kommunikativ tizimni mukammal rejalashtirgan holda amalga oshirishni va ayniqsa uning eng muhim tarmog‘i – nutq texnikasi va notiqlik san’atining ta’sirini puxta o‘zlashtirishni.

3. O‘qituvchining individual kasbiy ijodkorligiga va turli vaziyatlar-da o‘quvchilar bilan muloqot qilish qobiliyatiga hamda tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlariga mos keluvchi “kommunikativ vositalarni” tez va aniq topishni.

4. Ayni paytda muloqotning teskari aloqasi ham mavjud ekanligini his qilib, uni modellashtirish va qo‘llab quvvatlashni talab qiladi.

Yosh o‘qituvchilar ba’zan kundalik faoliyatida yuzaga keladigan favqulotdagi holatlarda tez va aniq yechilishi lozim bo‘lgan kommunikativ muammolarga duch keladi va bunda muloqotning kutilmagan vaziyatlariga tayyor emasligini his qiladi. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchining aql-zakovati va pedagogik madaniyati, kasbiy tafakkuri, nutqining rivojlanganligi va leksik hamda kasbiy-leksik jihatdan so‘z boyligining mavjudligi, umumiy suhbatlashish madaniyati, o‘quvchilar bilan kommunikativ faoliyatga moyilligi asosiy rolni o‘ynaydi.

Kutilmagan, tayyorgarlik ko‘rilmagan kommunikativ muammolardan nihoyatda uddaburonlik bilan ustunlikni qo‘lga olish o‘qituvchi kasbiy faoliyatida ulkan sinov bo‘lib, prins ipial ahamiyatga ega, negaki bunday vaziyatlarda muloqotning barcha variantlarini taxminiy rejalashtirish aslo mumkin emas. Bunda o‘qituvchi muloqotda peda-

gogik improvizatsiya (tayyorgarliksiz) holatlariga ko'nikma hosil qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak – vaziyatni va o'quvchilar xatti-harakatini chuqur idrok qilib tez va haqqoniy baholashi, hech qanday mantiqiy mulohazasiz, o'zining bilim va malakalariga, tajribalariga, pedagogik mahorati va aql-zakovatiga, sezgisiga asoslanib, aniq qaror qabul qilishi, vaziyatning o'zgarishiga qarab munosabatini, shaxsiy pedagogik faoliyatini to'g'rilab, uzviy ravishda ushbu qarorni o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qo'llashi lozim.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqotning ahamiyati haqida gapiring?
2. Kasbiy pedagogik muloqot tushunchasini izohlang?
3. Pedagogik muloqot o'qituvchi ijodkorligi tizimiga qanday ta'sir etadi?
4. Pedagogik ta'sir etishning mantiqiy obrazini tasvirlab bering?
5. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi qanday kommunikativ vazifalarni amalga oshiradi?
6. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'nalishlariga tavsif bering?
7. Muloqotni tashkil etishda o'qituvchining tashabbuskorligi qanday vaziyatlarda namoyon bo'ladi?

V BOB. KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni mazmunini kompetentlik yondashuv asosida modernizatsiyalash. Davlat ta'lim standartida bo'lajak o'qituvchining ishlab chiqilgan umumiy malakaviy kompetensiyalari.

2. Kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik va iqtisodiy bilimlar integratsiyasi.

3. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish xususiyatlari.

1. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni mazmunini kompetentlik yondashuv asosida modernizatsiyalash

O'zbekiston Respublikasi bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq fuqarolik jamiyat va huquqiy demokratik davlat barpo etish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi bilan respublikamizda ishlab chiqarishning barcha sohalari uchun raqobatbardosh mutaxassislarni yetkazib berishga alohida diqqat qaratila boshlandi. Ma'lumki, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadini kelajakda amalga oshiradiganlar yoshlar, ya'ni hozirgi talabalardir.

Shuning uchun ham jamiyatning kelajagi qanday bo'lishi ko'p jihatdan talaba yoshlarning intellektual va axloqiy jihatdan qay darajada kamol topishlariga bog'liq.

Jahon hamjamiyatida har qanday davlatning mavqeyi aholisining turmush darajasi hamda siyosiy va iqtisodiy faolligi bilan belgilanadi. Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq.

Shu sababli mustaqillikning ilk yillaridanoq jamiyat va iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta'lim sohasida jahonda munosib o'rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar, eng avvalo, fan va texnikaning ildam taraqqiyoti, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning zamonaviylashuvi, asosiy buyurtmachi sifatida davlat va ijtimoiy hayotning ta'limga qo'yayotgan yangidan-yangi talablariga mos ravishda ta'lim-tarbiyaning sifat-samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishga qaratilgan.

Ta'lim sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim sifat samaradorligi rivojlanishi dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi.

Yoshlarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o'qitishning yangi shakl, noan'anaviy uslublari orqali ularning bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish hamda indikatorlar tizimi orqali ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish zarurati mavjud.

Aynan mana shular uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalashni, ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga xizmat qiladigan ta'sirchan choralarni ko'rishni taqozo qiladi.

Ta'limning ustuvor vazifalaridan biri, bu ta'lim oluvchi ong-u shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o'z munosib o'rnini topishi uchun amaliy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan talaba yoshlarning ijtimoiy iqqisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir.

Shu nuqtayi nazaridan, ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat talaba yoshlarga fanlar bo'yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amalga tatbiq etish, ulardan maishiy hayotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish ham asosiy vazifalardan biridir.

Mazkur muammolarni hal etish yo'llaridan biri - ta'lim muassasalari, rahbar xodimlar, pedagoglar, talaba yoshlar va ota-onalar uchun

ta'lim xizmatlari (ilmiy-uslubiy va axborot ta'minoti, pedagog xodimlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, uslubiy xizmat tizimi) sifatini oshirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

Oliy ta'limni mazmunan modernizatsiyalashda asosiy quyidagi vazifalarning bajarilishi nazarda tutiladi:

➤ oliy ta'limning bakalavriatura va magistratura bosqichlarida "Milliy g'oya" turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish ketma-ketligi va uzluksizligini ta'minlovchi yagona Konsepsiyani yaratish, milliy g'oya, umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni barcha o'quv fanlari tarkibiga singdirish;

➤ ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borish, talaba-yoshlarni nafaqat bilimli, balki ma'naviy, axloqiy hamda kasbiy tayyorlangan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo'yicha ta'sirchan pedagogik choralarni belgilash, buning uchun talaba-yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqib, joriy etish;

➤ ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

➤ iqtidorli talaba-yoshlarning qobiliyati va iste'dodini aniqlash, tarbiyalash, ular iste'dodini to'laqonli ro'yobga chiqarishning yagona umummilliy tizimini shakllantirish, o'quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish ilmiy asoslarini yaratish;

➤ o'quv rejalaridagi turdosh fanlarni integratsiyalash orqali o'quv yuklamalari ko'lami va hajmini maqbullashtirish;

➤ oliy ta'lim tizimining bakalavriatura va magistratura bosqichlarida Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari hamda darsliklarini takomillashtirish, mazmunan uzviylashtirish;

➤ talabalarning Davlat ta'lim standartlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning bakalavriatura va magistratura bosqichlari uchun yagona tizimini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

➤ oliy ta'lim muassasalarida virtual o'quv-laboratoriya, zamonaviy axborot kommunikatsiya, elektron-texnik va masofadan o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish, darslik, qo'llanma va o'quv filmlarining

elektron turlarini yaratish va ulardan ta'lim - tarbiya jarayonida samarali foydalanish;

➤ oliy ta'lim muassasalarida ta'limni boshqaruv tizimi uchun rahbar kadrlarni maqsadli tayyorlashni yo'lga qo'yish;

➤ pedagog xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarini malakali mutaxassislar bilan to'liq ta'minlash choralarini belgilash;

➤ pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, pedagogik diagnostika, talaba shaxsiga individual yondashishga doir tadqiqotlarga keng yo'l ochish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish;

➤ bitiruvchilarni mehnat sohaslariga joylashuvining monitoringini tashkil qilish;

➤ indikatorlar tizimi orqali ta'lim sifatini boshqarish mexnizmini yaratish va joriy etish.

Oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning asosiy tamoyillari:

➤ oliy ta'limda talaba aqliy hamda yaratuvchanlik faoliyatini oqilona uyg'unlashtirish yo'li bilan olingan bilimlarini zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda amaliyotda qo'llash;

➤ bakalavriatura va magistratura bosqichlarining mazmunan uzviyligi- umumiy, ijtimoiy va kasbiy ta'limning yagonaligi;

➤ psixologik-pedagogik talablar asosida ta'lim mazmunida o'quv yuklamasi hajmini maqbullashtirish;

➤ ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi va individualligini ta'minlash;

➤ ta'lim mazmunining bevosita shaxsga yo'naltirish va ta'lim oluvchilarning shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini boyitish, mavjud imkoniyatlarini rivojlantirishda ularning qiziqish va ishtiyoqlarini hisobga olgan holda ta'limni ijtimoiylashtirish, individuallashtirish;

➤ insoniylik va insonparvarlik, talaba-yoshlarning jismoniy, intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik, kommunikativ va qobiliyatini rivojlantiruvchi omillarning ta'lim mazmunida aks etishi;

➤ fundamentallik, ta'lim mazmunida olinadigan bilimlar ko'lamini oshirish, asosiy nazariyalar, qonunlar, tamoyillar, tushunchalar,

muammolar va insoniyatning umume'tirof etilgan madaniy-tarixiy yutuqlarini o'rganishni ta'minlovchi metodologik tarkibiy qismlarni kuchaytirish;

➤ har bir iqtidorli talabaning o'ziga xosligiga tayanish, uning qiziqishlaridan, ijodkorligidan kelib chiqib, talaba-yoshlarning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish.

Oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari:

➤ kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijrosini yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim jarayonida erishilgan ijobiy natijalarni kelajakda rivojlantirish;

➤ jahon talablariga mos keladigan innovatsion ta'lim tizimiga o'tish;

➤ ta'limning mazmuni va texnologiyasini madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika, texnologiyaning zamonaviy yutuqlari va istiqbol yo'nalishlariga mos ravishda uzluksiz va muttasil rivojlantirib borishni ta'minlash;

➤ zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim sifat ko'rsatkichlari o'sishini ta'minlovchi o'quv jarayonini tashkil etishning yangi ta'limiy tamoyillari va yo'nalishlarini tatbiq etish;

➤ sifatli ta'limiy xizmatni amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlagan holda talaba-yoshlarning jismonan va ruhan sog'ligini, ularning ijtimoiy, huquqiy, ma'naviy vakolatlarini, o'z-o'zini rivojlantirish va namoyon eta olish imkoniyatlarini kengaytirish;

➤ pedagogik kadrlarning kasbiy salohiyati, umumiy madaniyati, ijtimoiy tayyorgarligi darajasini o'stirish, ularni rag'batlantirish mexanizmini yanada rivojlantirish orqali ta'lim tizimida pedagogik faoliyat va boshqaruv samaradorligini oshirish.

Oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning asosiy tamoyillari va yo'nalishlaridan kelib chiqib, oliy ta'limning barcha ta'lim yo'nalishlarida va mutaxassisliklarida bilim oluvchi talaba-yoshlarga keng imkoniyatlar ochib berilganligining guvohi bo'lamiz.

Oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash ishlari, avvalambor, ta'lim tizimida Davlat ta'lim standartlarining yangi avlodini ishlab

chiqilganligida ko‘rinadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, Kasb ta’limi yo‘nalishining Davlat ta’lim standartlari qayta ko‘rib chiqildi va bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishning modernizatsiyalashgan mazmuni asosida Kasb ta’limi (Xizmatlar sohasi (Servis)) ta’lim yo‘nalishining Davlat ta’lim standartlari yaratildi.

Mazkur standartda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda Oliy ta’lim sohasidagi xalqaro hujjatlarga mos ravishda atamalar va ta’riflardan foydalanilgan:

➤ ***bakalavriatning asosiy ta’lim dasturlari*** – (bakalavriat dasturi) - talabalarning tarbiyasi va tayyorgarlik darajasi sifatini ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘quv rejasi, o‘quv kurslari, fanlari (modullari)ning dasturlarini qamrab olgan o‘quv-uslubiy majmualari hamda malakaviy amaliyotlar dasturlari, o‘quv jarayoni jadvali va mos ravishdagi ta’lim texnologiyalarini amalga oshirilishini ta’minlovchi metodik materiallar;

➤ ***integrallashgan kurs*** – ta’lim dasturidagi o‘quv fanlari mazmun jihatdan o‘zaro bog‘langan, lekin o‘z mustaqil faniga ega bo‘lgan fanlar moduli;

➤ ***kasbiy faoliyat sohasi*** – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

➤ ***kasbiy faoliyat obyekti*** – kasbga yo‘naltirilgan predmetlar, voqeliklar, jarayonlar va tizimlar;

➤ ***kasbiy faoliyat turi*** – ta’lim yo‘nalishiga o‘zgartishlar kiritish maqsadida kasbiy faoliyat obyektiga ta’sir qilish tavsifi metodlari va usullari;

➤ ***kompetentlik*** – shaxsning muayyan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilim, malaka va ko‘nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati.

➤ ***kompetensiya*** – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo‘llay olish;

➤ ***modul*** – ta’lim va tarbiyaning muayyan maqsadi va natijasiga erishish bo‘yicha o‘zaro bog‘langan hamda mantiqiy tugallikka ega

bo'lgan o'quv fanlari va ularning tarkibiy qismlari.

➤ **yo'nalish** – asosiy ta'lim dasturining kasbiy faoliyatning muayyan turi va yoki obyektiga yo'nalganligi;

➤ **ta'lim dasturi** – muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligida majburiy va tanlab o'qitiladigan fanlar tizimi, o'tkaziladigan amaliyot turlari va ularning mazmuni;

➤ **ta'lim yo'nalishi** – muayyan kasbiy faoliyat doirasidagi turli darajadagi ta'lim dasturlarining majmuyi;

➤ **ta'lim natijalari** – o'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan kompetensiyalar;

➤ **o'quv turkumi** – asosiy ta'lim dasturining ilmiy va (yoki) kasbiy faoliyatning tegishli sohasida bilim, malakalarni o'zlashtirish va kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlaydigan fanlar (modullari) yig'indisi;

➤ **ARM** - axborot resurslar markazi;

➤ **ITI** - ilmiy tadqiqot ishlari;

➤ **OTM** - oliy ta'lim muassasasi;

➤ **O'MM** - o'quv metodik majmua.

Shuningdek, standartda quyidagilar to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan:

➤ bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi: kasbiy faoliyati obyektlari, kasbiy faoliyati turlari, kasbiy faoliyatining vazifalari;

➤ bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar: umumiy malakaviy kompetensiyalar, umumkasbiy kompetensiyalar, ishlab chiqarish-texnologik faoliyati, tashkiliy-boshqarish faoliyati, KHT tizimida pedagogik faoliyat;

➤ ta'lim dasturlari bo'yicha bakalavrlarning bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar: gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha talablar, matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha talablar, umumkasbiy fanlar bloki bo'yicha talablar, ixtisoslik fanlari bo'yicha talablar, bitiruv malakaviy ishi (loyihasi)ga qo'yiladigan talablar, malakaviy amaliyot bo'yicha talablar;

➤ ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari: talaba haftalik o'quv yuklamasining maksimal hajmi, ta'lim dasturining umumiy hajmi 4 yillik o'quv davri uchun haftalik o'quv yuklamalar, mustaqil ta'lim, Kasb ta'limi (Xizmatlar sohasi (Servis)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining zaruriy mazmuni: gumanitar va ijtimoiy-

iqtisodiy fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishi;

➤ bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan sharoitlarga belgilangan talablar: bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlari o'zlashtirilishiga belgilangan umumiy talablar, ta'lim dasturini amalga oshirish talablari, malakaviy amaliyotni tashkil etishga qo'yiladigan talablar, pedagogik amaliyotni tashkil etish talablari, o'quv jarayonini pedagogik kadrlar bilan ta'minlash talablari, ta'lim jarayonini o'quv-metodik va axborot resurslari bilan ta'minlashga talablar, o'quv jarayonining moddiy-texnika bazasiga qo'yilgan talablar;

➤ bakalavrlar tayyorlash sifatini baholash: oliy ta'lim muassasasi tayyorgarlik darajasi sifatini kafolatli ta'minlash, bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, har bir fan bo'yicha bilimlarni joriy va oraliq nazorat qilishning shakli va o'quv jarayoniga tatbiq etilishi, yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavr bitiruv malakaviy ishi himoyasi, Oliy ta'lim muassasasi vazifalari;

➤ eslatma va davlat ta'lim standartining amal qilish muddatlari.

Mazkur Kasb ta'limi (Xizmatlar sohasi (Servis)) ta'lim yo'nalishi Davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqilgan o'quv rejaning uchinchi blokiga tegishli umumkasbiy fanlari (Psixologiya va pedagogika kurslari, materialshunoslik, servisdagi texnologik jarayonlar, servis tizimi faoliyati asoslari, servis sohasi dizayni va reklamasi, mahsulotlarni ishlab chiqarish asoslari, servis korxonalarini mahsuloti va xizmatini sertifikatlashtirish va sifatini boshqarish, hayot faoliyati xavfsizligi) va to'rtinchi blokiga tegishli ixtisoslik fanlari tarkibiga kirgan "Tikuvchilik buyumlarini buyurtma asosida konstruksiyalash", "Kostyum tarixi va kompozitsiyasi" va "Tikuv buyumlarini buyurtma asosida konstruksiyalash va tayyorlash bo'yicha maxsus amaliyot" fanlar va ularga ajratilgan soatlar bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda o'z samarasini berishda ma'lum darajada ahamiyatga molikdir.

Yuqorida sanab o'tilgan fanlar kasb ta'limi metodikasi fani mazmunida integratsiyalashib, pedagogik amaliyot jarayonida o'z tatbiqini topadi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, kasb ta'limi metodikasi fani o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda integratsiyalashtiruvchi ahamiyatga ega bo'lib, uni mazmunan tarkib

toptirishda o‘quv rejasiga kiruvchi barcha fanlar xususiyatlari e‘tiborga olinadi.

2. Kasb ta‘limi o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi

Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllanganlik darajasini gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar hamda zamonaviy ilmiy-texnik bilimlar negizida shakllangan psixopedagogik, umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi ham belgilaydi.

Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashning yakuniy maqsadi kasbiy-pedagogik faoliyati sohasida kasbiy mahorat, mutaxassislik va psixopedagogik bilimlari tizimi hamda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini kasbiy kompetentligini shakllantirishdan iboratdir. Yakuniy maqsad nafaqat bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisining mavjud muammolarni hal etishga qodirligini qayd etadi, balki uni umuminsoniy taraqqiyot hamda muhandis-pedagog kadrlarni tayyorlashning istiqbolli muammolarini hal etishga yo‘naltirishni anglatadi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish joizki, mazkur standartning avvalgi standartdan afzalligi shunda ko‘rinadiki, fanlarning soni qisqartirilgan, ya‘ni o‘quv rejalaridagi turdosh fanlarni integratsiyalash orqali o‘quv yuklamalari ko‘lami va hajmini maqbullashtirilgan. Bu bilan fanga ajratilgan soat miqdori ko‘payib, talabalarning fan bo‘yicha oladigan bilimlari hajmi saqlab qolingani, ularning ijodkorligiga, yangi g‘oyalar ilgari surishga (kreativlik) va qiziqishlariga imkoniyat yaratilishiga e‘tibor qaratilgan.

Kasb ta‘limi (Xizmatlar sohasi (Servis)) ta‘lim yo‘nalishi Davlat ta‘lim standartida yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, kasbiy fanlar tarkibiga bir qator umumkasbiy va ixtisoslik fanlari kiritilgan bo‘lib, bu fanlardan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar kasb ta‘limi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishda o‘z aksini topadi.

Mazkur davlat ta‘lim standartida bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarda bo‘lajak o‘qituvchining umumiy malakaviy kompetensiyalari ishlab chiqilgan.

Kasb ta‘limi (Xizmatlar sohasi (Servis)) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha

kasb ta'limi o'qituvchisi quyidagi umumiy malakaviy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

a) umumiy malakaviy kompetensiyalar:

➤ intellektual, madaniy, axloqiy, jismoniy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishiga ko'ra va amalga oshira olish;

➤ tarixiy meros va madaniy an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy va madaniy tafovutlarni bag'rikenglik bilan qabul qila olish;

➤ tarixiy jarayonning harakatlantiruvchi kuchlari va qonuniyatlarini, tarixda zo'ravonlikning roli, insonning tarixiy jarayondagi, jamiyatning siyosiy tuzilishidagi o'rnini tushuna bilish;

➤ dunyoqarash, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy muammolarni tushunish va ularni tahlil qilish;

➤ o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilish;

➤ axloqiy va huquqiy me'yor hamda majburiyatlarni hisobga olgani holda maqsadga erishish yo'lida qat'iyatni namoyon qilish;

➤ og'zaki va yozma hamda fikrlash madaniyatiga asosli, aniq bayon qilish qobiliyatini egallash;

➤ to'plangan tajribani tanqidiy qayta anglash, zarur hollarda o'z kasbiy faoliyat turi va xarakterini o'zgartira olish;

➤ hayotiy faoliyat xavfsizligi sharoitlarini umumiy baholay olish, ishlab chiqarish xodimlari va aholini tasodifiy halokat, tabiiy ofatlardan va zamonaviy qurol vositalarini qo'llash oqibatlaridan himoya qilish, ularning asoratlarini bartaraf qilish bo'yicha choratadbirlarni qo'llay olish;

➤ kasbiy faoliyatda tikuvchilik buyumlarini yakka tartibda loyihalashtirish, ishlab chiqarish, ta'mirlash va bezash, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etish va yuritishga tayyor bo'lish;

➤ zamonaviy axborotlashgan jamiyatda axborotning mohiyati va ahamiyatini tushunish bu jarayonda yuzaga keladigan tahdid va xavflarni anglay olish, axborot xavfsizligi bo'yicha asosiy talablarga rioya qilish, jumladan, davlat sirini saqlash;

➤ axborotni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy metod, usul va vositalarini egallash, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

➤ global kompyuter tarmoqlarida axborot bilan ishlash qobiliyatiga ega bo‘lish;

➤ chet tillardan birini so‘zlashuv darajasidan past bo‘lmagan darajada egallash;

➤ ishlab chiqarish xodimlari va aholini tasodifiy halokat, tabiiy ofatlardan himoya qilishning asosiy metodlarini egallash;

➤ jismoniy tarbiya va salomatlikni mustahkamlashning mustaqil, metodik jihatdan to‘g‘ri vositalarini egallash, to‘laqonli ijtimoiy va kasbiy faoliyatni ta‘minlash uchun jismoniy tayyorgarlikning zarur darajasiga erishishga tayyor bo‘lish.

b) kasbiy kompetensiyalar, jumladan:

Umumkasbiy kompetensiyalar:

➤ *nazariyani amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha:* tikuvchilik buyumlarini yakka tartibda konstruksiyalash, ishlab chiqarish va ta‘mirlash texnologiyalari, kostyum kompozitsiyasi qonuniyatlari, kostyum tarixi, amaliy antropologiya, badiiy bezak metodlari, gazlamashunoslik, Davlat standartlari mohiyatini, xizmat ko‘rsatish sohasiga oid fanlarning dolzarb masalalarini ilg‘ay olishi va ta‘lim oluvchilarga yetkaza olishi;

➤ *metod va texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha:* an‘anaviy va noan‘anaviy metodlar, fan va mavzularni o‘rgatish vaqtida ilg‘or ta‘lim texnologiyalarni tanlay olish, o‘z fanlarida metod va texnologiyalarni ijodiy qo‘llay olish, faktlarni tahlil qilish, umumlashtirish, shu asosda xulosa chiqara olish;

➤ *ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish bo‘yicha:* har bir mavzuning ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik, psixologik xususiyatlarini yoritish, o‘qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borish, metodik birlashmalarda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi mazmunida fanning o‘rnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo‘yicha pedagogik o‘qishlarda leksiyalar o‘qish, kasb-hunar kollejlarda differensial ta‘limni yo‘lga qo‘ya olish, o‘quv jarayoni bilan bog‘liq barcha hujjatlarni yuritish;

➤ *ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha:* har bir ta‘lim oluvchining ruhiy, axloqiy holatini bilish, yakka tartibda ta‘lim oluvchilar bilan va guruh bilan ishlay olish, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, ta‘lim oluvchilar ongiga milliy

istiqlol g'oyasini singdirish, diniy ekstremizmga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

➤ ***o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish bo'yicha:*** dars tiplarini bilish va ularni maqsadga muvofiq tashkil etish, o'quv reja va fan dasturi, tematik rejani tayyorlay olish, ta'lim muassasasi metodik birlashmasi ishini rejalashtirish va rahbarlik qila olish, dars jadvalining tuzilish tamoyillarini bilish, ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishni bilish kerak.

Kasbiy mahorat bo'yicha o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil faoliyat ko'rsatish talablariga va kasbiy kompetentlik talablariga javob berishi kerak.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyati:

➤ namunaviy texnologik jarayonlarni loyihalash va ishlab chiqish, ularni qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi;

➤ ilmiy va amaliy faoliyatda informatika va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

➤ kasbiy etika kodeksiga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Tashkiliy-boshqarish faoliyati:

➤ ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

➤ ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish va loyihalashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

➤ axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;

➤ atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

➤ elektron dasturiy vositalarni amaliyotga tatbiq qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

➤ ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitni va mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

O‘MKHT tizimida pedagogik faoliyat:

- O‘MKHT tizimining mos ta‘lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlarni o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- O‘MKHT tizimining ta‘lim o‘quv muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini, jumladan, o‘quv laboratoriyalarida o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o‘quv mashg‘ulotlarini ishlab chiqish va o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- mustaqil ta‘lim va ijodiy izlanish natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar tizimida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ishlab chiqilgan Davlat ta‘lim standartlarida Oliy ta‘lim tizimining bakalavriatura va magistratura bosqichlarida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha darsliklarni, o‘quv qo‘llanmalarni hamda elektron tarqatma materiallarni takomillashtirish va mazmunan uzviylashtirish e‘tiborga olingan. Shuningdek, ta‘lim va tarbiyani uyg‘un olib borib, talaba-yoshlarni bilimli, ma‘naviy, axloqiy hamda kasbiy tayyorlangan yetuk

shaxs sifatida voyaga yetkazish bo'yicha ularning tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqib, ta'lim jarayoniga joriy qilish nazarda tutilgan.

Mashg'ulotlarni olib borishda ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifati yaxshilanishiga, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ahamiyat berilgan.

Talabalarga ta'lim berishda virtual o'quv-laboratoriya, zamonaviy axborot kommunikatsiya, elektron-texnik va masofadan o'qitish imkoniyatlari kengaytirildi, darslik, qo'llanma va o'quv filmlarining elektron turlari yaratilib ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish uchun axborot resurs markazlari faoliyat ko'rsatishi yo'lga qo'yildi. Talaba-yoshlarning Davlat ta'lim standartlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning bakalavriatura va magistratura bosqichlari uchun yagona tizimi yaratilib amaliyotga tatbiq etish rejalashtirildi.

Shuningdek, individuallashtirish va tabaqalashtirish asosida har bir talaba bilan alohida ishlab, iqtidorli talaba-yoshlarning qobiliyati va iste'dodini to'laqonli ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi zamon dunyo ta'lim tajribasida kompetentli yondashuv keng tarqalgan. "Kompetensiya" markaziy tushuncha sifatida ta'lim tizimining barcha bilim va ko'nikmalarini o'zida birlashtiradi. "Kompetensiya" tushunchasida ta'lim mohiyati shakllanib, g'oyasi mujassamlashadi. Uning aniq natijalarini ko'zlagan maqsadi - kompetensiyaning eng muhim qirralari, doimo rivojlanish tabiatiga ega bo'lgan, universal bilimlar asosida shakllangan mustaqil faoliyat tajribalaridan iborat, madaniyat va faoliyatning keng tarmoqlariga taalluqli unsurlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsning o'z kasbiy faoliyatini bajarishi uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o'z kuchiga ishonish, o'z kasb mahoratini tinmay oshirib borish, jarayonlarni emotsional-qat'iylik bilan boshqara bilish, kasbiy kompetentlikni yuzaga chiqarishi natijalaridir. Bunga asosan, kasbiy kompetentlik doimo o'sib boruvchi dinamik hodisadir, malaka oshirish va o'z ustida ishlash jarayonining natijasi hisoblanadi. Bilim va mahorat, hatto ijobiy yo'nalish ham vaqt o'tishi bilan eskirib qoladi, jamiyatning zamonaviy talablariga, yangi texnologiyalarga mos kelmasligi mumkin. Jamiyat

ham, odamlar, muammolar ham o'zgarib bormoqda.

Demak, bu vazifalarni yechish uchun yondashuv va metodlarni ham o'zgartirish talab etiladi. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va yo'llardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Shu bois kompetensiya masalasi dolzarbligicha qoladi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllanish jarayonini samarali tashkil etilishida ta'lim vositalarining alohida roli mavjud. A.R.Xojaboyev ta'kidlaganidek, "...Oliy ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablar va kasb-hunar kollejlarning ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar nafaqat ishlab chiqarish vositalari sifatida, balki birinchi navbatda ta'lim vositalari sanaladi, talabalar ular yordamida kasbiy ko'nikma va malakalarini hosil qilish va mustahkamlash imkoniyatlariga ega bo'ladilar".

Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishda: asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar ta'lim vositalari sifatida qo'llaniladi. Lekin pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan pedagogika fani hamda ishlab chiqarishning mavjud rivoji yana bir qator ta'lim vositalaridan foydalanish mumkinligini ko'rsatmoqda. Jumladan:

- kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash va ularni kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar (muhandis-pedagoglar, malakali o'quv ustalar, texnik xodimlar va boshqalar) ning xatti-harakati, yurish-turishi, muomalasi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ijtimoiy faolligi va boshqalar;

- ta'lim muassasasida qaror topgan shaxslararo munosabat mazmuni;

- axborot vositalarining bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini

kasbiy kompetentligini shakllantirishga ko'rsatayotgan ta'siri va ishtiroki kabilarni kiritish mumkin.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlar ekanmiz, olib borilgan psixologo-pedagogik tadqiqotlarning dalolat berishicha, bu masalaga olimlar turli tushuncha va turli nuqtayi nazardan yondashganlarini, uni tarkibida turli unsurlar mavjudligini qayd etganliklarining guvohi bo'lamiz.

Bizning fikrimizcha, kasbiy kompetentlik masalasiga, uning mohiyati va tuzilishiga bildirilgan turlicha munosabatlarining sababi, tadqiqot masalalarini yechishda ham turli-tuman metodlar bilan yondashilganligidadir. Har bir munosabat ortida ma'lum muallifning shaxsiy qarashlari mujassam. Har qanday sharoitda ham, bunday yondashuvlar diqqatga sazovordir, ammo doim ham integrativ metod bilan yondashuv ko'p o'lchovli mazkur obyektни to'laqonli tushuntira olmaydi. Buning oqibatida tushunchalar mohiyatini kim qanday tahlil qiladi, ta'riflaydi, degan masalada tortishuv emas, balki kompetensiya yo'nalishi asosida yondashish orqali bu tushunchaning yagona mohiyatini aniqlab olishdan iborat bo'lishi kerak.

Talaba shaxsini aniq metodikalar asosida doimiy o'rganish ta'limda samarali natijalarga olib keladi. Bu borada olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlarni, eng avvalo, talabaning qiziqishlarini, uning ehtiyojlari, ishtiyoqi va idealini o'rganish kabi xususiyatlar talabaning borliqqa, ijtimoiy hayot voqea-hodisalariga, jamiyatga, jamoaga, boshqa shaxslarga hamda o'z-o'ziga munosabatlarini anglatadi. Demak, talabalarning o'rab turgan olamga munosabatini, yuzaga kelgan muammolar yechimini to'g'ri hal qilishi va turli vaziyatlardan chiqib ketishi uchun uning kompetentligini shakllantirish xususiyatlariga ham e'tiborimizni qaratishimiz zarur.

O'qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirishning xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, O.N.Larionova muhandis mutaxassisligi kompetentligini tahlil qilganligiga e'tibor qaratdik, ya'ni u quyidagi fikrlarni olg'a suradi. Uning fikricha, bu *kompetentlik o'z tarkibiga besh turdagi kompetentliklarni birlashtirgan: axboriy-metodologik, ijtimoiy-kommunikativlik, shaxsiy-mutanosiblik, tezkor-texnologik, nazariy kabilar.*

3. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning xususiyatlari

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining ijtimoiy-shaxsiy sifatlari muhandis mutaxassisligining xususiyatlarini o'zida jamlagan bo'lib, ular loyihalash jarayonlaridagi individual va jamoa bo'lib ishlashda qo'l keladi. Bunda ikki jihatni alohida ta'kidlash darkor: ijtimoiy (hamkorlik qila bilishi, ziddiyatlarni yechish, tashabbuskorlik ko'rsatish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish, guruh ishini tashkil etish) hamda shaxsiy sifatlari (loyihalash faoliyatida o'zining fikrini tushuntira olish yo'llarini bilish va o'z ustida ishlash) kabilar. Ular texnik fikrlash bilan bog'liq bo'lib, mustaqil va o'z kuchiga ishonish, kreativlik hamda o'zining kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishga intilish kabi sifatlardan iborat.

Axboriy-metodologik kompetentlik bir tomondan muhandisning turli axborotlardan foydalana bilish mahoratini o'z ichiga olsa (axborot zaxiralari haqidagi bilimi, ularni izlab topish, tanlash, norasmiy testlarni, ma'lum manbalar bilan solishtirish), boshqa tomondan esa fanning turli sohalarini tashkil etish tamoyillari haqidagi, sabab va oqibatlarini aniqlash mahorati va turli hodisalardagi o'xshashliklarni aniqlash kabi bilimlari nazarda tutiladi.

Muhandisning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi uning jamoa bilan va jamoada ishlashni, ijtimoiy-iqtisodiy mikro va makro vaziyatlarni munosib baholay bilishi demakdir.

Shaxsiy mutanosiblik kompetentlik o'z ichiga nafaqat o'zining psixologik va jismoniy salomatligini bilishi, balki uni ehtiyot qilishni ham nazarda tutadi.

Tezkor-texnologik kompetentlik ma'lum ishlab chiqarish sohasida zarur bo'lgan faoliyatlarning barcha turini, ishchidan tortib to korxonalar rahbari faoliyatigacha bilish qobiliyati demakdir.

Nazariy kompetentlik – bu, butun bir yig'ilgan bilimlar jamlamasi bo'lib, undan foydalana bilish va uni yanada boyitib borish demakdir.

Bu muallifning qarashlarida kasbiy kompetentlikni tahlil qilinar ekan, muhandis mutaxassisligining kompetentligi tarkibiga ijodiy izlanish jihatlari kiritilmagan. Zero, ishlab chiqarish mutaxassislari-muhandislarning kasbiy kompetentligi tarkibiga ijodiy izlanuvchanlik, ijodkorlik hamda yangiliklarga chanqoqlik kabi sifatlari kiritilishi

asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Ijodkorlik mohiyatini o'rganish, aytish joiz bo'lsa, o'ta murakkab masala sanaladi. Chunki uning zimmasiga tabiatni o'rganishning muhim metodologik masalalarini yechishdek vazifa qo'yiladi. Ijodkorlikni rivojlantirish manbalari, biologik va ijtimoiy, obyektiv va subyektiv, individual va jamoa o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni bu jarayonlar o'z ichiga qamrab oladi. Uning murakkabligi shundaki, bu o'rinda o'rganish predmeti sifatida hodisa yuzaga chiqadi. Uning ichki mohiyatini to'g'ridan to'g'ri o'rganish mumkin emas.

Ijodkorlik so'zining ijtimoiy adabiyotlarda bir qator sinonimlari mavjud. Ular ko'p hollarda novatorlik, ijodiy qobiliyat, samarador faoliyat, ijodiy faoliyat, evristik faoliyat, ijodiy faollik, fikrlashning ijodiy usuli, ijodiy potensial, ijodiy izlanuvchanlik kabi so'zlar bilan izohlanadi. Bu sohada R.F.Muxutdinovning: "Ularning barchasi turli mezonda bo'lsa ham bir xil mazmun va mohiyat kasb etadi, butunlik, umumiylik, jarayon va natija, umumiylik va xususiylik va boshqalar", - degan fikriga qo'shilamiz.

M.G.Yarshevskiy fikriga ko'ra, ijodkorlik yangilik yaratish demakdir. Uni shunday tushunish kerakki, «subyektning tasavvurlari yangilanadi va xulq-atvori yaxshilanadi, u yaratgan va in'om etayotgan mahsulotlari ham». Bu belgilarni u yoki bu shaklda ko'plab ijodkorlar faoliyatida kuzatish mumkin.

Bizningcha, ijodkorlikni aniqlashda C.JI.Rubenshteynning fikrlari aniq va lo'nda bayon etilgan: uning ta'kidlashicha, "Ijodkorlik u qandaydir yangilik yaratuvchi faoliyatdir. U ijodkor yuksalishi tarixiga yangilik olib kiradi. Shu bilan birga, fan va madaniyat taraqqiyoti tarixida ham o'z izini qoldiradi".

Ijodkorlik – "qayta shakllantirish", - "mavjud shakl unsurlari yordamida yangi shakl yaratish demakdir". "Qayta shakllantirish" ijodkorligi o'z ichiga oldindan ma'lum bo'lgan shaklga o'xshagan yangi shaklni kashf etishdir, ya'ni bu jarayon munosib bo'lmagan shaklni, munosibrog'i bilan almashtirishni o'z ichiga oladi. Bu degani, oldingiga qaraganda mukammalroq tarkibiy qismlarni joylashtirish demakdir. Shu kabi ijodkorlikni o'rganish imkoniyatlarini isbotlash uchun qanday evristik, ya'ni yangi taklif va yo'riqnomalarimiz borligini ko'rsatishimiz zarur. Imkoniyatlarni, yangi yo'llarni faol izlashimiz, narsalarni o'rganish, chalg'ituvchi va taxminiy fikrlarni

aniqlay bilishimiz darkor. Bu holda o'rganish imkoniyatlari asosiy yo'nalishlarni idrok qilish, yo'l va choralarni faol bilishga intilishni taqozo qiladi. Albatta, topilgan shakl-qoidalarimizga bo'ysundirilishi darkor.

Ijodkorlik "bir shakldan ikkinchi shaklga o'tkazish" - bu jarayonda qoidalarning yangi qolipi, chizmasi, ma'lum tuzilmalarning yangi turi yuzaga keladi. Yangi yaratilgan shakllar eski shakllarning yangicha talqini bo'lmaydi. Lekin narsalarni anglashning haqiqatan yangi usullari va yangi shakllari sifatida paydo bo'ladi, metaforalarning qo'llanilishi - bu bir shakldan ikkinchi shaklga o'tkazish "transformatsion" ijodkorlikka misol bo'ladi.

Bu ijodkorlik uchun evristik jarayon shakl va qoidalardan boshqariladigan shakl qoidalarini rivojlanishi uchun tugilayotgan imkoniyatlar sari harakat qiladi. Ijodkor shaxs qoidalar yaratilishi bilanoq, ularga suyangan holda, yangi qoidalar yaratish ustida ish boshlaydi. Undan so'ng faoliyat shakllarini ochish, oldin hech qachon qo'llanilmagan shakllarni kashf etish uchun bosh qotiradi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllanishi haqida fikr bildirar ekanmiz, bu borada M.G.Yarashevskiy tomonidan berilgan xulosalar diqqatga sazovorligini aytish joiz. Ijodkorlik jarayoniga sistemali munosabat uch jihatli tarkib va ularning o'zaro uzviyligida o'rganishni taqozo etadi. Ular narsa va hodisalar, ijtimoiy, shaxsga oid tarkiblardan iboratdir, ya'ni:

1) Narsa va hodisalar tarkibi - bu evristika, narsaning yangi obrazini yaratuvchi ruhiy "mato", so'ngra u ilmiy matnga aylanadi va yangi g'oyalar, nazariyalar va kashfiyotlar sifatida yuzaga chiqadi. Bu evristikalar: analoglar, metaforalar, qiyoslash, modellardan iborat bo'lib, odatda fikrlash mazmunini tashkil etadi va vizual shaklga ega bo'ladi.

2) Ijtimoiy tarkib bu - bunday ijodkorlik M.G.Yarashevskiy fikriga ko'ra, kognitiv-dialogik "dastlabki faolligi" sifatida ko'zga tashlanadi. shunday qilib, opponentlar, muqobilliklar ham ijodiy jarayonlarning avj olishiga turtki beradi.

3) Shaxsga oid tarkib bu - shaxsiy intilish, ichki maqsadli istak va ijod subyekting xususiy sifatlaridan iborat bo'lib, ijodiy jarayonlarni uzluksiz tashkil etishda yuzaga chiqadigan yangi belgilar, o'zgarishlardan iborat.

R.F.Muxutdinov ijodkorlik mohiyatini ochib berish uchun tasniflash modeli yordamida ikki eng muhim yoʻnalish mavjudligini taʼkidlaydi.

Birinchi, I.Y.Lerner nuqtayi nazariga bogʻliq, unga koʻra, ijod bilan shugʻullanuvchi kishilarning fazilatlari chegarasini oʻlchab boʻlmaydi, ular haqida fikr aytish uchun ana shu faoliyat tabiatini anglamay, unga monand xislatlarni bilmay, aniqrogʻi, uning ijodiy faoliyat jarayonlarini oʻrganmay turib yuritish mumkin emas. Shu munosabat bilan tadqiqotchi ijodiy faoliyatning protsessual chegaralarini ajratib koʻrsatadi:

- mustaqil ravishda uzoq va yaqin, ichki va tashqi bilimlar tizimni va mahoratni yangi vaziyatga koʻchiradi;
- anʼanaviy vaziyatlarda yangi muammolarni his etadi;
- obyekt anʼanaviy funksiyasi oʻrniga yangisini tasavvur qiladi;
- obyekt tuzilishini his etadi;
- masalalarni yechishda muqobil yechimlarni ham hisobga oladi;
- yangi muammolarni hal etishda faoliyatning oldindan maʼlum boʻlgan usullari va yoʻllarini qayta ishlaydi;
- prinsipial yangi yoʻllar topish niyatida eskirib qolgan yoʻllardan voz kechadi.

Inson faktorini faollashtiruvchi samarador zaxiralardan biri jamiyat hayotining barcha jabhalarida ishlab chiqish, texnikada, fanda, taʼlim va boshqaruvda ijodkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shu bois ijodiy muammolarni jamoa boʻlib yechish sharoitlari va tashkil etish shakllari, muammolari kun tartibidagi dolzarb masalalardir. Ijodiy kadrlarni tanlash va tayyorlash, ishchilarning ijodiy imkoniyatlarini va qobiliyatlarini bashorat qilish, ijodiy jamoalarni shakllantirish, ularni boshqarish kabi masalalar Shular jumlasidandir.

Intellectual faoliyatdagi ijodiy jarayonlarni ongli ravishda boshqarish haqida G.S.Altshuller va M.M.Zinovkinalarning ishlari guvohlik beradi. Bu oʻrinda ijodkorlik metodologiyasi sifatida ijodkorlikda tanlash masalalarini yechish nazariyasidir. Unga koʻra barcha tizimlar maʼlum qonunlar asosida rivojlanadi, ularni idrok qilish va qoʻllash mumkin degan shartlarga asoslanadi.

Ikkinchi yoʻnalish esa ijodkor shaxsi mohiyatini ochib berish hisoblanib, R.F.Muxutdinov shaxsning tasniflovchi fazilatlari yordamida uning faoliyatidagi qatʼiylik masalasini ajratib koʻrsatadi.

Unga Y.A.Ponomaryov ta'riflagan model namuna bo'lishi mumkin. U o'z tadqiqoti natijalarini umumlashtirib, ijodkor odamlarga xos xususiyat eng dolzarb masalalar yuzasidan uzluksiz ravishda yechim izlash imkonini ta'kidlaydi. Ular yuzaga chiqqan muammolarni hal etish yuzasidan muntazam ravishda chora qidiradilar. O'z faoliyati uslubini metod va yo'llarini uzluksiz ravishda takomillashtirib boradilar. Ijodkor odamlar ko'plab faktlarni qiyoslash orqali ularning o'zaro bog'liqligi asoslarini aniqlaydilar, o'z fikrlashi va faoliyatida qotib qolgan qarashlardan zudlik bilan voz kechadilar. Tezlik bilan reproduktiv esda qolgan narsalarni tasvirlash faoliyatidan ijodiy faoliyatga o'ta oladilar. O'zlari yaratgan narsalar, vazifalar bajarishga yaroqsiz bo'lsa, osongina ulardan voz kecha oladilar.

YaA.Ponomaryev tadqiqotlariga asoslanib, aytishimiz mumkinki, aqlan intilish, harakat qilish qobiliyati, boshqa barcha qobiliyatlarni rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. I.M.Vyotkin ijodkor shaxsining quyidagi xususiyatlarini sanab o'tadi:

➤ yangi yoki butunlay o'rganilmagan, jamiyat uchun o'ta muhim va foydali - munosib maqsadga (maqsadlar tizimiga) ega bo'ladi;

➤ o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun uning individual rejalari bo'lib, ularning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi;

➤ belgilangan rejalarni bajarish ishtiyoqi kuchli bo'lib, katta hajmdagi ishlarni bajaradi;

➤ o'z g'oyalarini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'ladi;

➤ jamoatchilikning e'tirozlarini to'g'ri qabul qiladi, tushkunlikka tushmaydi, sabr bilan maqsadiga sodiq qoladi.

➤ qo'lga kiritilgan natijalarga munosib bo'ladi. Umumiy qobiliyatlaridan (bajara olish, chidamlilik, maqsadga yetish, mo'ljalni to'g'ri olish va xotirjamlik) tashqari "kundalik tashvishlar" holatidan fikrlash, tasavvur qilish, ijod bilan Shug'ullanish, diqqatini yig'ish, (eng muhimi) yana orqaga qaytish kabi xususiyatlar ijodkor shaxsga xos fazilatlaridir;

➤ o'zining muntazam takrorlanib turadigan xatolarini bamaylixotir tan olishni bilish, o'z istaklari, fikri va harakatlari oqibatida yuzaga kelgan vaziyatlarga tayyor turishi kabilardir.

Murakkab ishlarni bajarish uchun jiddiy muammolarni yechishi, katta hajmdagi tadqiqotlarni o'tkazish uchun ularga zarur bo'lgan anjom va aslahalardan foydalana bilishi, vaziyatga qarab ularni

almashtirishi; o'z kamchilik va xatolarni vaqtida sezishi, bir vaqtlar olingan g'oyalarni yangicha qo'llashiga erishishi; biron-bir hodisa yoki voqeaga erkin tarzda e'tibor qaratishi, unga ham ehtiros bilan, ham mantiqiy yondasha bilishi; bir hodisani o'rganish uchun bir-birini to'ldiruvchi bir necha modellarni qo'llashi; mavjud nazariya va modellarni tanqid qilishi kabi xususiyatlardir.

T.A.Sidorchuk, M.M.Zinovkina, I.Y.Medikova, N.M.Baysaxov, A.F.Esaulov va boshqalarning ilmiy ishlarini tahlil etib, ular tizimli ijodiy fikrlash shakllanishining muvaffaqiyati kasbiy ta'lim jarayonlarida ko'pincha ijodiy fikrlashning asosiy unsurlari shakllanishi darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar hamda shaxs shakllanishining dastlabki damlarida boshlanadi, degan fikrni olg'a suradilar. Ana shunday unsurlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tahlil qilish qobiliyati, umumlashtirish, qiyoslash, sabab va oqibatlar o'rtasidagi bog'liqlikni bilish;

- tanqidiy fikrlash va bahslashish;

- voqealar rivojini oldindan taxmin qilish, har qanday tizim yoki obyektga o'tmish, bugungi kun va kelajak nuqtayi nazaridan yondasha bilish;

- harakatlar algoritmini terish, yangi g'oyalarni kuchaytirish va yechimlarni grafik obraz shaklida aks ettirish kabilardir.

Hozirgi zamon ilmiy bilimlardagi yangi kashfiyotlar, ayniqsa, kompyuter texnologiyalari ijodkorlik uchun qandaydir muhim sifatlar bo'lishi lozimligini inkor etmoqda. Ijodkorlik uchun eng muhimi ma'lum analog va o'xshash narsalarni aniqlay olishdek umumiy qobiliyat bo'lishini taqozo etadi. Bir qator mualliflar mana shu fikrlarni ta'kidlamodalar.

G.Gubber tasnificha, ijodkor shaxslar kognitiv jihatdan har tomonlama tayyorgarligidan tashqari o'z faoliyatida emotsional (ehtirosli), estetik (nafosatli) sifatlari bilan ham ajralib turadilar.

V.I.Samaxvalovning ta'kidlashicha, ijodkor shaxsi o'zini namoyon qilish uchun qudratli kuchga ega bo'lgan odamdir, ammo, birinchidan, bu energiyani yangilik yaratish uchun safarbar qiladi, ikkinchidan, ruhiyatida yuzaga kelgan vulqonni jilovlay oladi, o'z ongida yuzaga kelgan turli rejalarni o'zaro uyg'unlikda, o'z fikrlari doirasida erkin, uddaburonlik bilan samarali qo'llaydi, o'z his-tuyg'ularini va g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun nima qilishni

yaxshi biladi. O'z xayolotidagi obrazlarni boshqalar uchun zarur bo'lgan mulkka aylantiradi. Ijodkor odam ijod qilishga chanqoq bo'ladi. Uni amalga oshirish uchun qat'iyat bilan ishlashni yaxshi biladi.

Oliy ta'lim o'qituvchiga butun hayoti davomida tayanch ma'lumotiga qo'shimcha ravishda maxsus ko'nikma va malakalarni egallab borishga va ularni ta'lim oluvchilar bilan ishlash jarayonida qo'llashga, o'qituvchining kasbiy-ijodkorlik imkoniyatlarini amalga oshirishga va shu orqali kasbiy kompetentligini doimiy ravishda oshirib borish imkonini beradi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan shuni aytish joiz bo'ladiki, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishda insonning ijodkorlik faoliyati, ijodiy fikrlashining asosiy unsurlari shakllanishi darajasi katta ta'sir ko'rsatadi va o'qituvchilik faoliyatining sermahsul bo'lishiga olib keladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni mazmunini modernizatsiyalash yo'nalishlarini tushuntirib bering?

2. Davlat ta'lim standartida bo'lajak o'qituvchining ishlab chiqilgan umumiy malakaviy kompetensiyalarini izohlang?

3. Pedagoglar kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik va iqtisodiy bilimlar integratsiyasini tushuntiring?

4. O'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish xususiyatlarini izohlang?

VI BOB. KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI VA MEZONLARI

REJA:

1. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish yo‘llari.

2. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish metodlarini tanlash mezonlari.

3. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yo‘nalishlari.

1. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish yo‘llari

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni o‘rganishga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘quvchi faoliyati bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, ilm olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi vazifalarni bajaradi.

Ta’lim texnologiyasi – ta’lim tizimini kontseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo‘yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o‘quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta’lim modelini tanlashdan, to ularni amalga oshirishgacha ularning optimallik va samaradorlik darajasini loyihalashtirishni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o‘quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishiga ta’minlaydi. Innovatsion (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon

hamda o'qituvchi va o'quvchi-talabalar faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlaridan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu, jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari ta'lim mazmunini tarkibiy qismlari bo'lib hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagogik o'quvchi-talabalarning birgalikdagi faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

➤ o'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlashni, ijod etishi va izlanish majbur etishi;

➤ o'quvchi-talabani o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi; o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijobiy yondoshgan holda kuchaytirishi; pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarining eng asosiy negizi – bu, o'qituvchi va o'quvchi-talabalarining hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq.

Har bir dars mavzusi, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiyalar – bu, yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning xislati shundaki, unga qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini berishi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

O'quv jarayonining loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, maqsadini, o'tilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborini qaratish lozim. O'quv maqsadi – bu, muayyan ta'lim jarayonini yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, ya'ni hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy

fazilatlari va xulqini belgilaydi. O'qituvchi va o'quvchi-talabanning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyoriga, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabanning bilim saviyasi, guruh характери, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan natijaga erishishi uchun balki, kompyuter bilan ishlashi lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabalarga bog'liq. Demak, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, o'qitishning texnik vositalari (O'TV)ni asosiysi, talabanning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Natija esa baholanmog'i zarur, o'quvchi-talabanning bilimni baholash doimo "Nimani baholamoq kerak?" degan savol bilan bog'liq. Bunga "O'qitish va o'rgatish maqsadi va vazifalariga erishganlik darajalarini baholash" deb javob berish zarur. Bu holda maqsad o'qituvchining faoliyatiga qaratilganligi (o'rgatish, tushuntirish, ko'rsatish, gapirib berish va hokazo), vazifalarga esa o'rgatish natijalari kiritilganligi foydaliroq. Agar vazifalar aniqlangan bo'lsa, unda o'quv natijalarini aniqlash uchun nazorat topshiriqlari tuzish lozim. Bular og'zaki, yozma, nazorat savollari yoki test bo'lishi mumkin. Ta'lim oluvchilarni baholashda mezonli baholash shaklidan foydalaniladi. Ushbu baholash-baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritilgan natijalarini bilish, ko'nikma va malakalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. O'qituvchi har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilishi, uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi muhim ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi, avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq. Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xaritani tuzish o'qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Demak, o‘quv jarayonining texnologik xaritasi dars jarayonidagi faoliyatni loyihalashtirish, dars mazmunini boyitish va ta‘lim samaradorligini oshirishdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati Shundaki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Ta‘limni texnologiyalashtirishning asosini, ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida ta‘lim oluvchilarni berilgan sharoitda va ajratilgan vaqt oralig‘ida loyihalashtirilayotgan o‘quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to‘liq boshqarish g‘oyasini tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati, ta‘lim jarayonini tizimlashtirishdan – uni aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo‘yicha aniq elementlarga bo‘lib, tanlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

O‘quv fani bo‘yicha ta‘lim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqiladi:

- iqtisodiyot OO‘Y da ta‘limni texnologiyalashtirish qoidasi;
- fan bo‘yicha o‘quv axborot maqsadi, tuzilmasi, mazmuni va hajmi;
- DTS tomonidan belgilangan, o‘quv rejasida aniqlab berilgan vaqtda va berilgan sharoitda ta‘lim berish maqsadiga erishishni kafolatlovchi ta‘lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo‘l va vositalarini tanlashning kontseptual yondashuvlari.

Aniq fan va mavzu bo‘yicha mashg‘ulotning *ta‘lim modeli* jadval ko‘rinishida bo‘lib, unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- *dastlabki ma‘lumotlar*: o‘quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- *shakl* (ma‘ruza, seminar va boshq.) va *ko‘rinishi* (masalan, muammoli ma‘ruza va boshq.), o‘quv mashg‘uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o‘quv faoliyatining ko‘zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- tanlangan ta‘lim modeli: *usullar, shakllar va o‘qitish vositalari*;
- *ta‘lim berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yo‘l va vositalari: nazorat turi (yozma va og‘zaki), nazorat shakli (tezkor-so‘rov, test olish, taqdimot, o‘quv topshiriqlari va boshq.).

O‘quv mashg‘ulotining texnologiya xaritasi uch qatorni o‘z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko‘rinishida bajariladi: (1) o‘quv mashg‘uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta‘lim beruvchi faoliyati; (3) ta‘lim oluvchi faoliyati.

Ilova. O‘quv jarayonining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o‘quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o‘quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalar, ta‘lim

beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Mavzuiy rejadani farqli o'laroq texnologik xaritada (1) o'quv mashg'ulotining bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta'lim oluvchining ham faoliyati; (3) ta'lim berishning usul, shakl va vositalari; (4) ta'lim maqsadlarining o'quv yutuqlari monitoringi va baholashlari ko'rsatiladi.

3. Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari.

1 - bosqich (5-10 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi mavzuning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, o'rgatuvchili o'yin va boshq.), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini, o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

- Ta'lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2 - bosqich (55-65 daqiqagacha). Asosiy / ma'lumot beruvchilik.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi o'quv mashg'ulotining rejasi tuzilishiga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

- Ta'lim oluvchilar ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

3 - bosqich (10-15 daqiqagacha). Yakuniy - natijaviy.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylarga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashning yakunini chiqaradi; o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

- Ta'lim oluvchilar o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

Nihoyat, ko'plab texnik boshqa kichik sohalar mavjudki, ular mazkur

matn bo‘ylab tanishtirilib boriladi. Bir nechta pedagogik va texnik loyihalash mavjud: o‘rganish uchun kognitiv qurollar, kompyuter asosida til o‘rganish, kompyuter asosida baholash tizimlari, kompyuter asosida amaliyot, kompyuterga mo‘ljallangan kommunikatsiyalar, kompyuter qo‘llaydigan birgalikdagi o‘rganish, tarqatma o‘rganish muhitlari, elektron ishni qo‘llovchi tizimlar, interfaol o‘rganish muhitlari, interfaol multimediya tizimlari, interfaol rag‘batlantiruvchi va o‘yinlar, ongli internet vakillari, ongni o‘qituvchi tizimlar, mikroso‘zlar va o‘rganish tizimlariga asoslangan virtual haqiqat.

O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchilar
1- bosqich. O‘quv mashg‘uloti-ga kirish (daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro‘yxatini aytadi. 1.3. O‘quv mashg‘ulotida o‘quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2- bosqich. Asosiy (daq.)	2.1. Tezkor-so‘rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma’ruza/ seminar/ amaliy mashg‘ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha harakatlar tartibini bayon etadi	javob beradilar, yozadilar, Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.
3- bosqich. Yakuniy (daq.)	3.1. Mavzu bo‘yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e’tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o‘quv mashg‘ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi .	O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar.


Bundan tashqari, tadqiqotchilar akademik tadqiqotni amaliyotdan o'tkazish uchun uning qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatish uchun turli vositalar qo'llaydilar. Boshiga, konseptualdan tortib, texnikkacha bo'lgan darajalar seriyasini belgilab olish zarur: (12-rasm)

1. Fundamental tadqiqot: Ko'plab soha tadqiqotchilari "multimediya animatsiyalari ko'proq qaysi sharoitda samarali bo'ladi" kabi kichik yaxshi aniqlangan muammolarga yo'naltirilgan yanada fundamental tadqiqotni qo'llashni tanlashadi.

Ta'limdagi turli domenlarga qo'llanilgan texnologiya tomonidan qo'llanib turiluvchi instruksional loyiha. Katta toifalar – masofaviy o'qitish, qo'shma o'qitish, kompyuterga asoslangan sinfda o'qitish, sanoatga oid amaliyot. Boshqa ixtisosliklar fanlarga tegishli bo'lishi mumkin (misol uchun, fan yoki tilni o'qitish), yoki yondashuvlar (bevosita instruksiyaga qarshi loyihaga yo'naltirilgan o'rganish kabi).

2. Texnologiyalar loyihasi va qo'llanilishi ustidagi tadqiqot.


Tadqiqotchilar kompyuter vositalarini ta'limda qo'llash kabi fanlarga yo'nalib, texnik nuqtayi nazardan, ular uchun mualliflik va o'rganish muhitlarini qurishga ixtisoslanishlari mumkin.



6-rasm. KONSEPTUALGA QARSHI TEXNIK TADQIQOT¹¹.

¹¹D.K. Schneider. Intraduction to Educational technology. 19-p.

O‘rganilayotgan fanlar instruksional loyihaga qarshi. Masalalarni kelgusi murakkablashuvi uchun, ayrim tadqiqotchilar fundamental tadqiqotni instruksional loyihalashning ma’lum bir turi va texnologiyaning ma’lum bir turi bilan umumlashtiradilar. Bunga qarab, ushbu opsiyalar, tadqiqot qiziqishlari va tadqiqot metodologiyasi bir xil bo‘lmaydi.



7-rasm. O‘rganish nazariyasi va pedagogikasidagi fundamental tadqiqotga aloqadorlik¹².

¹²D.K. Schneider. Intraduction to Educational technology. 18-p.

Ehtimoliy umumlashtirishlar, biz balki ikkita yirik yoʻnalishni ajratib olishimiz mumkin boʻladi:

➤ Taʼlim texnologiyasi oʻrganish fanlarining bir qismi sifatida. Tadqiqot zamonaviy oʻrganish nazariyalari bilan toʻldirilib uni yaxshilaydi. Bu yoʻnalish oʻz ichiga kompyuterga asoslangan birgalikdagi oʻrganish, ongli oʻqitish tizimlari, har tomonlama hisoblash kabi tadqiqot vositalarini oladi.

➤ Taʼlim texnologiyasi 99 – instruksional texnologiya sifatida. U instruksional loyihalash nazariyasi va metodologiyasini toʻldiradi va uni yaxshilaydi. Bu yoʻnalish oʻz ichiga internet orqali oʻrganish, masofaviy oʻqitish, multimediya dizayni kabi tadqiqot vositalarini oladi.

2. Boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish metodlarini tanlash mezonlari

Pedagogik diagnostikaning baholash vazifasi maʼmuriyat tomonidan olib borilib, alohida oʻqituvchi yoki alohida oʻquvchi faoliyatida erishgan yutuqlar va kamchiliklar yuzasidan sifat koʻrsatkichlarni miqdor jihatdan baholaydi.

Diagnostikaning korreksion vazifasi oʻquv – tarbiyaviy jarayonni oʻqituvchining pedagogik faoliyati yuzasidan korreksiyalashni (toʻgʻri yoʻnaltirish) taʼminlaydi va oʻqituvchining kasbiy jihatdan oʻz – oʻzini rivojlantirish va pedagogik mahoratini oshirish uchun sidqidildan kirishishga faolligini taʼminlaydi. Uning tahliliy vazifasi oʻquv–tarbiyaviy jarayondagi yutuq va kamchiliklarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini, ularning oʻzaro bogʻlanishlarini aniqlash va chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratilgan.

Aslida diagnostik funktsiya oʻquvchining taʼlim olganligi, tarbiyalanganligi va rivojlanganligini aniqlash uchun qoʻllaniladi, biroq oʻqituvchining ham kasbiy komponentlik darajasini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Diagnostikaning yoʻnalishni orientatsion (aniqlash) vazifasining maqsadi pedagogik jamoa va alohida oʻqituvchilar faoliyatida mavjud boʻlgan muammolarni uzluksiz hal etishni muvofiqlashtirib borishdir. Pedagogik diagnostikaning orientatsion vazifasi natijalari haqida doimiy xabarlarini informatsion (axborot) vazifa taʼminlaydi.

Shu o‘rinda diagnostika (tashxis) va diagnostikalash (tashxislash) tushunchalarining farqi va qanday ma’no berishini bilish lozim. Diagnostikani soddalashtirilgan ko‘rinishda «tashxisni aniqlash» deb qarasa, unda diagnostikalash (tashxislash) bu jarayonning tashxisni qo‘yish metodlari yig‘indisidir. Shu bois pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olib, uni o‘rganishda diagnostikalash (tashxislash) terminini qo‘llash o‘rinliroq ko‘rinadi. Umuman diagnostikalash terminini tashxislash deb atalsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pedagogik tashxislash deganda, pedagogik tizimni (shuningdek, uning alohida tarkibiy qismlarini) tadqiq qilish metodlarining jamlanmasini tushunamiz, ulardan foydalanish samaradorligi ma’lum tashkiliy – pedagogik shart – sharoitlar bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Pedagogik tashxislashning yaxlitligi uning nafaqat o‘qituvchi pedagogik faoliyatini o‘rganishning diagnostik jihatlarini, balki aniqlangan sabab va oqibatlarining bir–biri bilan o‘zaro bog‘lanishi asosida har bir o‘qituvchining pedagogik qiyinchiliklarni bartaraf etishning optimal yo‘llari va vositalarini topish imkoniyatini beradigan konstruktiv – prognostik nuqtayi nazardan ta’minlaydi, o‘qituvchi pedagogik mahoratining rivojlanish istiqbollari belgilab, uning faoliyat yuritish dinamikasini kuzatish orqali tanlangan mehnat shakllari samaradorligini baholash imkoniyatini beradi.

O‘qituvchi pedagogik faoliyatini tashxislashning turli aspektlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining soni ko‘p.

Ayni paytda o‘qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradigan, o‘qituvchilik kasbining professiogrammasi (ma’lum tizimga keltirilgan, mehnatni psixologik tomondan o‘rganib, kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan, kasbni har tomonlama batafsil yoritib beruvchi yo‘nalish) psixolog olimlar (R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov) tomonidan ishlab chiqilib amalda qo‘llanilmoqda. Olimlar o‘qituvchi professiogrammasi, muayyan fan tomonidan o‘qituvchiga qo‘yiladigan maxsus talablarni o‘z ichiga qamrab olishini, o‘qituvchi o‘zi tanlagan fan yuzasidan qanday talablar qo‘yilishini mukammal bilishini aytib, shu asosda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishni, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida muayyan mutaxassislik bo‘yicha “O‘qituvchi professiogrammasi” ishlab chiqilishi zarurligini ta’kidlaydilar. Hozirgi

kunda umumta'lim maktablari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan professiogramмага asoslanib, o'qituvchilarni tashxislashning ushbu metodidan foydalanib kelinadi. Biroq, ushbu professiogramma o'qituvchining kun sayin o'zgarib turuvchi jamiyat talablariga muvofiq shaxsiy dunyoqarashini, ongini, mafkurasini boyitish dinamikasini to'liq aks ettira olmaydi.

Pedagogik faoliyatni tadqiq etish mantiqi, pedagogik tashxislashning turli metodikalarini birlashtirish zaruriyati N.V. Kuzminaning ishlarida keng yoritilgan. Tadqiqotning so'rov, kuzatish, baholash (reyting), o'z – o'zini baholash, juft qiyoslash, sotsiometriya va eksperiment kabi metodlarini o'rganar ekan, u aynan “o'z–o'zini baholash, o'z–o'zini anglash usullaridan biri sifatida shaxsning barcha imkoniyatlarini namoyon qilishga, uning xulqiga, xarakteriga, faoliyat sur'atiga ta'sir etishini” ta'kidlaydi. O'qituvchining pedagogik bilim va malakalari tizimini tavsiflab, N.V.Kuzmina o'qituvchining bilish va o'rganish malakalari ichidan uning pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan afzalliklarni va nuqsonlarni ongli ravishda bilib tuzatish yoki takomillashtirish maqsadida tahlil qila olish qobiliyatini ajratib ko'rsatadi.

I.P.Rachenkoning fikricha, o'qituvchining o'zi, o'z shaxsi haqidagi tasavvuri, ijobiy MEN – konsepsiyasini shakllantira olishi uning ijodiy faolligini rivojlantirishning kafolati sanaladi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar o'qituvchining kasbiy refleksiya, o'z – o'zini yuqori darajada baholashni ta'minlab, o'qituvchiga o'z pedagogik mahoratini takomillashtirish yo'lidan maqsadli faoliyat olib borish imkoniyatini beradi.

O'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishning asosiy yo'li – bevosita ta'lim muassasasida ilmiy asosda tashkil qilingan tadqiqotchilik ishi, deb hisoblagan V.P.Simonov mohir o'qituvchi shaxsi va faoliyati samaradorligini tashxislash uchun asosiy kasbiy ahamiyatli ko'rsatkichlarning tizimini va taxminiy mazmunini ishlab chiqdi. U taklif qilgan metodikalar, muallifning fikricha, nafaqat o'qituvchining ta'lim faoliyati, balki u bilan o'zaro faoliyat olib boradigan o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini ham aniqlash imkoniyatini beradi. O'qituvchining ahamiyatga molik bo'lgan kasbiy sifatlarini tashxislash natijalarini olim uch xil yo'nalishda baholaydi: optimal, yo'l qo'yiladigan va tanqidiy daraja

bo'yicha. V.P.Simonov hamma vaqt ham ijobiy natija beravermaydigan tekshiruvchilarning yuzaki yondashuvi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini ma'lum darajada buzadi yoki noto'g'ri kategoriyalaydi, ularning pedagogik tashabbuskorligini va mustaqilligini so'ndiradi, olim har bir o'qituvchida o'z pedagogik faoliyatini "ishonchli va isbotli" natijalar bilan baholash va uning natijalari hamda samaradorligi haqida gapirish malakasini rivojlantirish zarurligini aytadi.

Kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil qilish va o'z-o'zini tahlil qilishni o'qituvchi faoliyati va reflektiv pozitsiyasi nuqtayi nazaridan tuzatish va takomillashtirish maqsadida pedagogik vazifalarni hal qilishga qaratilgan pedagogik malakalar yig'indisi sifatida qarab, A.V.Xristeva analitik malakalar tizimini analitik faoliyat tizimi bilan nisbatlaydi. U kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil va o'z – o'zini tahlil qilishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Mazmunli – diagnostik (tayyorlov - moslashuv) bosqich.
2. Maqsadli loyihalashtirish (tahlil va o'z-o'zini tahlil qilishdan maqsadni aniqlashtirish) bosqichi.
3. Texnologik (kasbiy pedagogik faoliyat jarayonini va o'z-o'zini tahlil qilish) bosqich.
4. Tahlil va o'z-o'zini tahlil qilishning nazariy (pedagogik faoliyatning mohiyati, natijalari bilan pedagogik faoliyat jarayoni o'rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini nazariy anglash) bosqichi.
5. Faoliyatni reflektiv baholash (faoliyatni baholash va reflektiv tahlil) bosqichi.
6. Korreksiyalash (ijodiy bosqich bo'lib, o'z pedagogik faoliyatini nazariy jihatdan anglash va baholash asosida takomillashtirish va hamkasblarining samarali pedagogik tajribalaridan ijodiy foydalanish yo'llari va usullari belgilanadi) bosqichi.

Muallif taklif qilgan analitik faoliyat algoritmi interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) jarayonida tashqi faoliyatning ichki faoliyatga o'tish mexanizmi qanday rivojlanishi, ichkisi esa, o'z navbatida, tashqi faoliyat orqali o'z-o'zini o'zgartirishini (uning davomida o'qituvchilar kasbiy refleksiyasining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan analitik darajasi o'zgaradi) tushunish imkoniyatini beradi.

N.A.Evert, A.I.Sosnovskiy, S.N.Kuliyev pedagogik mahorat tizimidan uchta asosiy: estetik (axloqiy), ijtimoiy–psixologik va texnologik kabi tarkibiy qismlarni ajratib, o‘qituvchi pedagogik mahoratining diagnostik dasturini ishlab chiqishadi va quyidagi bloklarni farqlaydilar:

- yuksak ma’naviy barkamollik;
- o‘qituvchining individual – psixologik xususiyatlari;
- hamkasblari bilan pedagogik hamkorlik;
- pedagogik texnikani o‘zlashtirish;
- shaxsiy kasbiy xususiyatlari;
- ijobiy natijalarga oson erishish.

O‘qituvchining ijtimoiy–psixologik shakllanishida o‘z ustida ishlashi murakkab tizimga ega. Bunda o‘qituvchi ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikda ijodkorlik vazifalarini bajaradi. Diagnostik dasturda o‘qituvchi kasbiy tayyorgarlik jarayonida tadqiqotchilik, mohirlik, reproduktiv (xotirada saqlash), rasmiy – ijrochilik kabi faoliyat bo‘yicha muntazam ish olib boradi. Ushbu faoliyat dasturlari, ayniqsa, yosh o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida duch keladigan ijtimoiy munosabat, sinfdan qo‘rqish, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatda ziddiyat hosil bo‘lishi kabi psixologik to‘siqlarni yengishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlarning pedagogik mahorat tahliliga bu kabi chuqur yondashuvda barcha o‘zaro bog‘langan tizimlarni birdaniga qamrab olish amalda mumkin emas. Natijalar haddan ziyod katta hajmda, tarqoq bo‘ladi, eng asosiysi, bu holda pedagogik mehnatning alohida bo‘g‘inlari tahliliga chuqur yondashib bo‘lmaydi. Umuman pedagogik faoliyat doimiy ravishda o‘z-o‘zini tahlil etish, o‘qituvchi refleksiya rivojlanishining tashabbuskori bo‘la oladigan o‘ziga xos “tezlashtiruvchi” rolini o‘ynamog‘i kerak.

V.A.Suxomlinskiy pedagogik faoliyatga shunday ta’rif beradi: “pedagogik rahbarlikning sirlaridan biri o‘qituvchilarda muntazam izlanish va o‘z ishining tahliliga qiziqish uyg‘otishdan iborat. Kimki o‘z darslarida, tarbiyalanuvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda yaxshi va yomonni farqlashga, yutuq va kamchiliklarini o‘z vaqtida bilishga urinsa, pedagogik faoliyatning yarim muvaffaqiyatiga erishgan bo‘ladi”.

Xuddi shu nuqtayi nazardan ilgari surilgan g‘oyani V.I.

Zagvyazinskiyda ko‘ramiz: u “har bir o‘qituvchi mustaqil ravishda o‘z imkoniyatlarini aniqlashi, o‘z qobiliyatlarini va pedagogik mahoratini rivojlantirishi kerak. O‘zida ko‘p narsani kashf qilish, tavsiya qilinganlardan ko‘pini sinab ko‘rish, baholash lozim, o‘qituvchi o‘zini o‘zi yaratadi, kosib yoki ijodkor bo‘lishini ham o‘zi belgilaydi”.

O‘zining pedagogik tajribasini tahlil qilib, o‘qituvchi o‘z diqqatini tobora muvaffaqiyatli jihatlarga qaratadi, o‘zining ish samaradorligini pasaytirayotgan pedagogik muammolarni va qiyinchiliklarni ham ko‘ra olib, uni bartaraf etish yo‘llarini topadi.

Pedagogik faoliyatda uchraydigan qiyinchiliklarning dastlabki tadqiqularidan birini N.V.Kuzminada ko‘ramiz. U o‘qituvchi duch keladigan dastlabki qiyinchiliklarni “pedagogik faoliyatning tashqi omillari keltirib chiqaradigan va ichki omillarning xarakterida, kishining faoliyatga ta‘limiy, ma‘naviy va jismoniy jihatdan tayyorgarligida paydo bo‘ladigan keskinlik, beparvolik, qoniqmaganlikning subektiv holatidir” deb ta‘riflaydi .

T.S.Polyakovaning ishi endigina o‘z faoliyatini boshlayotgan o‘qituvchilar duch keladigan tipik didaktik qiyinchiliklarga bag‘ishlangan. U didaktik qiyinchiliklarga shunday ta‘rif beradi: “Didaktik qiyinchiliklar – o‘qituvchining ta‘lim jarayonidagi qiyinchiligi bo‘lib, uni hal qilish uchun shart-sharoitlar yo‘qligi, keskinlik, beparvolik, o‘z ishidan qoniqmaganlikning psixologik holati yoki aksincha, uni bartaraf qilish uchun sharoitlar ta‘minlangani holda pedagogik mahoratni takomillashtirish, pedagogik “fikrlashni”, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishni ta‘minlaydigan tetiklik, mobilizatsion tayyorgarlik, emotsional ko‘tarinkilik holatining mavjud emasligi”.

T.S.Polyakova pedagogik faoliyatdagi qiyinchiliklar va ziddiyatlar uzoq muddat hal qilinmaganda, muvaffaqiyatsizlik vaziyatida nafaqat psixologik uzilishlar, balki o‘z-o‘zini baholashning pastligi, pedagogik mahoratni takomillashtirishning tormozlanish manbasi sifatida salbiy rol o‘ynashini aytadi. Pedagogik vazifalarga faol munosabatning zarur sharti bo‘lgan rag‘batlantiruvchi vazifa esa ijobiy rol o‘ynashini ta‘kidlab, o‘qituvchining shaxsiy pedagogik mahorati zaxirasini safarbar qiladi, uni ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish manbayi deb hisoblaydi.

Qiyinchiliklarning pozitiv roli uning indikatorlik (hisoblovchi) vazifasi bilan ham belgilanadi. “Indikatorlik vazifasi pedagogik maho-

ratning shakllanish jarayonini tormozlovchi obektiv omillarni ajratadi, biroq u o‘z – o‘zini baholash tarzida subektiv namoyon bo‘lishi, shaxs uchun faoliyatning tobora qiyin jihatlarini aniqlab berishi mumkin”.

Demak, o‘z pedagogik faoliyatini endigina boshlagan yosh o‘qituvchi aslo jismonan va ruhan bo‘shashishi, butunlay osoyishtalikka berilishi mumkin emas. Bu tuyg‘u psixologiya fanida relaksatsiya deb atalib, kishilarning ish faoliyatida salbiy holatlariga beriladigan baho sifatida e‘tirof etiladi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili, qiyinchilik – insonning subyektiv psixologik holati ekanligini, u hamma vaqt ham tashqi kuza-tuvchi tahlil uchun qulay emas degan xulosa qilishga imkon berishini, bu esa hech kim o‘qituvchining kasbiy qiyinchiliklarini uning o‘zidan ko‘ra yaxshiroq aniqlay olmasligini va ularni bartaraf qilish yo‘llarini ham o‘zidan boshqa kishi topa olmasligini ta’kidlaydi. Demak, o‘qituvchining pedagogik faoliyatida kasbiy qiyinchiliklarini tadqiq qilishning yanada qulay yo‘li bu, o‘z–o‘zini tashxislash hisoblanadi.

Shu bilan birga psixologik mashg‘ulotlardan biri bo‘lgan “Autogen trenirovka” ham muhim ahamiyatga ega. “Auto – o‘z-o‘ziga ta’sir” ma’nosini bildirib, o‘qituvchi o‘z–o‘ziga ta’sir o‘tkazgan holda kasbiy faoliyatida duch keladigan qiyinchiliklarni yengib borishi mumkin.

Y.S. Turbovskiyning fikricha, kasbiy takomillashuvning salbiy «energetik asosi» bo‘lgan qoniqmaslik hissi, rivojlanishda to‘xtab qolganlikni chin ko‘ngildan his etish sanaladi. “Buyruq, chaqiriq va nazorat emas, balki aynan o‘qituvchining o‘z faoliyatidan qoniqmaslik hissi, yuzaga kelgan pedagogik ziddiyatni boshqacha qilishga, buning uchun yangi vositalarni izlab topishga va uni o‘zlashtirishga ongli ravishda intilishini ta’minlaydi, qiyinchilik va ziddiyatlarni bartaraf etishdan, shaxsan o‘zi hal qilgan tadqiqotchilik vazifasidan ijodiy quvonish, qoniqish hissi – o‘qituvchi kasbiy komponentining asosiy manbasiga aylanadi, aniqrog‘i, aylanishi mumkin”.

Y.S. Turbovskiy tomonidan ishlab chiqilgan, pedagogik tajribani diagnostik o‘rganish nazariyasi va metodikasi har bir pedagogik jamoada va jamoaning har bir a’zosida pedagogik kasbiy faoliyat xususiyatlarini o‘rganishda yagona maqsad uchun harakatlanishga imkoniyat beradi, bu o‘z navbatida, o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish mexanizmini yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Pedagogik tashxislash konsepsiyasi pedagogika fani va ta’lim

muassasalari amaliyotining o‘zaro hamkorlik jarayonini boshqarish imkoniyatini ta’minlaydigan uchta metodologik asosni o‘z ichiga oladi:

- **ma’lum bir pedagogik mahorat pozitsiyasini egallash;**
- **ma’lum bir maqsadga yo‘nalganlik;**
- **pedagogik mahoratni egallashga bo‘lgan ehtiyoj.**

Turli boshqaruv tizimlari nuqtayi nazaridan aynan bir xil natijalar u yoki bu muammoning dolzarbliigi bilan belgilanadigan turlicha ahamiyat kasb etishi mumkin. Ish tajribasidan foydalanish hajmi va miqyosi ham har xil bo‘ladi. Konsepsiya mualliflari integratsion fan yutuqlaridan foydalanish samaradorligi, olimlar erishgan natijalar, amaliyotchilar unga ehtiyoj sezgan joyga borib yetishi, ilmiy bilimlarning ma’lum bir maqsadga yo‘nalganligiga bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

Fanning u yoki bu tarzdagi tavsiyalari pedagogikada ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan g‘oyalar bilan ta’minlashdan avval amaliyot asosida aniqlangan ehtiyoj bo‘lishi kerak. O‘qituvchi mehnatini o‘rganish jarayonida qator shart-sharoitlarga rioya qilish ko‘zda tutiladi. A.K.Markovaning fikricha, nafaqat o‘qituvchilik kasbida uzoq o‘tmish tajribalaridan foydalanish darkor, balki o‘qituvchi kasbiy rivojlanishining eng yaqin va olis istiqbollari ham o‘tmish tajribalaridan foydalanish asosida belgilash zarur.

Shu munosabat bilan pedagogik tashxis pedagogik faoliyatda erishiladigan yutuqlarni belgilovchi (prognostik) xarakter kasb etganida samarali bo‘lishini ta’kidlamoqchimiz. Olimlar tomonidan olib borilgan tajriba ishlari jarayonida ahu narsa aniqlandiki, pedagogik mahoratni tadqiq qilishning belgilovchi (prognostik) xarakteri bevosita o‘qituvchining kasbiy refleksiyasiga tayanadi.

Bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida paydo bo‘ladigan muammosi aynan nimadan iboratligini va uning sababi aynan nima ekanligini aniqlash, sabab va oqibatlarini pedagogik qiyinchilik oqibati bilan qorishtirmaslikka imkoniyat beradi. Bunda pedagogik tashxislashning o‘qituvchi kasbiy faoliyatini tezkor korreksiyalash imkoniyatini beradigan o‘ziga xos indikatorlik (hisoblash) vazifasi namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining o‘z potensial imkoniyatlarini baholash diagnostika davomida har qanday holatda ham e’tiborga olinishi lozim, - deb

ta'kidlaydi A.K.Markova, - unga ishonch bildirish kerak, uning kasbiy faoliyatiga bahoni oshirib yoki pasaytirib qo'yish o'qituvchi kasbiy rivojlanishini to'xtatib qo'yishi mumkin. Ushbu o'qituvchining individual rivojlanish mantiqini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchining yutuqlarini boshqa o'qituvchilarning yutuqlari bilan emas, balki o'zining oldingi yutuqlari bilan ham taqqoslash kerak.

Shaxsiy pedagogik faoliyatni o'z-o'zida tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiyaviy faoliyati natijalari va xususiyatlarining holatini o'rganadi, pedagogik ziddiyatlar o'rtasidagi sabab va oqibatli bog'lanishlarni aniqlaydi, o'qituvchilarga ta'lim va tarbiya berishni yanada takomillashtirish yo'llarini belgilaydi, - deb ta'kidlaydi L.E.Pleskach. Olimning fikriga ko'ra, "Refleksiya - o'z-o'zini tahlil qilish bo'lib, o'z-o'zicha belgilangan maqsadga erishish emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga, kasbiy jihatdan takomillashishga nisbatan rag'batlantirishdir".

Ilmiy adabiyotlar tahlili, shuningdek o'qituvchi faoliyatida pedagogik tajriba o'qituvchilar pedagogik mahoratini oshirishning diagnostik metodikalaridan foydalanish va olingan natijalar tahlili pedagogik tashxislashni o'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishini ta'minlaydigan usullardan biri sifatida baholashga imkoniyat beradi.

Zero, o'qituvchi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda "tajriba o'rganishdan maqsad va uning vazifalarini rejalashtirish, dolzarb mavzuni aniqlash, maktab amaliyotida mohir o'qituvchilarning yutuqlarini o'rganish, materiallarni to'plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish" kabi vositalardan foydalanadilar.

Shuningdek, ta'kidlamoqchimizki, pedagogik tashxislash qayd qiluvchi emas, balki maqsad hosil qilishni belgilovchi (prognostik) xarakterga ega bo'lganligida samarali bo'ladi, bu o'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishi asosida amalga oshiriladi. Ayni paytda aynan ta'lim-tarbiya jarayonida maqsad hosil qiluvchi tashxislash uning rivojlanish qobiliyatini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytilganda, o'qituvchi tomonidan o'z kasbiy faoliyati natijalarini anglab yetishi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishini yanada takomillashgan usullarini izlash va ularni o'zlashtirish zaruriyatini ta'minlaydi. Faoliyatni o'zgartirish esa, ma'lumki, faoliyat subektining o'zgarishiga olib keladi.

O'qituvchining analitik (tahlil qilish) qobiliyatlari rivojlanishi jarayonida uning kasbiy refleksiya ham rivojlanadi, bu o'z navbatida, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini ma'lum bir yo'nalishga solib, uning shaxsiy ijodiy faolligini oshiradi.


3. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yo'nalishlari

“Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida: “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb hisoblansin” deyiladi shu sababli, chuqur bilimga ega bo‘lgan, zamonaviy o‘qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qaralib kelinmoqda. O‘qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta’lim mazmunini egallagan bo‘lishlari kerak. O‘qituvchi xodimlar o‘zlarining kasbko‘nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo‘yicha ko‘plab pedagog va psixolog olimlar o‘z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an’ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida yanada takomillashtirish uchun metodik qo‘llanmalar, tavsiyanomalar paydo

bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.



8-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy turlari.

XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. **Ushbu nuqtayi nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas'uliyatlar o'qituvchilardan talab qilinadi:**

1. O'qituvchi, eng avvalo, mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

2. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi,

ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.

3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.

5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi.

6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni no'rin qo'llanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi.

11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqin-

choqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12. O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.

13. O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmazligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning bir qator sifatlarini uzluksiz tarkib toptirib borishi zarur.

14. O'qituvchi, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak.

O'qituvchilar unutmazliklari kerakki, o'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbga nisbatan qo'ya-yotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi avvalo sinfdagi tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisidir. O'qituvchi tarbiyachi sifatida quyidagi talablarni bilishi lozim:

➤ shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

➤ kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

➤ yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, maktab gigiyenasidan o‘z kasbiga oid bilimlarni mukammal bilishi;

➤ o‘z kasbi bo‘yicha jahon fanida erishilayotgan so‘nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyalari, yangiliklaridan doimiy xabardor bo‘lib borishi;

➤ ta’lim-tarbiya metodikasidan ko‘nikma va malakalarini oshirib borishi;

➤ o‘z kasbiga ijodiy yondashishi;

➤ pedagogik texnika (mantiq, nutq ta’limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;

➤ o‘z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati kam mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo‘ladi. Pedagogik faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat hislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy xarakterga ega. O‘qituvchi o‘quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o‘quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning hammasi ijodkorlikning tub mohiyati, ishning maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, ma’lum maqsadga erishmoq uchun o‘qituvchilar bolalarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

➤ hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo‘lgan faoliyat o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga to‘g‘ri kelishi lozim;

➤ o‘quvchilarni biror ishga jalb qilar ekan, o‘qituvchi ularga pedagogik va psixologik jihatdan to‘g‘ri vazifa qo‘yishi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi shart;

➤ o‘quvchilar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Ijodiy faoliyat olib boruvchi o‘qituvchi faqatgina bolalarni

muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash, ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribalarini o‘rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalariga ham ega bo‘lishi zarur. Hozirgi zamon o‘qituvchisi fan va texnika taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanishi, o‘z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo‘llay olishi taqozo etiladi.

Mamlakatimiz ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini yuqori saviyadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega, metodologiya va pedagogika sohasida fundamental bilimlarni chuqur biladigan, ta‘lim jarayonida pedagogik muammolarni tizimli ravishda olib boruvchi mahoratli va omilkor o‘qituvchilarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu jihatdan pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida asosiy e‘tibor bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy pedagogik faoliyatning o‘ziga xos usullarini shakllantirishga va takomillashtirishga qaratilgan.

O‘qituvchilik kasbining mohir ustasi bo‘lish, avvalo, shaxsning o‘z individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanish va individual ishlay olish qobiliyatining qanday shakllanganligi bilan bog‘liq. Bu usul oliy o‘quv yurtida o‘quv va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda ta‘lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi individual, o‘ziga xos usullar tizimidan iborat bo‘ladi. Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g‘oyasi yetakchi o‘rinda bo‘lishi kerak. Yuksak malakali o‘qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish yo‘llari har xil bo‘lishi mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar yig‘indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo‘lishlik kasbiy – pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o‘qituvchining kasbiga nisbatan shaxsiy tavsifnomasi hisoblanadi.

Ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati o‘qituvchi kadrlarning kasb mahorati va savodxonligiga bevosita bog‘liq. Negaki barcha rivojlangan jamiyatda bo‘lgani kabi, o‘qituvchining kasbiy mahorati ta‘lim muassasasida – ta‘lim jarayonida va ish faoliyatida shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchi talabalar o‘z mahoratlarini ikki tomonlama – amaliyotda hamda pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olish jarayonida

shakllantiradilar. Bo'lajak o'qituvchilar ko'proq amaliy jihatdan o'z malakalarini oshirishni xohlaydilar. Chunki ish faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan muammolar ko'p. Ularning yechimini oliy ta'lim muassasasi partasida, yetakchi olimlar hamkorligida topishni orzu qilishadi.

Bo'lajak o'qituvchilarga, avvalo, kasb mahorati va uni qanday qilib shakllantirish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, barcha sohalarda bo'lganidek, kasb mahorati ham o'qituvchida yillar davomida shakllanib takomillashadi. Shu narsa alohida e'tiborga loyiqki, o'qituvchining kasbiy mahorati, amaliy va uslubiy tajribaga ega bo'lishi uchun asosiy zamin ish faoliyati jarayonida shakllanadi. Chunki kasb mahorati o'ta murakkab va milliy xususiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lgani bois, uni egallash, yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchining uzoq yillar samarali izlanishlari, ijodkorlik mehnati evaziga ro'yobga chiqadi. Ammo pedagogik mahorat sirlarining ilmiy va amaliy negizi o'z vaqtida berilmas ekan, uni oliy ta'lim muassasasidan keyingi kasbiy faoliyati jarayonida kashf etish har doim ham o'z samarasini bermaydi.

Har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ilg'or turmush tarziga moslashgan, ta'lim va kasb - hunar dasturlarini hamda pedagogik va axborot texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan doimo xabardor, ongli ravishda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, pedagogik-psixologik jihatdan bilimlarga ega bo'lgan, davlat va oila oldida javobgarlikni his etadigan fuqarolarni tarbiyalovchi o'qituvchida yuksak nazariy va metodologik tayyorgarlik bo'lishi lozim. Hozirgi zamon talablariga mos, axborot texnologiyalari hamda fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zlashtirgan, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni ta'lim tizimiga tatbiq eta oladigan o'qituvchidan yangicha kasb mahorati talab qilinadi.

O'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun, avvalo, o'zining individual kasbiy xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanishi va individual ishlay olish qobiliyatini mukammal shakllantirib borishi lozim. Bu usul oliy ta'lim muassasasi faoliyatida o'quv va amaliy mashg'ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda muvaffaqiyatni ta'minlovchi individual, o'ziga xos usullar tizimidan iborat bo'ladi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda

kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g'oyasi yetakchi o'rinda bo'lishi kerak. Yuqori malakali kasbiy mahoratni shakllantirish yo'llari har xil bo'lishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo'lishi kasbiy – pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o'qituvchining kasbiy mahoratini namoyon qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida yuksak mahoratli omilkor o'qituvchini shakllantirish uchta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha bazaviy puxta tayyorgarlik (kasbiy va pedagogik-psixologik bilimlar);
- metodologik bilimlarni egallash madaniyati;
- pedagogik ijodkorlik va kreativlik.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim tizimi bo'lajak mutaxassisni shakllantiradi va uni murakkab kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Hozirgi kunda zamonaviy mutaxassis lozim bo'lgan kasbiy sifat-larning murakkab to'plamini an'anaviy ta'lim jarayonida qisqa fursatda egallashi lozim. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida barcha ijobiy xususiyatlar amaldagi ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etib borgan holda ular yangi zamonaviy bilimlar bilan to'ldirilib borilsa, unga ratsional yondashuvlar joriy etilgan integral bilimlar tizimi bir-birini to'ldirib qo'llanilganda shakllantirilishi mumkin.

Ushbu jadvalda o'qituvchining ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik mahoratini belgilab beruvchi yuqorida keltirilgan uchta yo'nalishdan har birining (bazaviy, metodologik, ijodiy) tashkil etuvchi muhim jihatlari ko'rsatilgan:

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga ijodiy yo'naltirilganligining muhim jihatlaridan biri uning pedagogik madaniyati bo'lib, u pedagogik-psixologik fanlar tizimining turli yo'nalishlarida tatbiq qilingan. Chunonchi: metodologik jihatdan V.A.Slastenin, V.V.Krayevskiy, axloqiy - estetik jihatdan E.A.Grishin, D.S.YAkovlyeva, kommunikativlik jihatlarini A.V.Mudrik, O.O.Kiselyeva, T.N.Levashyeva, texnologik jihatlarini M.M.Levina, N.E.Shurkova kabi olimlar ishlab chiqqanlar.

Ayniqsa, o'qituvchining texnologik madaniyati uning texnologik faoliyati jarayonida kasbiy mahoratning muhim jihati sifatida individual pedagogik faoliyatini ochib beruvchi muhim ijodiy

ko'nikmasidir. O'qituvchining texnologik tayyorgarligi "pedagogik omilkorlik" kategoriyasini tushunishning muhim qismi hisoblanadi va u pedagogik voqelikni idrok etish va saqlash vazifalarini bajaruvchi pedagogik madaniyatning mohiyatini aks ettiradi. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarning asosi sifatida qaralayotgan o'qituvchining texnologik madaniyati o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini ijodiy tomonga yo'naltiruvchi jarayondan iborat.

O'qituvchining texnologik madaniyati uning texnologik faoliyati jarayonida kasbiy mahoratining muhim jihati sifatida individual pedagogik faoliyatini ochib beruvchi ijodiy usullaridan iborat. O'qituvchining ta'lim jarayoniga tayyorgarligi "pedagogik omilkorlik" kategoriyasini tushunishning muhim qismi hisoblanadi va u pedagogik voqelikni idrok etish va saqlash vazifalarini bajaruvchi pedagogik madaniyatning mohiyatini aks ettiradi. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarning asosi sifatida qaralayotgan o'qituvchining texnologik madaniyati talabalarning ichki imkoniyatlarini ijodiy tomonga yo'naltiruvchi jarayondan iboratdir.

Har bir bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassis-o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatining ixtisosligi va xususiyatidan qat'i nazar fundamental bilimlarga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ana shu bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda, bo'lajak mutaxassisga o'z kasbiga oid u yoki bu savol yoki muammo bo'yicha o'z nuqtayi nazarini aniqlab olish imkoniyatini beruvchi ijodkorlik, tadqiqotchilik va mustaqil faoliyat tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy pedagogik bilimlar ta'lim jarayonining samaradorligiga zamonaviy ta'lim muhiti talablari bilan talabaning o'zgarib turuvchi o'quv dasturlari sharoitida yetarlicha yo'nalish ola bilmasligi natijasida salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oliy pedagogika ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchining yuksak tayyorgarlik darajasiga va ma'naviy axloqiy saviyasiga qo'yiladigan talablar ham yangilanib boradi. Ijodkor o'qituvchi esa o'z sohasi bo'yicha yangi pedagogik texnologiya metodikalarini ajrata olmog'i hamda uni amalda samarali qo'llay bilishi lozim.

Har qanday ta'lim muassasasida tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyati o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida

kechadi. O‘qituvchining vazifasi pedagogik mahorat imkoniyatlaridan foydalanib, o‘quvchilarni fan asoslarini chuqur egallashga yo‘naltirish, bilim olishga va kasbiy mahorat sirlarini bilishga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin va ongli munosabatni tarbiyalashdan iboratdir.

O‘qituvchi tomonidan ta‘lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi mumkin va o‘qituvchi o‘zining ijodkorligi, pedagogik mahorati nuqtayi nazaridan ushbu jarayonni tashkillashtiradi:

1. Rejalashtirish.
2. Tashkil etish.
3. O‘quv harakatlari.
4. Natijalarni baholash va tahlil qilish.

O‘qituvchi faoliyatida rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslarning rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ijodiy faoliyat lozim bo‘ladi. O‘qituvchi mustaqil ravishda o‘quvchilarning tayyorgarliklari darajasini, ularning o‘quv imkoniyatlarini, moddiy baza holatini, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o‘rganib chiqishi, o‘quv materialini mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini ishlab chiqishi kerak.

O‘quvchilarga dars o‘tish faoliyatini tashkil etish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga o‘rganilgan mavzu asosida o‘quv masalalarini qo‘yishi va uni bajarishi uchun imkoniyatlar yaratishi lozim. Bunda o‘quvchilarning faoliyati bilim olishdan iborat bo‘ladi. Bilim olish faoliyatining o‘ziga xos xususiyati faoliyat qonuniyatlariga egaligidir. Bilim olish borliqni idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajribalar asosida xulq-atvor hamda ko‘nikma va malakalarning mustahkamlanib borishi, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borishi jarayoni. Bilim olishning ushbu komponenti ta‘limiy xarakterga ega bo‘lgan faoliyat natijasida rag‘batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

Bilim olishning yana bir komponenti o‘quv harakatlari sanalab, ular belgilangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O‘quv harakatlari o‘quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo‘ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko‘rinishda bo‘ladi.

Tashqi o‘quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o‘tkazish); perseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuza-tish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki, ya’ni mnemonik (yunonchadan “mnemonikon” — eslab qo-lish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari kiradi.

Natijalarni baholash va tahlil etish o‘quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi tomonidan o‘zini nazorat qilish, o‘zini baholash va o‘zini tahlil qilishni amalga oshirish o‘qituvchining o‘rgatuvchi harakatlari asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o‘quvchilarni o‘z tengdoshlari faoliyatini kuza-tishga jalb etish, o‘zaro nazoratni tashkil etish, o‘rnatilgan mezonlar asosida o‘z faoliyati natijalarini o‘zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uni samarali tashkil etilishi bilan bog‘liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetar-licha o‘ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o‘quvchilar imko-niyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo‘la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta’minlovchi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O‘qituvchining ma’lum bir fan asosida darsga tayyorgarlik ko‘ri-shida quyidagi uchta bosqich muhim ahamiyatga ega: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish).

➤ **tashxislashda** o‘qituvchi didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtiradi, uning natijalarini belgilaydi. O‘qituv-chining tashxislashida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish imko-niyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo‘ladi.

➤ **bashoratlash** o‘qituvchi tomonidan bo‘lajak darsni samarali tashkil etilishining turli variantlarini tanlab olib baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma’qul variantini tanlab olish va qo‘llashdir.

➤ **loyihalashtirish** (rejalashtirish) o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo‘lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, o‘qituvchi o‘zi uchun boshqarish jarayoni (kimdan va qachon so‘rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg‘ulot keyingi bosqichiga qanday o‘tish)ni belgilab olishga imkoniyat beruvchi faoliyatdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish yo‘llarini aniqlang?

2. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish metodlarini tanlash mezonlarini tahlil qiling.

3. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash mezonlarini tahlil qilib bering?

4. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqing va amaliyotga joriy etish yo‘nalishlarini aniqlang?

VII BOB. KASBIY KOMPETENTLIK VA PEDAGOGIK KREATIVLIK

REJA:

1. “Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati. Shaxsda kreativlikni rivojlantirishning asosiy omillari.

2. Pedagogning kreativlik potentsiali. Kreativlik potentsialiga ega pedagogda namoyon bo‘ladigan malakalar.

3. Pedagogda kreativlik potentsialini rivojlantirish metodlari. Pedagog kreativ potentsialini ifodalovchi tamoyillar.

4. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar. Pedagog kreativ potentsialining muhim darajalari.

1. “Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati. Shaxsda kreativlikni rivojlantirishning asosiy omillari

“Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.

Kreativlik (ing. “create “ – yaratish, “creative “ yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansa-da, biroq bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;


3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

- 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi:



9-rasm. Kreativlik sifatlari.

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1) savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;

2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish;

3) **Pedagogning kreativlik potentsiali.** O'qituvchining ijodkorligi u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondoshuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

4) **Pedagogik kreativlik** – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilish.

Pedagogning **kreativlik potentsiali** uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi.

➤ tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi; yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati; bir qolipda fikrlamaslik; o'ziga xoslik; tashabbuskorlik; noaniqlikka toqat qilish; zakovatli bo'lish.

2. Pedagogning kreativlik potentsiali. Kreativlik potentsialiga ega pedagogda namoyon bo'ladigan malakalar

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondoshish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Pedagogning kreativlik potensialini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali sanaladi.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy- tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondoshishi unda hissiy - irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Kreativlik potensialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari. Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi.

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi;

- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

Pedagog kreativ potensialining muhim darajalari

№	Darajalar	Daraja xususiyatlari
1.	Yuqori	Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o'ta faol, izlanuvchan
2.	O'rta	Ba'zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo'lmasa-da, ammo namoyon bo'ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo'lishga intiladi
3.	Past	Garchi u yetarlicha asoslanmagan bo'lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo'lmaydi, izlanuvchan bo'lishga intilmaydi

Oliy ta'lim o'qituvchisi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar

Pedagogning kreativlik potentsiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:

I. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar. Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi.

Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potentsialini uch darajada aniqlash imkonini beradi:

II. O'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondoshish. Pedagogning kreativligini rivojlantirishda uning ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondoshish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagoglar o'zlarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish yo'lida tizimli, izchil amaliy harakatlarni tashkil etishlari zarur. Quyida ularning ayrimlari xususida

to'xtalib o'tiladi.

Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan asosiy maqsad talabalarning kasbiy, shaxsiy sifatlarini takomillashtirishdan iborat. Shu bois o'qituvchi kasbiy faoliyati yuzasidan qator vazifalar tizimini bajarishi lozim. Ana shu vazifalarni samarali va muvaffaqiyatli bajarilishi o'qituvchining, eng avvalo, kasbiy, pedagogik tayyorgarligiga, qolaversa, kasbiy kompetensiyasiga bog'liq. U muntazam ravishda pedagogik va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirib borishi, tez o'zgarib ketayotgan jamiyatga mos ravishda faoliyat yurgazishi lozim. Aytish joiz bo'lsa, pedagogik kasbiy faoliyat davomiy bilim olish, tajriba va yana bilim olishdan iborat bo'lgan inson faoliyatiki, unga qo'yiladigan talablar ham takomillashib, oshib boraveradi.

Oliy ta'lim o'qituvchisi vazifalari.

➤ talabalar uchun oliy ta'lim dasturlari asosida nazariy bilimlarni, umummadaniyat (kasbiy maxsus) kompetensiyalarni egallashlari uchun tashkiliy sharoitlar yaratish; talabalarda insonning tabiat bilan jamiyat, madaniyat, davlat bilan uzviy bog'liqligi qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, inson shaxsiyatining shakllantirish jarayonlari haqida bilimga, ilmiy axborotlarni topish va talqin etish usullari, ularni qayta ishlash va saqlash kabi masalalarga o'rgatish va boshqalardan iborat. Bo'lg'usi mutaxassislarning o'zi tanlagan soha va mutaxassisliklari bo'yicha amaliy bilimlarini shakllantirish, talaba shaxsining kasbiy yo'nalishini takomillashtirish, uning umumiy, kasbiy madaniyatini, o'z faoliyatini takomillashtirish; talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish; talabalarning kasbiy-shaxsiy imkoniyatlari ochilishi uchun ko'maklashish.

3. Pedagogda kreativlik potensialini rivojlantirish metodlari.

Pedagog kreativ potensialini ifodalovchi tamoyillar

O'quv ishlari (darsda va auditoriyadan tashqarida) – ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari; auditoriyadan tashqari – konsultatsiya, reyting baholash, imtihon, kurs ishlari, malakaviy ishlarni tekshirish va rahbarlik qilish, amaliyotni tashkil etish hamda nazorat ishlarini baholash.

Noo'quv ishlari: a) o'quv-uslubiy ishlar; b) ilmiy-tadqiqot ishlari; v) tarbiyaviy ishlar; g) tashkiliy-uslubiy ishlar.

O'quv-uslubiy ishlar. Ma'ruzaga tayyorgarlik, amaliyot, o'quv-uslubiy, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ma'ruza mazmuni, amaliyot, seminarlarni ishlab chiqish, testlar, vazifa, nazorat ishlarini ishlab chiqish, imtihon savollarini tuzish, elektron o'quv va uslubiy qo'llanmalarini yaratish, yangi o'quv qo'llanmalarini yozish va chop etish, metodik adabiyotlarni qayta chop etishga tayyorgarlik, muharrariyat ishlari, o'quv jarayonlari uchun multimediya va ko'rgazmali qurollarni tayyorlash, talabalarning bilimlari yuzasidan reyting nazorati o'tkazish, ochiq darslarda qatnashish va o'tkazish, fakultet, oliy maktab, metodologik komissiya ishlarida va pedagogik kengashlarda qatnashish.

O'qituvchining ilmiy-tadqiqot ishlari. Rejalashtirilgan davlat va nodavlat ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, ilmiy konferensiyalarda qatnashish, ilmiy maqola va monografiyalarni yozish, xalqaro va mamlakat tarmoqlari bo'yicha grant va loyihalash ishlarida qatnashish, doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlash, opponent va taqrizchi sifatida qatnashish, ilmiy to'plam va hisobotlarni tahrir qilish, talabalar, magistr va ilmiy xodimlarning to'garaklari yoki muammoli guruhiga rahbarlik qilish, tajriba maydonlarida rahbarlik qilish, talabalarni olimpiada, ko'rik-tanlovlar, ilmiy konferensiya va ko'rgazmalarda qatnashish uchun tayyorlash.

O'qituvchining tarbiyaviy ishlari. Akademik guruhlariga rahbar sifatida ishlash, talabalarning guruhlarida tarbiyaviy ishlar shakllanishini (suhbat, munozara) tayyorlash va tashkil qilish, talabalar uylaridagi ishlarda qatnashish, to'garak, seksiya va klublarga rahbarlik qilish, universitet va fakultet tarbiyaviy tadbirlarini tayyorlash va ularda qatnashish.

Tashkiliy-metodik ishlar. Rektorat va dekanat topshiriqlarini bajarish, universitet, fakultet, kafedra ilmiy kengashlarini tayyorlash, ularda ma'ruzalar qilish, kafedra topshiriqlarini bajarish.

Shunday qilib, o'qituvchining kasbiy faoliyati o'z ichiga pedagogik faoliyatning kopleks turlarini qamrab oladi. Ular, o'z navbatida, chuqur bilim, oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy faoliyati talab qiladigan mutaxassisligi bo'yicha takomillashgan ko'nikmalarni talab qiladi. Ana shu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish o'qituvchi kasbiy

kompetensiyasiga, uning doimiy takomillashib borishiga bog'liq. Bunda, albatta, o'qituvchining kasbiy, shaxsiy sifatlari ham uning kasbiy kompetensiyasi aspektlaridan hisoblanadi. Shu ikki narsa – o'qituvchining vazifasi va shaxsiy-kasbiy xususiyatlari uning kompetensiyasi asosi bo'lsa, uning takomillashib borishi o'qituvchi kasbiy kompetensiyasini belgilaydi.

O'qituvchi shaxsiy tavsifi va o'ziga xosligi. Ilmiy zehn – eruditsiya, kasbiy pedagogik madaniyat, pedagogik mahorat, ziyolilik, kasbiy pedagogik yo'nalganlik, pedagogik fikr yuritish, o'z faoliyatini sevish, oliy darajadagi umummadaniyat, kuzatuvchanlik, sezgirlik, ijodkorlik, xulq-atvor, talabchanlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik, yuksak ma'naviyat, o'zini va o'zgalarni hurmat qilish, kommunikabellik, pedagogik optimizm, talabalar bilan ishlashga ishtiyoq, intellektual faollik, yangiliklarga qiziqish va ularni tatbiq etish.

O'qituvchining maxsus tayyorgarligi. Bunda o'qituvchining o'z mutaxassisligi bo'yicha bilim va ko'nikmalari ko'zda tutiladi.

Maxsus testlar bilan ishlash. Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarda kreativlik qobiliyati va sifatlari mavjudligini aniqlashda P.Torrensning "Tugallanmagan rasmlar" testidan foydalanish samarali natijalarni beradi

1. Talaba va tinglovchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishga oid topshiriqlar bilan ishlash. Bu turdagi topshiriqlar talaba, tinglovchilarda ijodiy fikrlash, voqea, hodisa, jarayon yoki faoliyat mohiyatini mantiqiy ifodalash, xayollari olamini boyitish malakalarini o'zlashtiradi. Bu maqsadda kichik esse, tabriknoma, taklifnomalar uchun matnlarni yozish, reklama roliklari uchun matnlar ishlab chiqish kabi topshiriqlar foydalanish mumkin.

4. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar. Pedagog kreativ potentsialining muhim darajalari

Matnli, ayniqsa, katta hajmdagi matnli axborotlar talabalar tomonidan qiyin qabul qilinadi. Zamonaviy sharoitda matnli axborotlarni grafik shakliga o'tkazish talab etilmoqda. O'quv axborotlarini grafik shakliga o'tkazishda ma'lumotlarni model, sxema,

jadval, diagramma, tasvir, klaster, matematik, fizik, geometrik ko‘rinishlarida ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bu tarzda talabalarga taqdim etilgan axborotlar talabalar tomonidan samarali qabul qilinadi.

Yoshlarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish yuzasidan Devid Lyuis tomonidan amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan. **Ko‘rsatma quyidagilardan iborat:**

1. *Tarbiyalanuvchilarning savollariga chidam bilan to‘g‘ri javob bering. Ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qiling. Tarbiyalanuvchilarga o‘z ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajrating.*

2. *Agarda ijodiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda bolani xonadagi tartibsizlik uchun koyimang. Vaqti-vaqti bilan tarbiyalanuvchilarga ularni yaxshi ko‘rishingizni va ularni qanday bo‘lsalar, shunday qabul qilishlarini namoyon eting.*

3. *Tarbiyalanuvchilarga imkoniyatlariga mos yumushlarni buyuring. Ularga shaxsiy rejalarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko‘maklashing.*

4. *Tarbiyalanuvchilarga faoliyatlarda yuqori natijalarga erishishlariga yordam bering. Kamchiliklarini ko‘rsatgan holda bolani boshqalar bilan solishtirmang.*

5. *Tarbiyalanuvchilarni kamsitmang va o‘zini yomon, ojiz deb hisoblashishiga yo‘l qo‘ymang. Uni mustaqil fikrlashga o‘rgating.*

6. *Tarbiyalanuvchilarni sevimli mashg‘ulotini tashkil etishi uchun zarur buyumlar bilan qurollantiring. Uni turli voqealarni o‘ylab topishga, fantaziya qilishga majburlang, bu jarayonda unga yordamlashing.*

7. *Tarbiyalanuvchilarni yoshlikdan o‘qib-o‘rganishga odatlantiring. Doimo tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlariga e‘tibor qarating. Har kuni ular bilan yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt toping.*

8. *Oilaga oid masalalarning muhokamasiga tarbiyalanuvchilarni ham jalb qiling. Xatolari uchun ularni masxara qilmang.*

9. *Tarbiyalanuvchilarni har bir yutug‘i uchun maqtang. Uning yutuqlarini maqtashda samimiy bo‘ling.*

10. *Ularni turli yoshdagi kishilar bilan muloqot qilishga o‘rgatib boring.*

11. *Uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni o‘ylab toping. Tarbiyalanuvchilarga turli buyumlar*

bilan o‘ynashni taqiqlamang – bu uning tasavvurini boyitadi.

12. Uni muammoni topishva uni hal qilishga rag‘batlantiring. Tarbiyalanuvchilarga nisbatan o‘z munosabatingizni baholashda odil bo‘ling.

13. U bilan muhokama qilinadigan mavzularni cheklamang. Tarbiyalanuvchilarga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar bo‘lish imkonini bering.

14. Tarbiyalanuvchilarga uning shaxs bo‘lib shakllanishi uchun yordam bering.

15. Tarbiyalanuvchilarga uning uchun foydali bo‘lgan teleko‘rsatuvlarni tomosha qilishi va radio eshittirishlarni tinglashi uchun ko‘maklashing.

16. Uni o‘z qobiliyatlarini ijobiy qabul qilishga odatlantirib boring.

17. Tarbiyalanuvchilarni kattalardan mustaqil bo‘lishga o‘rgatib boring.

18. Tarbiyalanuvchilarning o‘ziga va uning sog‘lom fikrga egaligiga ishonib.

19. Tarbiyalanuvchilarga “Men ham buni bilmayman” deb, uni muvaffaqiyatsizliklarga bee’tibor bo‘lishga o‘rgatmang.

20. Tarbiyalanuvchilarga, garchi u ishning ijobiy natijaga ega bo‘lishiga ishonmasa-da, boshlangan ishni oxiriga yetkazishi uchun imkoniyat yarating.

Kundalik daftar yuriting va unga tarbiyalanuvchilarda kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib boring.

Maxsus bilimlar. O‘z predmetini ilmiy darajada bilish. Mazkur fanning zamonaviy yutuqlari va istiqbolli yo‘nalishlarini va rivojlanishi darajasini bilish. Ushbu tarmoq ishlab chiqarishning bugungi kundagi yutuqlarini bilish. O‘z sohasi bo‘yicha davlat standartlaridan xabardorlik. Oliy o‘quv yurti bo‘yicha va predmetiga ko‘ra, qo‘llaniladigan darsliklarni bilish. Predmetni o‘qitishning maqsad va vazifalarini bilish. Mutaxassislar tayyorlash tizimida o‘z mutaxassisligi qanday ahamiyat kasb etishini bilish.

Maxsus bilish, ko‘nikma. Aniq bir kasbni mukammal bilishi.

O‘qituvchining pedagogik va psixologik tayyorgarligi muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan pedagogika va psixologiya sohalari bo‘yicha zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalari.

Pedagogik-psixologik bilimlar. Oliy maktab pedagogika va psixologiya bilimlari (ta'lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, talabalar psixologiyasi va boshqalar), pedagogik faoliyat nazariyasi bo'yicha bilimlar, oliy kasbiy ta'limning zamonaviy konsepsiyalari to'g'risida bilimlar, o'z predmeti bo'yicha o'qitish metodikasini bilish.

Pedagogik bilimlar: diagnostika; prognostik; loyihalash; konstruktivlik; kommunikativlik; tashkilotchilik; tahlil qilish.

Diagnostik bilim. Talabalarning bilim, ko'nikma, tajriba va kompetensiyasi tizimida dastlabki, o'rta va yakuniy darajasini aniqlab berish, talabalar guruhida pedagogik vaziyatlarni aniqlash, talabaning umummadaniy va tarbiya darajasini aniqlash va boshqalar.

O'qituvchining prognostik bilishi. Oldindan aytib berishi, talabalar o'qishi va kasbiy tarbiya natijalarini oldindan aytib berish, biron-bir pedagogik vazifani aniq belgilab olib, uni yechish shakllarini aniqlash, talabalar uchun o'quv-metodologik (tarbiyaviy) ishlarning rejalarini tuzib olish, o'quv jarayonida talabalar uchun yuzaga keladigan qiyinchiliklar va xatolarni oldindan bilish va boshqalar.

O'qituvchining konstruktiv bilishi. Ta'lim jarayonlarini ilmiy asosda qurish, tashkil etish, samarador o'quv va kasbiy tarbiya texnologiyalari, metodlari, shakllari, usullari va vositalarini tanlash hamda qo'llash, o'quv-amaliy ishlarini tashkil qilish va boshqarish, talabalarning o'qishi va ijodiy ishlarini faollashtirish va boshqalar.

O'qituvchining kommunikativligi. Talabalar bilan maqsadga muvofiq munosabatlar o'rnatish, ular bilan munosabatlarda individual va o'ziga xos yondoshuvlarni topish, dars davomida ijobiy-ruhiy muhitni tashkil qilish, talabalar xulq-atvorini boshqara bilish, o'zini xayolan talaba o'rniga qo'yib ko'ra bilish, talabalarni ezgu ishlarga qiziqtirish, pedagogik texnologiyalarning eng yaxshi shakllarini izlab topish.

O'qituvchining tashkilotchilik qobiliyati. Talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish, o'zining o'qituvchilik va tarbiyaviy faoliyatini tashkil etish, talabalar bilan ishlashda kasbga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etish va boshqalar.

O'qituvchining tahliliy bilishi. Talabalarni o'qitish va tarbiyalash natijalarini tahlil qilish, kasbiy pedagogik faoliyatidagi nuqsonlar va yutuqlar yuzaga kelish sabablari hamda o'qituvchilarning tajribalarini tahlil qilish. Ta'lim-tarbiyada qo'llanilgan samarador metod, usul va

o‘qitish manbalarini tahlil qilish va boshqalar.

Biz tilga olgan Oliy ta’lim o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar ichida uning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish va davlat standartlari talablariga javob bera olish masalasi ham eng muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida olib borilishi zarur bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga muvofiq, respublika ta’lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlari bilan ta’minlash chora-tadbirlari belgilangan.¹³ Oliy ta’lim pedagog kadrlariga qo‘yiladigan talablar Oliy ta’lim pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi tuzilmasi keltirilgan.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. “Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyatini aniqlang?
2. Shaxsda kreativlikni rivojlantirishning asosiy omillarini aniqlang?
3. Pedagogning kreativlik potensialiga ega pedagogda namoyon bo‘ladigan malakalarni tushuntirib bering?
4. Pedagogda kreativlik potensialini rivojlantirish metodlarini izohlang?
5. Pedagog kreativ potensialining muhim darajalarini aniqlang?

¹³ Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. 2006 yil, 6,7 son, 39-modda, 2011 yil 25 son, 260-modda, 2012 yil 33-34 son, 390-modda.

VIII BOB. KARYERA. SHAXSNING KASB MAHORATIDAGI YUKSALISHI

REJA:

- 1. Karyeraning turlari, bosqichlari. Karyera va faoliyat.**
- 2. Karyerada shaxsning kasbga oid xulqi va ustanovkalarining mukammallashib borishi.**
- 3. Karyerada o'sishga imkoniyat yaratishi mumkin bo'lgan shaxs xislatlari. Gorizontal va vertikal karyera shakllari.**
- 4. Karyeraning shaxs faoliyatidagi o'rni, roli va ahamiyati.**

1. Karyeraning turlari, bosqichlari. Karyera va faoliyat

Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishda, intellektual jamiyat qurishda o'qituvchi asosiy mas'ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi va murakkab faoliyati zahirida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi vazifalar yotadi. Ta'lim tuzimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar talabalarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda, yoshlarimizni o'ziga va boshqa insonlarga, jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o'zgarishini, vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko'zda tutadi.

Demak, o'qituvchi - pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab, mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi hislatlarga ega bo'lishi kerak:

➤ zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi; dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtayi nazarda anglashi; axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda tatbiq etishi; internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi;

➤ pedagogik mehnatining samaradorligini tahlil etish yo'llarini bilishi va o'ziga-o'zi baho bera olishi; oilaviy ta'lim-tarbiya muammolari bo'yicha tasavvurlarini rivojlantirishi; umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar; milliy g'oya va milliy mafkura iqtisodiy islohatlar mohiyatini tushunib olishi; dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llarini bilishi; talabalarning fikrlashlari va bir-birlari bilan fikr almashishlari hamda do'stona muhit yaratish uchun sharoit yaratishi; darsning samaradorligini oshirish uchun laboratoriya jihozlaridan, texnik

vositalar va o'quv vositalardan foydalanish yo'llarini bilishi;

Mutaxassis *T.Bazarovning* ta'kidlashicha, karyera – insonning mehnat faoliyati jarayonidagi xulq-atvori va tanlagan yo'nalishi bilan bog'liq lavozim yoki kasbiy o'sishining natijasidir.

Karyeraga *trayektoriyani* inson o'z mehnat xatti-harakatlarining amalga oshirish jarayonida foydalanadigan shaxsiy maqsadlari, xohish-istaklari, ustanovkalari orqali quradi va uni tashkilot ichi yoki tashqarisidagi haqqoniy faoliyat xususiyatlarida shakllantiradi.

Ma'muriy boshqaruv organi rahbarligiga da'vogarning kasbiy va tashkilot doirasidagi xatti-harakatlari trayektoriyasini bir necha tamoyillarga ajratish mumkin, qaysiki bular karyeraning quyidagi turli xil ko'rinishlariga olib keladi:

1. Professional (kasbiy) karyera – ma'muriy boshqaruv organi rahbarligiga da'vogarning aql, mahorat va malaka borasidagi o'sishi. Professional karyera – odatda ixtisoslik (masalan, chuqurlashtirilgan, tanlangan boshlang'ich bir kasbiy harakat yo'li) yoki kasbiy kengashiy (masalan, insonning hayotiy faoliyat tajribasini boshqa sohalar bilan uyg'unlashuvi va kengayishi) yo'nalishlarida shakllantiriladi.

2. Tashkilot ichidagi karyera – ma'muriy boshqaruv organi rahbarligiga da'vogarning tashkilot ichidagi harakat trayektoriyasi bilan bog'liq o'sishi. U quyidagi yo'nalishlarda borishi mumkin:

a) vertikal karyera – lavozimda o'sish;

b) gorizontal karyera – tashkilot ichida bir yo'nalish bo'ylab siljishi, masalan, turli bo'limlar bo'ylab bir xil darajali ieraraxiyada;

v) markazga intiluvchan karyera – markaziy boshqaruvga yoki tashkilotning markazi (yadrosi) tomon siljish, ya'ni qaror qabul qilish jarayonining chuqurlashgan ko'rinishi.

Karyerani tanlash, rejalashtirish va uni amalga oshirish shartlari

J.Golland konsepsiyasi bo'yicha hamisha yagona tip ustunlik qilsa-da, aslida, inson bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq tiplar strategiyasidan foydalanishi yoki ularga bo'ysinishi mumkin.

Ustuvor (peshqadam) yo'nalish (faoliyat doirasidagi sektorlar) va ikkinchi (uchinchi) darajali yo'nalish qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, shaxs tipi ham shunchalik yaqin bo'ladi. Agar ustuvor va boshqa turdagi yo'nalganlik bir-biridan qanchalik uzoq bo'lsa, karyerani tanlash shunchalik qiyin kechadi.

Karyerani tanlash maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan boshqa

turdagi tipologiyaga *E.Klimov*¹⁴ tipologiyasini aytish mumkin. Unda barcha turdagi faoliyatlar mehnat predmetiga asoslanib bo‘lingan: [1] “Ta” (“P”) tip – “inson – tabiat”: mehnatning yetakchi predmeti – o‘simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar; [2] “Te” tip – “inson – texnika”: mehnatning yetakchi predmeti – texnik tizimlar, buyumlar obyektlar, materiallar, energiya turlari; [3] “I” (“CH”) tip – “inson – inson”: mehnatning yetakchi predmeti – insonlar, guruhlar, jamoalar, kishilararo muloqot; [4] “B” (“Z”) tip – “inson – belgi”: mehnatning yetakchi predmeti – shartli belgilar, raqamlar, kodlar, tabiiy yoki sun‘iy tillar; [5] “B” (“X”) tip – “inson – badiiy obraz”: mehnatning yetakchi predmeti – badiiy obrazlar, shart-sharoitlarning tuzilishi.

Ta’lim biznesining o‘ziga xosligi shundaki, u yoki bu xizmatga bo‘lgan talabni ta’limning o‘zi yuzaga keltiradi – bu xoh chet tilini o‘rgatishning jadallashtirilgan uslubiyoti bo‘lsin, xoh top menejerlar uchun treninglar bo‘lsin. Aynan shuning uchun ta’limdagi biznes kishidan ijodiy fikrlash va katta mas’uliyat uyg‘unlashuvini talab qiladi. Xususiy ta’lim asta-sekinlik bilan rivojlanmoqda, lekin har doim ham pullik xizmat sifatli ta’lim degani emas. “Ta’lim” karyerasini tanlash, bu bir bor va bir umrlik tanlov ham emas. Aksincha, ko‘p hollarda mutaxassisning kasbiy faoliyatida bir necha yo‘nalishlar mavjud bo‘ladi. Agar mutaxassis o‘z tajribasini umumlashtirishga intilsa, o‘qituvchilik karyerasi osongina tadqiqotchi karyerasiga aylanishi mumkin. Menejer karyerasi esa ko‘pincha biznesmenning ishbilarmonlik sifatlarini yuzaga chiqaradi. Ko‘pchilik muvaffaqiyatli o‘qituvchilar va tadqiqotchilar ma’lum yoshga kelib yirik boshqaruvchi karerasiga erishadilar. Qay birini tanlash esa sizning ixtiyoringizda.

2. Karyerada shaxsning kasbga oid xulqi va ustanovkalarining mukammallashib borishi

Xodimlar bo‘yicha menejer (xodimlar bo‘limi boshlig‘i, xodimlar bo‘yicha boshqarma boshlig‘i) yangi xizmatchi (xodim) bilan uchrashar ekan, albatta, uni ayni tashkilotda o‘tashi mumkin bo‘lgan karyeraning bosqichlari bilan tanishtirishi lozim. Bu, o‘z navbatida, kasbiy faoliyat maqsadi, o‘sish darajasi va asosiysi, ixtisoslikning individual motivatsiyasini aniqlashtirishga yordam beradi. Karyeraning bosqichlarini quyidagi jadval ko‘rinishida qisqacha tartiblash mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, *karerogramma* – bu, mutaxassisni muqim bir ishda va joyda

¹⁴Климов Е.А. Как выбрать профессию. – М.: Просвещение, 2012. – 159 с.

samarali natijaga erishishida qanaqa yo‘lni bosib o‘tishi uchun kerakli zaruriy bilim hamda malakalar to‘g‘risidagi tasavvurlari jamlanmasi (tuzilishi) demakdir.¹⁵

Shundan kelib chiqqan holda, *karerogramma* – bu, mutaxassisni muqim bir ishda va joyda samarali natijaga erishishida qanaqa yo‘lni bosib o‘tishi uchun kerakli zaruriy bilim hamda malakalar to‘g‘risidagi tasavvurlari jamlanmasi (tuzilishi) demakdir.¹⁶

Karyeraning bosqichlari¹⁷

No	Karyeralar bosqichi	Yosh davrlari	Qisqacha tavsifnoma	Motivatsiya xususiyatlari (A.Maslou bo‘yicha)
1	<i>Dastlabki</i>	25 yoshgacha	Mehnat faoliyatiga tayyorgarlik, faoliyat yo‘nalishini tanlash	Xavfsizlik, ijtimoiy tan olinish
2	<i>Tayinlanish</i>	30 yoshgacha	Ishni o‘zlashtirish, kasbiy malakaning rivojlanishi	Ijtimoiy tan olinish, mustaqillik
3	<i>Siljish</i>	45 yoshgacha	Kasbiy rivojlanish	Ijtimoiy tan olinish, o‘zini ayirboshlash
4	<i>Tugash</i>	60 yoshdan so‘ng	Nafaqaga ketishga tayyorlanish, shaxsiy almashinishga o‘qish va izlanish	Ijtimoiy tan olinishni ushlab turish
5	<i>Nafaqa</i>	65 yoshdan so‘ng	Faoliyatning boshqa ko‘rinishi bilan shug‘ullanish	Yangi faoliyat sohasida o‘zini ro‘yobga chiqarishga izlanish

Tanlagan faoliyat sohasiga doir shaxs xususiyatlarini baholash hamda boshlang‘ich kasbiy faoliyat yo‘lida inson shaxsi tipini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi fikr-mulohazalarni tasdiqlash maqsadida, *J.Gollandning* taklif etgan “Shaxs tipologiyalari

¹⁵ Djalalova S.M., Umarova N.Sh. Karyeraning turlari va ularni amalga oshirish bosqichlari // “Olima ayollarning fan-texnika taraqqiyotida tutgan o‘rni” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya ma’ruzalar to‘plami (26 noyabr 2007 yil). – T.: TDIU bosmaxonasi, 2012. – B. 139-141.

¹⁶ Djalalova S.M., Umarova N.Sh. Karyeraning turlari va ularni amalga oshirish bosqichlari // “Olima ayollarning fan-texnika taraqqiyotida tutgan o‘rni” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya ma’ruzalar to‘plami (26 noyabr 2007 yil). – T.: TDIU bosmaxonasi, 2012. – B. 139-141.

¹⁷ Базаров Т.Ю. Управление персоналом: Учебник для вузов / Под ред. Т.Ю.Базарова, Б.Л.Еремينا. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ, 2002. – С. 273.

konsepsiyasi”ni o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bizning jadallik bilan odimlayotgan davrimizda muvaffaqiyatga erishishning asosiy tamoyili (sharti) – bu obro‘talablik va yaxshi ma’nodagi nafsoniyatga ega bo‘lishdir. Aynan shu sifatlarni ta’lim muammolari bilan shug‘ullanish orqali namoyon qilish mumkinmi?

J.Golland bo‘yicha “Shaxs tipologiyalari konsepsiyasi”¹⁸

<i>№</i>	<i>Shaxs tiplari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>
1.	<i>Realistik</i>	Asbob-uskunalar va mexanizmlarni boshqarishga yo‘nalganlik
2.	<i>Izlanuvchi</i>	Izlanuvchanlikka yo‘nalganlik
3.	<i>Artist</i>	O‘zini ko‘rsatish va o‘z his-tuyg‘ularini namoyon etishga yo‘nalganlik
4.	<i>Ijtimoiy</i>	Odamlar bilan birgalikda harakatlanishga yo‘nalganlik
5.	<i>Tadbirkor</i>	Odamlarga ta’sir qilishga yo‘nalganlik
6.	<i>Konvensional</i>	Axborotlar va ko‘rsatkichlarni boshqarishga yo‘nalganlik

J.Golland bo‘yicha “Shaxs tipologiyalari konsepsiyasi”

Ko‘pchilik pedagogika va karyerani bir-biriga zid tushunchalar, deb biladi. Bu juda katta anglashilmovchilikdir. Zamonaviy ta’lim muammolari shunchalik murakkab va qiziqarliki, muvaffaqiyatli karyeraga intiluvchan shaxs o‘zini tan olinishi, jumladan, yuqori darajadagi mavqega va hattoki moddiy rag‘batlanishlar uchun qator imkoniyatlarni taqdim eta oladi hamda bir vaqtda sevimli ishi bilan mashg‘ul ham bo‘ladi.

Fanda karyeraning ta’lim tizimiga xos bir necha ko‘rinishlarini o‘rganish mumkin.

1-darajali karyera – *boshqaruvchi* (maktab direktoridan vazirgacha);

2-darajali karyera – *tadqiqotchi* (muayyan ilm-fan namoyondasidan tortib, fanlararo yondashuv egasigacha);

¹⁸Базаров Т.Ю. Управление персоналом: Учебник для вузов / Под ред. Т.Ю.Базарова, Б.Л.Еремина. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ, 2012. – С. 274.

3-darajali karyera – *o‘qituvchi-uslubiyotchi* (turli bilimli va xarakterli insonlarga tahsil bera oluvchi);

4-darajali karyera – *biznesmen* (ta’lim xizmati bo‘yicha talablarni yaratuvchi).

Quyidagi jadvalda keltirilgan testni bajarish orqali, siz o‘zingizga qiziqarli bo‘lgan ta’lim sohasini va qaysi darajali karyera egasi ekanligingizni aniqlashingiz mumkin.

Ta’lim tizimiga daxldor karyera turini aniqlash

(Savollarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering va har bir qatordagi “ha” javoblar sonini sanab chiqing. Har bir “ha” javob uchun 1 ball)

Agar siz biror-bir qatorda 3 balldan ortiq to‘play olmagan bo‘lsangiz, demak ta’lim sohasi siz uchun unchalik qiziqarli emas. Shunga qaramay, o‘z kasbida muvaffaqiyatga erishishni istagan har bir odam zamonaviy ta’lim tizimi rivojlanishi tendensiyalarini bilishi kerak; shu sababli mazkur maqolani ta’lim oluvchi va o‘qishni davom ettirishni xohlovchi kishi nuqtayi nazaridan kelib chiqib oxirigacha o‘qishga harakat qilib ko‘ring.

Tur	Mening tajribam bor (qo‘limdan keladi)	Menga yoqadi	Men o‘rganishni xohlayman	Jami
Boshqaruvchi	- ta’lim bilan bog‘liq Qonunlarni o‘rganish; - litsey (maktab)dagi o‘zini-o‘zi boshqarish kunlarida ishtirok etish (belgilangan tadbirlarda)	- qarorlar qabul qilish, o‘zgarishlar kiritish, islohotlarda ishtirok etish; - kasbiy muammolar yuzasidan qarorlar qabul qilishda hamkasblarga yordam berish	- ta’lim jara-yonini boshqarish va uning sifatini nazorat qilish; - yangi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish	
Tadqiqotchi	- ta’lim bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish; - ta’lim nazariyasi bilan bog‘liq kitob va maqolalarni o‘qish	- qiyin vaziyatlar mushohadasi uchun maqbul usulni topish; - turli xil nuqtayi nazarlarni o‘rganish	- ta’lim tahlilini kuchaytirish uchun turli soha yutuqlaridan foydalanish; - ta’lim muammolari yuzasidan tadqiqotlar olib borish	

O'qituvchi-uslubiyotchi	<ul style="list-style-type: none"> - "tarbiyasi qiyin" o'quvchi (talaba)lar bilan ishlashda yangi usullarni o'ylab topish; - kichik maktab yoshidagi bolalarga tahsil berish 	<ul style="list-style-type: none"> - mening ishtirokimsiz odamlarni aqlli, mustaqil, ochiqko'ngil, sabrli bo'lishlarini kuza-tish; - o'quvchiga individual yondashuv usullarini izlash 	<ul style="list-style-type: none"> - turli xil odamlarni turli sharoitlarda o'qitishning samarali usullarini izlab topish; - ta'lim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texno-logiya (masofadan o'qi-tish, online da o'qitish va boshqa) lardan foydalanish 	
Biznesmen	<ul style="list-style-type: none"> - tarbiyachi, repetitor sifatida faoliyat yuritish; - biznesda foyda keltiradigan sifatli usullarni o'ylab topish 	<ul style="list-style-type: none"> - nima uchun odamlarning ta'limdagi u yoki bu xizmatlarga haq to'lashlarini aniqlash; - qarorlar qabul qilishda mutloq mustaqillik va ularni amalga oshirishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish 	<ul style="list-style-type: none"> - ta'lim bozoriga oid tadqiqotlarni olib borish va ular-ning natijalarini o'z faoliyatida qo'llash; - o'z biznesini tashkil etish orqali daromad egasi bo'lish va yuqori sifatli ta'lim xizmatini taklif etish 	

Agar siz bir yoki bir necha karyera turidan 4,5 ball to'plagan bo'lsangiz, demak ta'lim sohasi sizni qiziqtiradi. Balki siz qaysi karyera turini tanlashingizni hali aniqlab olmaganirsiz. Quyidagi materialni o'qib, qiziqishlaringizni aniqlashga yordam beruvchi vazifalarni bajarishga harakat qilib ko'ring.

Agar siz biror-bir qatorda 6 ball to'plagan bo'lsangiz, demak siz ta'lim muammolari bilan faol qiziqasiz.

Quyida turli karyeralar muhokama qilinib qolmay, balki ta'lim sohasidagi kasbiy faoliyatga doir Internet materiallariga tayangan

holda qo‘shimcha ma‘lumotlar keltirilgan; ta‘lim muammolariga bo‘lgan qiziqishlaringiz qay darajada chuqurligini yana bir bor tekshirib ko‘ring.

3. Karyerada o‘shiga imkoniyat yaratishi mumkin bo‘lgan shaxs xislatlari. Gorizontal va vertikal karyera shakllari

Ta‘lim menejeri karyerasi jamiyatda eng keng tarqalgan karyera turi sanaladi. Oxirgi 3 yilda mahsus ta‘lim menejerlarini tayyorlash markazlari paydo bo‘ldi. Yaxshi boshqaruvchi bo‘lish uchun harakatni eng “pastdan” (masalan, xoh u maktab yoki xoh OO‘YU bo‘lsin) boshlash juda muhimdir. Boshqa sohalardagi boshqaruvdan farqli o‘laroq (masalan, ishlab chiqarish, davlat xizmati) ta‘lim menejmenti turli boshqaruv usullarini talab qiladi. Quyida keltirilayotgan vaziyatlarning eng maqbul yechimini topishga harakat qilib ko‘ring.

1-vaziyat. Talabalardan biri muntazam ravishda intizomni buzib, boshqa talabalarga nisbatan o‘zini agressiv munosabatini namoyish qilmoqda. Ma‘lumki bu talabaning oilasida muammolar, shu jumladan, iqtisodiy muammolar mavjud. Boshqa talabalar (ularning ota onalari ham) o‘quv jarayoniga xalaqit berayotgan talabaning haydalisini talab qilmoqdalar.

2-vaziyat. Talabalar sizning yoningizga o‘qituvchining axloqsizligidan arz qilib kelmoqdalar. Pedagog, o‘z navbatida, talabalar uning talablarini bajarmayotganliklarini ro‘kach qilmoqda. Siz bu mutaxassis o‘z fanini yaxshi bilishini, lekin talablarni yuqori qo‘yib, ularning bajarilishini talab qilishga moyilligini bilasiz.

3-vaziyat. Siz talabalar ota-onalarining loqaydligiga duch keldingiz, ular majlislarga kam qatnashadilar, akademik litsey tadbirlarida ishtirok etmaydilar. Ota-onalar litsey hayotiga ko‘proq jalb qilinsalar yaxshi bo‘lardideb o‘ylaysiz. Lekin qanday qilib?

Boshqaruvga oid muammolar hal qilinayotganda, unda kim va qay darajada ishtirok etishini tushunish juda muhim.

Birinchi vaziyat tizimli hal etilishi talab qilinadi – chunki unda bir necha muammo qorishib ketgan: tarbiyasi og‘ir talaba bilan yetarli ish olib borilmagani (talaba o‘zini boshqacha tutishi uchun akademik litsey nima qila oladi); talabalarning bir-birlariga sabrsiz va litseyga iste‘molchilik munosabati; litsey va ijtimoiy xizmatlarning birgalik-

dagi harakati. Har qanday holatda ham litsey direktori talabalar huquqlarining poymol qilinishiga yo‘l qo‘ymasligi zarur. Bunday vaziyatda mas’uliyat talabalar bo‘ynida emas, balki litsey mutaxassislaridadir, ular professionallar komandasi bo‘lib ikki yo‘nalishda: muammolarni hal qilish va bunday vaziyatlarni oldini olish (profilaktika qilish) ustida ishlashlari kerak.

Ikkinchi vaziyat boshqaruvchining xususiy muammosini aks ettiradi – hamkasblar va talabalar uning qarorlariga ta’sir o‘tkazishlari (manipulyasiya) haqida. Bu yerda, birinchi vaziyatdan farqli, kollegial qaror qabul qilinishi maqsadga muvofiq – boshliq talabalar va pedagog o‘rtasida ijtimoiy kontrakt tuzilishida vositachi bo‘lishi kerak. Ikki tomon ham boshliq hech kimning yonini olmay, o‘quv jarayoniga ziyon yetkazmaslikni o‘ylayotganini tushunishlari kerak.

Uchinchi vaziyat odamlarning u yoki bu muammoni hal qilinishida ixtiyoriy ishtiroklariga tegishli. Litsey direktori ota-onalarni biror jazo bilan qo‘rqitib litsey hayotiga jalb qila olmaydi. Litseydagi liberal muhit, ochiqlik oilani umumlitsey muammolariga jalb qilishning eng yaxshi usuli.

Vazifalar bajarilgach, quyidagi savollarga javob bering. (1) Boshqaruvga oid muammolarni hal qilish sizga yoqdimi? (2) Nima qo‘lingizdan keldi-yu, qayerda qiynaladingiz? (3) Boshqaruv muammolarini hal qilish turli odamlar qiziqishlariga ta’sir qilishini doim yodingizda tutdingizmi?

Albatta, qaror qabul qilish boshqaruvchining yagona faoliyat turi emas, lekin u asosiylaridan biri. Bu jarayon siz uchun qiziqarli bo‘lsa, balki, boshqaruvchi karyerasi haqida jiddiy o‘ylab ko‘rarsiz.

Demak, siz o‘zingizda tahlil (analiz)ga yoki tadqiqodchilikka layoqat sezyapsiz. Olimlik faqat layoqatni emas, balki doimiy rivojlantirib borish kerak bo‘lgan muayyan fikrlash qobiliyatini talab qiladi. Dadil farazlarni ilgari sura olasizmi, ularni tekshirishning g‘aroyib yo‘llarini topib, sabr-toqat bilan o‘z eksperimentlaringizni takrorlay olasizmi?

Ta’limning dolzarb muammolaridan birini aks ettirgan vaziyat bilan tanishib va uni tadqiq qilish rejasini o‘ylab chiqing. Farazni ilgari surishdan boshlang, so‘ngra bunday gipotezalarni hal yo‘llarini o‘rganib chiqing. Pedagogik tadqiqotlarda muhim bo‘lgan amaliy yo‘riqnomalar tuzishni yodda tuting.

Ta'lim tizimini boshqarish bilan shug'ullanish va o'qitishni tadqiq qilish uchun pedagogika instituti yoki universitetida o'qish shart emas – aksincha, psixologik, iqtisodiy, moliya va huquqshunoslik ma'lumotlari amaliyotchi va tadqiqotchilarga zamonaviy maktab muammolarini hal qilishda yordam beradi. Hozir deyarli barcha OO'YU qoshlarida ta'lim muammolarini o'rganish markazlari paydo bo'ldi.

Ko'pchilik uchun pedagog karyerasi juda oddiy jarayondek tuyuladi, lekin shunga qaramay, ta'lim sohasining mashhur namoyondalari – qiyin materialni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi yoki talabalarning shaxsiy va aqliy o'sishiga qaratilgan mualliflik uslubiyotlarini (metodikalarini) ishlab chiqqan o'qituvchilardir.

Mualliflik uslubiyotlari ko'p – ammo biror-bir uslubiyot universal bo'la olmaydi, o'qituvchi oldida har bir auditoriyada, talabalar guruhida doimo qanday o'qitish muammosi turadi, chunki odamlar bir-biriga o'xshamaydilar va ta'lim mazmuniga bo'lgan talab o'zgaradi.

Pedagoglardan biri o'z fanini chuqur bilishiga tayansa, boshqasi psixologiya yutuqlariga tayanadi. Shunisi bilan o'qituvchi boshqaruvchi va tadqiqotchidan kuchliroq.

Ta'lim sohasi biznes uchun juda qulay. Kasbiy qayta tayyorlov markazlari, xorijiy tillarni o'qitish markazlari, xususiy maktab va bog'chalar, repititorlik – bular ta'lim biznesi yo'nalishlarining to'liq bo'lmagan ro'yxati.

Xodimlar bo'yicha menejerning kasbiy yo'nalganlikka asoslanadigan xizmatchi bilan o'zaro muloqotga kirishish tanlovi

1.	An'ana	Tanlash yuzasidan savol kelib chiqmagan, bunga bir an'ana, odat sifatida qaralgan
2.	Tasodif	Tanlash ma'lum bir tasodifiy voqelik asosida yuzaga kelgan
3.	Burch	Kasbni tanlash insonlar oldidagi burchi yoki e'tiqodida kelib chiqib amalga oshirilgan
4.	Maqsadli tanlov	Faoliyat yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolari va ularning yechimi bilan bog'liq ma'lum bir anglangan maqsadli kasb-faoliyat tanlangan

Xodimlar bo'yicha menejer qoidaga ko'ra, yuqoridagi (1-jadval¹⁹) u yoki bu sabablarga ko'ra o'z kasbini tanlagan xizmatchilar bilan ro'baru keladi.

Professionalning rivojlanish fazalari

Karyeraga erishish bosqichlari hamisha ham professional rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq bo'lavermaydi. O'sish harakati bosqichida turgan inson boshqa kasb doirasida, hali yuqori darajadagi professional sifatida shakllanmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun karyera bosqichlari (shaxs taraqqiyotning o'tish davri) va professionalning rivojlanish fazalari (faoliyatni o'zlashtirish davri)ni bir-biridan farqlash o'ta muhim sanaladi.

Professionalning rivojlanish fazalarini quyidagi ko'rinishlarda bir-biridan farqlash mumkin: *chorasiz (optant)* (chorasizlik (optatsiyalar) fazasi). Inson tanlashda qiynaladi yoki kasbiy tanaffus vaqtida chorasizlikdan tanlovni amalga oshiradi. *Ovunchoq (adept)* (ovunish (adepta) fazasi). Bu inson allaqachon kasbiy mahoratni o'zlashtirish yo'lida. Kasb taqozo bo'yicha bu uzoq yoki qisqa muddatli jarayon bo'lishi mumkin. *Moslashgan (adaptant)* (moslashuvchanlik (adaptatsiya) fazasi, yosh mutaxassisning ko'nikish jarayoni. Ta'lim muassasasida u yoki bu kasbga tayyorlash (nazariy jihatdan) jarayoni hech qachon ishlab chiqarishdagi (amaliy jihatdan) muhit bilan mos kelmaydi. *Ko'p qirrali (internal)* (qo'p qirralilik (internallik) fazasi). O'z ishini sevuvchi, to'liq mustaqil harakat qila oladigan, asosiy kasbiy funksiyalarni ishonchli va muvaffaqiyatli bajaradigan, atrofdagilar tomonidan ishda va kasbda tan olingan tajribali xodim. *Usta (master)* mahoratni davomiyligi fazasi. Boshqa hamkasblari uddalay olmaydigan eng oddiy va eng qiyin hisoblangan kasbiy muammolarni yecha oladigan xodim.

Obro'li (avtoritet) (obro'lilik (avtoritetli) fazasi). O'z ishining ustasi, kasb doirasida va undan tashqarida ham taniqli bo'lgan xodim. [7] ***daho (nastavnik)*** (daholik fazasi). Ishining obro'li ustasi, har qanday kasbda o'z so'zini ayta oladigan, ustoz-shogird an'alariga ega mutaxassis.

¹⁹Базаров Т.Ю. Управление персоналом: Учебник для вузов / Под ред. Т.Ю.Базарова, Б.Л.Еремينا. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ, 2012. – С. 275.

Karyerani rejalashtirish

Mutaxassislar harakati va ularni rivojlanish bosqichlarining ma'lum bir strategiyaga qaratilganligi, odatda tashkilotning kadrlar karyerasini rejalashtirishga yo'naltiriladi. Tashkilotdagi kasbiy va lavozimda egallagan mavqeyi, tayinlangan vazifasi doirasida bajaradigan ishlari negizidagi kasbiy rivojlanishi xodimning karyerogrammasini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Karyerani amalga oshirish shartlari

Xodimning xizmat bo'yicha siljishida faqatgina shaxsiy sifatleri (ma'lumoti, malakasi, ishga bo'lgan munosabati, ichki motivatsiyalar tizimi) gina emas, balki obyektiv shart-sharoitlar ham hisobga olinadi.²⁰

Karyera qilishning obyektiv shartlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: (a) *karyeraning missiyasi (eng yuqori no'qtasi)* – yuqori bo'g'in lavozimi; (b) *karyera muddati* – tashkilot ichida individual holda egallagan birinchi mavqeyidan toki yuqori (oxirgi) bo'g'ingacha bosib o'tilgan yo'ldagi o'sishlar soni; (v) *egallab turgan mavqeyi darajasining ko'rsatkichlari* – o'zining ayni paytdagi amalga oshirayotgan karyerasi davridagi odamlar munosabati bilan ilgari mavqeyi o'rtasidagi tafovut; (g) *muloqot yaratuvchanlik salohiyati ko'rsatkichlari* – shaxsning egallab turgan mavqei davrida keyingi ko'tarilishi yo'lida amalga oshiriladigan munosabatlari darajasi.²¹

Tashkilotning kadrlar karyerasini rejalashtirishga yo'nalganligi

Tashkilotda karyerani rejalashtirish bilan xodimlar bo'yicha menejer, xodimning o'zi, uning tegishli bo'lmagan rahbari (chiziqli menejer) shug'ullanishi mumkin. Tashkilot miqyosida karyerani rejalashtirish bo'yicha tashkil qilinadigan tadbirlar bo'lishi mumkin.

Ilmiy-pedagogik xodimlar mehnati inson omillarini shakllanishini ta'minlashi kerak. Bu shakllanish jamiyat tarqqiyoti bosqichlari uchun zarur va talablariga mos bo'lishi lozim. Ilmiy-pedagogik kadrlar nafaqat bilimlar majmuasiga, balki olamni yaxlit, murakkab va doimo tarqqiy etuvchi sistema sifatida qabul qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim. Pedagogik va psixologik bilimlarni egallagan bo'lishi kerak.

²⁰Кадровый резерв и оценка результативности труда управленческих кадров. – М.: Дело, 2012.

²¹Karimova V.M., Hayitov O.E., Umarova N.Sh. Boshqaruv sohasidagi professional kompetentsiya asoslari: Monografiya. / 2012. – B. 59-66.

<i>Rejalashtirish subyekti</i>	<i>Karyerani rejalashtirish bo'yicha tadbirlar</i>
<i>Xodim</i>	Dastlabki yo'nalganlik va kasbni tanlash
	Tashkilot va lavozimni tanlash
	Tashkilotga yo'nalganlik
	Perspektiv va loyihaviy o'sishni baholash
	O'sishni joriy etish
<i>Xodimlar bo'yicha menejer</i>	Ishga qabul qilishni baholash
	Ish o'rnini aniqlash
	Xodimni mehnati va salohiyatini baholash
	Zaxiraga saralash
	Qo'shimcha tayyorgarlik
	Zaxiradagilar bilan ishlash dasturlari
	Harakatlanish
	<i>Rejalashtirishning yangi sikli</i>
<i>Tegishli bo'lmagan rahbar (chiziqli menejer)</i>	Mehnat natijalarini baholash
	Motivatsiyalarni baholash
	Kasbiy rivojlanishni tashkillashtirish
	Rag'batlantirish bo'yicha takliflar
	O'sish bo'yicha takliflar

O'qituvchining amaliy tayyorgarligi

Ijodiy o'qitish va tarbiyaning intensiv usullari hamda yangi texnologiyalarini o'zlashtirgan, ulardan foydalanayotgan bo'lishlari kerak. Ular o'z bilimlarini doimo takomillashtirib borishlari zarur. Ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlashning bu shartlari hozirgi zamon pedagogikasi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi mezonlariga mos keladi. Bizning fikrimizga ko'ra, pedagoglarni "ilmiy-pedagogik" tushunchasi bilan nazariy jihatdan cheklab qo'yimasligimiz zarur. Pedagogika sohasida yuksak mahorat va oliy natijalarga erishgan o'qituvchilarga "ustoz-pedagog" atamasini qo'llashimiz maqsadga muvofiq bo'lib, ustoz-pedagogni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

Oliy ta'lim o'qituvchisining amaliy tayyorgarligi, uning darslar bo'yicha bilish va tashkil etish qobiliyatlari bilangina o'lchanmaydi, u ham bir qator metodologik-texnologik va boshqa faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Faollashtirish. Insondagi bilim, ko'nikma, mahorat, tajriba, xulq-atvor, his-hayajon va boshqa sifatlarini potensial-faol harakatga aylantirish demakdir.

Didaktika. Ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslaridan biri bo'lib, pedagogikaning bir qismidir.

Pedagogning tashkilotchilik faoliyati. Talabalarni faoliyatning turli sohalariga va jamoa faoliyatini tashkil qilish, ularni tarbiyaning obyektidan subyektiga aylantirish vositasidir. Tashkilotchilik, ayniqsa, tarbiyaviy ishlarda samarali hisoblanadi.

Interpretizatsiya – taqdim etish, nimanidir uqtirish.

Adaptatsiya – moslashuv.

Safarbarlikni bilish – talabalarning diqqatini tortuvchi, ularda o'qishga, mehnatga va boshqa faoliyat turlariga qat'iy qiziqish uyg'otuvchi, darslarga nisbatan ishtiyoq va o'quv ishlari bo'yicha ko'nikma bilan, o'quv ishlari ilmiy asoslari bilan qurollantiruvchi, bilimlar va hayotiy tajribalarni dolzarblashtiruvchi, atrof-muhitga nisbatan mustaqil va ijodiy munosabatda bo'lishni shakllantiruvchi, talaba va tarbiyalanuvchilar uchun odob-axloqni yuksaltiradigan vaziyatlar tug'diradigan, baholash va jazolashning maqbul metodlarini qo'llovchi, o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlikdagi faoliyat yurgazish muhitini yaratuvchi xususiyatlardir.

Axboriy bilish. Ko'pincha uni o'quv ma'lumotlarini bilish sifatida qabul qiladilar, shu bilan birgalikda axborotlarni olish o'rinini ham belgilovchi xususiyatdir. Bu bosma manbalardan foydalanishni bilish, bibliografiya bilan ishlay olish ko'nikmasi, boshqa manbalardan ma'lumotlarni olib, ularni didaktik qayta ishlay olishni bilishi, ta'lim-tarbiya ishlarida turli ma'lumotlarni izohlash va moslashtirishni bilishdir.

Deduksiya. Mantiq qoidalariga ko'ra, fikr beruvchi zanjir, mantiqiy tadqiqod olib boruvchi unsur, uni bilish, o'quv materiallarini aniq va lo'nda taqdim qilish, darslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talabalarning tayyorgarlik darajasi, hayotiy tajriba va yoshi, aniq bir hikoyani to'g'ri tuzish, tushuntirish, suhbatni muammoli taqdim etish, materiallarni izohlashda deduktiv va induktiv yo'llardan teng foydalanish, savollarni muqobil, qisqa, lo'nda va ta'sirchan, tushunarli shaklda tuzish, texnik vositalardan foydalanish, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali qurollar, grafiklar, diagramma, sxema, suratlar yordamida fikrlarini aks ettirish, talabalar tomonidan yangi mashg'ulotni qanday o'zlashtirganliklarini bashorat qilish, turli-tuman metod va yo'llardan foydalanish, materiallarni tushuntirib berish

borasida o‘z yo‘l-yo‘riq va rejalariga ega bo‘lish kabilardan iborat.

Kompetentlik – bu, bilimlar, ko‘nikmalar, ma’lumotlilik, o‘z-o‘zini shaxs sifatida namoyon qilish, ro‘yobga chiqarish, o‘zining dunyodagi o‘rni, shular natijasida o‘z kasbinining yashashdan maqsadini oliy maqsadi deb bilish, shaxsga yo‘naltirilganligi bois, uning imkoniyatlarini to‘laligicha safarbar qilish, atrofdagilar tan olishi manbayi hisoblanadi.

O‘qituvchi bilishi zarur bo‘lgan orientatsiya, maxsus yo‘naltirilgan abstrakt, tashkiliy, insonni bilish, hissiy, pedagogik muloqot, identifikatsion bilish, pedagogik texnikani bilish, boshqa sohalarni, badiiy (qo‘shiq aytish, rasm chizish, musiqa asboblarini chalish, adabiyot va jurnalistika janrlarini bilishda ijod qilish, rol o‘ynash va boshqalar), sport, turizm, ma’ruza o‘qish qishloq xo‘jaligi ishlari, ustachilik, to‘garak ochish kabi sohalardan bir nechtasini bilish foydadan holi bo‘lmaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar muhim tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi hamda bo‘lg‘usi o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasi shakllanishi, takomillishuvining aspektlari sifatida ko‘zga tashlanadi. Eng avvalo, didiktikaning asosiy prinsipi bo‘lmish nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi hamda quyidagi vazifalarni bajarish yo‘llarini ko‘rsatadi:

➤ bo‘lg‘usi kasbiy tayyorgarlik uchun amaliy bilish va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

➤ ma’ruzalar va mustaqil o‘qish mobaynida olgan bilimlarni yanada chuqurlashtiradi, mustahkamlaydi, aniqlashtiradi.

➤ o‘rganilayotgan hodisalarni kuzatish va izohlab berish qobiliyatini rivojlantiradi.

➤ o‘z-o‘zini takomillashtirish sari yetaklaydi.

Shunday qilib, talabalarning amaliyot faoliyatini oliy o‘quv yurtlari o‘quv mashg‘ulotlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Amaliyotchi-talaba o‘zlashtirgan bilimlarini qo‘llagan holda pedagogik faoliyatning yangi ufqlariga qadam tashlaydi.

4. Karyeraning shaxs faoliyatidagi o‘rni, roli va ahamiyati

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta’lim taraqqiyoti sharoitida pedagog innovatsion faoliyatga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta’lim tizimi, metodologiya va

o'quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi, yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishlardan iborat bo'ladi.

2. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tanqidiy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi.

Pedagog innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan shartlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga – yangilik – maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi.

Pedagogning innovatsion faoliyati - o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish. Ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari pedagogning innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastinin).

1. Innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash.
2. Ijodiy faoliyatga talab qilinishiga tayyorgarlik.
3. Shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish.
4. Innovatsion faoliyatni ijro etish texnologiyasiga tayyorgarlik darajasi.

Innovatsion jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Demak, o'qituvchi, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalar muallifi, tadqiqotchi, foydalanuvchi va targ'ibotchi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsion faoliyatiga bo'lgan talablar quyidagilar bilan aniqlanadi:

➤ ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi metodologiya va o'quv jarayonining texnologiyasini tubdan yangilanishni talab qiladi. Bu sharoitda o'qituvchi innovatsion faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

➤ ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, o'qitishning yangi shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo etadi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning

samarasini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga yangilik, optimallik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsion ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me'yorlari sifatida, o'zida taklif qilinadigan yangilik, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagogik olimlar yangilikni qo'llash mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutloq, chegaralangan mutloq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yorlari o'qituvchi va talabning natijaga erishishi uchun sarflangan kuch va vositalarni bildiradi. Natijalilik o'qituvchi vositasidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi. Pedagogik yangilik esa o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim.

V.A.Slastinin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatiga ijobiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;

- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va aniqlik darajasini aniqlash;

- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;

- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyati tga baho berish.

Bunda o'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi, unda innovatsion faoliyatining samarasi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

Pedagogning innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari:

- shaxsning ijodiy motivatsiyani qo'llaganligi. Bu qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilish;

- kreativlik – bu, xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o'z kamolotiga intilish;

➤ kasbiy faoliyatni baholash, - bu, ijodiy faoliyat metodologiyasi va pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi va ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyatlari; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati; o‘qituvchining individual qobiliyati,– bu, ijodiy faoliyat sur‘ati va ish qobiliyati; qat’iyatlik, mas’uliyatlik va halollik, o‘zini tuta bilish.

➤ Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o‘qituvchining innovatsion faoliyatiga sezgirligi me‘yorlarini belgilashga imkon beradi:

➤ innovatsion faoliyatga bo‘lgan zaruratni aniqlash; ijodiy faoliyatga jalb qilishga tayyorgarlik; shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish; ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga tayyorlik; innovatsion faoliyatni kasbiy mustaqillikka ta’siri.

Innovatsion faoliyatni eng muhim masalalaridan biri - o‘qituvchi shaxsi: u novator, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o‘ch bo‘lishi lozim.

Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologiklik va refleksiya qismlardan tashkil topadi.

O‘qituvchini bu faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshadi: yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish va yangicha harakat qilishga o‘rgatish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, funksiyalari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari va boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida tashkil etish imkonini beradi.

Pedagogik jarayonni samarali boshqarish o‘qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog‘liq: yoshlarni o‘qitish, auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o‘tkazish, ota-onalar o‘rtasida pedagogik targ‘ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bularning barchasi o‘qituvchidan chuqur bilimlarga ega bo‘lishni, o‘z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi. Shu asnda o‘qituvchining amaliy ishlaridagi muvaffaqiyati uning bola xatti-harakatining sabablarini qanchalik to‘g‘ri aniqlanganligiga, xatti-harakat sabablaridai kelib chiqib, aniq pedagogik maqsadni qanchalik to‘g‘ri ifodalaganligiga, oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishning optimal usullarini qanchalik to‘g‘ri tanlanganligiga hamda ularni real pedagogik jarayonda mohirlik

bilan qanchalik joriy qila olganiga bog‘liq.

Aslida o‘qituvchi va talabalar topshiriqqa turlicha nazar bilan qaraydilar. O‘qituvchilar qisqa muddat ichida talabalarning butun guruhini ma’lum ko‘nikmaga o‘rgatishni istaydilar yoki o‘z qoidasi asosida ularni so‘zsiz itoat etishni o‘ylaydi. Lekin bu “maqsad” har doim ham o‘z natijasini beravermaydi. Zamonaviy pedagog qiyofasida bu holatdan voz kechib, o‘qituvchi va talaba hamkorligini innovatsion talablar asosida namunaga aylansa, hamkorlikka asoslansa pedagogik faoliyat jarayoni yanada yuqori samaraga erishiladi. O‘z ishining mohir ustasi, ijodkor, pedagog shogirdi kelajagi, uning baxti yo‘lida tinimsiz izlanadi, jamiyat manfaati va maqsadi asosida faol mehnat qiladi. Shunday o‘qituvchining innovatsion faoliyati zamirada talaba hayotda muvafaqqiyat va baxtsizliklarga bardosh berishning o‘zi uchun mos usullarini topadi, mehnat faoliyati mos turini aniqlaydi, bo‘sh vaqtini uzluksiz ish shakllari, odamlar bilan munosabatlar xususiyatlarini belgilaydi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimni isloh qilishni yangi Davlat ta’lim standartlari asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga qaratilgan hozirgi kunda o‘qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’lim jarayonida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning pedagogik fikrlashida o‘rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jarayonida qo‘llashga oid tavsiyalar o‘qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan, talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan, talabalarni va boshqalarni fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o‘zgalar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish o‘zining hamda boshqalarning “men”ligini sezish, his qilish, o‘zini boshqarish, fikrini aniq, to‘g‘ri va puxta bayon eta olishga, ishlatishga qaratilgan “interfaol” o‘qitish usullari tez sur’atlar bilan rivojlanib ijobiy samara bermoqda. O‘qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar talabalar o‘rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, talabalarni harakatchanlikka boshlab ruhlantiradi va ularni mantiqiy tafakkurini shakllantiradi. Natijada talabalar hamkorlikka, ijodkorlikka, o‘z ustida ishlashga o‘rgana boshlaydi. Har qanday interfaol metod to‘g‘ri va maqsadli qo‘llanilganda talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy

kompetensiyasi takomillashuvida nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy tayyorgarliklar uzviyligi ko'zga tashlanadi. Bo'lg'usi o'qituvchilarning amaliy tayyorgarligi tashkiliy jihatdan qanday shakl va metodlarda bo'lmasin, quyidagi didaktik prinsiplarga asoslanadi.²²

1. Nazariy va amaliy bilimlar uzviyligi prinsipi.
2. Kasbiy bilimlar va ko'nikmalarni tizimli tarzda takomil lashtirib borish prinsipi.
3. Bo'lg'usi kasbiy faoliyat bilan funksional bog'liqlik prinsipi.
4. Talabalar amaliyotining ko'rgazmaliligi prinsipi.
5. O'z kasbiy faoliyati yuzasidan bosqichma-bosqich mustaqil faoliyat yurgazishga intilish va mas'uliyat hissining shakllanishi.
6. Talaba amaliy o'quvining takomillashib borishi prinsipi.

Bu prinsiplarning barchasi kelajakda o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining nazariy-ilmiy, amaliy funksional, pedagogik-psixologik takomillashuvi aspektlaridan hisoblanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Karyeraning turlari, bosqichlarini tushuntirib bering?
2. Karyerada shaxsning kasbga oid xulqi va ustanovkalarining mukammallashib borish yo'llarini tushuntirib bering?
3. Karyerada o'sishga imkoniyat yaratishi mumkin bo'lgan shaxs xislatlarini tushuntirib bering?
4. Gorizontal va vertikal karyera shakllari qanday amalga oshiriladi?
5. Karyeraning shaxs faoliyatidagi o'rni, roli va ahamiyatini tushuntirib bering?

²² Блинов В.И. Практическая подготовка будущих учителей: прогнатика, перспективы. Москва. ИОО. МОНРФ. 2014.

GLOSSARIY

Adolat – muayyan voqea-hodisa, jarayon, shuningdek, shaxs xatti-harakatlarini ularning tub mohiyatiga ko‘ra haqqoniy baholash.

Anglash qobiliyati – o‘qituvchilarning ta‘lim va tarbiya jarayoni mohiyati, qonuniyatlari, talabalarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, ta‘lim ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat mazmuni, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish shartlari hamda kutiladigan natijalarni anglashga imkon beradigan individual psixologik xususiyat.

Artikulyatsiya – (lot. “articulation” “articulare” – “aniq talaffuz qilmoq”) nutq organ (a‘zo)larining tovush hosil qilishdagi harakatlari holati

Baholash madaniyati – pedagogning u yoki bu pedagogik voqelik, hodisa, jarayonlar bo‘yicha ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda to‘g‘ri xulosa chiqarish, oqilona qaror qabul qilish qobiliyatiga egaligini anglatuvchi sifat.

Bilish qobiliyati – o‘qituvchining ta‘lim jarayonining ishtirokchilari – talabalar, ota-onalar, hamkasblar va ta‘lim muassasasining rahbarlari bilan oson muloqotga kirishish, ular bilan munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradigan individual psixologik xususiyat.

Diapazon – (yunon. “diapason” – “barcha (torlar) orqali”) – tovush hajmi bo‘lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi.

Diksiya – (lot. “diction” – “talaffuz qilish”) – so‘zlarning aniq talaffuz qilinishi.

Jest – (gavda, qo‘l va oyoq harakatlari) – muayyan hodisa yoki obyektga nisbatan munosabatning gavda, qo‘l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Individual rivojlanish dasturi – (IRD) – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma‘lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan

shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g’oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish

Intuitsiya – (lot. “intuition” “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qaramoq”) – mantiqiy bog‘lanmagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun yetarli bo‘lmaganda qidiruv yo‘nalishlari asosida masalani yechishning tarkibini bo‘lgan evrestik (unumli ijodiy fikrlash) jarayoni.

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish.

Kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish madaniyati – pedagog tomonidan mavjud pedagogik bilimlarni puxta o‘zlashtirish yo‘lida amaliy harakatlarning tashkil etilayotganligini anglatuvchi sifat

Kasbiy ziyorlik – o‘quvchilar ruhiy holatlarini, dars, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishga bo‘lgan ishtiyoqlarini to‘g‘ri baholash, ularning o‘zaro yoki pedagoglar bilan ziddiyatlarini anglash, o‘quvchi va guruhga ta’sir ko‘rsatishda qulay vaziyatini tanlay bilish.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kasbiy-pedagogik burch – mutaxassis sifatida o‘qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatda ado etilishi majburiy bo‘lgan vazifa.

Kompetentlik (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativlik – (ing. “create “ – yaratish, “creative “ – “yaratuvchi”, “ijodkor”) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Mahorat – (arab. “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik”) – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuyi.

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash.

Mimika – (yunon. “mimikos” – “taqlidiy”) – yuz muskullari harakatlari orqali shaxsning o‘z fikri, his-tuyg‘ulari, kayfiyati hamda mavjud voqelikka munosabatini ifodalashi.

Muloqot madaniyati – 1) muloqot jarayonini axloqiy me’yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik;

2) pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri.

Nafas olish – 1) organizmga hayot bag‘ishlovchi fiziologik funksiya; 2) nutqning energiya bazasi.

Nafas olish texnikasi – fiziologik funksiya yoki nutqning energiya bazasi sifatida nafas olishda qo‘llaniladigan vositalar majmuyi.

Noyob qobiliyatlar – shaxsga xos individual psixologik xususiyatning shunday turi bo‘lib, u juda kam sonli shaxslardagina kuzatiladi va ko‘p uchraydigan psixologik hodisa sanalmaydi.

Nutq apparati – nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar.

Nutqli (yoki tovushli) nafas olish – (fonatsion, yunon. “phono” – “tovush”) – nafasning nutq jarayonidagi olinishi.

Nutq madaniyati – o‘z fikrini nutq yordamida mantiqli, to‘g‘ri,

obrazli, aniq va ifodali yetkazib berish malakalarining o'zlashtirilganlik darajasi.

Nutq texnikasi – nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar majmuyi.

Nutq hosil qiluvchi organlar – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar (o'pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo'g'iz, hiqildoq, halqum, tishlar, burun bo'shlig'i, lablar).

Pantomimika – pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko'rsatishga, ma'lum qiyofa orqali gavlantirishga imkon beradi gavda, qo'l va oyoqlarning harakati.

Pedagogik bilim – bolalarni o'qitish va tarbiyalash, ta'lim hamda tarbiya jarayonini tashkil etish asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga doir tizimlangan ma'lumotlar yig'indisi.

Pedagogik bilimdonlik – 1) pedagog tomonidan mutaxassislik bilimlarining puxta egallanganligi; pedagogning bilag'onligi; 2) pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me'yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo'lgan qobilligi, kasbiy tayyorgarlik darajasi.

Pedagogik boshqarish – pedagogik jarayonlarni tashkiliy-metodik jihatdan uyushtirish (talabalar faoliyatni boshqarish; talabalar jamoasini boshqarish).

Pedagogik dunyoqarash – pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari jarayonining mazmunini, natijalarini belgilovchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Pedagogik ijod – pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati.

Pedagogik intuitsiya (lot. "intueri" – "sinchiklab, diqqat bilan qarash") – pedagog tomonidan pedagogik voqea-hodisaning mohiyatini, o'quvchi xatti-harakatlari mazmunini tasavvur, empatiya va orttirilgan tajriba asosida his-tuyg'u, sezgi yordamida, ziyraklik bilan mantiqiy dalillarsiz bevosita anglash.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Pedagogik madaniyatga egalikni ifodalovchi sifatlar – o‘qituvchida kasbiy xulq-atvor, odob, muomala va xatti-harakat ko‘nikma, malakalar mavjudligini ifodalovchi sifatlar.

Pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlari – o‘qituvchining mutaxassis sifatida kasbiy madaniyati sifatlarini hosil qiluvchi tarkibiy element (unsur)lar (pedagogik loyihalash madaniyati; kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish madaniyati; pedagogik dunyoqarash; fikrlash madaniyati; his etish madaniyati; baholash madaniyati; muloqot madaniyati; tashkilotchilik qobiliyati).

Pedagogik madaniyat – 1) pedagogning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan xulq-atvor, odob, muomala va xatti-harakat ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish darajasi; 2) pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o‘zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika va madaniyatni namoyon qila olishning yuqori darajasi.

Pedagogik majburiyat – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsiga, u tomonidan bir qator pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmalar majmuasi.

Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari – o‘qituvchilarda namoyon bo‘ladigan kasbiy mahorat asosini tashkil etuvchi element (unsur)lar (pedagogik odob, pedagogik bilimdonlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, pedagogik takt (nazokat), pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat).

Pedagogik muloqot – pedagogning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan suhbat.

Pedagogik muloqot madaniyati – pedagogning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbat.

Pedagogik muloqotning avtoritar uslubi – pedagogik muloqotda o‘qituvchining mutloq ustunligini ifodalovchi uslub.

Pedagogik muloqotning demokratik uslubi – pedagogik muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ifodalovchi uslub.

Pedagogik muloqotning liberal uslubi – pedagogik muloqotda o‘qituvchining e’tiborsizligini ifodalovchi uslub.

Pedagogik muloqot uslublari – o‘qituvchilar tomonidan pedagogik jarayonda ta’lim ishtirokchilari bilan muloqotni tashkil etishda qo‘llaniladigan usullar majmuyi (avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal uslub).

Pedagogning individual rivojlanish dasturi – pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, BKM, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi.

Pedagogik novatorlik – pedagogik faoliyatda ilg‘or tamoyil yoki g‘oyani asoslash, yangi yo‘l, usul yoki vositalarni tavsiya qilish, ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ijodiy yondoshuv,

Pedagogik obro‘ – pedagogning o‘quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy maqomi.

Pedagogik odob – o‘qituvchi oldiga uning o‘ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o‘quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo‘lishiga nisbatan qo‘yiladigan axloqiy talablar tizimi.

Pedagogik relaksatsiya (lot. “relaxatio” – “zaiflashish”, “bo‘shashish”) – talabalarning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash.

Pedagogik refleksiya (lot. “reflexio” – “ortga qaytish”, “aks etish”) – pedagogning shaxs ongi mohiyati va vazifalarini, shu jumladan, qadriyatlarini, qiziqishlari, rag‘batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta’sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab etishi.

Pedagogik tafakkurning rivojlanish bosqichlari – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish yoki pedagogik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ixtisoslik BKMning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq holda tafakkurning izchil, qadam-baqadam rivojlanib borish davrlari.

Pedagogik tajriba – kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan orttirilgan BKM majmuyi.

Pedagogik takt (lot. “tactus” – “dahl qilish”, “dahldorlik”, “his

etish”, “tuyg‘u”) – pedagogning o‘quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondoshish malakalariga egaligi.

Pedagogik tafakkur – pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalar mohiyatining, shuningdek, ular o‘rtasidagi muhim bog‘lanish va aloqalarning pedagog ongida to‘laqonli aks etishi, yangi g‘oyalarni ilgari surish, yangiliklar yaratish, shuningdek, pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalarning natijalarini bashoratlash; pedagog aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Pedagogik texnikaning vositalari – pedagog tomonidan o‘quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma‘naviy-axloqiy sifatlariga nisbatan subyektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularning ma‘noli ifodalanishini ta‘minlovchi vositalar (nutq va og‘zaki bo‘lmagan muloqot).

Pedagogik texnika – pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan alohida talaba va talabalar jamoalariga pedagogik ta‘sir ko‘rsatish metodlarini amalda samarali qo‘llay olish uchun zarur bo‘lgan BKM yig‘indisi (o‘zini o‘zi hissiy boshqarish, pantomimika, mimika, jest (gavda, qo‘l, oyoq harakatlari), nutq texnikasi, alohida so‘z yoki ifodalarni ifodalash sur‘ati (ritmika)).

Pedagogik hamdardlik (empatiya) – pedagogga xos sifat (talabalar, ota-onalar, hamkasblar va rahbarlarning xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtayi nazarini ma‘qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me‘yorda tashkil etilishini ta‘minlash; o‘zgalarning ichki holatini, o‘y-fikrlarini va his-tuyg‘ularini tuShuna olish; boshqalarning boshiga tushgan kulfat, falokatlardan qayg‘urish; rollarni qabul qilish – og‘ir vaziyatda bo‘lgan kishilarning o‘rniga o‘zini tasavvur, mushohada yordamida qo‘yib ko‘rgan holda ulardagi ijobiy his-tuyg‘ularini qayta tiklashga ko‘maklashish; o‘zgalarning qayg‘u-alamlaridan, kulfatlaridan qayg‘urish, ko‘ngilni ko‘taruvchi, taskin beruvchi so‘zlar bilan og‘ir vaziyatda qolgan kimsalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish.

Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish–faqat pedagoglargaгина xos bo‘lgan qobiliyatlarni yanada boyitish va takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish.

Pedagogik qobiliyat – pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan pedagogga xos xususiyatlar.

Perseptiv-pedagogik qobiliyatlar (lot. “perceptio” – o'zlashtirish) – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchining psixik holatlarining nozik jihatlarini tuShuna olish qobiliyati.

Relaksopediya (lot. “relaxation” – “quvvatsizlik”, “zaiflashish”, ruhan yoki jismonan holda toyishni bartaraf etish pedagogikasi) – shaxsda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat.

Ritmika – ayrim so'z va bo'g'inlarning aytilish muddati va to'xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishi.

Ritm (yunon. “rhythmos”, “rjeo” – “oqaman”) – nutqda tovushlarning muayyan izchillik, ketma-ketlikda asosida takrorlanib kelishi, ya'ni nutq vaznini ifodalovchi muhim xususiyat.

Ruhiy barqarorlik – ruhiy-hissiy holat (ta'sirlanish)larning davomiyligi va barqarorlik darajasi.

Tashkilotchilik qobiliyati – pedagog tomonidan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini anglatuvchi sifat.

Tembr (fr. “timbre” – “qo'ng'iroq”, “belgi”, “tamg'a”, “farqlovchi belgi”) – tovushning tovlanishi (tovush rangdorligi, yorqinligi, yumshoqligi va alohidaligi)ni ifodalovchi xususiyat.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Tovushning ixchamligi va harakatchanligi – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo'lgan tovushning bejirim, yig'inchoq va tebranuvchan ekanligini anglatuvchi xususiyat.

Tovush kuchi – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo'lgan tovushning quvvati.

Tovush pardozi – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo'lgan tovushning sayqali, bezagi.

Tovush – chiqarilgan havoni hiqildoqdan o'tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladigan hodisa, sado, sas.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Ekstralingvistik tizim (ingl. “exterior” – “tashqarida”, nem. “linguistik” – “til”) – gapirayotgan shaxsning ijtimoiy vazifalari bilan bevosita bog‘liq holda nutqning tashkil etilishi (nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo‘talish, nafas olish, yig‘lash, tutilish va b.)ni ifodalovchi tizim.

Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

O‘zini o‘zi baholash (O‘O‘B) – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

O‘zini o‘zi tahlil qilish – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishi.

O‘z ustida ishlash – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o‘zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo‘lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi.

O‘qituvchi nutqi – pedagogning ta‘lim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalanishi.

Qobiliyat – shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta‘minlaydigan individual psixologik xususiyat.

His etish madaniyati – pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri bo‘lib, u pedagog tomonidan ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlarini tushuna olishi, ular bilan samarali muloqotni tashkil etishini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <http://lex.uz/acts/20596>
2. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 464-I-son Qonuni // <http://www.lex.uz/docs/16188>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6(766)-son. – 70-modda. – B. 25–151.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 592 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekistan” NMIU, 2016. – 56 b.
9. G.O.Ochilova, G.Musaxanova, R.Abdullayeva. “Pedagogika. Psixologiya” Toshkent 2019 yil, 345 bet.
10. G.O.Ochilova, G.Musaxanova, “Pedagogik mahorat” Toshkent 2016-yil, 298 bet.
11. G.O.Ochilova “Ta’lim texnologiyalari” Toshkent 2019-yil, 258 bet.
12. Pedagogika: Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix uchebnyx zavedeniy / V.A. Slastenin, I.F. Isayev, A.I. Mishchenko,

E.N. SHiyonov. – M.: SHkola-Press, 1997. – 512 s.

13. Hayitov O. E., Ochilova G. O. Business Psychology. – 2010.

14. Adilovna, O. G., & Khayitovich, B. E. GENDER FEATURES OF THE IMPACT OF FAMILY BUSINESS ON YOUTH ENTREPRENEURSHIP MOTIVATION.

15. Ochilova, G. O. EMPIRICAL RESEARCH RESULTS OF FAMILY BUSINESS INFLUENCE ON CHILDREN'S MOTIVATION FOR ENTREPRENEURSHIP.

16. Ochilova G. Ёшларни тадбиркорликка психологик жиҳатдан тайёрлаш // Архив научных исследований. – 2021.

17. Очилова, Г. О., & Мусаханова, Г. М. (2017). Педагогика как наука на пути новых исследовательских задач, переосмыслений и перспектив. *Молодой ученый*, (7), 458-460.

18. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashr., 2011. – 206 b.

19. Ishmuhamedov R., Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: "Fan va texnologiya", 2014. – 60 b.

20. Serova, L.K. Psixologiya lichnosti sportsmena: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / L.K. Serova. – 2-e izd., ispr. i dop. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019. – 124 s.

21. Hoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2012. – 50 b.

22. Pedagogika. Izohli lug'at / O'. Asqarova va b. – Namangan: "Navro'z", 2014. – 263 b.

23. Raximov O.D., Turg'unov O.M., Mustafayev Q.O., Ro'ziyev H.J. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2013. – 200

24. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, D.I. Ro'ziyeva, M.H. Usmonboyeva. – T.: "Fan" nashriyoti, 2012. – 246 b.

25. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'll. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D. Inog'omova. – T.: TDPU, 2012. – 193

26. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / Ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009. – 160 b.

27. Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.:

“Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008. –164 b.

28. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.

29. Zaysev V.S. Современные педагогические технологии: учебное пособие. – V 2-x knigax. – Kniga 1. – Chelyabinsk, CHGPU, 2012. – 411 s.

30. Boritko N.M., Solovsova I.A., Baybakov A.M. Педагогические технологии: Учебник для студентов педагогических вузов / Под ред. N.M. Boritko. – Volgograd: Izd-vo VGIPK RO, 2006. – 59 s.

31. Azizxoyjaeva N.N. Педагогические технологии и педагогическая деятельность. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.

32. Zeer E.F., Shaxmatova N. Личностно-ориентированные технологии профессионального развития специалиста. – Екатеринбург: EGPI, 1999. – 244 s.

Internet WEB sayt materiallari

33. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

34. <http://huquqburch.uz> – Huquqiy axborot portali

35. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

36. <http://senat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati

37. <http://uza.uz> – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi

38. <http://www.openinfo.uz> – Korporativ axborot yagona portali

39. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

40. <https://president.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti

41. <https://strategy.uz> – “Taraqqiyot strategiyasi” Markazi

42. <https://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Hukumat Portali

MUNDARIJA

	KIRISH	3
1-BOB	KASBIY KOMPETENTLIK FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI	5
1	“Kasbiy kompetentlik” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Kasbiy kompetentlikning pedagog faoliyatidagi ahamiyati.....	5
2	Kasbiy kompetentlikning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni va amaliy tatbig‘i.....	18
3	O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari.....	22
2-BOB	PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	33
1	Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar.....	33
2	O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish aspektlari..	47
3	O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish tizimi.....	52
4	Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlari	59
3-BOB	ZAMONAVIY PEDAGOG MODELI	65
1	O‘qituvchi shaxsi umumiy xususiyatlari. O‘qituvchi shaxsining yo‘nalganligi.....	65
2	Zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Faoliyatda namoyon bo‘ladigan o‘qituvchining professional ahamiyatli fazilatlari.....	72
3	O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarning shaxsiy, huquqiy jihatlari.....	76
4-BOB	KASBIY KOMPETENTLIK VA MULOQOT MADANIYATI	82
1	Kasbiy kompetentlik. Kasbiy kompetentlik sifatleri.....	82
2	Pedagogga xos kasbiy kompetentlikning tarkibiy asoslari.	86
3	Pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari.....	90
4	O‘qituvchining muloqot asosida guruh jamoasini boshqarish usullari.....	103
5-BOB	KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI	125
1	Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni mazmunini kompetentlik yondashuv asosida modernizatsiyalash.....	125
2	Kasb ta’limi o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik va iqtisodiy bilimlar integratsiyasi.....	133

3	Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish xususiyatlari.....	141
6-BOB	KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI VA MEZONLARI.....	148
1	Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari.....	148
2	Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish metodlarini tanlash mezonlari	156
3	Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yo'nalishlari.....	165
7-BOB	KASBIY KOMPETENTLIK VA PEDAGOGIK KREATIVLIK.....	177
1	“Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati.....	177
2	Pedagogning kreativlik potentsiali. Kreativlik potentsialiga ega pedagogda namoyon bo'ladigan malakalar.....	179
3	Pedagogda kreativlik potentsialini rivojlantirish metodlari.	182
4	Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar.....	184
8-BOB	KARYERA. SHAXSNING KASB MAHORATIDAGI YUKSALISHI.....	189
1	Karyeraning turlari, bosqichlari. Karyera va faoliyat.....	189
2	Karyerada shaxsning kasbga oid xulqi va ustanovkalarining mukammallashib borishi.....	191
3	Karyerada o'sishga imkoniyat yaratishi mumkin bo'lgan shaxs xislatlari.....	196
4	Karyeraning shaxs faoliyatidagi o'rni, roli va ahamiyati.....	203
	GLOSSARIY.....	209
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	218

ОГЛАВЛЕНИЕ

	ВВЕДЕНИЕ.....	3
1-Глава	ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ.....	5
1	Предмет, цели и задачи предмета «Профессиональная компетенция». Важность профессиональной компетентности в педагогической деятельности.....	5
2	Роль и практическое применение профессиональных компетенций в процессе обучения и воспитания.....	18
3	Педагогические и психологические условия формирования профессиональной компетентности учителей....	22
2- Глава	ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ.....	33
1	Научные подходы к педагогической компетентности в развитых странах.....	33
2	Аспекты формирования профессиональной компетентности учителя.....	47
3	Система формирования профессиональной компетентности учителей.....	52
4	Критерии педагогического мастерства и компетентности	59
3- Глава	СОВРЕМЕННАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ	65
1	Общая характеристика личности учителя. Ориентация личности учителя.....	65
2	Требования к личности современного учителя. Профессионально важные качества учителя, проявляющиеся на практике.....	72
3	Личностные, правовые аспекты взаимоотношений преподавателя и учеников.....	76
4- Глава	КУЛЬТУРА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И КОММУНИКАЦИИ.....	82
1	Профессиональная компетенция. Качества профессиональной компетентности.....	82
2	Структурные основы педагогической профессиональной компетентности.....	86
3	Особенности и функции педагогического общения.....	90
4	Командная группа на основе общения учителя методы управления.....	103
5- Глава	ДИДАКТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ.....	125

1	Модернизация содержания процесса подготовки учителей профессионального образования на основе компетентностного подхода.....	125
2	Интеграция педагогических и экономических знаний в формировании профессиональной компетентности учителей профессионального образования.....	133
3	Особенности формирования профессиональной компетентности будущих учителей профессионального образования.....	141
6- Глава	ТЕХНОЛОГИИ И КРИТЕРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ...	148
1	Пути проектирования и планирования образовательных технологий в формировании профессиональной компетентности будущих учителей профессионального образования	148
2	Критерии выбора методов формирования профессиональной компетентности будущего учителя профессионального образования.....	156
3	Направления развития и внедрения инновационных технологий формирования профессиональных компетенций	165
7- Глава	ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ТВОРЧЕСТВО.....	177
1	Сущность понятий «творчество» и «педагогическое творчество».....	177
2	Творческий потенциал педагога. Навыки, которые необходимо продемонстрировать педагогу с творческим потенциалом.....	179
3	Методы развития творческого потенциала учителя....	182
4	Критерии определения уровня творческого потенциала учителя.....	184
8- Глава	КАРЬЕРА. ПОВЫШЕНИЕ ЛИЧНЫХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ.....	189
1	Виды и этапы карьеры. Карьера и деятельность.....	189
2	Улучшение профессионального поведения и отношения человека к карьере.....	191
3	Черты характера, которые могут создать возможности для карьерного роста.....	196
4	Место, роль и значение карьеры в личной деятельности..	203
	ГЛОССАРИЙ.....	209
	СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	218

TABLE OF CONTENTS

	INTRODUCTION.....	3
1-Chapter	GOALS AND OBJECTIVES OF PROFESSIONAL COMPETENCE.....	5
1	Subject, goals and objectives of the subject “Professional competence”. The importance of professional competence in teaching.....	5
2	The role and practical application of professional competencies in the process of education and upbringing....	18
3	Pedagogical and psychological conditions for the formation of professional competence of teachers.....	22
2-Chapter	THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF PEDAGOGICAL COMPETENCE.....	33
1	Scientific approaches to pedagogical competence in developed countries.....	33
2	Aspects of the formation of the teacher’s professional competence.....	47
3	The system of formation of professional competence of teachers.....	52
4	Criteria for teaching excellence and competence.....	59
3-Chapter	MODERN PEDAGOGICAL MODEL.....	65
1	General characteristics of the teacher’s personality. Orientation of the teacher’s personality.....	65
2	Requirements for the personality of a modern teacher. Professionally important qualities of a teacher, manifested in practice.....	72
3	Personal, legal aspects of the relationship between teacher and students.....	76
4-Chapter	CULTURE OF PROFESSIONAL COMPETENCE AND COMMUNICATION.....	82
1	Professional competence. Qualities of professional competence.....	82
2	Structural foundations of pedagogical professional competence.....	86
3	Features and functions of pedagogical communication.....	90
4	Team group based on teacher communication management methods.....	103
5-Chapter	DIDACTIC CHARACTERISTICS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE.....	125

1	Modernization of the content of the vocational education teacher training process based on the competence-based approach.....	125
2	Integration of pedagogical and economic knowledge in the formation of professional competence of teachers of vocational education.....	133
3	Features of the formation of professional competence of future teachers of vocational education.....	141
6-Chapter	TECHNOLOGIES AND CRITERIA FOR FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE.....	148
1	Ways of designing and planning educational technologies in the formation of professional competence of future teachers of vocational education.....	148
2	Criteria for choosing the methods of forming the professional competence of the future teacher of vocational education.....	156
3	Areas of development and implementation of innovative technologies for the formation of professional competencies	165
7-Chapter	PROFESSIONAL COMPETENCE AND PEDAGOGICAL CREATIVITY.....	177
1	The essence of the concepts of “creativity” and “pedagogical creativity”.....	177
2	The creative potential of the teacher. Skills to be demonstrated to a creative educator.....	179
3	Methods for the development of the teacher’s creative potential.....	182
4	Criteria for determining the level of the teacher’s creative potential.....	184
8-Chapter	CAREER. IMPROVING PERSONAL PROFESSIONAL SKILLS.....	189
1	Career types and stages. Career and activity.....	189
2	Improving professional behavior and attitude of a person to a career.....	191
3	Personality traits that can create career opportunities.....	196
4	Place, role and importance of a career in personal activities.....	203
	GLOSSARY.....	209
	LIST OF USED LITERATURE.....	218

OCHILOVA GULNOZ ODILOVNA

KASBIY KOMPETENTLIK

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	S. Abdunabiyeva
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M. Zoyirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

Bosishga ruxsat etildi 09.09.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: 15,0. Nashriyot bosma tabog‘i 14,25.

Tiraji: 50. Buyurtma № 214

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA
UYI» bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**

